Classroom Energizers are not only mental but also physiological activities. This group of activities are build on the Total Physical Response (TPR) teaching strategy, where evidence shows that movement is an important catalyst for learning and that students sitting and listening to something passively at their desk for any extended period of time rarely leads to rich engagement. These are often quick three to five-minute activities that raise the heart rate, get blood and nutrients flowing throughout the body and set the stage for attentive learning. It can be as simple as a short pause in a lesson, asking students to take a quick walk in the hallway with a partner, thinking about a relevant question, or a quick movement activity that leads to laughter and fun. Activities often blend

movement and relationships, such activities as *The Talking Circles* or *Would You Rather*. During our NEGA workshops, nearly every session opens with a few activities; here are a couple of our favorites:

The first activity is “1,2,3 . . . Clap, Jump, Meow”. This is a partner counting game where partners alternate back and forth counting; Partner A says 1, Partner B says 2, Partner A says 3, and then Partner B restarts at 1. The goal is determining how often the partnership can quickly cycle through 1, 2, 3 correctly in 20 seconds. If the partners make a mistake, they must yell “*Yee Haw*” to inform everyone that they have messed up and then quickly start again. For round two, the instructor replaces 1 with a clap so that rather than saying 1 each time, whichever partner is due to say 1 claps instead, then the 2,3 sequence continues. In the next round, replaces 2 with a Jump, and then in the last round, also replace 3 with a loud “Meow” so that the only sound in the room is clapping, feet jumping, and Meows – along with a ton of *Yee Haws* for mistakes and laughter. Energy (and some more comfort with making a public mistake) is guaranteed.

The second activity is “*Name Toss Game*”. The instructor should have the group stand in a circle and have everyone introduce themselves by their first name. Call out someone’s name and toss them one of many balls or similar tossing objects you have ready (*pom poms, kush balls*, or even stuffed animals will work well). Have them say “*thank you*” with your name, and then explain the object is for that object to be passed to another person (also addressed by name) until everyone has held it, and then it is passed back to you, where you deposit it in a waiting container. Practice one more time to learn the sequence, and then explain the goal of seeing how many objects the group can successfully pass in 30 seconds, continuing to address and thank everyone by name. If an object is dropped, ignore it and wait for another to come your way. A few tries can be let and each time makes applaud the group as they become more of a team. A great way for everyone to hear everyone’s name multiple times in a very quick activity that also builds energy.

The next group of activities are aimed at reading and called as **STEM Picture Book Read-Alouds**. The current research has shown that reading aloud to students is a wonderful classroom strategy for helping build listening skills and serving as a starting point for rich conversations. Throughout the read-aloud, there are many strategies that a teacher can utilize to build skills, such as asking them to summarize what has happened, predict what is going to happen next, offer an alternative narrative to the plot, or connect the plot to something in our lives. Reading aloud enables the learners to use and practice pronunciation, intonation, tone, pitch, rhythm, and other mechanisms in reading. It also provides opportunities for the teachers to correct mistakes and model reading strategies on the spot. Besides, at a progressive stage, this enhances confidence in language acquisition and practice among learners. Last but not least, this provides a firm platform for the learners to dwell on other language skills in which they would be more confident in speaking and writing. Reading aloud is a **MUST** in teaching and learning a language, but many teachers ignore this importance.

In Project NEGA, we have been very selective of the texts we use, selecting picture books that build on the themes of STEM, such as non-fiction, a wonderful book about the history of measurement “*How Far, How Tall . . .*” or the story of a young girl trying to convince her parents what would be “*The Perfect Pet*.” “*Next Time You See a Sunset*” is one of a series of nonfiction books that explores the science of everyday things, looking at why the sky changes color as it sets, explaining both the physics of light and the earth's rotation. Nearly every book has a *youtube* video showing the pages while it is read out loud by a native speaker so they can both be read aloud by the teacher in the classroom, but also letting students listen to that natural intonation and accent. After watching a particular video session, the learners could be given tasks to:

- a. To talk about what they saw (speaking skills)
- b. To write about what you have seen (writing skills)
- c. Watch and listen, then list information they heard (listening skills)
- d. Peer reading and verbal responding (reading and speaking skills)

It should be noted that this session could be conducted to teach language skills in isolation or integration.

The next group of activities is **Content Conversations**. Reading and discussing the books is incredibly engaging and powerful for building multiple literacy skills. However, the learners’ real power for learning is when they are paired with activities that reinforce STEM concepts. The US National Science Teachers Association (NSTA) has been a leader in developing this pedagogy, with authors Emily Morgan and Karen Ansberry publishing a series of “*Picture Perfect Science*” books that provide hands-on STEM learning activities targeted to build and expand the ideas on (pictureperfectscience.com). A past president of the NSTA, Paige Keeley, has also published a series

of short activities in the Uncovering Student Ideas in Science series (uncoveringstudentideas.org) that create opportunities for critical thinking around STEM concepts often misunderstood by students. In NEGA, we present both of these types of activities under the heading of Content Conversations, as we use them to get students talking about STEM ideas during their English classes. We find that students are naturally curious about the world around them and that these are excellent for building that active engagement that is authentic language practice. There are some examples of activities that our NEGA teachers have found particularly useful in their classrooms.

Expanding on *“If I Built a Car”* by Chris Van Dusen, the story of a boy who is bored with his family car and imagines a truly fantastic car that can do everything he can dream up. The book has great vocabulary and is wonderfully illustrated, setting the stage for students to imagine their dream car. Depending on the availability of supplies, the students might draw and label their cars or create models with *lego, pipe cleaners, or cardboard*. True language learning comes from sharing, where students have multiple opportunities to explain their ideas to each other and ask questions. If technology is available, creating a video is another great activity.

The next activity is *“Somewhere in the World Right Now”* based on introducing the concept of time zones and builds an understanding of how every time period of every day (such as breakfast time, bedtime, sunrise, etc.) that occur somewhere on the globe right now and what that means for telling time. The book circles the globe with beautiful illustrations representing cities on every continent. The current activity is to give students a collection of yarn segments and ask them to make their best model of planet earth. This leads to a wonderful conversation focused on world geography and shape and scale as students struggle to bring their world “mental” map out onto the tabletop. This can be expanded in many ways, talking about time zones, drawing out student stories of their adventures or current events, etc. We also explore some sun/earth/moon system misconceptions by presenting compelling questions. For instance, if there is a crescent moon in the Tashkent sky tonight, what moon would someone in Chile or Russia see? (*The answer if you are wondering - is it's a crescent moon everywhere it is visible but changes orientation from place to place*). Or what happens to my shadow throughout the day as time passes, and is the pattern the same all over the Earth? (*Answer is you are wondering - is it will shorten as noon approaches and then get longer again in the afternoon; that pattern is consistent except at the poles*). Our goals for these activities are broad: increased STEM understanding, critical thinking, discussion skills, vocabulary building, etc.

Beyond these four elements, Project NEGA also includes an introduction to algorithmic thinking for English teachers by briefly introducing coding and basic robotics. We see a strong connection between traditional literacy skills and those necessary for coding. Rather than communicating between people, coding is simply learning to communicate with a machine. There are also significant parallels regarding the importance of syntax, word order, and logic required for fluency in spoken language and coding. Most text-based coding is also based on English so there is a natural connection to the English classroom.

Teachers were introduced to the Edison robot (meetedison.com) and the scratch coding platform (edscratchapp.com), both created by the Microbric company from Australia. They learned the basics of controlling simple robot motions, such as driving forward, backward, and turning – a basic foundation for robotic problem-solving. Students are generally fascinated by computers, robots, and other sophisticated gadgets, so these robots have provided a way for teachers to model themselves as new learners and build their students' engagement in some basic lessons on algorithmic thinking.

The Project NEGA is hoped to be a seed from which many more will grow, developing English Language proficiency among learners and teachers. Any English language learner who is interested in learning more about the work can explore the stem4learning.com website. The activity includes many more examples of these targeted strategies as well as videos from the Zoom sessions and a series of videos that explore the basic ideas of *“What is STEM?”* sharing the perspective basing on STEM4Learning Consulting work. As an acknowledgement we want to point out the followings. Involving foreign specialists into education system in Uzbekistan will provide further development STEM in Uzbekistan. We think it has been a fun and productive project for everyone involved, and thank you for taking the time to learn a little about it by reading our article.

REFERENCES:

1. Celce – Marcia M., Brinton M.D., Snow M.A. Teaching English as a Second or Foreign Language, Fourth edition. – National geographic learning; HEINLE Cengage learning, 2004. – P.33.
2. Douglas R. Klentschy M.P. Worth K. Binder W. Linking science and literacy in the K-8 Classroom, Arlington V.A: National Science Teachers Association, 2006. – Pp.97-113.
3. Snow M.A. Content based Immersion Models of Second/Foreign Language Teaching, Teaching English as a second or Foreign Language. Fourth Edition. – National Geographic Learning. HEINLE Cengage learning, 2014. – P.443.

4. Wesche M., Skehan P. Communicative, task-based, and content-based language instruction. In R.B. Kaplan (Ed.), *The Oxford handbook of applied linguistics*. – New York, N.Y: Oxford University Press, 2002. – P.207-228.
5. www.nationalgeographic.com.
6. www.stem4learning.com
7. <https://www.stem4learning.com/classroom-energizers>
8. <https://www.stem4learning.com/relationship-builders>
9. <https://www.stem4learning.com/stem-picture-book-lessons>
10. <https://www.stem4learning.com/what-is-stem-video-lessons>

UO'K 821.512.133

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA “SO`Z GAVHARI VASFI”

Z.Q.Amonova, dots., f.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Z.Sh.Nafetdinova, oliy toifali o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” si tarkibidagi uchinchi doston “Layli va Majnun” tarkibidagi “So`z ta`rifi” bobi g`oyaviy-badiiy tahlilga tortiladi. Tahlil davomida izoh talab so`zlariga, badiiy san`atlariga alohida e`tibor qaratilib, shoir mahoratiga baho berildi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, Nizomiy Gnjaviy, Xisrav Dehlaviy, “Xamsa”, “Panj ganj”, so`z ta`rifi, an`anaviy bob, badiiy mahorat

Аннотация. В статье идейно-художественному анализу подвергается глава «Определение слова» в третьем эпосе «Лейли и Меджнун» Алишера Навои «Хамса». При анализе особое внимание уделялось слову и художественному искусству, оценивалось мастерство поэта.

Ключевые слова: Алишер Навои, Низами Гявви, Хисрав Дехлеви, «Хамса», «Пандж гандж», определение слова, традиционная глава, художественные навыки.

Abstract. In the article, the chapter "Definition of the Word" in the third epic "Layli and Majnun" of Alisher Navoi's "Khamsa" is subjected to an ideological and artistic analysis. During the analysis, special attention is paid to the words and artistic arts, and the poet's skills are evaluated.

Key words: Alisher Navoi, Nizami Gnjavi, Khisrav Dehlavi, "Khamsa", "Panj ganj", word definition, traditional chapter, artistic skills

Kirish: Soz – eng ulug` qudratki, butun olamlarning ubtidoyu intihosi unga bog`liq. So`z olamlardan, borliq va odamlardan ilgari mavjud bo`lib, Alloh taoloning “Kun” (Bo`l) ilohiy amri ila butun dunyo yaraldi. Sharq musulmon olamida so`zga borliq va odamning ibtidosi sifatida qaraladi. Shu bois ulug` mutafakkirlar, buyuk so`fiylar so`zning muqaddasligi va ulug`ligi haqida o`z asarlarida alohida to`xtalib o`tishgan. Masalan, Jaloliddin Rumiy “ So`z – Haqning soyasi... Har narsaning asli –so`z... So`z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug`iladi. Ulug` Tangri olamni so`z bilan yaratdi va “bo`l!” deyishi bilan bo`ldi... So`z insonning qiymati qadar qadrlidir” [1], deya so`zning nafaqat muqaddas kitob, balki inson sharifligining boisi, amaliy hayot mevasi ekanligini ta`riflagan. Tasavvufda so`zning qudrati keng ifoda etilar ekan, ayni chog`da mumtoz adabiyotda ham uning ta`rifiga maxsus bob bitish an`ana tusini oldi. Mumtoz adabiyot an`analarini davom ettirib, uni o`ziga xos novatorlik bilan boyitgan ulug` iste`dod egasi Alisher Navoiydir. Shoir o`zining buyuk “Xamsa” asarida ham mazkur an`anani davom ettirdi. “Xamsa”ning ibtido dostoni bo`lgan “Hayratul abror”da “So`z ta`rifida” deb nomlangan alohida bob yaratdi. Navoiy so`z ta`rifiga to`xtalar ekan, beqiyos tashbehlardan foydalandi. Hatto bu bilan bog`liq fikrlarini “Layli va Majnun” dostonida ham davom ettirdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dostonning V bobi “So`z gavhari vasfi” ga bag`ishlangan bo`lib, unda dastlab nasriy sarlavha keltirilgan: “So`z gavhari vasfidakim, gavhar so`zi aning qoshida gavhar olida bir qatra suvdek bo`la olg`ay, bir necha so`z surmoq va Ganja hakimi ta`rifidakim, ganji Qorunaning «Panj ganji» qoshida ganj olida vayronadek ko`rungay — ganjfishonliq qilmoq va Hind sohirinikim, Kashmir jodulari aning olida ip esha olmaslar — aning gavhari silkiga tortmoq va o`z nazmining churuk rishtasin va uzuk torin ham alarg`a ulamoq” [2].

Joriy tildagi tabdili: “Oldida gavhar bir qatra suvdek tuyuladigan so`z gavhari vasfida bir necha so`z demoq. «Besh xazina»si oldida Qorun xazinasi vayronadek ko`rinadigan Ganja hakimi ta`rifida ganj sochmoq: Kashmir jodulari uning oldida ip esholmaydigan Hind sehergarini uning gavhari shodasiga tizmoq va o`z nazmning churuk ipini va uzuq torini ham ularga ulamoq» [3].

Ulug` shoir mazkur nasriy sarlavhada so`zga shunday yuksak ta`rif beradiki, gavhar uning (so`zning) oldida bir qatra suvdek tuyuladi, deydi. Bu ta`rif shunchaki mubolag`aviy ta`rif bo`lmay o`z asosiga ega. Chunki qimmatbaho sanalgan gavharning o`zi ham so`zdan so`ng, uning qudratidan yaralgan. Shu bois shoir nazdida so`zning oldida gavhar bir qatra suvdek. Navoiy so`zning ulug`

qudrati Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviylarni ham bee'tibor qoldirmaganligini, ularning ijod qalamidan dur, gavharlar-so'zlar to'kilganligini madh etadi. Ulug' Nizomiyning "Panj ganj" ("Besh xazina") i oldida Qorunning xazinasini varona sanaladi, deya Navoiy Ozarbayjon shoirining "Xamsa" siga yuqori baho beradi.

Ma'lumki, Qorun behisob boylikka ega bo'lgan diniy afsonaviy shaxs bo'lib, mumtoz adabiyotda xasislik timsolidir. Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Qorunni Muso payg'ambar qarindoshlaridan ekani, ilmu fazilatda o'tkir, ayniqsa, kimyo fanida mohir, qobiliyatli kishi bo'lganini yozadi. Keyincha, u ko'p oltin to'plab, katta boylikka ega bo'ladi. Xazinasini bilan birga uning xasisligi, imonsizligi osha boradi. U xudoni ham tan olmay qo'yadi. Musoning uni dinga, e'tiqodga chaqirishiga ham parvo qilmaydi. Natijada Musoning duobadiga uchraydi, tamomi xazinasini, boyligi bilan uni yer yutadi [4]. Behisob boylik egasi bo'lgan Qorunning mulki, Nizomiy "Panj ganj" i oldida qadrsiz va varonadir. Navoiy ikkinchi ulug' xamsanavis Xisrav Dehlaviy madhiga o'tar ekan, uning so'z qo'llash mahorati oldida Kashmir jodugarlari ip esholmay qolajagina iftixor ila ta'riflaydi. Ya'ni har ikkala xamsanavisning so'z qo'llash mahoratiga obrazli ifodalar yordamida baho beradi. Alisher Navoiy "Xamsa" tarkibidagi har bir dostonning an'anaviy kirish boblarida o'z salafllari bo'lgan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy nomlarini hurmat va samimiyat bilan tilga oladi. Mazkur bobda ham hazrat Navoiy o'zidan avvalgi salafllarining so'zdan qanday foydalanganlarini, so'zning qimmatini, uning hech qanday durru javohirlar bilan tenglashtirib bo'lmasligini, so'z bir dengiz bo'lib uning tubida cheksiz ma'nolar olami yashirinib yotganini ta'kidlaydi. Bobning birinchi bayti shunday boshlanadi:

Uldamki yo'q edi budu nobud,
Ma'dum edi emdi harne mavjud,

Bu baytda Navoiy olamning yaratilishi bilan bog'liq fikrlarga ishora qilib, uldamda mavjud bo'lgan barcha narsalar ma'dum (mavjud bo'lmagan) edi. Hech bir mavjudlik yo'q edi, barchasi yo'qlik olamida edi, deydi. Navoiy ayni mulohazalarini keying baytda davom ettiradi:

Haq qavng'a solmamish edi pay,
"Konallohu lamyakun maah shay".

"Konallohu lamyakun maah shay" – Alloh taolo bilan birga hech kim yo'q, ya'ni u yolg'iz, mavjud bo'lganda kavn (borliq, dunyo)ga pay (qadam qo'ymoq, boshlamoq) soldi. Shunda uning (haqning) avvalgi ofarinish (yaratilish) nasimi (shamoli) mavjudlik sari junbish (harakatga kelish) qildi:

Avvalg'i nasimi ofarinish,
Kim qildi vujud sori junbish.

Ammo shu junbishni yuzaga kelishi uchun e'tibor berilsa, ko'z solib qarasa, so'z kerak edi. Lekin shu so'z mavjud emas edi:

Insaf ila har kishi solur ko'z,
Anglar so'z ediyu munda yo'q so'z,

Bu olamda Allohdan boshqasi yo'q edi. Insaf bilan nazar tashlagan har bir kishi bu so'zni anglar ediyu, lekin nutqning o'zi yo'q edi. Shunda "Kun", ya'ni yaral amri "huvaydo" (ayon, zohir) bo'lgan chog'da "fayakun" (yaralish) "g'ulusi" (to'polon, shovqini) ham paydo bo'ldi:

Kim bo'ldi chu amri "kun" huvaydo,
Bo'ldi fayakun g'ulusi paydo.

Demak, eng avvalgi, birinchi sado (tovush) so'z bo'ldi, har savt (tovush, ovoz) ning ibtidosi (boshlanishi) ham so'z bo'ldi:

Bas avvalg'i sado so'z o'lg'ay,
Har savtqa ibtido so'z o'lg'ay

Har bir mavjudlikning, go'zallikning ibtidosi so'z ekan, shoir uning ta'rifu, tashbehiga alohida yondashadi:

Ey so'z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahru mavjrarsen.

Navoiy nido san'ati imkoniyatlaridan unumli foydalanib, fikrni so'zga murojaat bilan boshlaydi. Ey so'z, bunchalik ajoyib gavharsen?! Birinchi misrada so'zni gavharga tashbeh etadi. Ikkinchi misrada esa ruju' san'atidan foydalanib, gavhar nimasi, mavj urgan dengizsan deya yuzlanadi.

Ul bahrki, muncha naqshi dilkash,
Bir mavj ila ayladi munaqqash.

U bahr (dengiz) buncha dilkash naqshlarga egaki, bir mavj (to'liqini) bilan munaqqash (naqshlangan, bezatilgan) ayladi. Aytish lozimki, yer qa'ridan tortib, falak yuksakligigacha bo'lgan ashyolarning jami uning avvalgi mavjidir:

Yer qa'riyu toki charx avji,
Majmui aning burunqi mavji.

Shoir fikrlarini dalillab, seni dur deydilar, ya'ni durga tashbeh etadilar, ammo bu asosli emas. Chunki dur- quruq suvning o'zidir, sen esa ruh javharisan, deydi:

Derlar seni dur, savob emas bu,
Sen javhari ruhu dur quruq suv.

Demak, seni durga o'xshatish, xuddi durni shudringga o'xshatish kabidir:

Demakki sanga shabih erur dur,
Ul nav'dururki, durg'a mo'ldur,

Shoir so'z ta'rifini davom ettirar ekan takrir san'atidan o'rinli foydalanib, fikr ta'sirchanligiga erishadi:

Aytib sovumas tarona sen-sen,
Olib qurumas xizona sen-sen.

Ya'ni so'zni aytib sovumaydigan "tarona" (qo'shiq) sensan, sarflayversa ham, tugamas "xizona" (xazina) sensan deya ta'kidlaydi. Shoir keying baytda tamsil (hayotiy dalillash) dan mahorat bilan foydalangan:

Olam eli zarra yig'sa jovid,
Nurini kam aylagaymu xurshid.

Olam xalqi quyosh zarralarini "jovid" (doim, mudom) yig'ib yurgani bilan "xurshid" (quyosh) ning nuri kamayib qolarmidi?! Ayni dalillarga hamohang tamsillar navbatdagi baytda qo'llanilgan:

Igna uchi birla jazb etib nam,
Kim bahr suyini aylagay kam

Igna uchi bilan "jazb" (suvni shimimoq) etish, ya'ni bir tomchidan suv olavergan bilan "bahr" (dengiz) suvini kamaytirib bo'lmaydi.

Shoir yana so'zga yuzlanib, sen qadru muruvvatda "bahr" (dengiz) va "aflok" (falak) larday benihoya, lutfu bahoda esa pok-sof gavharsen, deya ta'rif beradi:

Ham qadru atoda bahri aflok,
Ham lutfu bahoda gavhari pok.

Shoir so'zni ta'riflashda mumtoz adabiyotimizdagi go'zal o'xshatishlardan foydalanadi:

Xoma bila ulki sepi sizdi,
Gavharni qaro ipakka tizdi.

Ya'ni "Xoma" (qamish qalam) bilan seni chizgan ul zot (Alloh taolo) go'yoki gavharni qora ipakka tizdi. Navoiy so'zni zikr etish bilan bog'liq fikrlarni keyingi baytda keltirib o'tgan:

Til zikring ila chu topti tarjih,
Tishlar anga bo'ldi inju tasbih.

So'zni zikr etish orqali til tarjih (bir narsani ikkinchi narsadan ortiq ko'rish) maqomiga yetgan bo'lsa, tish esa unga inju (marvarid) dan qilingan tasbih bo'ldi. Ya'ni til sening zikring bilan yuksaklik egasi bo'ldi. Navbatdagi baytda shoir Nizomiy Ganjaviy ta'rifini keltiradi:

Bu til bila kimsa topmadi kom,
Juz ganj fishoni Ganja orom.

Navoiy Nizomiyning so'z qo'llashdagi yuksak mahoratiga baho berarkan, Ganjada maskan tutgan "ganj fishon" (zar sochuvchi) kishidan (ya'ni Nizomiy Ganjaviydan) o'zga hech bir kishi bu til bilan maqsadiga erisholmadi. Navbatdagi baytda ham Nizomiy ta'rifini davom ettirilgan:

Ayvoni sharaf nuhufta ganji,
Mizoni lut(u)f xizona sanji.

Navoiy Nizomiyning "nuhufta" (yashirin, berkitilgan) "ganji" (xazinasi) sharaf ayvonidir, "xizona sanji" (xazinachisi) esa lutf mezon (o'lchov, tarozi) dir deydi. Shoir istiora orqali Nizomiy asarlariga ishora etadi. Navoiy navbatdagi baytda ham Nizomiy ta'rifini davom ettiradi:

Ma'ni diramig'a sikkapardoz,
Uzlat xaramida mahrami roz.

Navoiy Nizomiy "ma'ni" (ma'no) "dirami" (tangalari) ga "sikkapardoz" (zarb etuvchisi, aqcha so'quvchi) deb ta'riflaydi. Ushbu go'zal ta'rif ifodasida istioradan o'rinli foydalangan. Shuningdek, uni uzlat xaramidagi sir saqlovchi do'st sifatida ham e'tirof etadi. Navoiy ulug' salafining ta'rifida bir necha bayt ajratib, Nizomiy haqida yana quyidagilarga urg'u beradi:

Sarrishtayi diqqati girihnok,

Har bir girhida yuz duri pok.
 Ganjinayi fikri gavhar oyin,
 Andin bori xalq o`lub gavharchin.
 Ko`ngli sadafi bo`lub guharrez
 Kilki qamishi dog`i shakarrez.

Yuqoridagi misralar ham o`zining mazmundorligi bilan ajralib turadi. Navoiy xamsanavis ustoz Nizomiy ta`rifini davom ettirar ekan, uni “sarrishtayi diqqati” so`zining, ishining diqqati “girihiok” (sertugun), ammo har bir “girhida” (tugunida) esa “yuz duri pok” (yuzlab sof dur) borligini iftixor bilan ta`kidlaydi. Qolaversa, Nizomiyning fikri “gavhar oyin” (gavharga kon) bo`lib, barcha xalqlar undan “gavharchin” gavhar teradi. Ulug` Nizomiyning ko`ngil sadafi gavhar sochuvchi bo`lishi bilan birgalikda, qamish “kilki”(qalami) shakar to`kuvchidir, deya Navoiy istiora va mubolag`a san`ati orqali o`z mulohazalarini kitobxonga chiroyli va asosli yetkaza olgan. Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy ta`rifini keyingi baytlarda ham davom ettiradi:

Vahdat guharin eliga olg`on,
 Uzlat kamarin beliga cholg`on.
 Ma`ni haramin musaxxar etgan,
 So`z bikrini g`arqi zavar etgan.
 Ham Turi fazilat uzra Muso,
 Ham Qofi qanoat uzra Anqo.

Shoir nazdida salaf-ustoz “vahdat” (tanholik) “guharin” (gavharlarini) “eliga” (qo`liga) olgan, shuningdek, uzlat kamarini ham beliga bog`lagan ulug`lardan edi. Mazkur baytda Navoiy tarse` (baytning birinchi misraidagi hamma so`zlarga ikkinchi misraidagi barcha so`zlar qofiyalangan) dan foydalangan. Bu xildagi baytni boshdan oxirigacha qofiyali qilib bera olish juda qiyin san`at bo`lib, bu shoir mahoratidan darak beradi. Navoiy Nizomiy ta`rifida istioradan eng unumli foydalanganligiga guvoh bo`lish mumkin. Masalan, “Ma`ni harami” (ma`noning xos xonasini) “musaxxar” (egallagan) ham, “So`z bikrini” (so`z qizini) turli taqinchoqlarga g`arq etgan ham u ulug` Nizomiydir, deydi. Darhaqiqat, Nizomiy Ganjaviyning qalamidan to`kilgan “durlar” butun Sharq xalqlarini maftun etdi va ko`pgina shoirlar unga ergashib, uning dostonlariga javobiyalar yozdi. U fazilat bobida ham ayricha o`rin egallaydi, ya`ni fazilatning Tur tog`idagi Musosi va qanoatning qof tog`idagi Anqosidir hamdir.

Ma`lumki, Tur bu- Arabistondagi tog` bo`lib, diniy manbalarga ko`ra, Tur tog`ida Muso payg`ambar Xudoning jamolini ko`rishga chiqadi. Ayni mazmundagi mulihazalar Qur`oni Karimning “Toha” surasida ham batafsil o`z ifodasini topgan. Qof esa butun yer yuzini o`rab olgan deb xayol qilinadigan afsonaviy tog`ning nomidir. Anqo afsonaviy qushning ismi, u qushlarning podshohi bo`lib, uning oshiyoni ham shu tog`da ekan. Shoir Nizomiy so`z va uning qudratini ta`kidlashda ushbu afsonaviy nomlardan o`rinli foydalangan va talmeh san`atining go`zal namunasini yaratgan. Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyga nisbatan ishlatgan ta`riflar va so`zlarni navbatdagi baytlarda asoslab berishga harakat qiladi:

Muso emas ersa kilki nog`u
 Javfi aro muzmar etti jodu.
 Anqo gar emas nedin hamisha,
 So`z Qofida uzlat etti pesha.
 Nazm ahlining afsahul- kalomi,
 So`z durrig`a muntazim Nizomiy.

Agar Nizomiy Muso bo`lmasa, “nog`u” (nega) uning “kilki” (qalami) bag`riga jodu “muzmar” yashirilgan? Agar u Anqo bo`lmasa, nega so`z Qofida uzlatga chekinishni o`ziga odat qilib olgan. U nazm ahlining “afsahul- kalomi” (eng go`zal, fasih so`z egasi), so`z durini “muntazim” (nazm qiluvchi, tizuvchi) qiluvchi Nizomiydir, deya uning salohiyatiga yuksak baho beradi.

Alisher Navoiy so`z gavhari vasfidan so`z ochar ekan, albatta, xamsanavislar madhi va ularning so`z qo`llash mahorati uni maftun etganligini, o`zi ham ularga payravlik niyatida ekanligini bayt mazmuniga singdiradi:

Ul ganjada ganjdek nihoni,
 Besh ganj qo`yub, vale nishoni.
 Har ganjida sayrafiyi idrok,
 Hadsiz topibon javohiri pok.
 Har javhari mulklar xiroji,
 Shahlarning zebu farri toji.
 Ma`ni duridin bu ganj qismi,

Alfozu iborati tilsimi.
Ulkin qo'li ochsa ohanin diz,
Lekin bu tilsim ocharg'a ojiz.

Xalq og'zaki ijodi namunalaridan ma'lumki, "ganj" (xazina) yashirin bo'ladi. Navoiy shunga va Nizomiyning Ganja shahridan bo'lganligiga ishora qilib, Ganjada ganjdek (xazinadek) yashiringan edi, ammo uning "Besh ganj"i ("Panj ganj" xamsasi) o'zidan nishon, belgi berdi, deydi. Ayni mulohazalar takrir va ishtiyoq bilan sayqallanib o'z ifodasini topdi. Ulug' Nizomiyning so'z xazinasidan idrok "sayrafi" (sarrofi) ko'plab sof javohirlarni topadi. Uning har bir so'z javhari mulklar xirojiga teng bo'lib, shohlar tojiga zeb-ziyat bo'la oladigan "farri toj"dir. Nizomiy so'z ganjining ta'rifini Navoiy davom ettirar ekan, uning xazina qismlari ma'no durlaridan, so'z va iboralari shu ganj tilsimidandir, deydi. Ammo shoirning ma'no xazinasini hamma ham ochish qudratiga ega emas. Zero, "ohanin" (temir) qo'rg'onlarni ochadigan kishi ham bu tilsimni ochishga ojizlik qiladi. Chunki undagi ramzu majoz haqiqatini anglamoq uchun ko'plab ilm olamiga oshno bo'lish lozim, degan xulosani yuqoridagi baytlardan anglash mumkin. Hazrat Navoiy shundan so'ng, ikkinchi xamsanavis Xusrav Dehlaviy ta'rifiga qalam suradi:

Ko'rgach bu tilsim sohiri Hind,
Jodulig` ishida mohiri Hind.
Kilki uchi safhag`a fusunrez,
Ul safha jahong`a fitnaangez.
Har sahfai nazmi gohi tahrir,
Fitna aro bir savodi Kashmir,
Har nukta bu sahfada baloe,
Ruxsor uza xoli dilraboe.

Nizomiy Ganjaviy haqidagi fikrlarni yakunlab, Xusrav Dehlaviyning so'z latofatidan foydalanish darajasi va asarlarining tarovati haqida bayon etadi. Ya'ni Hindistonning jodu ishida mohiri, hind sehgari Xusrav Dehlaviy Nizomiy tilsimni ko'rib, o'z qalami bilan sahifaga "fusunrez" (afsona yozuvchi) bo'ldi va bu sahifa olamga "fitnaangez" (g'avg'o soluvchi) bo'ldi, deya Dehlaviyning Nizomiy "Xamsa"sig'a javob yozganligini o'ziga xos tarzda obrazli ifodalaydi. Navoiy uning tahrir etgan har bir she'riy sahifasi fitnagarlikda Kashmirning bir o'lkasi kabidir, deydi. Chunki Kashmir Osiyoda, Himalay va Tibetning o'rtasida joylashgan tarixiy diyori bo'lib, sehrgarligi bilan nom qozongan. Shu bois Navoiy sahifadagi har bir nuqta bir balo bo'lishi bilan birga, dilraboning yuzdagi dilkash xol kabidir, deya betakror sifatlashlar bilan fikrini asoslaydi. Shoir Dehlaviy asarlari va uning ta'sir doirasi haqidagi fikrlarni keyingi baytlarda ham davom ettiradi:

Ham xatlari shohrohi Bobul
Ham kilkada javf chohi Bobul.
Ham sohiri xomasi fusunsoz,
Ham jovudi tab'i sihrpardoz.
Aylab bu tilismona ojiz,
Sohir netgay chu ko'rdi mu'jiz.
Qochmay vale o'ylakim zabune
Ul ham qilib o'truda fusune.

Shoir Dehlaviy asarlarini va unda qo'llanilgan so'zlarni Bobil mamlakatining katta yo'liday, "kilki" (qamish qalami) ning "javf"i (ichi) esa Bobil chohi kabidir, deydi. Dehlaviyning sehrlil "xoma"si (qalami) "fusunsoz" (hiylagar), ham "jovid" (abadiy, mangu) "tab'i" (iste'dodi) "sihrpardoz" (joduli, sehrgar)dir. "Sohir" (sehrgar) bu "mu'jiz" (mo'jiza)ni ko'rgach, nima qilishini bilmay qoldi. Chunki bu tilsim uni ojiz qilib qo'ydi. Ammo "zabun" (yengilganlar) qochishni o'zlariga ep ko'rmay, o'sha tilsim qarshisida o'z tilsimini tiklashni maqbul ko'rdi, deya shoirning ijodkorlik mahoratini ulug'laydi. Shundan so'ng, Xusrav Dehlaviy "Xamsa"si ta'rifida so'z yuritadi:

Besh qal'aki barcha erdi xoro,
Besh maxfi ganji oshkoro.
O'trularida tugatdi besh qasr,
Kim har biri keldi ziynati asr.
Ham toshida naqshi dilkash etti,
Ham ichlarini munaqqash etti.

Navoiy Dehlaviyning "Xamsa"si tarkibidagi dostonning har birini bir qal'aga mengzaydi. Va besh maxfiy xazinani o'z bag'riga olgan "xoro" (tosh) dan yaratilgan qal'a ro'parasida besh qasr tikladi, deb uning "Xamsa" dostonlariga ishora qiladi. Bu qasrlarning har biri o'z asrining ziynati bo'lishi bilan birga, tashqarisida dilkash naqshlar bilan bezalgan, ichlari ham "munaqqash"

(naqshlangan, bezatilgan) edi, deya Dehlaviy “Xamsa”sining zohiriy va botiniy go’zalligiga urg’u beradi.

Alisher Navoiy bobning yakunida o’z dostoni haqida ayrim mulohazalarni ham qayd etadi:

Bu nav’ edi doimo xayolim,
To bo’ldi qazodin ul majolim.
Kim, ikki burung’ig’a qo’yub kom,
Kom o’ldi manga ravo saranjom.
Emdiki uchinchi nomai dard,
Qildi meni aqlu hushdin fard.
Ummedki bu yana iki ham
Kim, ermas iki burung’idin kam.

Ya’ni so’z haqidagi fikrlarini xulosalar ekan, o’z asarining ta’sirchanligi, badiiyligi haqida shunday deydi: Ikki avvalgi dostonni yozishga kirishganimda ularni nihoyasiga yetkazishga bel bog’lagan edim va doimo xayolim shu bilan band bo’ldi. Endi esa uchinchi dard dostoni meni aqlu hushimdan judo qildi. Umidim borki, bu va yana yozilajak ikki doston ham avvalgilaridan qolishmaydi. Navoiy o’z “Xamsa”sini salaflarining dostonlari darajasida bo’lishiga umid qiladi:

Ya’ni ham oningki “Panj ganji”,
Ham so’ngra munungki ganji panji.
Aytilg’on ikisi betaammul,
Ul nav’ki ayladim tahayyul.
Bo’lg’ay bu murodga kushodim,
Yetgay bu kushodan murodim.(22)

Xulosa va takliflar. Ulug’ shoir so’z vasfi asosiga yaratilajak asari ham Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusravning “Besh xazina” lariga tenglashishiga umid bilan qaraydi. Maqsadining amalga oshishida xamsanavis pirlardan madad tilaydi. Pirlarim holimga lutf qilgan ekanlar, bu maqsadim amalga oshmay qolmas deya o’z fikrlarini xulosalaydi.

Alisher Navoiyning ilohiy ishq ta’rifiga bag’ishlangan “Layli va Majnun” dostonining an’anaviy bobida ham so’z haqida maxsus bob keltiradi. Dostonda shoir so’zni ta’riflashda turli badiiy tasviriy vositalardan o’rinli foydalanib, so’z ta’sirchanligiga erishadi. So’z qudrati va latofatiga baho berish bilan birga, ulug’ xamsanavislar ruhidan madad tilaydi. Bu bilan ulkan ishning xayrli yakuniga erishishni maqsad qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Жалололидин Румий. Фихи ма фихи . / Ислом тасаввуфи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2005. – Б. 186-191.
2. A.Navoiy. Layli va Majnun. XX tomlik MAT. IX tom. T.: Fan 1992y. 26-b.
3. A.Navoiy. Layli va Majnun. XX tomlik MAT. IX tom. T.: Fan 1992y. 338-b.
4. Навоий, Асарлар, XV жилд, Т., 1968, 215-6.

UO’K 808.3

QISHLOQ XO’JALIGI TERMINLARINING AXBOROT-QIDIRUV TEZAVURUSI

M.J.Ashirmatova, o’qituvchi, Toshkent Davlat Agrar Universiteti, Toshkent

Annotasiya. *Maqolda qishloq xo’jaligi axborot-qidiruv tezaurusini yangilash nuqtai nazaridan agrosanoat majmuasidagi ilmiy tadqiqotlarni axborot bilan ta’minlashni takomillashtirish bo’yicha qishloq xo’jaligi ilmiy terminlari ustida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. Qishloq xo’jaligi axborot massivlarini shakllantirish, tizimlashtirish va ularda tematik qidirish uchun asosiy lingvistik vosita, shuningdek, normallashtirilgan ilmiy lug’atning tarmoq terminologik ma’lumotnomasidir.*

Kalit so’zlar: *ma’lumot qidirish, ilmiy lug’at, tezaurus, terminologik lug’atlar, qishloq xo’jaligi*

Аннотация. *В статье представлены результаты научных исследований по аграрным научным терминам для улучшения информационного обеспечения научных исследований в агропромышленном комплексе с точки зрения актуализации аграрного информационно-поискового тезауруса. Является основным лингвистическим средством формирования, систематизации и тематического поиска массивов сельскохозяйственной информации, а также сетевым терминологическим справочником нормализованного научного словаря.*

Ключевые слова: *поиск информации, научный словарь, тезаурус, терминологические словари, сельское хозяйство.*

Abstract. *The article presents the results of scientific research on agricultural scientific terms to improve the provision of information for scientific research in the agro-industrial complex from the point of view of updating the agricultural information-search thesaurus. It is the main linguistic*

tool for the formation, systematization and thematic search of agricultural information arrays, as well as the network terminological reference of the normalized scientific dictionary.

Key words: *information search, scientific dictionary, thesaurus, terminological dictionaries, agriculture*

Ko'p yillik faoliyati davomida ilmiy kutubxonasi agrosanoat majmuasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni axborot bilan ta'minlash tizimini, jumladan kutubxonaning axborot-qidiruv tizimida taqdim etilgan an'anaviy va elektron axborot resurslarini yaratdi. Lingvistik vositalar axborot tizimining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki ular axborot massivlarini shakllantiradi, tuzadi, ularni ko'plab yuzsiz hujjatlardan izchil tizimga aylantiradi, bunda har bir hujjat bibliografik yozuv va o'z o'rniga ega. Buning yordamida so'rov bo'yicha qidirish va so'rovga mos keladigan ma'lumotlarni olish mumkin. Markaziy kutubxonasining avtomatlashtirilgan lingvistik vositalari hujjatlarni yagona indeksatsiya qilish, axborotni shakllantirish, saqlash va qidirishni ta'minlash uchun maxsus mo'ljallangan, rasmiylashtirilgan sun'iy axborot-qidiruv tillari hisoblanadi. Ulardan biri axborot-qidiruv tezaurusi - ular orasidagi paradigmatic semantik munosabatlarga ega leksik birliklar lug'ati. Axborot - qidiruvning tabiiy tillardan afzalligi shundaki, ular qidiruv nuqtai nazaridan kamchiliklardan xoli, chunki tabiiy tilning boyligi qidiruv paytida axborot shovqinini keltirib chiqaradi. Tabiiy tilda semantik yuk ko'tarmaydigan so'zlarning (old qo'shimchalar, qo'shimchalar, so'z birikmalari) mavjudligi va hujjat mazmunini etkazishda ulardan voz kechish tabiiy tilni indekslash va qidirish uchun ortiqcha qiladi. Tabiiy tildan qidiruv tili sifatida foydalanishni va undagi sinonim va antonimlarning mavjudligini qiyinlashtiradi; iboralarning noaniqligi (parafrazlash). Shu bilan birga, tabiiy tilda taqdim etiladi. Bundan tashqari, tezaurus - bu bilimlar tizimi, ontologiyasi sifatida qaraladigan me'yorlashtirilgan ilmiy lug'at bo'lib, u predmet sohasi atamaları va predmet sohasining o'zlari o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash imkonini beradi.

Tezaurusni ishlab chiqish murakkab ko'p bosqichli jarayondir, ammo u tor mavzu bo'yicha qidiruvlarning aniqligini ta'minlaganligi sababli dolzarb qidiruvning eng samarali lingvistik vositasi hisoblanadi. Eng yirik xalqaro va xorijiy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ma'lumotlar bazalarida tezauriya indekslash va tematik qidiruvning asosiy lingvistik vositasi hisoblanadi. Tezaurus kabi lingvistik vositalarni yaratish va rivojlantirish avtomatlashtirilgan IPS uchun lingvistik ta'minotni rivojlantirishning zamonaviy jahon darajasiga mos keladi. Sanoatning ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonalarida, ayrim mintaqaviy universal kutubxonalarda, Belarus milliy va qishloq xo'jaligi kutubxonalarida agrosanoat kompleksi muammolari bo'yicha hujjatlarni indekslash jarayonida qo'llaniladi.

Axborot-qidiruv tizimi lingvistik vosita sifatida qishloq xo'jaligi fanining hozirgi darajasini aks ettirish uchun fan va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan bog'liq holda doimiy ravishda yangi lug'at bilan to'ldirishni talab qiladi. Indekslish sifati axborot - qidiruv tizimining dolzarbligiga bog'liq; ma'lumotlar bazasida ma'lumotlarni qidirish samaradorligi, ushbu lingvistik vositalar yordamida turli xil axborot mahsulotlarida.

Ishning maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bo'yicha axborot-qidiruv tezaurusini yangilashdan iborat bo'lib, mavzu yo'nalishlarini adekvat va aniq tavsiflash, hujjatlar mazmunini indekslash jarayonida aks ettirish va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida samarali tematik qidiruvni amalga oshirish edi. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi fani va amaliyotidagi yangi tushunchalarni o'zida aks ettiruvchi atamalarni aniqlash maqsadida qishloq xo'jaligi kutubxonasiga kiruvchi mahalliy va xorijiy hujjatlardagi ilmiy terminologiya, shuningdek, soha terminologik ma'lumotnomalari tahlili o'tkazildi. Axborot-qidiruv tizimi uchun lug'atni tanlash indekslangan hujjatlar va qidiruv so'rovlarida atamaning paydo bo'lish chastotasini hisobga olgan holda amalga oshirildi; ma'lumotni topish uchun foydalilik; nufuzli ma'lumotnomalarda, terminologik standartlarda, shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bo'yicha xalqaro tizimlarning tezaurilarida atama mavjudligi. Bu atama yagona yozuv shaklida rasmiylashtirildi va tezaurus grammatikasi va sinonimiya va polisemiyaning yo'q qilish orqali normallashtirilgan. Buning uchun ro'yxatga olishning yagona shakllari ishlatilgan: jins, holat, raqam, iboralar va integral tushunchalardan foydalanishga ruxsat, ulardagi yozuvlar tartibini aniqlash (inversiya mavjudligi yoki yo'qligi). Turli aniqlovchi yoki cheklovchi belgilar ishlatilgan. Keyin atamalar o'rtasida paradigmatic semantik bog'lanishlar o'rnatildi, shartli ekvivalentlik sinflari shakllandi. Shunday qilib, axborot-qidiruv tizimidagi mazmun quyidagi tematik yo'nalishlar bo'yicha yangi lug'at bilan boyitildi: o'simliklarni himoya qilish, veterinariya, o'simlikchilik, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, chorvachilik va agrokimyo.

Yangi lug'atni o'z ichiga olgan tezaurusning yangilangan versiyasi hujjat mazmunini ilmiy qayta ishlash jarayonida to'liq va to'g'ri ochishni ta'minlaydi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatiga oid hujjatlar mazmunini etarli darajada ochib berishga imkon beradi va indekslash va tematik qidiruvning samarali vositasi. Qishloq xo'jaligi terminlarining tezaurusining yaratilishi va rivojlanishi tezaurining zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladi. Axborot -qidiruv tizimi bu normallashtirilgan ilmiy lug'atning tarmoq terminologik ma'lumotnomasi bo'lib, mutaxassislar ilmiy maqolalarni yozishda foydalanadilar. Axborot -qidiruv tizimi hajmi, uning lug'at yozuvlarining rivojlanishi, undagi atamalarning paradigmatic aloqalari bizga turli mavzularni to'liq tavsiflash imkonini beradi.

FOYDALANULGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Suyarova S. T., Ashirmatova M. J. The process of teaching students to foreign languages at agrarian university //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 683-685.
2. Jumanbaevna A. M. Activity and communication aspects of Russian-speaking competence of a future specialist in agrarian university. – 2022.
3. Ashirmatova M. J. Terminology at agrarian university in russian language //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – С. 350-352.
4. Jumanbaevna A. M. Development of oral and written speech in the study of the Russian language in an agrarian university //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 1743-1747.
5. Bazarova U. M. Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes //Архив научных исследований. – 2022. –Т.2. – №. 1.
6. Kulikova I. S., Salmira D. V. Metallingvistikaga kirish (lingvistik terminologiyaning tizimli, leksikografik va kommunikativ-pragmatik jihatlari). Sankt-Peterburg: Saga, 2002. 352 b.
7. Suyarova S. T., Ashirmatova M. J. THE PROCESS OF TEACHING STUDENTS TO FOREIGN LANGUAGES AT AGRARIAN UNIVERSITY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 683-685.
8. U.M.Bazarova, M.J.Ashirmatova, R.K.Alibekova (2022) The content and pedagogical conditions of moral and aesthetic education of the younger generation. // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 03.

UDC 81

SEMANTIC AND ETYMOLOGIC SPECIFICS OF TERMS RELATED TO COSMETOLOGY AND THEIR TRANSLATION INTO UZBEK

N.Y. Atamuratova, o`qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar orqali tilning boyishi va ingliz tilining ta'siri dunyoning turli tillarida tez-tez kuzatiladigan hodisadir. Zamonaviy ilm-fanning rivojlanishi bilan tillar leksikasidagi neologizmlarni o'rganish dolzarb bo'lib bormoqda. Terminologiyaning tobora boyib borayotgan sohalardan biri kosmetologiya sohasi bo'lib, ushbu maqolada kosmetologik terminlarning o'zbek tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilganmiz. O'zbek tilidagi kosmetologiya terminologiyasining semantik kategoriyalarini aniqlash maqsadida jami 59 ta termin to'planib, ularning semantikasi, etimologiyasi va tarjima usullarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kosmetologiya terminologiyasi, rus tilidan o'zlashgan so'zlar, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, so'z shakllanishi, transliteratsiya, kalka, ekvivalent

Аннотация. Обогащение языка за счет использования английских заимствований и влияния английского языка – обычно наблюдаемое явление в разных языках мира. С внедрением современной науки становятся актуальными исследования неологизмов в лексике языков. Одной из обогащающих терминологических областей является косметология, в которой мы стремимся проанализировать их специфику в узбекском языке. Для выяснения семантических категорий косметологической терминологии в узбекском языке мы собрали всего 59 терминов и проанализировали их значение, этимологию и способы перевода.

Ключевые слова: косметологическая терминология, русские заимствования, английские заимствования, словообразование, транслитерация, калька, эквивалент.

Abstract. Enrichment of the language with the use of English borrowings and the influence of the English language is commonly observed phenomenon in different world languages. With the introduction of modern science, the study on the neologisms in the lexis of languages are becoming actual. One of the enriching terminology fields is the cosmetology, which we aim to analyze their specific features in the Uzbek language. In order to find out the semantic categories of cosmetology terminology in Uzbek language, we collected total 59 terms and analyzed their meaning, etymology and translation methods.

Keywords: cosmetology terminology, Russian borrowings, English borrowings, word formation, transliteration, calque, equivalent

Introduction. Current development in the beauty industry and cosmetology caused the enrichment of world languages vocabulary with the terminological terms in the cosmetology.

However, as each language has its own specific ways of word formation and borrowing words, these terms also differently represented in various languages. In the world linguistics, cosmetology terms in Russian, Spanish, English, French and German languages were widely studied. However, the study on the cosmetology terminology, their specific features and translations in the Uzbek language were not adequately conducted in the Uzbek language. Taking the actuality and need for the study of cosmetology terms in the Uzbek language, we aimed to carry out the following tasks:

- to collect the cosmetology terms in the Uzbek language;
- to develop a semantic classification of the cosmetology terms in the Uzbek language;
- to determine and analyze the etymological features of the cosmetology terms;
- to find out the translation methods of cosmetology terminology from English into Uzbek.

Materials and methods. In the world linguistics, there were attempts to study the cosmetology terms and their translations into different languages. Scientists such as E.Larry, M.D. Millikan, C.T.Martinez, M.Rodríguez and M. Jesus, B.I.Fernández and M.C.Pardillos and others works clarifies different issues on the representation of terminology of the cosmetology.

E. Larry and M.D. Millikan studied the definition and regulations in the field of cosmetology, cosmetics [1]. C.T.Martinez analyzed the cometological terms in the Spanish language according to their etymology. They identified Anglicisms (words that come directly from English or English was the language of transmission, with no adaptation or partially adapted to Spanish, or derivative words, whereby an element from English origin is combined with a Spanish morpheme) and false Anglicisms, also named pseudoanglicisms [2]. B.I.Fernández and M.C.Pardillos concentrated on the analysis of false Anglicisms in the Spanish language used in fashion and beauty, and compiled a corpus searching in lexicographic sources and online webpages to check uses of the examples [3]. M.Rodríguez and M. Jesus analyzed the use of Anglicisms in television commercials of cosmetics, hygiene and personal care products, and explained the reasons why Anglicisms are frequent in advertising, coming to the conclusion that their presence is related to the prestige of the products [4]. O.Y. Romashina and S. Trendevska studied differential characteristics and semantic features of English borrowed terms from the field of cosmetology in Russian and Macedonian languages [5].

The material of this study was 59 cosmetology terms related to the field of cosmetology and these terms were selected by continuous sampling. The sources of the research material are different internet cites in Uzbek, which includes cosmetologists' personal cites [6], internet shops [7], glossaries and dictionaries of cosmetology terms [8], published articles [9] and scientific literature. In order to analyze their semantic categories the descriptive method, comparative analysis method and statistical analysis method, to analyze their translations to Uzbek language XXXX methods were applied in the research.

RESULTS

In order to classify the collected terms in the field of cosmetology, we grouped them, according to the semantic categories. The semantic classification includes the terms in the field of cosmetology, which are divided into two basic types of this branch aesthetic cosmetology and medical cosmetology, which are divided into further subgroups. The statistical information about the collected terms and their semantic categories is represented in the diagram 1 (Diagram 1).

Aesthetic cosmetology includes:

a) *decorative means of cosmetology*, such as powder – pudra; foundation - tonalka; lip pencil – kontur qalam; lipstick– pomada; lip balm- lab balzami; eyeliner- podvodka; highlighter-haylayter; eye shadow- ten; mascara-tush; corrector- korrektor; blusher-rumyana; concealer-konsilor; eye pencil- ko'z qalami; permanent make up-permanent makiyaj; hairdo-soch turmagi; primer- praymer; BB-cream (Blemish Balm Cream)- Bibi krem; CC-cream (Color Control Cream)- Sisi krem; dryer-fen; hair straightener -soch dazmoli; applicator – applikator; sponge-gubka; powder brush- pudra cho'tkasi;

b) *preventive and cleaning means of cosmetology*, such as serum -zardob; moisturizer-namlantiruvchi krem; cellulite cream - anti-sellyulit krem; meso- mezzo; hyaluronic acid- gilauron kislotasi; collagen-kollagen; scrub-skrab; depilation- depilatsiya; epilation - epilyatsiya; micellar water –mitsellyar suv; shower gel- dush uchun gel; wax-vosk; laser epilation-lazer epilyatsiyasi;

Medical cosmetology includes:

The comparative historical method is used to establish the relationship of languages. This method is based on a comparison of languages and is aimed at elucidating their historical past. A comparative historical method is based on the laws of phonetic changes, on the laws and trends of morphological, word- formation, syntactic and lexical levels of a language. Using this method, scientists compare genetically identical words and forms of related languages with each other and restore, their original form, their archetypes, or proto-language. To prove the genetic relationship of languages, the existence of systemic tendencies in the language development is analyzed. In this case, the specific criterion is the presence of systematic relationships like lexical and grammatical similarities, and the presence of regular phonetic correspondences in the original material of languages. Moreover, when identifying lexical similarities, not all words should be used, but only those that express vital concepts (basic vocabulary): body parts (arm, leg), terms of kinship (mother, father), some actions (take, eat, give) etc. It can be easily noticed that in the structures of many languages of Europe there are common features, for example, Polish woda, Russian вода, English water, German Wasser, etc. Such common features can be found not only in geographically related but also geographically and historically unrelated languages. For example, the table of basic words in 11 different languages extracted from A.A.Reformatskiy illustrates the resemblance of such distinct related languages as English, Greek or ancient languages like Sanskrit and Avestian.

As a rule, proto-language of the language family was supposed to exist 6-7 thousand years ago. This time interval was taken from the example of the Indo-European language family, which is the largest in the world – about 3 billion people speak its languages. In recent decades, linguists have made attempts to implement a genealogical classification of languages for a time period earlier than 7 thousand years ago. In this case, it is supposed to talk about macro-families that unite several distinguished language families. One of such macro-families is the Nostratic macro-family, which, in addition to the Indo-European, includes the Altai, Ural, Afro-Asian and other language families. According to various estimates, it is assumed that a single Nostratic-parent language existed 10-20 thousand years ago. In the following extract several words resembling phonetically and semantically in 3 language families are illustrated.

The purpose of structural typology of languages is establishing the similarities and differences of languages, which are rooted in the most common and most important properties of languages and are not dependent on their genetic affinity. Structural typology operates with classes of languages, united by those signs that are selected as reflecting the most significant features of morphological structure, for example, the method of connecting morphemes. Classical morphological types of languages include four linguistic types: inflective, agglutinative, isolating, incorporating.

Inflectional languages include languages whose forms are formed by external and internal inflection. Inflection is an indicator or ending of a complex of grammatical categories expressed in wordforms. Distinguished two types of inflection: internal and external. The first is such a method of inflection, in which the forms of a word are formed by changing sounds inside the stem. So, for example, Arabian qatala - he killed is divided into q-t-l root and vowels a-a-a expressing grammatical meanings: 3rd person singular past tense, whereas in qutla - he was killed vowels u-i-a indicates 3rd person singular past tense in passive voice. The second type of inflection is about using endings after the root expressing different grammatical meanings, for example, Russian поле - field, поля - fields, полей - of fields, etc.

The presence of external and internal inflection is an important stable sign of languages. Other such signs are: the multifunctionality of grammatical morphemes, the presence of fusion, phonetically unreasonable root changes, a large number of phonetically and semantically unmotivated types of declination and conjugation. Indo-European, Semitic-Hamitic languages belong to the inflective type; they also have signs of agglutinative languages. Inflective languages include languages that occupy a different place in the genealogical classification. Morphological typology does not take into account kinship. Its classification criterion is the form of the word change and the relationship of the word and sentence. The presence of affixes is also characteristic of agglutinative languages, but in these two morphological types of languages external flexion has significant differences.

Morphological homonymy: morpheme -e in German: a) is ending of first person singular verb in Present tense (Ich lerne – I learn); c) is added to the present or past verb stem to create a feminine noun (haben/die Habe – to have/ belongings); d) is ending of adjectives for feminine nouns in singular (gute Mutter – a good mother). The synthetic nature of affixes is combination of several different values in one morpheme. In other words affixes of inflected languages are polysemantic (personal endings of verbs in German, for example, in the verb machst - he does the ending -st is one morpheme, combines 2 grammatical meanings: a) a second person; 2) in singular; in Russian иду - I am coming the ending -y indicates 3 grammatical meanings: 1) first person; 2) singular; 3) present tense; 4) indicative mood.

Another sign of inflection is the expression of one grammatical meaning in different forms, it means, morphemes sometimes can be synonyms (the expression of plural number in German occurs using three suffixes and inner inflection - umlaut: Nächte (nights), Häuser (houses), Menschen (people), so as in English, external inflection: books, inner inflection: men, and children is a rare exception, where to indicate the number both external and internal inflections are used).

Inflectional languages are characterized by internal inflection. For instant, alternating consonants in the root: in German schneiden - schnitt - geschnitten (cut-cut-cut); spontaneous alternation of vowels in the root: in Russian день-дня- днём (day-day`s-in the daytime) or historically explained sound alternation: in English goose - geese, in German (umlaut): Baum - Bäume (tree-trees).

Incorporating languages are considered to be a unique type. Feature of this type of languages illustrated in the fact that a sentence is constructed as a complex word, that is, root words are combined into one general whole, which has a form of a word and a sentence at the same time. The whole is a sentence word, where the beginning is the subject, the end is the predicate, and the objects are incorporated in the middle with their definitions and circumstances. The main way to express

grammatical relationships in them is incorporation. Incorporated languages include Paleo-Asian, Chukchi-Kamchatka languages, languages Indians of North America and some other languages. For example, in the Chukchi language sentence t-i-kaa-nm-at-i-rkin (I am killing the deer) consists of two roots (-kaa- deer and -nm- kill), two connective vowels -i-, first person singular t- and suffixes -at- (suffix of verb action) and -rkin (verb suffix of the present tense). Literally this sentence can be translated as my deer killing: I + deer + kill + now.

It should be noted that sometimes incorporating languages may have agglutinative and inflectional features too. Chukchi language as incorporative language is accompanied by agglutinative prefixation as well. They come closer to agglutinating according to the principle of combining morphemes, and with flexing – by the presence of internal inflection. Many languages are intermediate in morphological classification scale, combining signs of different types, for example, the languages of Oceania are characterized as amorphous-agglutinative.

REFERENCES:

1. Abduazizov A.A. Theoretical Phonetics of Modern English. – T. 2016.
2. Jensen-Jarolim, E. (2013). Comparative Medicine: Anatomy and Physiology. Springer Science & Business Media.
3. Yusupov U.K. Contrastive Linguistics of the English and the Uzbek Languages. – T.: Akademnashr, 2013.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского кова: Учеб. пособие для пед. ин-тов. 2013.
5. Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник. – М.: ФЛИНТА: НАУКА, 2012. – 152 с.
6. Решетов В.В. Основы фонетики, морфологии синтаксиса узбекского языка. – Т.: Учитель, 2015.

UO'K: 821.512.133.09-1(092)

ALEKSANDR FAYNBERG'NING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

A.A. Choriyeva, talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi, tarjimon, ssenarist, Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodidan misollar keltirilib, shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni yorqin ifoda etilgan. Faynbergning hayotdagi keskin burilishlarda qoqilmasdan, hamda, eng muhimi avval boshdan qaysi yo'lda bo'lgan bo'lsa, shu yo'lidan adashmagani xalqimizga ajoyib o'rnak bo'la oladigan asos desak mubolag'a bo'lmaydi.*

Kalit so'zlar: *rusiyzabon, shoir, yozuvchi, tarjimon, ssenarist, sovet yozuvchisi.*

Аннотация. *В данной статье приведены примеры из жизни и творчества народного поэта Узбекистана, писателя, переводчика, сценариста Александра Файнберга, ярко выражена роль поэта в узбекской литературе. Не будет преувеличением сказать, что тот факт, что Файнберга не споткнулся на крутых поворотах жизни и, главное, не сбился с пути, на котором был с самого начала, является великим примером для нашего народа.*

Ключевые слова: *русскоязычный, поэт, писатель, переводчик, сценарист, советский писатель.*

Abstract. *In this article, examples from the life and work of the national poet of Uzbekistan, writer, translator, screenwriter, Alexander Feinberg are given, and the role of the poet in Uzbek literature is clearly expressed. It is not an exaggeration to say that Feinberg did not stumble in the sharp turns of life and, most importantly, did not go astray from the path he was on from the beginning.*

Key words: *Russian-speaking, poet, writer, translator, screenwriter, Soviet writer.*

Aleksandr Faynberg 1939 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbek va rus shoiri, mohir tarjimon, uning o'ndan ortiq she'riy to'plamlari "Smena", "Yunost" ("Yoshlik"), "Noviy mir" ("Yangi dunyo"), "Zvezda Vostoka" ("Sharq yulduzi"), "Novaya Volna" ("Yangi to'lqin") jurnallarida va AQSh, Kanada va Izroil kabi xorij mamlakatlari vaqtli matbuotlarida chop etilgan. U ko'plab o'zbek ijodkorlarining betakror asarlarini rus tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. [1: 72-b.]. Shuningdek, Faynberg Abdulla Oripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchon kabi taniqli shoirlar she'rlarini jamlagan [2: 112-b.]. Faynberg shoir sifatida qanchalik erkin fikrli ziyarak bo'lsa, nasr bobida ham undan kam emas edi. Ba'zida inson o'zi uchun yashashni, ko'ngli tusagan har qanday ishni qilishni xohlaydi. Aynan shu onda ko'ngil buyurgan vazifani bajargan kishida o'z hayotidan minnatdor bo'lish tuyg'usi paydo bo'ladi. Shunaqa vaqtlarda har birimiz o'zimizga imkoniyat berishimiz, bir lahza bo'lsa ham o'zimiz uchun yashashimiz kerak. XX asrning rusiyzabon shoiri Faynberg aynan shunday hayot tarzida yashash baxtiga muvassar bo'lgan inson edi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Faynberg o'zbek xalqining buyuk ma'naviyat arboblari bilan qalban yaqin edi. Xususan, u buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning asarlarini o'zgacha joziba bilan, ulardagi ilohiy ruhni saqlab qolgan holda rus tiliga tarjima qilib, buyuk ajdodlarimiz ijodini abadiylashtirishga ulkan hissa qo'shgan mahoratli tarjimon edi.

Uning xirqiroq ovozi hayratlanarli darajada chiroyli va so'zlarga o'zgacha ma'no bahsh etardi. Bu kamdan-kam hollarda kishilarda yoqimli, deyarli badiiy ravishda so'zlaganda sodir bo'ladi. Uning yuzida yillar o'z aksini qoldirmagan deyish mushkul ammo, nigohlaridan samimiy mehribon inson ekanligi yaqqol sezilib turardi. Shoir tetik inson edi, ba'zan buyuk shoirlar kabi dunyodan ajralgan emas. U viloyatlarda to'laqonli hayot kechirib, muntazam ravishda she'rlar to'plamlarini nashr ettiradi, multfilmlar va badiiy filmlar uchun ssenariylar yozadi, mahalliy shoirlar ijod namunalarini o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qiladi.

Aleksandr Faynberg 2009-yil 14-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan. Uning beg'ubor bolaligi Ikkinchi jahon urushi davrida, sobiq Jukovskiy ko'chasida o'tgan. Faynberg Toshkent topografiya kollejiga o'qishga kirib, geolog sifatida butun mamlakat bo'ylab sayohat qilib, qalbi mamlakatning go'zal tabiatiga bo'lgan muhabbatga to'ladi. Aynan shu davrda, uning "Velosiped yo'lakchasi" nomli birinchi kitobi nashr etiladi, va u orqali Faynberg O'zbek adabiyotining ilg'or pog'onalariga ko'tariladi.

O'sha vaqtlarda kishilar orasida siyosat haqida gaplashish imkoni bo'lmagan, ammo u shoir sifatida Sobiq Sovet Ittifoqi va Sovet hokimiyati haqida hamma narsani tushungan va xalqimizning bu vaqtdagi holatini quyidagi she'rida majoziy tasvirlagan.

Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq,
Ummonlar suviga biz og'u qo'shdik.
Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi,
O'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q.
Daraxtlar gapirmas, kesilar o'rmon.
Tog' boshiga yugan solar lokator.
Sahro osmonida lovullar yadro,
Yonadi tili yo'q maysa, o't-o'lan.
Suv gap qaytarmaydi, gap qaytarmas tosh,
Sher olovga sakrar ursang, egib bosh.
Uchar qushlar o'lar to'p otganda o'q.
Yaralgandan buyon bu ko'hna dunyo
Befarqmiz. Uyatdan o'lganimiz yo'q.
Ne uchun til berding odamga, Xudo?!

Faynberg o'z qalbidagi iztiroblarini she'rlarida bayon etib, xalq dardi bilan yashagan. Umri davomida xalqimiz urf-odatlarini, iztiroblari, sabr-bardoshini kuzatib, ba'zida chuqur xo'rsingan, qattiq g'azablangan, ammo bulardan hech bir foyda yo'q edi. O'sha vaqtlarda bosh ko'targanlar faqat sanoqli kishilar bo'lganligi uchun ularni Sovet hukumati osongina yo'q qilib yuborgan. Xalq qiynalardi, ammo, hamma birgalikda bosh ko'tara olmasdi, bu kabi chigal vaziyatlar shoir tabiat kishilarni siqib qo'yar edi. Ular shoir bo'lib yaralgan, afsuski, jangchi bo'lib emas.

Shoirlar, yozuvchilar ya'ni barcha ijodkorlar qo'llarida qalam bilan jangga kirishar va qalb tug'yonlarini oq qog'ozlar qoralab izhor etishar edi. Aynan shunday tug'yon bilan yaralgan ijod namunalari esa kun kelib xalqimizning durdona asarlari safidan joy egallaydi. Xuddi shu kabi Aleksandr Faynbergning qalb iztiroblari mana necha yillar o'tibdiki, o'z muxlislarini hayratda qoldirib kelmoqda. Uning har bir ijodiy ishlari tub mazmunga ega ekanligiga guvoh bo'lish mumkin, bunga esa yuqoridagi she'r yaqqol misol bo'la oladi.

"Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq, ummonlar suviga biz og'u qo'shdik. Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi, o'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q." - ushbu misralarda ummonlar suviga qo'shilgan og'u - xalqimiz orasidagi mustaqil fikrli, ozodlikparvar ma'naviyatli kishilarning gardaniga yuklatilgan bo'htonlarga shama qilgan bo'lsa, "Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi, o'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q" - satrlari esa Sovet hukumatiga tayyor o'lja bo'lganlarning begunoh o'limini tasvirlaydi.

To'satdan tumanli hayot tugab, yorqin kelajak boshlanganida u 50 yoshdan oshgan edi. SSSR parchalanganidan keyin rus madaniyatining Sovet viloyatlaridan chiqib ketishi uning monografiyalaridan alohida o'rin egallagan.

Buyuk shoir bo'lish boshqa, birdan o'z o'rnida ma'lum ma'noda yagona shoirga aylanib qolish boshqa. Bir xil yoki biroz o'zgaroq yorqin do'stlar davrasida yorqin do'st bo'lish boshqa narsa va to'satdan singan va siyosiy tanazzulga uchragan rangli shishaning yolg'iz bo'lagi bo'lib qolish

mutlaqo boshqa narsa. Bu deyarli tiriklayin o'lishga o'xshaydi, chunki u rus va o'zbek madaniyati o'rtasidagi ko'prik edi. Bir zumda hammasi yo'q bo'ldi, ammo u bularning barchasini yengib, yashashda davom etdi.

Aslida u o'z o'rnida qolib, O'zbekistonda rus so'zining qo'rg'oniga aylandi. Faynberg o'zbek hokimiyatining sharqona maqtoviga hirs qilib, guldor yolg'on kuylamagan, u bundan o'n sakkiz yil avval O'zbekiston xalq shoirlari unvoniga ko'tarilgan edi. U elita qatlam emas, lekin ommaviy ham emas, haqiqatan ham xalq shoiri edi. Chunki chinakam adiblar olomondan yiroqda birma-bir qoladigan, xalqni xalq qiladigan yagona so'zdir.

2004 – yil birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan Aleksandr Faynberg O'zbekiston xalq shoiri unvoni bilan taqdirlangan.

U o'zbek va rus millati o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun, o'limidan oldin Rossiya rasmiylari tomonidan e'tirof etilib, Rossiya Prezidentining farmoni bilan 2008-yil Pushkin medali bilan taqdirlangan.

O'limidan ikki yil oldin, intervyularning birida undan: “Orzularingizdan qaysi biri amalga oshdi, qaysi biri amalga oshmadi?”, - deb so'rashgan. Bunga u shunday javob berdi: “Men butun umrim davomida miya tomirlari spazmini orzu qilardim, u miyaning mavjudligini isbotlaydi va men bunga erishdim”. U bir oz o'ylanib turib, yana javob berdi: “Dunyo bo'ylab sayohat qilish orzusi bor edi, lekin men hech qachon ko'p mamlakatlarga tashrif buyurmaganman”. Shoir ko'pincha kislorod bilan o'ralgan suv osti kemasining ixtirochisi bo'lishni orzu qilgan. Bu unga ajoyib tezlikni berishi mumkin edi, va u keyin yana qo'shib qo'ydi: “Yana bir amalga oshmagan orzu - men rassom bo'lmadim”.

Shoirlarning tabiati ajoyib, g'ayritabiiyligi bilan oddiy odamlardan farq qiladi, negaki, yuqorida shoir bergan intervyudagi ushlangan orzularga diqqat qaratsak, aslida qo'rqinchli, aqlni shoshiradigan so'zlarga guvoh bo'lamiz, - “... butun umrim davomida miya tomirlari spazmini orzu qilardim”. Biz haqiqat tarafdorlari nigohi bilan qaraganimizda kishining qandaydir jiddiy tashxisli kasallikni orzu qilishi va unga intilishi aqlni shoshiradigan samoviy xohishdir. Ijodkorlarda aslida har sohaga qiziqish bo'lishi tabiiy holat negaki, ular asarlarida istalgan soha vakili sifatida yashab, bu sohani his qilishi bilan boshqalardan ajralib turishadi.

O'zbekistondan dunyoning turli burchaklariga tarqalib ketgan, rus tilida chinakam she'rlar yozadigan ko'plab iste'dod egalari bor. Ular orasida Faynbergni tanimaydigan, unga she'rlarini ko'rsatmaydigan, she'rlarini o'qitmaydigan deyarli hech kim yo'q. Ayrimlar uchun u yosh shoirlar seminariga rahbarlik qilganda bevosita o'qituvchi ham bo'lib qolgan.

Shu bilan birga, uning xulq-atvorida hech qachon mag'rurlik, takabburlik bo'lmagan, u o'zini o'qituvchi qilib ko'rsatmagan, o'zidan hech kim yasamagan. Omma oldida quvnoq, she'riyatda u ko'pincha o'ziga nisbatan shafqatsiz bo'lgan. Haqiqatni, juda keng tarqalgan poetik pozadan ajratib turadigan, deyarli sezilmaydigan chiziqni, har doim aniq tasvirlab bergan.

Rus madaniyatining illyuziyasi post-sovet hududidan tezda yo'q bo'lib, Sovet dunyosida Rossiyaning ruhiy o'limi davom etardi. Rossiyada ingliz tilida so'zlashuvchi (va hattoki, rus tilida ham so'zlashuvchi) ommaviy madaniyatga qarshi turish uchun yetarli iqtisodiy kuch va siyosiy joziba yo'q.

O'zbekistonda rus tilida she'r yozishni butunlay to'xtatib qo'yishlari dargumon. Ammo, endi bu butunlay boshqacha hikoya bo'ladi, chunki qo'rg'on g'oyib bo'ldi, rus, o'zbek, haqiqiy shoir, Faynberg g'oyib bo'ldi. O'zi sevgan, kindik qoni to'kilgan mamlakatda omon qolish, lekin uydan chiqmaslik bilan umrining uchdan ikki qismini o'tkazib, butun dunyoning to'satdan va qaytarib bo'lmaydigan yo'qolishi bilan jim bo'lmadi. U yer yuzining oddiy dahosi bo'ldi. Toshkent dunyoga shoir Faynbergni berdi, Faynberg she'rlaridagi yurtiga bo'lgan muhabbati, sadoqati bilan Toshkentni dunyoga berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begoyim Xolbekova Ishq degani bir qarashda tuyular oson... She'rlar/ Aleksandr Faynberg - Toshkent.: «Ijod NASHR» nashriyoti, 2021. – 72b.
2. Aleksandr Faynberg Oq qushlar galasi. - Toshkent.: «Nihol», 2008. - 112b.
3. Semyon Novoprudsky, “Geniy Mesta” – Rossiya, Moskov.: Gazeta.ru, 1999-2022.
4. Aleksandr Faynberg “Ruhlar isyoni”. Erkin Vohidov, Moskva.: “Sovetskiy pisatel”, 1983.
5. Choriyeva A.A. (2022), “Aleksandr Faynberg va Javlon Jovliyev asarlaridagi o'xshash mazmun”. - Namangan.: NamDU ilmiy axborotnomasi 7-son, 264b.

KO'PMA'NOLILIK HODISASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Yu.J.Davidov, o'qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'pma'nolilik hodisasi, ko'p ma'nolilik hodisasining yuzaga kelish yo'llari, ko'pma'nolilik hodisasining ahamiyati va boshqa tillarni o'rganishdagi imkoniyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ko'chma ma'no hosil bo'lish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'no, evfemizm, disfemizm, etafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, polisemiya, polisemantik so'zlar.

Аннотация. В данной статье написано о многозначности слов, пути возникновения многозначности, важности многозначности и приведены информации других путей изучения остальных языков. Проанализированы способы создания переносных слов.

Ключевые слова: многозначность, переносное значение, эвфемизм, дисфемизм, метафора, метонимия, синекдоха, полисемия, полисемические слова.

Abstract. In three articles, the phenomenon of polysemy, the ways of occurring the phenomenon of polysemy, the importance of the phenomenon of polysemy and its information in learning other languages. Methods of formation of figurative meaning are analyzed.

Key words: polysemy, figurative meaning, euphemism, dysphemism, metaphor, metonymy, synecdoche, co-operation, polysemy, polysemantic words.

Atoqli tilshunos olim M.Mirtojiyev til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. So'zlarning ko'p ma'noliligi-polisemiya til boyligida o'z o'rniga egaligini qayd etadi. Ko'p ma'nolilik hodisasi (polisemiya) qadimdanolimlar diqqatini jalb qilib kelgan. Mirtojiyev bu hodisani eramizgacha Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa Yunonlar ham o'rganganligini, Ushbu hodisaga ajdodlarimizdan M.Qoshg'ariy, Zamaxshariy, A.Navoiy ham o'z qarashlarini bayon etganliklarini yozadi [5]. So'zning ko'p ma'noliligi so'zlarni oz miqdorda yod olib, nisbatan ko'p miqdorda ma'no ifodalash va bunda fahmlashdan maksimal foydalanish imkoniyatini beradi. Bu boshqa tillarni o'rganishda ham qulayliklarni yuzaga keltiradi. Ko'p ma'nolilik nutqni obrazli va ta'sirchan qilib ifodalashga xizmat qiladigan til hodisasi.

M.Hakimova Bu hodisani bir narsaning nomi bilan yangi anglangan, o'zlashtirilgan, hali nomga ega bo'lmagan 2-narsa(predmet, belgi, harakat) nomlanishi [12] deya izohlaydi. R.A.Budagovning ko'p ma'nolilikning tildagi ahamiyati haqidagi quyidagi fikrlari ham muhimdir: "Ma'lum tilda polisemantik so'zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko'p bo'lishi va tilda polisemiyaning nihoyatda taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning taraqqiyoti obyektiv mavjudotni o'zaro bog'liq holda anglash, ularni qiyosiy o'rganish, taraqqiyotlarining tilda aks etib turishi kabilar hatijasi bo'ladi. Ya'ni **polisemiya sivilizatsiya belgisidir.** Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq obyektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilida ko'proq o'z aksini topadi. Ya'ni insonning o'z atrofini o'rab turgan borliqni umumlashtira olishi bilan bog'liq holatda polisemiya mavjud va taraqqiy etadi." [5] Ko'p ma'nolilik hodisasiga sof lingvistik nuqtayi nazardan yondashish Fransuz semasiologi M. Brealdan boshlanadi. Shundan so'ng A.A.Potebnya, L.V.Shcherbalar polisemantik so'zning har bir leksik ma'nosi asosida bir so'z borligini [24] ta'kidladilar. Lug'at boyligi .yuz mingdan ortiq so'zni o'z ichiga oladi. Unda berilgan ma'nolar miqdoriga mos qilinsa, tilda milliondan ortiq so'z yuzaga keladi. Ko'pma'nolilik har bir tilda so'zlashuvchilarni ana shu milliondan ortiq so'zni yod olishdan qutqaradi.

XX asrning o'rtalarida bir qancha tilshunoslar ko'pma'nolilik hodisasining ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Bunga H.Kronasser, St.Ulman, V.V. Vinogradov, O.S.Axmanova, E.Baldinger, V.A.Zveginsev, R.A.Budagov va D.N.Shmelevlarni e'torof etish mumkin [23]. Bundan tashqari polisemiyaning ayrim jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar va maqolalar e'lon qilindi. Bularga L.Zavadovskiy, R.A.Budagov, V.A.Moskvichlarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin [22].

O'zbek tilshunosligida ko'p ma'noli so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar bir qancha. S.Usmonov, T.Aliqulov, M.Mirtojiyev, M.Hakimova, B.Suyunov, G.Roziqovalarning ishlari shular jumlasidandir [10]. O'zbek tilida ko'pma'nolilik hodisasiga bag'ishlangan dastlabgi ish M.Mirtojiyevning "O'zbek tilida polisemiya" nomli monografiyasi (1975) hisoblanadi. Atoqli olim ko'pma'nolilikning tildagi asosiy ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "to'rt yashar bola o'z yoshiga nisbatan so'z boyligi eng cho'qqisiga chiqqan hisoblanar ekan. U shu davrda o'rta hisob bilan ikki ming so'zni ishlatib, olti ming so'zni fahmlay bilarkan. Agar so'zlar ko'pma'nolilikdan xoli bo'lsa, o'sha bola avvalgi sharoitda bera oladigan fikrini taxminan o'n ming

soʻz orqali berib, kamida yigirma ming soʻzning farqiga borishi kerak boʻladi...Soʻzning polisemantikliги soʻzlarni kam miqdorda yodlab, nisbatan koʻp ifoda etish va bunda fahmlashdan maksimal foydalanish imkoniyatini berar ekan. Bu boshqa tilni egallashda ham ancha qulaylikni yuzaga keltiradi va tilning eng yaxshi sifatlaridan hisoblanadi. [5]” Sayfullayeva R.R. va boshqa olimlar hammuallifligidagi darslikda har qanday leksema xoh u bir sememali, xoh koʻp sememali boʻlsin, nutqda koʻp maʼnoli boʻlishi soʻzlar esa hamisha bir maʼnoli [20] boʻlishi keltirilgan.

Koʻp maʼnolilik hodisasini baʼzi tadqiqotchilar oʻz ishlarida polisememiya terminini qoʻllasa, “Aslida polisemiya termininig oʻrnida polisememiya termini qoʻllansa, maqsadga muvofiq boʻlar edi. Chunki polisemantik birlik tarkibida bir qancha sememalar mavjud boʻladi....Nutq sharoitidan kelib chiqib, mavjud polisemantik sintaktik konstruksiyada farqlovchi semalardan eng zaruri ifoda etiladi, boshqa farqlovchi semalar esa imkoniyat tarzida saqlanadi” [7]. Atoqli tilshunos olim Sh.Rahmatullayev ham hodisani polisememiya deb nomlash toʻgʻri boʻlishini taʼkidlaydi: “...Bittadan ortiq sememasi bor til birligini polisemem til birligi deb, shunday hodisani esa polisememiya deb nomlashimiz toʻgʻri boʻladi” [8]. Aksariyat tadqiqotchi olimlar polisemiya terminini qoʻllaganlar. Jumladan, B.Suyunov nomzodlik dissertatsiyasida “...koʻp maʼnoli soʻzni polisemik soʻz deb, shunday hodisani esa polisememiya emas, aksincha, polisemiya deb atash kerak boʻladi. Chunki polisemik soʻzda leksik maʼno, yaʼni semema bitta boʻladi. Aslida semema tushunchasi leksema tushunchasiga yaqindir. Demak, bunday soʻzlarni polisemik soʻzlar deb atash voqelikni toʻgʻri aks ettiradi [9]” deb izohlaydi. A.Hojiyev ham tilshunoslik terminlari izohli lugʻatida polisemiya(polisememiya emas) terminini keltirgan [13]. Biz ham bu borada A.Hojiyev, B.Suyunov fikrlariga qoʻshilamiz, yaʼni koʻpmaʼnolilik hodisasi polisemiya, koʻpmaʼnoli soʻzlar esa polisemantik soʻzlar deb nomlanishi mohiyatan toʻgʻri deb hisoblaymiz.

T.Aliqulov koʻpmaʼnolilikning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Fan va texnika, sanoat, qishloq xoʻjaligi boshqa sohalarning toʻxtovsiz taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan yangi predmet yoki hodisalar uchun mazkur tilda yangi nom boʻlmagan taqdiridagina predmet yoki narsalar tilda avvaldan mavjud boʻlgan va shakli ichki yoki tashqi xususiyati holati bilan yoki biror belgi oʻxshashligi bilan oʻziga mos predmet nomini olishi kerak. Ana shundagina polisemiya vujudga keladi.” [1] Bizningcha, bu koʻp maʼnolilikning yuzaga kelish yoʻllaridan biri xolos. Yaʼni faqat yangi nom boʻlmagan taqdiridagina koʻpmaʼnolilik hodisasi yuzaga kelmaydi. Mavdud nomni turli maqsadga koʻra boshqa nom bilan ifodalashimiz ham mumkin.Masalan, togʻning koʻrki tosh bilan, odamning koʻrki bosh bilan.(maqol). Bu gapdagi bosh soʻzi aql-hush, miya [11] maʼnosida qoʻllangan. M.Mirtojiyev soʻzlarning yangi maʼno orttirishi hisobiga taraqqiy etishi polisemiya uchun asos boʻlishini [5] qayd etadi. M.Mirtojiyev koʻpmaʼnolikni yuzaga keltiruvchi birliklar sifatida quyidagilarni koʻrsatadi: –Koʻchma maʼno hosil boʻlishi natijasida; –Evfemizm va disfemizm natijasida; –affiksatsiya natijasida [5]. Sh.Maxmaraimova esa “...evfemizm va disfemizm dastlab uslubiy jihatdan qaralganidagina shunday termin bilan atalishi kerak, semasiologik jihatdan esa bu frafeologik maʼnoli birikmalar ham aslida maʼno taraqqiyotini namoyon etuvchi metafora, metonimiya tufayli hosil boladi, [14]” –deb izohlaydi. Biz bu oʻrinda Sh. Maxmaraimova fikrlariga qoʻshilib, evfemizm va disfemizmni koʻchma maʼno natijasidir deb hisoblaymiz, evfemizm va disfemizmnda metafora yoki metonimiya hodisasi mavjud boʻladi. Bizningcha ham koʻpmaʼnolilik ikki yoʻl bilan hosil boʻladi, yaʼni

–**koʻchma maʼno**(metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik) hosil boʻlishi natijasida;

–**affiksatsiya natijasida**:yogʻli osh(yogʻi koʻp), yogʻli sochiq(yogʻ tekkan, yogʻi bor). H.Heʼmatov, R. Rasulovlarning oʻzbek tili sistemleksikologiya asoslari kitobida yoz feʼliga –uvchi qoʻshimchasi qoʻshilib, yozuvchi hosilasi yuzaga keladi va bu soʻz uch xil maʼno ifodalashi qayd etilgan. Feʼllardan shaxs oti yasovchi: [feʼl]+[vchi]=[shaxs oti, feʼl anglatmishning bajaruvchisi)] qolipi minglab nutqiy hosilalar asosida yotadi. (Yozuvchi) shunday hosilalardan biridir. Lekin oʻzbek nutqida uchta (yozuvchi) hosilasi mavjud. 1.Yozuvchi, adib, shoir. 2.Yozuvchi, qallob, firibgar, igʻvogar. 3.yozuvchi, insho yozuvchi [21]. Demak, affiksatsiya usulida yasalgan sozlarda ham koʻpmaʼnolilik hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh hammuallifligidagi kitobda soʻzlarning koʻchma maʼnolari biror predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarning nomini yana shunday boshqa predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarga koʻchirish orqali hosil boʻlishi, biror nom egasi nomga ega boʻlmaganni oʻziga nomdosh qilib olishi, natijada nomdosh boʻluvchi hisobida koʻchma maʼno hosil boʻlishi [19] qayd etilgan. Demak, dastlab soʻzlar bir maʼnoli boʻladi, keyinchalik til taraqqiyoti natijasida mavjud soʻzga yana bir necha maʼno yuklanadi.

Koʻchma maʼno turlari olimlar tomonidan turlicha ajratilgan. Barcha kuzatgan adabiyotlarimizda metafora va metanomiya haqidagi maʼlumotlar deyarli bir xil. Baʼzi adabiyotlarda

senekdoxa metanomiya tarkibida berilgan bo'lsa, ba'zilarida sinekdoxa ham alohida nom ko'chishi sifatida ko'rsatilgan. Vazifadoshlik haqidagi qarashlar ham turlicha. Ayrim olimlar vazifadoshlikni metafora tarkibiga kiritib tahlil qilganlar. Sh.Maxmaraimova ham vazifadoshlikni metaforik nom ko'chishi usuli sifatida baholaydi. Maxmaraimovanning fikricha, ma'no taraqqiyotiga bog'liq hodisalar orasida vazifadoshlikni alohida hodisa deb o'rganishga zarurat yo'q, vazifadoshlik ifoda etgan jami lingvokognitiv, ma'noviy belgilar metaforada mavjud hamda bu hodisani metforaning vazifaviy xususiyatlari qatorida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi [14]. M.Hakimova polisemem leksema strukturasiidagi ma'nolar bog'lanishining 2 ta asosiy turi mavjud: o'xshashlikka ko'ra va aloqadorlikka ko'ra [12] deb dastavval ikkiga bo'lib, so'ng o'xshashlikka asoslangan bog'lanishlarni metafora va vazifadoshlikka, aloqadorlik asosidagi bog'lanishni metonimiya va sinekdoxaga ajratib tahlil qilgan. Ko'rilganidek, aksariyat ishlarda vazifadoshlik metafora tarkibida o'rganilgan biz bu o'rinda Mirtojeyevning vazifadoshlikda nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi vazifalari o'xshash bo'lmay, balki ayni bir narsaning o'zidir [5] degan fikrlariga qo'shilamiz va vazifadoshlikni alohida nom ko'chishi sifatida baholaymiz.

Atoqli olim M.Mirtojeyev vazifadoshlik asosida nom ko'chishini rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiyning firkriga qo'shilgan holda nomdoshlovchi o'z o'rnini hayotda yo'qota boshlagani, ya'ni eskirgani uchun nomdoshlanuvchi yangilik sifatida kirib, uni siqib chiqarib yuborishini va o'rnini egallashini qayd etadi.Olim vazifadoshlik eskirgan obyekt o'rnini yangisi egallashi orqali ko'chma ma'no hosil bo'lishi [5] deb izohlaydi. Bizningcha, vazifadoshlik asosida nom ko'chishi uchun nomdoshlovchi eskirishi shart emas, bu hodisa atamaning ma'nosiga mos holda, ya'ni vazifasi bir xil bo'lgan bir narsaning nomi ikkinchisiga o'tishidir.Masalan, virus(organizmdagi), virus(kompyuterdagi);eshik(uyning), eshik(mashinaning); tomir(insonning), tomir(insonning), tomir(daraxtning).Keltirilgan misollardan ham ma'lum bo'ladiki, vazifadoshlik uchun ma'lum ma'no anglatuvchi so'z eskirishi talab etilmaydi.

Nom ko'chishning turlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1.Metafora (yunoncha metaphora – ko'chirish). Bir predmetning nomini boshqa predmetga biror o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish [13]. Bu hodisada nomdoshlovchi va nomdoshlanuvchi o'rtasida o'xshashlik(shakliy, xususiyat, belgi, harakat, holat jihatidan) mavjud bo'ladi.

O'xshashlik quyidagi belgilarga ko'ra sodir bo'ladi:

–**Shakliy o'xshashlik:** odamning qulog'i–qozonning qulog'i;

–**Belgi-xususiyat o'xshashligi:** shirin ovqat –shirin bola, sovuq suv–sovuq xabar;

–**Harakat va holat o'xshashligi:** daraxtdan yiqildi–imtihondan yiqildi; bola kuldi–quyosh kuldi

–**Joylashish o'rnidagi o'xshashlik:** itning dumi–varrakning dumi

2.Metanomiya (yunoncha metonymia –qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o'zaro tashqi yoki ichki bog'liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo'llash asosida bir predmet, harakat, belgi nomini boshqa predmet, harakat yoki belgiga ko'chishi [13]. Nutqdagi tejamkorlik natijasida ham metonimiya hodisasi yuzaga keladi,bunda, albatta, bir-biriga aloqasi bor bo'lgan, ma'no jihatdan bog'liq bo'lgan so'zlardan biri tushiriladi: Navoiyning asarini o'qidim–Navoiyni o'qidim. Yoki bir so'zni boshqacha nomlaydi: Shahzodalar saltanat uchun kurashdi–Shahzodalar taxt uchun kurashdi kabi. Metanomiya nutqni qisqa va ta'sirchan ifodalsh vositasidir: qizil shapkacha kiygan bola keldi–qizil shapkacha keldi kabi.

3.Sinekdoxa (yunoncha synekdoche–birga nazarda tutmoq). Bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko'chish, butunning nomi qismning nomi va aksincha bo'lib qolishi [13]. Bu hodisada, albatta, butun va qism munosabati bo'ladi, ya'ni ularning biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi va shunisi bilan metanomiyadan farqlanadi. Masalan, qizil shapkacha keldi gapidagi qizil shapka insonning tarkibiy qismi emas, demak qayta nomlash. Bu oila ancha yildan beri tirnoqqa zor. Gapidagi tirnoq insonning qismi va butinni(insonni) anglatyapti.Insondagi biror belgi yoki nuqson bilan inson atalganda ham metonimiya yuzaga keledi, chunki nuqson insonning bo'lagi emas. Masalan, choloqqa achinish bilan qaradi. Gapidagi cho'loq inson (tejamkorlik) ma'nosini anglatyapti

4.Vazifadoshlik asosida nom ko'chishi vazifasi bir xil bo'lgan bir predmetning nomi boshqasiga ko'chishidir:chiroq, o'q kabi

Umuman olimlarimiz turlicha guruhlariga ajratib o'rgansalar ham baribir nom ko'chishining to'rt turi tahlil qilingan. Biz ham nom ko'chishining nima asosda yuzaga kelishi ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi to'rt turga bo'lib tahlil qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Алиқулов Т. Полисемиянинг ҳосил бўлиши ҳақида Ўзбек тили ва адабиёти. 1963, 6-сон

2.Алиқулов Т. Полисемия существеннах в узбекском языке.Автореферат канд. дисс. –Т. 1966.

3. Миртожиев М. Сўзнинг бош маъноси хақида. ЎТА, -Т. 1971. 3 сон, 43-бет.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010.
5. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975.3-бет
6. Миртожиев М. Омонимларнинг полисемиядан келиб чиқиши, ВСБ. Тилшунослик масалалари, китоб. Т. 1960, 12-23-бетлар.
7. Розикова Г.З Ўзбек тилида синтактик полисемия. ФФНД Диссертация. Фарғона 1999.56-бет
8. Раҳматуллаев Ш. Луғат бойлигини ўрганиш ва ўргатишда қайта баҳолаш зарур бўлган баъзи масалалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. №3. -30 б
9. Суёнов Б. Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омили. ФФН Диссертация.
10. Усмонов С. Метафора ЎТА, –Т. 1964, 4-сон, 34-бет.
11. ЎТИЛ. –Тошкент: “O‘zbekiston nashryoti” 2020. I том. Б ҳарфи. 332-б
12. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 50-бет
13. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент. 81-бет
14. Махмараймова Ш. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya) –Toshkent 2021. 140-bet.
15. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – С. 16-21.
16. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 245-247.
17. Davidov Y. O‘ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 836-839.
18. Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Darslik. Toshkent 2010, 127-bet
19. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 3 nashri, “O‘zbekiston”, Т.: 1992, 126-bet.
20. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Darslik. Toshkent 2010, 127-bet
21. Ньёматов Ҳ, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Тошкент: “Ўқитувчи” 1995. 52-бет
22. Zawadowski L. La polysemie pretendue // Bluieten polskiego towarzystwa je zykoznawczego. – Krakow. XVII (1959), P.11-48. Будагов Р.А. Полисемия слова // НДВШ, Филологические науки. – 1958. №1. С.5-18. Москвич В.А. Система цветообозначений в современном английском языке // ВЯ.– 1960. С. 83-87.
23. Kronasser H. Handbuch der Semasiologie. – Heidelberg. 1952; Ullmann St. The Principles of Semantics. – Glasgow. 1951; Ullmann St. Precis du semantique française. - Berne. 1952; Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова// ВЯ. – 1953. №5; Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. - М.: Учпедгиз. 1957; Baldinger E. Die Semasiologie. –Berlin. 1957; Звегинцев В.А. Семасиология. - М.: Изд. МУ. 1958; Будагов Р.А. Сравнительно-семасиологические исследования. – М.: Изд. МУ. 1963; Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. –М.: Просвещение. 1964.
24. Потегня А.А Из записок по русской грамматике. Изд. 2ое. IV. –М.,1941.С.198; Щерба Л.В Избранные работы по языкознанию и фонетике.Т.І. –Л., Изд. ЛГУ. 1958. С.78

UDC 81-13

DISCOURSE ON THEMES IN THE NOVEL OF DORRIS LESSING’S “THE GRASS IS SINGING”

V.O.Davlatova, teacher, Uzbek State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. *Dorris Lessingning aksariyat romanlari o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarga qaratilgan asosiy mavzularga bag'ishlangan. Ushbu romanda Doris Lessing haqiqiy dunyoning shafqatsizligini, asar qahramoni Meri misolida ochib beradi. Meri obrazida ishchilariga qilingan adolatsiz munosabat yoritib beriladi. Biz maqolamizda adiba Dorris Lessing qalamiga mansub "Maysalar kuylaganda" (1950) asarini tahlil qilamiz. Ushbu maqola romanda yozuvchi tomonidan ifoda etilgan mavzularni ko'rib chiqadi. Yozuvchi e'tibor qaratgan mavzular - ayol muammosi, oila, onalikdir. Doris Lessing mazkur asarida Meri orqali madaniyat bilan bog'liq bo'lgan muammolar yoritilgan. U ayolning murakkab tabiatini, o'ziga xos bo'lgan g'arb an'analari mavzu sifatida yoritadi, shuning uchun mazkur asar yozuvchi ijodining yutuqlaridan biri deb qarashimizga asos bo'la oladi.*

Kalit so'zlar: *onalik, ayollik, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, ziddiyat, oila*

Аннотация. *Большинство романов Доррис Лессинг посвящены основным темам резкого социально-экономического неравенства. В этом романе Дорис Лессинг раскрывает жестокость реального мира на примере Марии, героини произведения. В нашей статье мы анализируем произведение «Трава поет» (1950) писательницы Доррис Лессинг. В данной статье рассматриваются темы, выраженные писателем в романе. Темы, на которых акцентирует внимание писатель, - женские проблемы, семья, материнство. В этой работе Дорис Лессинг через Мэри освещаются проблемы, связанные с культурой. Она освещает сложную натуру женщины, уникальные западные традиции как тему, поэтому данное произведение можно считать одним из достижений творчества писателя.*

Ключевые слова: материнство, женственность, монолитная культура, социально-экономическое, неравенство, конфликт

Abstract. *Most of Dorris Lessing's novels deal with major themes of sharp socio-economic disparities. In this novel, Doris Lessing reveals the cruelty of the real world through the example of Mary, the heroine of the work. In my article, I will analyze the work "The Grass Singings" (1950) by writer Dorris Lessing. This article examines the themes expressed by the writer in the novel. The topics that the writer focuses on are women's problems, family, motherhood. In this work Doris Lessing, through Mary, problems related to culture are highlighted. It illuminates the complex nature of a woman, unique western traditions as a theme, therefore, this work can be considered as one of the achievements of the writer's creativity*

Key words: *maternity, femininity, socioeconomic disparities, conflict*

Introduction. Dorris Lessing is outstanding author, because she is a very talented who is dedicated to the grand ambition of altering human consciousness. The narrative voice that permeates her prodigious body of fiction is that of an intense thinker who explores, observes, and describes contemporary society but whose ultimate understanding of human life is that the person, and by extension the human race, is meant to go beyond simple recognition of perceived reality and to struggle with visions of the possible. Her books repeatedly make the argument that if life on this planet is to survive, then people need to change the way they see themselves, the world, and their relationships with one another.

One of the biggest achievement of her, she received the David Cohen Prize in 2001 in recognition of her lifelong contributions to British literature. She was named fifth on a list of "The 50 finest British writers since 1945" by The Times in 2008. Then, the winner of the 2007 Nobel Prize in Literature is Doris Lessing, a novelist who was born in Iran, reared in Rhodesia, and London-residing novelist. Her work is profoundly autobiographical and has been widely read across continents. She was hailed by the Swedish Academy as "that epicist of the female experience, who with skepticism, fire, and imaginative power has submitted a divided civilization to inspection" when the award was announced in Stockholm. The prize includes an honorarium of 10 million Swedish crowns, or roughly \$1.6 million. The 88-year-old Ms. Lessing, who turns a year older this month, never completed high school and primarily self-educated via voracious reading. She is the author of numerous fiction books, plays, nonfiction works, and two volumes of autobiography. She is the 11th woman to receive the Literature Nobel Prize. While returning from a trip to the hospital with her son, Ms. Lessing was informed of the news by a throng of media camped outside her door. I had actually forgotten about it, so I was a little astonished, she admitted. "For such a long time, my name has been on the short list." *The Grass Is Singing*, the first book by British novelist Doris Lessing, was released in 1950. It takes place in southern Africa's Southern Rhodesia (now Zimbabwe) in the 1940s and explores the racial politics between whites and blacks in that nation (which was then a British Colony). It chronicles the hurried marriage of an immature woman to a failing farmer, the mental decline that ensues, the murder of the wife, and the reactions of colonial British society to these events. When the book was originally released, it caused a sensation and immediately found popularity in both Europe and the US. The main topic of the novel is feminism as femininity creates conflict in the fictional universe. Mary, who was engaged to Dick, exemplifies a contemporary, global style of womanhood; the narrator refers to her as "one of the girls" and describes her as independent, gregarious, and attractive. Mary is shown as being girlish and even infantile at this point in her life; the narrator writes that "she still wore her hair little-girl fashion on her shoulders, and wore little-girl frocks in pastel colors." She resists marriage, a trait that only changes when she overhears people making disparaging remarks about the fact that she is not married. This is another example of how independent she is.[3]

Methods and materials. The novel begins with a newspaper article about Mary Turner, a white woman who was murdered by Moses, her black servant. The novel is about The life of Mary, she is pleased with her life as an office worker in a city in Rhodesia after a loveless, miserable upbringing. She decides to get married, even though she has only met Dick Turner twice, after hearing her friends mock her for being immature. Dick is also eager to be married since he is lonely and miserable making a meager living off a subsistence farm and living in a tiny, unpleasant house. Their relationship is cold and distant from the beginning, yet they remain together—except for the brief period when Mary flees—out of fear of being alone and a lack of resources. Dorris Lessing described the theme of feminism, behavioral patterns and conflicts between Mary and Dick in her. Phd research scholar Nadiyah Khushboo mentioned (2020) that Their marriage, which is not based on love or

understanding, is a joint misuse of the other to satisfy their own needs while deluding themselves about the other's propensities.[6]

Mary uses Dick to prove that she is not "a silly person whom nobody needs," while Dick uses her to help him get out of his depression. Mary's marriage illustrates both her inability to transcend her gendered subjectivity and her inability to break out from her group. She observes how her family's lack of resources and restrictions carry over into her marriage. The story combines impoverishment with Mary's current situation, which prevents her from going beyond the rules of behavior. Mary's dysfunctional marriage is a direct result of the neediness she has repeatedly tried to escape. She enters Dick's life and quickly learns that their marriage is a failure. Here Dorris Lessing describes Mary as an independent person having critical thinking even though she failed to growth of their harvest. Because Lessing also, who was raised in a colonial English family in Southern Rhodesia (now Zimbabwe), developed a critical outlook on the social realities she experienced as a young woman. Mary finds out that the farm's failure is not due to bad luck, as Dick keeps telling her, but rather to his incompetence when she gets involved in its management. This further separates her from him. Friendship offers from their white neighbors are declined by Mary due to her poverty-related embarrassment. The stark beauty of the area contrasts with the dismal existence of the Turners, who are unaware of it. Another point of contention is the indigenous that Dick hires black people to work on the property at home. Because they were never a part of Mary's world, black people are viewed with cold contempt. *Per Wästberg*, the president of the Nobel Committee for Literature states about the author's writing approach (Nobel Foundation, 2007) that "she frequently starts by studying her characters from within and then moves outside of them, to strip them of their illusions from an objective distance" Moreover, through her novel *The Grass is Singing*, she supports the class she loathes, not the class she stands for in her real life[7]. In actuality, she stands beside the Rhodesian people who suffer from poverty and inequality while in the novel she stands with the white master instead of the weak black servants. Then Dick assigns Moses to the home, as his best field hand. But he is unaware that Moses has a wound on his face as a result of Mary whipping him in a fit of passion over what she saw as insolence. One night, Mary was murdered by Moses.

Results. Executive, DEI, Retirement Coach Robert Corbett stated that The narrative is not just straightforward and powerful, but also provocative. I do believe Mary's position is essentially the position of all white people in Southern Africa. The Apartheid social structure has placed whites in a paradoxical position of dependency and control, which, like Mary's life, can only result in madness and tragedy. The book is challenging but very engrossing. As it has been mentioned above, one of the main theme of the novel is feminism. Hindi Arora claimed that this subject was skillfully handled by Doris Lessing. She had a clear understanding of the issues facing women. She made a conscious effort to never define herself as a feminist[2]. She always fought to improve women's lives so that their voices might be heard. "Ha, sisters," she once exclaimed, "I stand with you side by side in your struggle toward the glorious dawn where all those terrible males are no more." Through Mary Turner, the main character of the book, she painted a lovely picture of feminism. Next topic of the novel is Conflict within Marriage. The intellectual and marital incompatibility of the well-educated, judgmental Mary and the simple-minded Dick is a major theme in the book. They only have each other for company. By attacking Moses, who later becomes the houseboy, Mary breaks the boundaries of her white domestic world. His physical proximity and presence in the home—which serves as both a container and a synecdoche for the Turners' marriage—gives Mary a covert means of escaping the confines of her relationship with Dick.

Discussion. Critics analyze the novel from the different perspectives: in the novel of the grass is singing, Lessing addresses women's emotional issues during marriage and love, motherhood and work, injustice of insincerity, disaffection of a single career woman, and the hollowness of wedding in the established order and the community. Lessing presents her female characters in a variety of social contexts and from various male-female viewpoints. She makes an effort to mobilize the feminist community to combat patriarchy through her works [4]. William Kerwin associate Professor The first book by Doris Lessing has the clarity of a good short story and the richness of a lengthier book. This portrayal of a farmer's wife's psychological collapse while living with an ineffective husband on a hopeless South African farm is expertly depicted and utterly compelling.

The novel's final third, however, is less strong than the first three. The black house servant Moses is more of a symbol than a human being, and the intended tragedy of the ending slips into melodrama [5].

Conclusion. Dorris Lessing by her first novel "the grass is singing" tries to reveal difficulties and challenges a woman may face in society: An Unintentional Heroine Mary Turner fails in her self-

discovery path, yet she is the heroic woman in this story because she defies the social, and cultural expectations of her audience. So Dorris Lessing conveyed peculiarities of feminism at this point, then she turned to the topic of conflict within marriage. Actually, their marriage is not built on affection and love, but on necessity of both individuals: Dick uses her to help him get out of his depression, while Mary's dysfunctional marriage is a direct result of the neediness she has repeatedly tried to escape. She enters Dick's life and quickly learns that their marriage is a failure. So I can admit that the main themes of the novel is feminism and conflict within marriage.

REFERENCES:

1. Baysal, Kubra. "Reflections of Ecofeminism in Doris Lessing's The Cleft. Master's Thesis. English Language and Literature Department, Graduate School of Social Sciences, Atatürk University, 2013
2. Hindi Content Writer Rajni Arora <https://www.jetir.org/papers/JETIRD06118.pdf>
3. <https://www.litcharts.com/lit/the-grass-is-singing/themes/femininity-maternity>
4. <http://faculty.webster.edu/corbette/personal/reading/lessing-singing.html>
5. <https://www.supersummary.com/the-grass-is-singing/summary/>
6. Nadiyah Khushboo PhD research scholar, department of english, sarvepalli radakrishnan university, NH-12 hoshingabad, misrod, m.p, India-462026
7. Wastberg, P.(2007). Award ceremony speech. Sweden: Swedish Academy, from http://nobelprize.org/nobel_prizes/literature/laureates/2007/presentationspeech.html.com/definition/racism

UO'K 808.5

ADABIY TANQID VA DRAMATURGIYA

M.Sh.Dehqonova, katta o'qituvchi, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. O'zbek adabiy tanqidchiligi o'zining tarixiga ega bo'lgan alohida sohadir. Xususan, tanqidchilik dramaturgiyani ham tahlil va talqin etgan. Dramaturgiya o'zining oshkorligi, harakatlarning yorqinligi bilan boshqa janrlardan farq qilgan. Maqolada dramaturgiya sohasining o'rganilishi va dramaturgiya sohasidagi izlanishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tanqid tarixi, adabiy jarayon, dramaturgiya, tahlil, tadqiq, drama nazariyasi.

Аннотация. Узбекская литературная критика-отдельная отрасль, имеющая свою историю. В частности, критика также анализировала и интерпретировала драматургию. Драматургия отличалась от других жанров своей открытостью, яркостью действия. В статье рассматриваются исследования в области драматургии и исследования в области драматургии.

Ключевые слова: история критики, литературный процесс, драматургия, анализ, исследование, теория драмы.

Abstract. Uzbek literary criticism is a separate field with its own history. In particular, criticism has also analyzed and interpreted dramaturgy. Dramaturgy differed from other genres in its transparency, brightness of action. The article covers the study of the field of playwriting and research in the field of playwriting.

Keywords: history of criticism, literary process, dramaturgy, analysis, research, drama theory.

XX asr o'zbek adabiyotini o'zining takrorlanmas va o'lmas asarlari bilan boyitgan yozuvchi va shoirlar ijodi bo'yicha adabiyotshunoslik hamda adabiy tanqidning turli yo'nalishlarida bir-biriga yaqin yoki biri ikkinchisini takrorlamaydigan, adiblar hayoti, ijodiy prinsiplarini real ko'rsatib beruvchi bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Natijada, adiblar haqida xotiralar, inson sifatidagi xarakteriga, badiiy adabiyot, ilmiy tadqiqot sohasidagi salohiyatiga baho beruvchi qaydlar, adabiyotshunoslik ilmini boyitadigan ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy tanqid o'zining turli davrlardagi namoyishi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, nars, nazm, dramaturgiya sohasini taftish etish orqali o'z taraqqiyoti va shakllanishi uchun xizmat qilib kelgan. Adabiy tanqidiy jarayonda nasr va nazm qancha ko'p tahlil qilingan bo'lsa, dramaturgiya shuncha kam o'rganilgan. Albatta, bu an'analar bilan bog'liq masaladir. Mumtoz adabiyotimizdayoq rivoj topgan bu soha qadimda ham, asosan, nasr va nazm bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratgan.

Dramaturgiya o'zbek adabiyotiga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bizga ma'lumki, dramaturgiya adabiyotning tezkor, oshkora va ayovsiz janrlaridan biridir. O'zbek adabiy tanqidchiligi dastlab matbuotda o'zini namoyon etgan. Har bir davr adabiyotshunosligi o'z-o'zidan gazeta va jurnallarda bo'y ko'rsatadi. O'zbek adabiy tanqidchiligining dastlabki namunalari ham, asosan, matbuotda ko'rinish boshlagan. Ayniqsa, jadidlar bu sohada shijoat ko'rsatgan. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi bo'lgan, xalq ongini o'stirish g'oyasi ham, asosan, matbuot orqali amalga oshirilgan. Bu davrda A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Sa'diy, Elbek adabiyotshunoslik haqidagi

fikrlarini yoritib borgan. Albatta, birinchi tanqidiy maqolalarni chuqur ilmiy-nazariy tadqiqot deb bo'lmasa ham, bu sohaning birinchi qadamlari va tarixiy taraqqiyot davrini ushbu tadqiqotlar belgilab turadi. O'zbek adabiyotida XX asrda rivoj topgan adabiy tanqid Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon kabilarning ijod mahsuli bilan boyib bordi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dramaturgiya sohasi adabiy tanqidchilikda nasr va nazmga nisbatan biroz kam tadqiq etilgan. XX asrda nars va nazm masalalarini tadqiq va tanqid etgan minglab maqolalar va bir qator kitoblar nashr etildi. Shunga qaramay, dramaturgiyani o'rganish oqsoq edi. Buning sababi dramaturgiya sohasining keyinroq paydo bo'lgani bilan bog'liq yoki dramaturgiyaning o'rganilishi bo'yicha tajribalarning yetishmaganligi kabi masalalarga bog'liqdir. Dunyo adabiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan Aristotelning "Poetika" asarida qisman dramaturgiya haqida ma'lumotlar bor: "dramaning o'zi harakat, chunki u harakat qiluvchi shaxslarni aks ettiradi" [1.10.]. Haqiqatan dramaturgiya o'zining oshkoraligi, harakatlarning yorqinligi bilan boshqa janrlardan katta farq qilgan. Shu asarning yangicha talqini sifatida yaratilgan Farobiyning "Shoirilar san'ati qonunlari" kitobida ma'lum bir fikrlar berilgan. Albatta, bu asarlar dramaturgiyaning tamal toshi uchun muhim manbalardan biri bo'lgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adabiy tanqid XX asrning boshlarida asta-sekin rivoj topa bordi. Dastlab matbuotda o'zini namoyish etgan tanqidchilik keyinchalik adabiyotning tarkibiy qismi sifatida taraqqiy etdi. Ayni biz o'rganayotgan dramaturgiyaga munosabatlar ham matbuotda namoyon bo'la boshladi. "Mutaxassislarining aniqlashiga ko'ra, Oktabr o'zgarishigacha dramaturgiyaning o'ttizdan ortiq namunasi yaratildi. Hatto shakllanish davriga kirgan bu adabiy turning tragediya, drama, komediya kabi barcha janrlarida qator asarlar maydonga keldi" [2.4.]. Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahna yuzini ko'rganidan so'ng, taqrizlar birin-ketin bosilib chiqdi. Mana shu sahna asari dramaning o'rganilishi uchun asos bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz. Ammo bu davr taqrizlari hozirgi taqrizlardan farq qilib, biroz bo'shroq edi. Shunga qaramay, soha taraqqiy etishida asosiy bosqich hisoblanadi.

"1943-1944-yillarda "Muqanna" (Hamid Olimjon), "Jaloliddin Manguberdi" (Shayxzoda), "Mahmud Tarobiy" (Oybek), "Ona" (Uyg'un), "Alpomish" (S.Abdulla), "Qaltis hazil" (Uyg'un), "Oftobxon" (Yashin), "Alisher Navoiy" (Uyg'un, Izzat Sulton) dramalarida xalq orzulari ko'rindi" [4.121.]. Dramalar yaratilgan davrda, albatta, ularga matbuotda munosabatlar ham paydo bo'la boshladi. M.Buzruk, Sotti Husayn, I.Sultonlar drama bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirdi. "Cho'lpon, Hamza, Abdulla Avloniy, K.Yashin, Uyg'un, Abdulla Qahhor, I.Sultonlar amaliy ijodiy ishlari bilan birga, o'zlarining nazariy-estetik qarashlari, fikrlari bilan drama va teatrning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar" [2.279.]. Keyinchalik bu borada L.Qayumov, O.Sharafiddinov, H.Abdusamadov, B.Imomovlar ham drama bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratdilar. Bizning tadqiqotimizda 80-90-yillarda dramaning o'rganilishi va o'ziga xosligi e'tiborga olingan. Shu yillar B.Imomovning "Tragediya va xarakter" (1977), "Dramatik mahorat sirlari" kabi tadqiqotlari yaratildi. Ushbu tadqiqotlarda davrning dramalariga baho berilar ekan, uning nazariyasiga oid fikrlar asosida soha shakllanib bordi. Drama nazariyasiga doir qarashlar M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, M.Hamidova, N.Zohidova, E.Muxtorov, T.Ismoilov, M.To'laxo'jayevalarning ilmiy xulosalari asosida boyib bordi [1.11.]. Ushbu sohada keng ko'lamli tadqiqot olib borgan olimlardan biri H.Abdusamadovdir. Uning drama nazariyasiga doir ishlari drama sohasining o'rganilishida muhim manba bo'lib qoldi. "U ilk bor o'zbek dramaturgiyasida konflikt muammosini va o'zbek adabiyotida satira masalalarini keng ilmiy planda tadqiq qilgan yirik olimdir...Dramaturgiyaning nazariy masalalari bilan faol shug'ullanib borishi natijasida "Drama nazariyasi" nomli salmoqli asari maydonga keldi" [4.127.].

Drama nazariyasiga doir ushbu tadqiqot "Drama-adabiyotning gultoji", "Konflikt-dramaning qalbi", "Harakat-dramaning qon tomiri", "Xarakter-dramaning mezoni", "Sujet va kompozitsiya-dramaning qolipi va qiyofasi", "Drama-rang-barang janr", "Til-dramaning badiiy libosi", "Teatr-dramaning tanasi, ma'naviyatning badiiy mash'ali" kabi bo'limlardan iborat. Tadqiqotda dramaning o'ziga xosligi, dramaturgik konflikt, dramatik harakatning estetik xususiyati, dramaturgiyada badiiy xarakter, sujet va kompozitsiya, dramaning janr xususiyati kabi masalalar tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslikda dramatik turning o'rganilishi uchun muhim manbadir. Bundan tashqari, Sh.Rizayevning "Jadid dramasi" nomli tadqiqot ishi ham dramatik turning tarixiy ildizlari, yangi o'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida o'zbek dramaturgiyasi tarixi, jadid dramaturgiyasi va teatr, shakllanish xususiyatlari, davrlashtirish masalalari tadqiqi etilgan. "Sh.Rizayev deyarli o'ttiz yildan buyon jaded dramaturgiyasi muammolarini o'rganib keladi. Bu yo'nalishda u o'nlab ilmiy maqolalar yozdi. "O'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanishi manbalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi" [4.371.]. Dramatik tur bo'yicha,

asosan, ikki manba: Sh.Rizayevning “Jadid dramasi” hamda H.Abdusamatovning “Drama nazariyasi” muhim tadqiqot sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 152 b.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.–287 b.
3. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 317 b.
4. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Тошкент: Cho'lpon, 2012. – 431 b.

UO'K 811.581

XITOIY TILINI O'QITISHDA TO'LIQLOVCHILARNING (补语) O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI

D.M.Djurayev, PhD, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand
M.R.Radjabova, talaba, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilida ko'p qo'llaniladigan va gapga qo'shimcha ma'no ortiradigan 补语 (bǔyǔ) ya'ni o'zbek tilida to'liqllovchi deb atalgan grammatik birliklarning foydalanish qoidalari yoritilib berilgan. Maqolada kundalik so'zlashuvda hamda rasmiy so'zlashuvda ishlatiladigan to'liqllovchilar guruhlariga qisqacha tarif berilgan, misollar orqali yanada aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: 补语 (bǔyǔ), 结果补语 (Jiéguǒ bǔyǔ), 可能补语 (Kěnéng bǔyǔ), 程度补语 (Chéngdù bǔyǔ), 趋向补语 (Qūxiàng bǔyǔ), 介宾补语 (Jièbīn bǔyǔ), 时量补语 (Shí liàng bǔyǔ), 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ), 数量补语 (Shùliàng bǔyǔ).

Аннотация. В данной статье описаны правила употребления грамматических единиц, называемых 补语 (bǔyǔ), т.е. дополнений в русском языке, которые часто используются в китайском языке и придают предложению дополнительный смысл. В статье дается краткая характеристика групп дополнений, употребляемых в повседневной и официальной речи, с дальнейшим уточнением на примерах.

Ключевые слова: 补语 (bǔyǔ), 结果补语 (Jiéguǒ bǔyǔ), 可能补语 (Kěnéng bǔyǔ), 程度补语 (Chéngdù bǔyǔ), 趋向补语 (Qūxiàng bǔyǔ), 介宾补语 (Jièbīn bǔyǔ), 时量补语 (Shí liàng bǔyǔ), 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ), 数量补语 (Shùliàng bǔyǔ).

Abstract. This article describes the rules of using grammatical units called 补语 (bǔyǔ), complements in English, which are often used in the Chinese language and add additional meaning to the sentence. The article gives a brief description of the groups of complements used in everyday and formal speech, further clarified through examples.

Key words: 补语 (bǔyǔ), 结果补语 (Jiéguǒ bǔyǔ), 可能补语 (Kěnéng bǔyǔ), 程度补语 (Chéngdù bǔyǔ), 趋向补语 (Qūxiàng bǔyǔ), 介宾补语 (Jièbīn bǔyǔ), 时量补语 (Shí liàng bǔyǔ), 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ), 数量补语 (Shùliàng bǔyǔ).

Kirish. Xitoy tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan xitoy tili grammatik komponentlari bor bular to'liqllovchilar deyiladi. Xitoy tilidagi to'liqllovchilarining o'zbek yoki ingliz tiliga aniq bir tarjimai yo'q, uni biz to'ldiruvchi, fe'lli birikma, hol sifatida aytishimiz mumkin lekin shu o'rinda qo'llanishida ham biroz farq qiladi. To'liqllovchilarning bir necha guruhlari bor va ular quyidagilar:

1. 结果补语 (Jiéguǒ bǔyǔ) – natija to'liqllovchisi.
2. 可能补语 (Kěnéng bǔyǔ) – imkoniyat to'liqllovchisi.
3. 程度补语 (Chéngdù bǔyǔ) – daraja to'liqllovchisi.
4. 趋向补语 (Qūxiàng bǔyǔ) – yo'nalish to'liqllovchisi.
5. 介宾补语 (Jièbīn bǔyǔ) – predlogli to'liqllovchi.
6. 时量补语 (Shí liàng bǔyǔ) – vaqt to'liqllovchisi.
7. 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) – fe'l to'liqllovchisi.
8. 数量补语 (Shùliàng bǔyǔ) – miqdor to'liqllovchisi.

Adabiyotlar tahlili va metod. To'liqllovchi gapda asosan harakatning natija, daraja, yo'nalish, imkoniyat, holat, miqdor, maqsadini aniqlashtirib, to'ldirish uchun ishlatiladi. To'liqllovchilar gapning ma'nosini emas, balki, kesimning ma'nosini to'liqlab keladi.

Grammatik xususiyatlari:

1. To'liqllovchilar har doim asosiy fe'ldan keyin keladi.

2. Asosan sifat, fe'l, miqdor-sanoq so'zlar va fe'lli birikmalar to'liqllovchi sifatida keladi.
3. Kopincha 得 tuzilmasi asosiy fe'l va to'liqllovchining o'rtasida keladi.
4. Odatda to'liqllovchi bilan anqlashtirilgan fe'l o'zi bilan to'ldiruvchini ham olib kelishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Xitoy tilida to'liqllovchilarning bir necha guruhlari bor. Eng ko'p qo'llaniladigan to'liqllovchilar guruhi bu **natija to'liqllovchilaridir** va ular xitoy tilida 结果补语 (Jiéguǒ bǔyǔ) deyiladi. O'z nomidan ma'lumki ular fe'lning natijasini ko'rsatib keladi, ya'ni, tugagan yoki tugamagan, qoniqarli yoki qoniqarsiz va shu kabilar. Eng sodda 结果补语 bu ”好, 完“dir. Natija to'liqllovchisidagi “好”to'ldiruvchisi “吃好”va “准备好”kabi fellarda ishlatiladi va ish-harakat qoniqarli tugaganligini bildiradi va “yeb bo'lindi (natijasi qoniqarli)”, “tayyorlanib bo'lindi (natijasi qoniqarli)” deb tarjima qilinadi. Faqat harakatning tugaganligini anglatishda ”完“ natija to'liqllovchisi ishlatiladi. Masalan, “我吃完了” ya'ni “Men yeb tugatdim (natijasi qoniqarli yoki qoniqarsiz ekanligi noma'lim, shunchaki ish – harakat tugadi)”. Ammo “好” to'liqllovchisi ikkala ma'noda ham kelishi mumkin, ya'ni: “我吃好了. Bu o'rinda “Men ovqatni yeb tugatdim” deb ham, “Men ovqatni zavq bilan yeb tugatdim” deb ham tarjima qilsa bo'ladi.[2;4] Masalan:

- 1) 今晚的电影小刚已经买**好**票了。
- 2) 饭还没做**好**, 请你等一会儿。
- 3) 去旅游的东西准备**好**了吗?
- 4) 我还没想**好**要不要跟你去呢。

Keyingi yana bir ko'p qo'llanadigan to'liqllovchilardan biri bu **可能补语** (Kěnéng bǔyǔ), ya'ni **imkoniyat to'liqllovchisi**. Bu guruh to'liqllovchilari fe'lning imkoniyatini to'liqlashtirib keladi. Masalan, biron nimani ko'ra olish yoki ko'ra olmaslik imkoniyati: “看得见”, “看不见”; tog'ga chiqa olish yoki chiqa olmaslik imkoniyati: “爬得上”, “爬不上”. [3;123] Yanada to'liqlro misollarda ko'radigan bo'lsak:

- 1) 地图上的字太小了, 我看不见。
- 2) 他的视力很好, 他看得见。
- 3) 山太高了, 我累死了, 爬不上山顶了。
- 4) 她经常锻炼, 身体好, 她能爬得上山顶。

Navbatdagi to'liqllovchi **程度补语** (Chéngdù bǔyǔ) ya'ni **daraja to'liqllovchisi**. Daraja to'liqllovchisi grammatik shakl bo'lib, fe'l yoki sifatdosh bilan to'ldiruvchi orasiga “得” qo'shilishi bilan hosil bo'lib, ma'lum bir harakat darajasini ifodalaydi. [1;284] Bu qoidani misollarda ko'radigan bo'lsak yanada tushinarli bo'ladi:

- 1) 他跑得很快。
- 2) 他说得不太流利。
- 3) 老师讲得非常清楚。
- 4) 你写得十分漂亮。

趋向补语 (Qūxiàng bǔyǔ)- bu **yo'nalish to'liqllovchilaridir**, ular fe'ldan keyin qo'llanilib, harakatning yo'nalishini ko'rsatuvchi to'liqllovchilardir. Yo'nalish to'liqllovchilari ikkiga bo'linadi:

- Sodda yo'nalish to'liqllovchilari;
- Qo'shma yo'nalish to'liqllovchilari.

Sodda yo'nalish to'liqllovchilari fe'ldan keyin “来” yoki “去” fe'llarining qo'shilishi orqali yasaladi va ish-harakatning maylligini bildiradi, “来” ish-harakat maylining so'zlovchiga yuz tutishini ta'kidlaydi, “去” esa aksincha: [4;40]

- 上来, 上楼来, 上山来,
- 下山来, 下楼来,
- 回来, 回学校来, 回宿舍来.
- 上去, 上楼去, 上山去,
- 回去, 回学校去, 回家去,
- 出去, 进办公室去, 进宿舍去.

Qo'shma yo'nalish to'liqllovchilari esa fe'ldan keyin “上, 下, 进, 出, 回, 过, 起, 到” hamda “来, 去” so'z birikmalarining qo'shilishi orqali yasaladi: [4;51]

- 走进教室来,
- 带回家来, 跑进宿舍去,

- 送回国去,买回来了一台电视机,
- 带回去了一本词典.

介宾补语 (Jièbīn bǔyǔ)- bu guruh to'liqlovchilari o'zbek tilidagi predloglarga to'g'ri keladi, ularni predlogli to'liqlovchi deb atasak ham bo'ladi. “自”, “给”, “往, 向”, “在, 到, 成”, “于” kabi predloglar 介宾补语 guruhiga kiradi.

- 来自美国, 产自东北, 出自广东.
- 送给别人, 买给他们了.
- 开往上海, 飞往德国.
- 走向未来, 面向 21 世纪.
- 走在路上、躺在床上、放在桌子上.
- 开到楼下、送到家里、带到教室
- 天写成夫, 左念成右、大看成太.
- 这个组织成立于三十年前. [4;51]

时量补语 (Shí liàng bǔyǔ) ya'ni **vaqt to'liqlovchisi**- ular fe'ldan keyin harakatning davomiyligini to'liqlash uchun vaqt davrini ifodalovchi so'zlardir. Bu vaqt miqdori to'liqlovchilarning eng keng tarqalgan va standart ko'rinishiga misollar:[4;56]

1. 他学了三年英语。
2. 昨天晚上你又看了一个小时电视！
3. 我一共打了二十分钟电话。

动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) . Harakatning necha marta sodir bo'lishini ko'rsatish uchun fe'llarga **momentum to'liqlovchilari** qo'shiladi, ularni biz **fe'ning miqdor so'zlari** deb tushunsak ham bo'ladi. “次, 遍, 回, 趟, 下儿, 顿, 阵, 番” va yana shu kabi so'zlar fe'ning miqdor so'zi sifatida ishlatilib, **动量补语** deb ataladi.[4;57]

1. 来北京以后我看过两次电影。
2. 老师让我每天念三遍课文。
3. 玛丽已经来过两趟北京了。
4. 的我们都找过两次李老师了。
5. 他去了三回长城。

数量补语 (Shùliàng bǔyǔ). **Miqdor to'liqlovchilari** odatda qiyosiy gaplarda yoki qiyosiy ma'noga ega bo'lgan gaplarda solishtirishning o'ziga xos farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Miqdor to'liqlovchisidagi miqdor o'ta aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, bu esa o'ziga xos til muhitiga qarab belgilaniladi.[4;58]

1. 我比你大三岁。
2. 今天比昨天低五度。
3. 这个比那个长一点儿。
4. 你比我大得多。

Xulosa qilib aytganda, 补语 (bǔyǔ) ya'ni to'liqlovchilar xitoy tilida ko'p qo'llaniladi va shundan kelib chiqqan holda to'liqlovchilarning grammatik qoidalari hamda tushunchalarini bilish xitoy tilini o'rganuvchilar uchun muhim sanaladi. To'liqlovchilar o'zbek tilida aynan bir grammatik tuzilmaga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun ham aniq bir tarjimasi yo'q, ular so'zga, asosan, fe'llarga qo'shimcha ma'no yuklab kelishadi. Xitoy tilini o'rganayotganlarning ko'pchiligida to'ldiruvchi hamda to'liqlovchining farqini tushunish qiyinchilik tug'diradi, til o'rganuvchilarning asosiy muammolaridan biri shu bo'lishi ham mumkin. Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi va to'liqlovchini bir biriga taqqoslab o'rganish o'zbek talabalari uchun biroz murakkab hisoblanadi. To'ldiruvchi — gapning ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanadigan, harakatning ob'yekti bo'lgan predmetni ko'rsatib, asosan kesimga bog'lanadigan gap bo'lagidir, To'liqlovchi gapda asosan harakatning natija, daraja, yo'nalish, imkoniyat, holat, miqdor, maqsadini aniqlashtirib, to'ldirish uchun ishlatiladi. To'liqlovchilar gapning ma'nosini emas, balki, harakatni ifodalagan so'zning ma'nosini to'liqlab keladi. Ularning turlari ko'p va ma'nosi har xil. Bu maqolada to'liqlovchilarning ko'p qo'llaniladigan turlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A practical chinese grammar for foreigners (revised edition) -北京：北京语言大学出版社，2008, (652 pages)
2. Jiang Liping. Standart course HSK3 -北京：北京语言大学出版社，2009, (190 pages).
3. Сюй Цзиннин; [пер. с кит. К.В. Агеева]. — Москва: Издательство АСТ, 2021. — 480 с. — (Школа китайского языка).

4. Zhu Qingming, Modern Chinese Practical Grammar Analysis Second Edition Part 1, Tsinghua University Press, (246 pages).

5. <https://www.coursera.org/lecture/hanyu-yufa/ke-shi-1-jie-guo-bu-yu-2Wca9>

UDC 811.111

DIFFICULTIES IN TRANSLATING AGATHA CHRISTIE'S MURDER ON THE ORIENT EXPRESS

S. Erkinov, PhD, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand
V. Kilicheva, student, Samarkand State Institute of Foreign, Samarkand

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon durdonalaridan biri bo'lgan Agata Kristi qalamiga mansub "Sharq ekspressida qotillik" asarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni haqida. Qiyinchilikga duch kelgan tarjima usullarini tahlil qilish oydinlik kiritadi. Zamonaviy tarjima talablari yangilanadi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati o'zgarmaydi.

Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ta'lim darajasiga bog'liq o'z navbatida xalqning ijtimoiy tafakkuriga, shu bilan birga tarjimaga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda qo'llaniladigan tarjima usullari ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tushinishi uchun ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilindi.

Ob'ekt sifatida tanlangan leksemalar to'qimalar bo'lgani uchun ularning asardagi vazifasi va xarakteri belgi leksemalaridan oldin o'ylab topilib, keyin lingvistik qoliplarga kiritildi.

Kalit so'zlar: Agata Kristi, detektiv fantastika, ko'ngilochar fantastika, transformatsiyalar, inglizcha-o'zbekcha tarjima, tarjima muammolari, to'g'ridan-to'g'ri va so'zma-so'z tarjima, o'zgartirilgan tarjima, detektiv janr, tarjima mahorati

Аннотация. В этой статье рассказывается о процессе перевода одного из мировых шедевров Агаты Кристи «Убийство в Восточном экспрессе» с английского на узбекский язык. Анализ способов перевода, встречающихся в затруднении, проливает свет. Современные требования к переводу будут обновлено. Но его творческий характер, искусство воссоздания, не меняется.

Объем и ход перевода зависят от образовательного уровня каждой нации в свою очередь, эффективно влияет на социальное мышление нации, и в то же время перевод. Методы перевода, используемые в процессе, также играют важную роль. Он был проанализирован с учетом влияющих факторов, чтобы читатель понял его.

Поскольку лексемы, выбранные в качестве объектов, являются тканями, их функция и характер в произведении продумывались до лексем персонажей, затем он был помещен в лингвистические модели.

Ключевые слова: Агата Кристи, детективная литература, развлекательная литература, трансформации, англо-узбекский перевод, переводческие проблемы, прямой и дословный перевод, модифицированный перевод, детективный жанр, переводческое мастерство.

Abstract. This article is about the process of translating "Murder on the Orient Express" written by Agatha Christie, one of the world's masterpieces, from English to Uzbek. The analysis of the translation methods encountered in the difficulty sheds light. Contemporary translation requirements will be updated. But its creative character, the art of re-creation, does not change. The scope and progress of translation depends on the educational level of each nation in turn, it effectively influences the social thinking of the nation, and at the same time the translation. The translation methods used in the process also play an important role. It was analyzed taking into account the influencing factors for the reader to understand it. Because the lexemes chosen as objects are tissues, their function and character in the work was thought out before the lexemes of the characters then it was put into linguistic patterns.

Key words: Agatha Christie, detective fiction, entertainment fiction, transformations, English - Uzbek translation, translation problems, direct and literal translation, modified translation, detective genre, translation skill

One of the types of translation that has become an important aspect of fiction today is the direction of translation carried out in an artistic way. To translate a work of art, the vocabulary of the language, such as synonyms and homonyms, professional terms, slang, obsolete and vulgar words, caress and diminutives, idioms, proverbs, sayings and phrases, as well as the musicality and melody of words, it is necessary to know polysemy, pronunciation standards of the language, features of exaggeration and reduction, forms of humor. The scientific description of artistic translation consists

in the fact that it is important not to give words with words, but with meaning with meaning, image with image, and humor with humor.

Today, in a world characterized by global communication, information is exchanged between languages translation plays a key role. It is natural and professional to convey meaning from one language to another in order to move along the continuum, the translator must learn some skills in the translation process. Different scholars differ on aspects of the translation process looked at, so they define and describe different types of strategy.

Vinay and Darbelnet mention only two methods of translation: direct or literal translation and modified translation.

This strategy allows a person to automatically recognize the corresponding surface structures of the two languages, translating texts or passages that he does not fully understand.

The queen of the detective genre

Agata's work, which was not so happy in her personal life, is the beginning of an inexhaustible treasure for literature and especially for the devils of the detective genre. Let's turn to some interesting aspects related to the life of Agatha Christie. Agatha Christie was asked: "Why are two of your novels of equal volume and with similar events selling for different amounts?". Clever Christy: "Because the number of murders in one of them is twice as many as the number of murders in the second book!" - as he answered;

Agatha Christie's detective novel "Murder on the Orient Express" was first published in England on January 1, 1934. A journey on a European luxury train unexpectedly turns into the most amazing mystery in history. The novel is about thirty passengers who are under suspicion.

Agatha Christie traveled on the magnificent "Oriental Express" train several times. His return from Turkey to England in December 1931 was particularly memorable, as he encountered many difficulties during the journey due to bad weather. Another incident - in January 1929, "Eastern Express" was hit by a snowstorm and stopped for six days, also gave impetus to the idea of the work. In addition, the kidnapping of the famous American pilot Charles Lindbergh's child in March 1932 was the basis of the plot of the novel. The film tells the story of thirteen passengers on a train, each of whom is under suspicion. And only the detective has to solve the puzzle as quickly as possible, before the criminal strikes again.

Murder on the Orient Express is one of Agatha Christie's most famous stories. It is a complex mystery that revolves around a group of characters cut off from the world in which Poirot demonstrates not only the power of his little gray cells, but also his concern and compassion for humanity.

The main plot of the story was taken from Agatha Christie's headlines at the time, the kidnapping of Charles Lindbergh's son, a gruesome real-life murder and extortion mystery that had not yet been solved when Murder on the Orient Express was published. Case in point, Christie had long professed a love of the Orient Express and finally achieved his dream of traveling on it in 1928 on his first solo trip abroad. In writing the story, he carefully noted the details of the carriages information such as the location of doorknobs would be crucial to Poirot's investigation.

This is one of the most important means of realizing the author's intention serves as and collects a large amount of information. Translation has two contents: the process of translation and the work resulting from the process. Balancing both of these is difficult. Translator writer or it takes time for the author to understand his style. How sharp is the writer's pen if there is, the translator's skills should be equally strong.

Table- 1

	English version	Uzbek version
1	"Nothing presses—I shall remain there as a tourist for a few days."	Men shoshmayapman, shaharni obdon ko'rishim mumkin.
2	She turned away from him and went down the corridor to join Colonel Arbuthnot.	Qiz o'grilib yo'lakning oxirida ko'ringan polkovnik Arbetnotga peshvoz chiqdi .
3	Ten minutes later the train started again.	O'n daqiqa ham o'tmay, poezd joyidan jildi .
4	His eyebrows rose a little at the sight of the telegram.	Telegrammani ko'rib, taajjub bilan qoshlarini kerdi .
5	"Some little success I have had, perhaps." Hercule Poirot tried to look modest but failed signally.	:Xa, uncha-muncha muvaffaqiyatga erisha oldim, - dedi Puaro kamtar ko'rinishga urinib, lekin buning uddasidan chiqolmadi .
6	His pyjama jacket, stained with rusty patches, had been unbuttoned and thrown back.	Uning qizg'ish qon dog'lari bosgan qalin pijamasining ko'kragi ochiq edi .

Translation methods in creating images of a literary work, its main theme and participates in the placement of motifs, the formation of artistic time and space, provides not only factual but also

subtext information. of the text opening its ideological-aesthetic content, often revealing its hidden meanings. "Images included in the literary text without sufficient semantics comes out semantically enriched and certain associative meanings serves as a signal that triggers the complex".

First, the translation the whole body of the work and the translator to be correct and understandable will have to work with and has certain historical and cultural foundations it is also desirable.

Second, the modality of the author is the same in every field or this is manifested in the selection of the situation, taking into account its etymology, proper names in their interaction form the onomastic space of the text, analyzing them between different characters of the work in their dynamics to reveal existing connections and relationships, his artistic world allows to reveal the features.

Table- 2

	English version	Uzbek version
1	They lived in America and had one child—a girl whom they idolized.	Armstronglar o'zlarining yolg'iz farzandlari, yer-u ko'kka ishonmaydigan qizlari bilan Amerikada yashardilar.
2	It is not necessary that he should be killed on the Orient Express. There are other places.	Uni sharqiy ekspresda o'ldirishning keragi yo'q edi. Boshqa joy qurib qolgandek .
3	"Do not distress yourself," said the latter kindly	Xafa bo'lmang,- dedi direktor ko'ngilchanlik bilan .
4	No, indeed, sir." The valet's tone held positive warmth and feeling for the first time.	Albatta,yo'q ser, xizmatkorlarning ehtirossiz ovozida ilk bor g'azab ohangi sezildi.
5	Mrs. Hubbard arrived in the dining-car in such a state of breathless excitement that she was hardly able to articulate her words.	Missis Habbard harsillab vagonga otilib kirganda , hayajondan zo'rg'a gapira oldi.
6	Poirot, who had been fidgeting slightly, seized his opportunity.	Puaro, u joyida tipirchilab qolgandi, sergap xonimning gapini bo'lishga oshiqdi .

We can see Agatha Christie's skillful use of the word in the following table. He showed skill not only in choosing words, but also in phrases. The creative work of the translator is also of great importance, because he skillfully chose the words to translate into Uzbek and preserved your artistry.

I'd like to get busy - **qo'l qovushtirib o'tirmoq**; Arrived in the dining-car- **vagonga otildi**; Tone held positive warmth- **ehtirossiz ovozida**; There are other places- **qurib qolgandek**; They idolized- **yer-u ko'kka**.

Murder on The Orient Express was favorably reviewed and praised in England. It was made into a film in 1974 and is one of the most successful British films ever made. Even Agatha, who generally expressed dislike for film versions of her books, expressed appreciation. In 1981, a girl was murdered in Bamberg, West Germany, in the same manner Ratchett is killed in the novel and film. The murder was considered a "carbon copy" of the crime in Christie's novel.

Christie often constructed his plots by conjuring up an exotic locale and then imagining the aftermath of the murder. However, not everything was planned. In the book, the train gets stuck in a snowdrift, giving Poirot time to collect clues and interview each passenger. Prichard notes that in 1929, the real Orient Express was caught in a blizzard, and later the Orient Express on which Christie was riding was flooded and parts of the track were washed away.

Christie, the most famous writer in history, despite his fame as a writer, he preferred to observe people rather than talk to them. He was "very reserved, very quiet," Prichard said. "She had these things in her head, these were conspiracies, but if you met her and didn't know, you'd think she was a lovely old lady in her later life."

REFERENCES:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-o-zbekmaqolaryin>
2. <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115> Hejwowski, K. (2004). Kognitywno-komunikacyjna teoria przekladu [The Cognitive Communicative Theory of Translation]. Warszawa: Wydawnictwo Naukowe PWN
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Agatha_Christie
4. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROWLING'S "Bidl the tales of beedle the bard anthroponym in the work from uzbeki to english problems in translation. in mejdunarodnaya nauchnaya conference:" *sovremennye filologicheskie paradigmy: vzaimodeystvie traditional i innovative ii*" (vol. 2, no. 18.03, pp. 554-560).
5. <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115> Hejwowski, K. (2004). Kognitywno-komunikacyjna teoria przekladu [The Cognitive Communicative Theory of Translation]. Warszawa: Wydawnictwo Naukowe PWN
6. Lörcher, W. (2005). The translation process: Methods and problems of its investigation. *Meta*, 50(2), 597-608.
7. Lörcher, W. (1991). Translation Performance, Translation Process and Translation Strategies: A Psycholinguistics Investigation. Tübingen: Gunter Narr
8. Jalilova Nilufar Dilshodovna (2019). Uzbek and English idioms lingual analysis of comparison. *Vestnik science and education*, (20-2 (74)), 48-52.
9. Safaraliev, Bozor professor; Bakiyeva, Professor Gulandom; and Nasrullaeva, professor Nafisa (2020) —Check English and Uzbek Idiomatic Phrases LINGO-CULTURAL ASPECTS, *Issues of Philology*: Vol. 2020: Iss. 3, Article

10. Haydarov A., Choriyeva Z. Semantic-grammatical analysis of phrasal units in English methodological psychological. The lexical-semantic system of the language and comparative typological studies: assessment, collection of dichrony materials. - T.: Editor. 2012. -B.8-10. 6. Haydarov A., Jorakulova G

UO'K 81-119

TILSHUNOSLIKDA GRAMMATIK ATAMALARNING SEMANTIK TAHLILI

O.M. Fayzullayev, dots., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
M.A.Baxronova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola grammatik terminlarning semantik mohiyatini o'rganish bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatdan ifodalashning turli vositalari va usullarining mavjudligi va ularni tizimlashtirish va batafsil o'rganish zarurati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Semantika, morfologik, kontekst, semantik tahlil, sintaktik.

Аннотация. В данной статье речь идет о существовании различных средств и методов теоретического и практического выражения, связанных с изучением смысловой сущности грамматических терминов и необходимости их систематизации и детального изучения.

Ключевые слова. Семантика, морфологический, контекст, семантический анализ, синтаксический

Abstract. This article deal with the existence of various means and methods of theoretical and practical expression related to the study of the semantic essence of grammatical terms and the need for their systematization and detailed study.

Key words. Semantics, morphological, context, semantic analysis, syntactic

Matnning semantik (ma'noviy) tahlili tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) va kompyuter tilshunosligi bilan bog'liq sun'iy intellekt tizimlarini yaratish nazariyasining asosiy muammolaridan biridir. Semantik tahlil natijalari, masalan, psixiatriya (bemorlarga tashxis qo'yish uchun), siyosatshunoslik (saylov natijalarini bashorat qilish), savdo (muayyan tovarlarga "talab" ni sharhlar asosida tahlil qilish) kabi sohalaridagi muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin. ushbu mahsulot), filologiya (mualliflik huquqi matnlarini tahlil qilish), qidiruv tizimlari, avtomatik tarjima tizimlari va boshqalar. Inson hayotining deyarli barcha sohalarida dolzarb bo'lishiga qaramay, semantik tahlil eng qiyin matematik muammolardan biridir. Butun qiyinchilik kompyuterni matn muallifi o'z o'quvchilariga va tinglovchilariga etkazishga harakat qilayotgan tasvirlarni to'g'ri talqin qilishni "o'rgatishda" yotadi. Tasvirlarni "tanib olish" qobiliyati boshqa tirik organizmlar kabi insonning ham asosiy mulki hisoblanadi. Tasvir - bu ob'ektning tavsifi. Uyg'onishimizning har bir daqiqasida biz tan olish harakatlarini bajaramiz. Biz atrofimizdagi narsalarni taniymiz va shunga muvofiq harakat qilamiz va muayyan harakatlar qilamiz. Biz olomon orasidan do'stimizni payqashimiz va uning nima deyayotganini tushunishimiz, do'stimizning ovozini taniy olishimiz, qo'lyozmani o'qishimiz va barmoq izlarini aniqlashimiz, tabassumni yomon jilmayishdan ajrata olamiz. Inson juda murakkab axborot tizimi - ma'lum darajada, bu insonning tasvirlarni tanib olish qobiliyatining nihoyatda rivojlanganligi bilan belgilanadi [1]. Tabiiy til, masalan, kompyuter (algoritmik) tillardan farqli o'laroq, rasmiylashtirilmagan, asosan o'z-o'zidan shakllangan. Bu, masalan, kontekstga qarab bir xil so'zlarning noaniq talqini tufayli matnni tushunishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa, asosan, matnning o'zidan chiqarib tashlanishi mumkin emas. Shuning uchun ushbu kontekst yoki mavzu bo'yicha bilimlar tizimga oldindan kiritilishi kerak. Bundan tashqari, ko'pincha amaliy vazifalar vaqtini, matnda tasvirlangan narsaning o'rnini, odamlarni aniq aniqlashni va hokazolarni aniq belgilashni talab qiladi, bunday ma'lumotlar berilgan matndan tashqarida. Bunday holda, tizim ushbu ma'lumotni qayta ishlamasligi yoki kontekst aniqlanmaguncha uni tark etishi va hatto kontekstni aniqlashtirishda tashabbus ko'rsatishga harakat qilishi mumkin, masalan, matn kiritishni o'rnatuvchi operator bilan suhbatda. Bunday vaziyatda tizim o'zini qanday tutishi tizimning uslubi va sxemasi bilan belgilanadi. Sanoat matnlarini avtomatik qayta ishlash tizimlari hozirda asosan matn tahlilining ikki bosqichidan foydalaniladi: morfologik va sintaktik. Biroq ko'pgina tadqiqotchilarning nazariy ishlanmalari sintaktikdan keyingi semantik bosqich mavjudligini ko'rsatadi. Oldingi bosqichlardan farqli o'laroq, semantik bosqichda kirish matnini tashkil etuvchi so'zlar va tuzilmalar ma'nosining rasmiy ifodasi qo'llaniladi. **Semantik tahlilning** mohiyatini turli tadqiqotchilar turlicha tushunadilar. Ko'pgina olimlarning fikricha, **semantik tahlil doirasiga quyidagilar kiradi:** - so'z va tuzilmalarning semantik talqinini qurish; - matn elementlari o'rtasida endi tubdan bir so'z hajmi bilan cheklanmagan (ular bir so'zdan ko'p yoki kamroq bo'lishi mumkin) "ma'noli" semantik aloqalarni o'rnatish. Ba'zi olimlar matnni nafaqat uning tarkibiy so'zlari, jumalari, paragraflari

asosida ko'rib chiqishni, balki ushbu matn orqali muallif o'z o'quvchilari ongida yaratmoqchi bo'lgan semantik obrazni aniqlashga harakat qilishni taklif qiladilar. Sun'iy intellekt rivojlanishining hozirgi bosqichida bu vazifani deyarli hal qilib bo'lmaydi [2]. Tabiiy tilni qayta ishlashda matnni tushunishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

1. Tizim tomonidan kontekst va muammoli sohani bilish va tizimni o'rgatish. Masalan, "Tokchada ko'k gulli choynak turibdi" jumlasida gulli choynak ham, ko'k gul kabi tushunchalar hosil bo'lishi mumkin. Biroq bu holatda ko'k sifatining gulga nisbatan ishlatilish ehtimoli yuqoriroq. Chunki aksincha bo'lganda gulli ko'k choynak iborasi ishlatilgan bo'lardi.

2. Turli tillarda gapning sintaksisini (ya'ni tuzilishini) turli shakllari. Masalan, ingliz tilidagi nutqda so'zning (mavzu, predikat, ta'rif va hokazo) sintaktik roli asosan so'zning gapdagi boshqa so'zlarga nisbatan tutgan o'rni bilan belgilansa, o'zbek tilidagi gapda erkin so'z tartibi mavjud bo'lib, so'zning sintaktik rolini uning morfologik belgilari, yordamchi so'zlar va tinish belgilari belgilab beradi.

3. Ekvivalentlik muammosi. Masalan, "Uzun quloqli kemiruvchi mendan qochib ketdi" va "Quyvon mendan qochib ketdi" jumalari bir xil ma'noni anglatishi mumkin, ammo ular turli xil ma'nolarga ega bo'lishi ham mumkin. Ya'ni birinchi holatda uzun quloqli boshq kemiruvchi ham nazarda tutilgan bo'lishi ehtimoli ham bor.

4. Matnda kompyuter uchun yangi so'zlarning, masalan, neologizmlarning mavjudligi. O'zi o'rganadigan tizim ushbu so'zning leksik rolini, morfologik shaklini mantiqan (ehtimol noto'g'ri, lekin keyinchalik tuzatish qobiliyati bilan) aniqlay olishi, uni mavjud bilimlar tarkibiga moslashtirishga harakat qilishi kerak. O'z-o'zini o'rganishga qodir bo'lmagan tizim ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni yo'qotadi.

5. Yangi ma'lumotlarning to'plangan bilimlar bilan mosligi muammosi. Yangi ma'lumotlar qandaydir tarzda allaqachon to'plangan ma'lumotlarga zid bo'lishi mumkin. Qaysi hollarda eski ma'lumotni rad etish va qaysi yangi ma'lumotni rad etish kerakligini aniqlaydigan mexanizmni amalga oshirish kerak.

6. Vaqtinchalik qarama-qarshiliklar muammosi. Demak, "Tog'larni talqon qilaman deb o'ylagandim" gapida "o'yladim" fe'lining o'tgan zamon shakli "talqon qilaman" kelasi zamon fe'li bilan birikkan.

7. Ellips muammosi, ya'ni, aslida etishmayotgan, lekin so'zlarning konteksti tufayli bilvosita mavjud bo'lgan so'zlar bilan bog'liq jumalar. Misol uchun, "Men sizga kitobni beraman, siz esa Marhabo Qosimovaga" jumlasida "bermoq" fe'li va "kitobni" to'ldiruvchisi ikkinchi qismda tushirilgan.

Tabiiy tillardagi matnlardan (ya'ni, odamlar, masalan, algoritmik tillardan farqli ravishda muloqot qiladigan tillarda) bilim olishga, shuningdek, bilimga asoslangan matnni sintez qilishga qaratilgan tizimlar lingvistik tarjimonlar yoki lingvistik protsessorlar deyiladi. Bunday tizimlar ekspert tizimlari, ya'ni tibbiy diagnostika, yuridik maslahat, biznes-reja tuzish, turli texnik muammolar diagnostikasi va boshqa ko'plab sohalarda inson mutaxassisini almashtirishga xizmat qiladigan tizimlar bilan birlashtirilishi mumkin. Bunda ekspert tizimi, bir tomondan, yuqori samarali o'rganish, yangi bilimlarni to'plash imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, foydalanuvchiga ma'lumotni eng qulay shaklda taqdim eta oladi. Bundan tashqari, lingvistik protsessor nutqni aniqlash va nutqni sintez qilish tizimi bilan birlashtirilishi mumkin, bu esa kompyuter bilan aloqa qilish jarayonini imkon qadar qulay va shuning uchun samarali qilish imkonini beradi

Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan semantik tahlil tizimlarini yaratishda turli xil yondashuvlar mavjud. Matnni semantik tahlil qilish usullari va vositalariga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlarni yuzaki tahlil qilib, quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin: Semantik tahlil tizimlari morfologik komponentsiz mavjud bo'lmaydi. Har xil turdagi so'z shakllari lug'atlari morfologik komponent vazifasini bajaradi. Ushbu holatda u yoki bu lug'atning "to'liq emasligi" muammosi mavjud. Ushbu muammoni hal qilish uchun bir qator yondashuvlar mavjud. Birinchi usul - o'qituvchi bilan mashg'ulot deb ataladigan narsa, inson o'qituvchi sifatida ishlaydi. Masalan, tizim lug'atda yo'q so'zga duch kelganda o'z ishini to'xtatadi va o'qituvchi unga bu so'zning barcha so'z shakllarini ko'rsatishini kutadi. Ushbu parametr juda ko'p vaqt talab qiladi, chunki u odamdan doimiy "mashq" ni talab qiladi, bundan tashqari, tahlilni bajarish vaqti sezilarli darajada oshadi. Ikkinchi yo'l - o'qituvchisiz, qoidalarga asoslangan holda o'rganish. Bunda morfologik tahlil o'tkazish uchun tadqiqotchilar u yoki bu affiksga mos keladigan morfologik xususiyatlarni ko'rsatuvchi o'z qo'llari bilan yaratilgan teskari lug'atlardan yoki affikslarning (ya'ni, qo'shimchalar, prefikslar va boshqalar) ma'lumotlar bazasidan foydalanadilar. Yana shunday yondashuv ham mavjudki, unga ko'ra affikslarning alohida ma'lumotlar bazasini yaratishning hojati yo'q, yangi (lug'atda mavjud

bo'lmagan so'z) shaklini lug'atda mavjud bo'lgan barcha so'zlar bilan solishtirish kifoya. yangi so'zga eng yuqori "vazn" bilan lug'atdan so'zning so'z shakliga mos keladigan xususiyatlarni belgilash. Bunda statistik usullardan foydalaniladi. Shuni aytib o'tish kerakki, morfologik tahlil bosqichida ba'zi tizimlarda qisqartmalar lug'atlari (qisqartmalar) va shaxs ismlari lug'atlaridan ham foydalaniladi, bu esa semantik tahlil jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Semantik tahlil tizimlari sintaktik komponentsiz mavjud bo'lmaydi. Sintaktik tahlilning asosiy vazifasi gapning sintaktik daraxtini qurishdir. Morfologik tahlil kabi sintaktik tahlil ham semantik tahlildan oldingi bosqichdir. Ushbu bosqichda morfologik tahlil bosqichida aniqlangan omonimlarning aksariyati (turli ma'noli, lekin bir xil tovushli so'zlar, masalan, jins, o'ralgan, kalit) chiqarib tashlanadi. Bu, o'z navbatida, semantik tahlilni sezilarli darajada tezlashtiradi. Kompyuter xotirasida ko'rib chiqilayotgan tilning barcha ma'noli birliklarining (leksik, morfologik, sintaktik va so'z yasash) ma'nosini aks ettirish va ularni kompyuter tomonidan tushuniladigan yagona, rasmiy shaklga keltirish, buning uchun maxsus yaratilgan sun'iy til. ishlatiladi yoki ba'zi olimlar uni metatil deb ham atashadi. Aslida, ko'pgina zamonaviy asarlarda semantik metatil sifatida bu universal sun'iy til emas, balki o'ziga xos lug'at va grammatika bilan tavsiflangan tilning ma'lum bir soddalashtirilgan va standartlashtirilgan pastki tilidir. Universal Networking Language (UNL) hozirda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tokio universiteti qoshidagi Ilg'or tadqiqotlar instituti homiyligida ishlab chiqilmoqda. Dizayni bo'yicha UNL sun'iy semantik-sintaktik til bo'lib, WWWdagi ma'lumotlarni hech qanday tabiiy tilga bog'liq bo'lmagan shaklda, shuningdek, ma'lum bir kompyuter platformasi yoki operatsion tizimidan qat'i nazar, tavsiflash, saqlash va tarqatish uchun mo'ljallangan. Bir tabiiy tildan ikkinchisiga tarjima qilish uchun mo'ljallangan mashina tarjimasi tizimlaridan farqli o'laroq, UNL tizimi dastlabki matnni avtomatik ravishda (yoki yarim avtomatik ravishda) o'zining UNL ko'rinishiga aylantirishi va keyin matnni kerakli tilda sintez qilishi kerak deb taxmin qilinadi. Shunday qilib, UNL haqida ma'lumotni saqlash va uni tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan har qanday tabiiy tilda tiklash uchun qulay vositachi til sifatida gapirish mumkin. Bundan tashqari, ontologiyalar (domen atamalarining rasmiy aniq tavsiflari va ular o'rtasidagi munosabatlar) semantik tahlil uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan katta mashhurlikka erishdi [3].

Umumiy tilshunoslikda semantik tahlil deganda so'zlar, turg'un iboralar, butun gap va gaplarning mazmunini kontekstda tahlil qilish tushuniladi. Amalda, bu asl iboralarni qandaydir semantik tilga tarjima qilishni anglatadi. Demak, semantik tahlilning asosiy nazariy masalalari tilning tabiati yoki unga tenglashtirilgan tasviriy tizimi bilan bog'liq. Falsafiy mantiq ta'siri ostidagi ko'plab yondashuvlar haqiqat-shartli ma'no bilan chegaralangan, ammo bunday tahlillar oddiy tildan foydalanishni to'liq hisobga olish yoki ko'plab amaliy talab qilinadigan ilovalarni, ayniqsa, inson-kompyuter o'zaro bog'liqligini ta'minlash uchun juda tor bo'lib hisoblanadi. Afsuski, lingvistik semantika sohasida tilshunoslikning sintaksis, morfologiya va fonologiya kabi boshqa kichik sohalariga qaraganda konsensus, ya'ni bir-biriga to'g'ri keluvchi birliklar biroz kamroq. So'zlarning va turg'un so'z birikmalarining ma'nolari bilan bog'liq bo'lgan leksik semantika va ko'p sonli so'z birikmalarining, ya'ni iboralarning ma'nolari va grammatik jihatdan to'g'ri qo'llangan jumlar bilan bog'liq bo'lgan supraleksik (birlashma yoki kompozitsion) semantika o'rtasida an'anaviy bo'linish mavjud.. Ushbu bo'linishning aniq talabi va asosliliigi mavjud bo'lsa-da, so'z darajasidagi semantika va grammatik semantika turli yo'llar bilan o'zaro ta'siri va har tomonga yoyilishi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Hozirda ko'pchilik tilshunoslar leksikogrammatikaga nisbatan jiddiy leksika-grammatik farqni saqlashdan ko'ra, leksikogrammatika haqida gapirishni afzal ko'rmoqda. Qisman, buning sababi shundaki, so'zlarning birikma imkoniyatlari asosan ularning ma'nolari bilan belgilanishi, bundan tashqari ko'p grammatik konstruksiyalar o'ziga xos ma'nolarga ega ekanligidir; Leksik semantikani semantik tahlilning boshqa sohalaridan qat'iy ravishda ajratish sun'iyiligiga qaramay, leksik semantika ko'plab qiyin muammolarning o'chog'i bo'lib qolmoqda, ayniqsa tillararo kontekstlarda. Qisman buning sababi, leksik semantika tilning sintaksisga asoslangan modellarida yoki rasmiy (mantiqqa asoslangan) semantikada nisbatan kam e'tiborga olingan. Ma'lumki, semantik tahlilning asosiy muammolari aylanmadan qanday qochish va cheksiz regressdan qochishdir. Ko'pgina yondashuvlar yechim tahlilni ibtidoiy elementlarning terminal to'plamida asoslashdir, degan fikrga qo'shiladi, ammo ular ibtidoiy elementlarning tabiati bo'yicha farqlanadi. Yondashuvlar, shuningdek, ular semantik tahlilning qanchalik aniq va to'liq bo'lishi mumkinligini ko'zda tutadigan darajada farqlanadi (semantik tahlil qanchalik nozik bo'lishini kutish mumkin? semantik tahlillar to'liq bo'lishi kutiladimi yoki ular kam aniqlanishi mumkinmi? agar ikkinchisi, qanday qilib aniq bo'lishi mumkin). etishmayotgan tafsilotlarni to'ldirish kerakmi?). Semantik nazariyadagi katta tafovut leksikogrammatikada kodlangan mazmun ma'nosida semantik tarkib va umumiy ensiklopedik bilimlar o'rtasida qat'iy chegara o'rnatish mumkinmi degan savolga aylanadi. Ularning bu masala

bo'yicha pozitsiyasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, oddiy tildan foydalanish lingvistik bilimlar, madaniy an'analar va real dunyo bilimlarining ko'proq yoki kamroq uzluksiz integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Goddard, Cliff (2013). *Semantic Analysis: An Introduction* (2nd ed.). New York: Oxford University Press. p.17.
2. Manning, Christopher; Scheutze, Hinrich (1999). *Foundations of Statistical Natural Language Processing*. Cambridge: MIT Press. p.110.
3. Miranda-Garcia, Antonio; Calle-Martín, Javier (May 2012). "The Authorship of the Disputed Federalist Papers with an Annotated Corpus". *English Studies*. 93(3): 371–390.

UO'K 81'37

BADIIY ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TALQINI

G.R.Gaffurova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

N.S.Qobilova, PhD, dots., Buxoro Davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada frazeologik birliklarning leksik hamda semantik xususiyatlari badiiy asarlar asosida keng tahlil qilinadi hamda uning til taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rinlari ustida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy tilshunoslik, frazeologik birlik, frazeologizm, semantika, turg'un birlikma, xalq madaniyati, urf-odat, an'ana*

Аннотация. *В данной статье широко анализируются лексико-семантические особенности фразеологизмов на материале художественных произведений, являющихся духовными украшениями языка, и обсуждается их особое место в языковом развитии.*

Ключевые слова: *современная лингвистика, фразеологизм, семантика, стабильное соединение, народная культура, обычай и традиция*

Abstract. *In this article, the lexical and semantic and cultural features of phraseological units are widely analyzed on the basis of artistic works and their special place in language development is discussed.*

Keywords: *modern linguistics, phraseological units, phraseology, semantics, stable compound, folk culture, custom, tradition.*

Kirish. Frazеologik birliklar – umumiy yaxlit ma'nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog'liq bo'lgan, majoziy ma'noda ishlatiladigan turg'un birikmalardir. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai sanaladi. Frazеologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi.

Frazеologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, molliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Frazеologik birliklarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, farqli jihatlarini, leksik-semantik xususiyatlari hamda falsafiy paradigmasini aniqlash borasida N.Arutyunova, M.Blek, P.Rikyor, E.Kassirer, R.Yakobson va E.MakKormaklar ilmiy tadqiq qilganlar. Shuningdek, Buslayev, Larin, M.Jonson, Ye.Gogonenkova, Ye.Akishina, N.Sharbonel, G.Ermolenko, I.Polozova, M.Merleau-Ponty, V.Pustovalova, D.Montminy, Ye.Reshetnikova, Ye.Malishkin va D.Ashurovalar frazeologik birliklar tushunchasining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini ochib berganlar. O'zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, M.Mamadaliyeva va G.Qobuljonovalar o'zbek tili materiali asosida frazeologik birliklarning milliy-madaniy, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada frazeologik birliklarning tuzilishi, shakllari, ularning lingvistik ahamiyati hamda til taraqqiyotida tutgan o'rnini muhokama qilinadi. Ularning leksik-semantik xususiyatlari misollar asosida keng yoritiladi.

Tahlillar va natijalar. Frazеologik birliklar – umumiy yaxlit ma'nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog'liq bo'lgan, majoziy ma'noda ishlatiladigan turg'un birikmalardir. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai sanaladi. Frazеologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi.

Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta'kidlashicha, "Frazеologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi".

Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, molliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avlodlardan avlodga uzatiladi.

F.I Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan holda qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir". [1]

V.A.Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning izi mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir. [2] Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o'ynaydi. Aniqrog'i, olam lisoniy manzarasining bo'lagidir. Frazeologik birliklar "Xalq hayotining ko'zgusi"dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlovchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi. [3]

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so'z birikmalari yaratishda o'ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, "boshdan oyoq", "to'la to'kis", "butunlay", "tamomila" tushunchalarining obrazli ifodasi uchun yunon tilida *Om alpha do omega* iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta'sirida rus tilida *Om A do Я* iborasi paydo bo'lgan. Yoki yunon tilida "ibtido va intiho", "hayotning boshi va oxiri" ma'nosida "Alfa va omega" iborasi ishlatiladi. Ayni iboralarning obrazlilik mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harfning majoziy qo'llanilishi – bir-biriga qarshi qo'yilishi asosida vujudga kelgan.

Lingvokulturalogiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi "lingvomadaniy jamoa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir". Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi" [4]. Masalan, o'zbek xalqining turmush tarzi ("bozor bahosi" - hamma qatori, hech yon bosmay, "xirmon ko'tarmoq"- ekin-tekinni yig'ib, hosil me'yorini hisob-kitob qilmoq), milliy kiyim kechaklari ("to'n kiygizmoq"- qo'shib- chatib, pardoqlab gapirmoq, "kavushini to'g'rilab qo'ymoq" – haydab yubormoq) yeguliklari ("xamir uchidan patir" – katta narsadan boshlang'ich kichik bir qism) va hokazo.

Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan yozuvchiardan biri Abdulla Qahhordir. Yozuvchining xalq iboralardan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Chunki Abdulla Qahhor qo'llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotatsiya kichli, ularda milliy madaniyatning ruhi, izi mavjud.

"Xalqning so'z donoligini mukammal egallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulotda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi. Ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'ziga tegishli ibora ham esga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchi bitta iborani qo'llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun ikkita ibora "ishlaydi".

Masalan, "Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi" ("Ikki yorti bir butun" hikoyasi). Ayni ibora Qahhorniki, bu iborani o'qish bilan "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi" degan xalq iborasi esga tushadi, ya'ni tekstda implisit tarzda bu ibora ham ishtirok etadi, uni birinchi ibora ovozsiz "chaqiradi". Bu – Qahhorona mahorat" [5]

A.Qahhorning xalq iboralari modeli asosida yaratgan va bizga meros qilib qoldirgan ayrim iboralari bugungi kunda haqiqiy xalq iborasiga aylangan. O'zbek tilida "tekinxo'r" ma'nosini

ifodalagan “tekin tomoq” iborasi mavjud. A. qahhor ana shu iboraning strukturasi va tayanch komponenti *tekin* soʻzi asosida yangi, original ibora yaratdi: *tekin quloq*. Bu ibora tamomila yangi tushunchani, yaʼni “hech qanday qarshiliksiz quloq soladigan, toqat bilan tinglaydigan odam” tushunchasini ifodalaydi.

Odamlarki bor, halol mehnat bilan oʻzini koʻrsatgani erinadi-yu, olamda borligini maʼlum qilib turish uchun koʻproq gapirishga harakat qiladi; maklis-pajlisda soʻz tegib qolsa, foydali biron fikr aytish uchun emas, gapirish, faqat gapirish uchun gapiradi. Jamiyatda oʻzi koʻrinmay, faqat tovushi chiqadigan bu xildagi odamlar, tekin quloq topilsa, bitta eski toʻppi toʻgʻrisida sakkiz soat suv ichmasdan gapiradi. [6]

Xalq ogʻzaki ijodi, dostonlar, turli – tuman afsona va rivoyatlar frazeologizmlarni shakllantiradi, ularga sayqal beradi, ularni xalq mulikiga aylantiradi. Binobarin, “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli”, “Rustamxon”, “Kuntugʻmish”, kabi ulkan dostonlarda oʻzbek xalqining koʻhna va hamisha navqiron tili oʻzining butun imkoniyatlari va goʻzalligi bilan jilvalangan.

“Alpomish” dostonidagi betakror, gʻoyatda nozik iboralarni koʻrib lol qoladi odam. Ana shunday iboralardan biri”gap yetaklamoq”dir.

“Yurishimiz qirquin qizlar bilamasin
U qurgʻurlar gap yetaklab yurmasin
El ichinda malomat soʻz boʻlmasin”

Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili boʻlmish “gapni koʻtarib yurmoq” iborasida gapning bevosita harakati yoʻq. u goʻyo oddiy bir narsa. Uni faqat koʻtarib yuradilar, xolos. “Gapni yetaklab yurmoq” shuning uchun ham oʻtkirki, unda gapning oʻzi bevosita yuradi, faol harakatga qodir. Faqat uni chirkin maqsadlarda xizmat qildirish uchun qayoqqa xohlashsa, oʻsha yoqqa yetaklab yuradilar [7].

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlarini, anʼanalari va irimlari taʼsirida shakllanadi. Jumladan, oʻzbek xalqida azaldan quloqtishlar odati bor. Quloqtishlar yaʼni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim qishloq va tumanlarida saqlanib qolgan. Mazkur odatni ifodalovchi *qulogʻini tishlamoq* iborasi qoʻllaniladi.

M: *Qizimni tilga olaverma, tugʻilgan kunida qulogʻini tishlagan kuyovi bor.*

Oʻzbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bogʻliq iboralari tarkibida somatik soʻzlar faol qatnashadi: *boshlarini qovushtirmoq, boshlarini birkitmoq, boshlarini qoʻshmoq, boshini ikkita qilmoq, bir yostiqa bosh qoʻymoq, boshini bogʻlamoq va hokazo.*

Oʻzbek oilasida bola tugʻilishi bilan chilla davriga kata eʼtibor beriladi. Farzand koʻrgan ayol va uning chaqalogʻi chilla davrida maxsus sharoitda saqlanib, turli ins -jinslar va kasalliklardan himoya qilinadi. Anʼanaga koʻra on ava chaqaloq 40 kungacha uydin chiqmasligi, begona uyga odam kirmasligi va chillali uyda chiroq oʻchmasligi kerak. Chilla anʼanasi “tuqqaniga qirq kun boʻldi” maʼnosidagi *chillasi chiqdi* iborasi bilan ifodalanadi.

- **Chillasi chiqishi bilan Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga bordi.**

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy mifologik shaxslarning nomlari kelishi mumkin: *Xoʻja koʻrsinga* “shunchaki nomigagina”, *Musoning alamini Isodan olmoq* “aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq”, *Xizrni yoʻqlasam boʻlar ekan* “kimnidir koʻrish istagi qoʻqqisidan roʻyobga chiqqanda aytiladigan ibora”, *Doqqi Yunusdan qolgan* “juda ham eski, qadimiy”.

Turli geografik joy nomlari ham frazeologik birliklarning tayanch komponentlari vazifasida keladi. Masalan, oʻzbekcha frazeologik birliklar tarkibida Oʻzbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi. Frazeologik birliklar tarkibida qoʻllangan toponimlar oʻzlari jonlantiradigan sifat va belgilar, chunonchi uzoqlik, saxiylik, taqvodorlik kabi alomatlar timsollari sifatida namoyon boʻladi. *Beva xotinga Buxorodan it huradi, onasini Uchqoʻrgʻondan koʻrsatmoq* birliklari tarkibidagi Buxoro, Uchqoʻrgʻon Oʻzbekiston tarkibida joylashgan joy nomlaridir.

Oʻzbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egnilarida yaktak -lozim, oyoqlarida kovush-mahsi, etik boshga shabpoʻsh, doʻppi, telpak, ustiga chopon toʻn kiyib, beliga belbogʻ, qars boylashgan. Shuning uchun ham elimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash xususida “*belingda belbogʻing bormi?*” degan ibora qolgan.

Har bir xalqning oʻziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini oʻtaydi. Masalan, *toʻnini teskari kiyib olmoq* “oʻchakishgan holda qaysarlik qilmoq”, *doʻppini osmonga otmoq* “juda xursand boʻlmoq”, *doʻppisi tor kelmoq* “imkonsiz ogʻir vaziyatga tushmoq”, *bir-ikki kiyimni ortiqroq yirtgan* “yoshi kattaroq, tajribasi koʻproq”,

chorig`ini sudramoq “zo`rg`a, amal-taqal qilib yashamoq, *paytavasiga qurt tushmoq* “xotirjamligi buzilib, sarosimaga tushmoq” iboralari shular jumlasidandir.

O`zbek xalqi kundalik hayotda ishlatiladigan uy-ro`zg`or buyuymlari ham muayyan frazeologizmlarni shakllantirganini ko`rish mumkin: *ko`rpasiga qarab oyoq uzatmoq* “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq” ma`nosida ishlatiladi.

- *Ha, onang ko`rpasiga qarab oyoq uzatsin , uqdingmi?*

Yoki *chovlisini solmoq* iborasi “aralashmoq” ma`nosida keng ishlatiladi:

- *Nigoraga hayronman, har narsaga o`z chovlisini solavermay, tinchgina yursa nima qilarkin?*

Iste`mol qilinadigan taom nomlari mavjud bo`lgan frazeologik birliklar ham ko`p hollarda milliy xususiyatga ega bo`ladi: *osh bermoq* ‘to`y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o`tkazmoq;

- *Xuddi shu o`g`li tug`ilganda Pirmoqul hoji qo`y ham, ho`kiz ham so`ydirib, yurtga osh berdi.*

Tog`ni talqon qilmoq “har qanday katta va og`ir ishni ham bajarmoq”

- *Undan keyin charchamaguningcha chopma, ayni qizishgan paytingda, g`ayrating kelib, tog`ni talqon qilaman deganingda dam ol.*

Ayrim frazeologik birliklarning tarkibida keladigan musiqaviy asbob nomlari ham iboralarga milliy ruh bag`ishlaydi. Masalan, o`zbek tilida “ro`yobga chiqishi aniq bo`lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirmoq” ma`nosida *to`ydan ilgari nog`ora qoqmoq* iborasi, “birovning ko`rsatmasi bilan biror ish qilmoq” ma`nosining obrazli ifodasi uchun *birovning nog`orasiga o`ynamoq* iborasi ishlatiladi.

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o`zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasini” bo`lib, ular avloddan avlodga meros qoldiradi.

O`zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to`liq to`planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan o`rganilmagan. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig`ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq etish, ularni o`zga madaniyat bilan qiyoslab o`rganish bugungi o`zbek tilshunosligining kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqlar paydo bo`lgan vaqtlardan buyon necha ming yillar o`tdi. Tarixiy o`rganishlar natijasida har bir xalqning kelib chiqishi, ijtimoiy hayoti, madaniyati o`rganildi. Biz yozma manbalar orqali nafaqat xalqlarning tili, balki o`sha xalqning madaniyatini, qadriyatlarini ham yanada chuqurroq o`rganib bordik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Кобилова Н. Художественный психологизм и принцип эпического изображения. Международный академический вестник Учредители: Автономная некоммерческая организация "Исследовательский центр информационноправовых технологий" ISSN: 2312-5519 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38533356>

2. Kobilova N.S. Literary psychology and style theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944eISSN: 2409-0085 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>

3. Kobilova N.S. Benefits of using songs in teaching foreign languages to young learners <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>

4. Kobilova, N. S. (2022). Promotion of Cooperative Learning Through TPR Activities. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 24–26. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/32>

5. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. центр научных публикаций ([buxdu.Uz](http://buxdu.uz)), 8(8).

6. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций ([buxdu.Uz](http://buxdu.uz)), 1(1).

7. Д. С, Ўраева, М.И, Гадоева. (2022). Халқ Маросимлари Ва Уларга Алоқадор Жанрларда Соматизмларнинг Поэтик Ифодаси. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 16–19. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/30>

8. Буслев Ф.И “Русские пословицы и поговорки” М.: 1954

9. Федорова А.И “Фразеологический словарь русского литературного языка” М.: 1996

10. Маслова В.А “Лингвокультурология” М.: 2001

11. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.-B.30.

12. Mirtojibev M., Mahmudov N. “Til va madaniyat” T.1992

13. Телия В.Н “Образные средства русского языка” М.: 1995

14. Abdulla Qahhor “Tanlangan asarlar” T., 1992

15. Nematillokizi K. N. et al. Professional proficiency progress in a foreign language on the example of students of tourism //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 1249-1255.

16. Xayrulloeva N. The concept of nature in modern american literature //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

La FONTEN MASALLARIDA SYUJET, QAHRAMON VA KOMPOZITSIYA

F.G'aniyev, tayanch doktorant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy ijodkorlikning yo'nalishlaridan biri hisoblangan "masal"ning adabiy janr sifatida ahamiyatga ega bo'lish bosqichlari nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Masallarning bolalar adabiyotiga kiritilishi sabablari atroflicha o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: masal, adabiy janr, Ezop usuli, intellektual nayza, hayvonlar eposi, she'riy masallar

Аннотация. В статье теоретически исследуются этапы значения «нравоучительная басня» как литературного жанра, являющегося одним из направлений литературного творчества. Подробно изучены причины включения притч в детскую литературу.

Ключевые слова: нравоучительная басня, литературный жанр, стиль Эзопа, интеллектуальное копье, звериный эпос, поэтические притчи.

Abstract. This article theoretically examines the stages of the importance of "parable" as a literary genre, which is one of the directions of literary creativity. The reasons for including the parables in children's literature were studied in detail.

Keywords: fable, literary genre, Aesop's method, intellectual spear, animal fable, verse fables.

Masal didaktik adabiyot janriga mansub bo'lib unga allegorik ma'no beradigan va yakuniy xulosaga ega she'riy yoki nasrdagi qisqa hikoyadir. Qisqa masallar ba'zan apolog deb ham ataladi. Masalning asosiy qismi o'ziga xos an'anaviy obraz va motivlar doirasini rivojlanadi. Allegoriya mavhum tushunchaning konkret obraz orqali ifodalab berishdir. Allegoriya - o'quvchi yoki tomoshabinga ma'lum bo'lgan har qanday tasvirlar orqali hodisalarni ifodalovchi badiiy uslub. Yunon tilidan tarjima qilingan "allegoriya" o'xshatish degan ma'noni anglatadi. Oddiy qilib aytganda, allegoriya tushunarli tasvir orqali fikrni ifodalashdir. Masalning oxirida muallif asosiy fikrni o'z ichiga olgan xotimani esa ta'limiy xulosa (moral), maqol, hikmatli so'z va iboralar tarzida ifodalab beradi. Masalning janr xususiyatlari: axloq(moral), allegorik ma'no, tasvirlangan vaziyatga xos insoniy illatlar va kamchiliklarni ko'rsatib berishdir.

La Fonten masalning 4 xususiyatini ajratib ko'rsatdi: 1) Masal oddiy misol yordamida o'quvchiga qiyin bo'lgan kundalik vaziyatni tushunishga yordam beradi; 2) O'quvchi tasavvurini xayolot dunyosiga o'tkazib uni kengroq fikrlashga undaydi; 3) Axloq (moral) inson xarakterning salbiy illatlarini qoralovchi va ta'limiy xulosa ega; 4) Masaldagi personajlarda predmet va hayvonlar harakat qilishi bilan birga masallar tili sodda, ixcham, jonli so'zlashuv nutqiga yaqin bo'lib o'quvchiga tushunarli.

La Fonteynning masallari allegoriyal asosida yaratilgan. Muallif hayvonlar haqida yozadi, lekin bu hayvonlar odamlarning haqiqiy xarakterini yashiradi. Buyuk fransuz masalchisi Jan de La Fonten yaratgan masallarida haqiqat bilan bogliq o'z davrining hayoti bilan bir qatorda o'sha davrdagi fransuz halqining aqliy qobiliyat darajasini, ma'naviy salohiyati va dunyokarashini ko'rsatib bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ham La Fonteynning masallari tarbiyaviy jihatdan juda ham dolzarbdir. Insoniyat borki qaysi davrda yashashidan qat'iy nazar u inson bo'lib qoladi, inson tabiatiga ko'ra illatlar va qobiliyatlarga ega. Insonning illatlari nima? Bu savol qadim zamonlardan beri faylasuflar, ilohiyotchilar, mutafakkirlar va yozuvchilarning fikrini band qilib kelgan. Insonning illatlarini tananing istaklari bo'lib, ular ruhning istaklaridan ustunlik qilishga harakat qilishidir deb tushinilgan, bu esa o'z o'rnida jaholat va shunga o'xshagan boshqa yomon illatlarni olib keltirib chiqaradi. Masalan yo'lgon, umidsizlik, xasad, qoralash, nafrat, befarqlik, dangasalik, shafqatzlik, takabburlik, ochko'zlik, ahmoqlik, zaiflarga qarshi zo'ravonlik, adolatsizlik kabi illatlardir. Aslida yuqorida sanab o'tilgan illatlar insonga xosdir ammo masallarda oldimizda bu kamchiliklar bilan aniq bir odam emas balki odam qiyofasidagi qahramonlar paydo bo'ladi.

XVII-asrning birinchi yarmida masal janrining axloq (moral) haqida fikr yuritish uning tarbiyaviy jihatiga e'tibor bilan boshlanadi. La Fonteyn yangi masallar yaratishda uning klassik modeliga tayanadi. O'rmonchining o'g'li La Fonteyn hayvonlarning tabiati va odatlarini yaxshi biladi va ularni hikoya va she'riy tarzda tasvirlab beradi. Masalchi ochiqlik bilan xalq maqollariga, shevalar, ovchilar va dehqonlar lug'atiga murojaat qiladi, odamlarning xatti-harakati, harakatlarining maqsadi, turmush tarzi va hatto tashqi ko'rinishini aniq belgilaydi. La Fonteyn o'z masallarida fo'z davrining voqeligini yorqin va aniq tasvirlaydi. La Fonteyn shuningdek, buyuk masalchilar - Ezop, Fedr, Bidpai, Maro, Renier hikoyalaridan ma'lum bo'lgan voqealarni, syujetlar olib o'z uslubida qayta yaratadi.[5] La Fonteyn masallari uchun asosiy bu - syujetning o'zi, uning ildizlari, qahramonlari va

ularning harakatlari hisoblanadi. La Fontein massalarini o'tgan yillar masallaridan ajratib turadigan uslub ham shu. La Fontein uchun masalning tarbiyaviy qismi(moral) bu- har qanday vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishdir, Uning asosiy maqsadi o'quvchini uni o'rab turgan dunyo, tabiat orqali tarbiyalashdir. La Fontein masallari o'z o'quvchisini tashqaridan ko'rsatib, unga u yoki bu vaziyatda qanday ko'rinishini ko'rish imkoniyatini beradi, kamchiliklardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Feliks Krivin (1928 yil 11-iyul - 2016 yil 24-dekabr) zamonaviy masalning ajoyib ustasi. U so'zlarni va kinoyani osonlikcha birlashtiradi, tabiiy ijodiy usul - konvensiyadan ozodlik. Muallifning eng kuchli texnikasi allegoriya va virtuoz so'z o'yinlaridir. Qahramonlar qushlar, hayvonlar, narsalar va uy-ro'zg'or buyumlari, ammo subtekst odamni har xil xarakterlari, kayfiyatlari, odatlari, munosabatlarida aniq ko'rsatib beradi. Uning "Okeanga yo'l masalini oling. Muallif kinoya bilan yozadi: "Qanday ajoyib narsa - botqoqda to'xtash." Maqsadlar. Ammo muallifning so'nggi iborasi odamni "okean" nima va "botqoq" nima ekanligini o'ylashga majbur qiladi. Har bir inson buni o'ziga xos tarzda tushunadi, chunki har kim o'z xohishini, axloqiy qadriyatlarini va hayotiy tajribasiga muvofiq tanlov qiladi va tushunadi[2]. Muallif o'z qahramonlarini masxara qilmaydi, u kuladi, kulgi yumshoq, istehzoli,[3] "Ikki tosh" masalida maqol o'zini ko'rsatadi: "Yolg'on tosh ostida suv oqmaydi". Kimdir aytadiki, baliq botqoqdan botqoqqa o'tib, "almashinmoqda", o'zini, ma'naviy fazilatlarini yo'qotadi, ehtimol unchalik munosib bo'lmagan narsaga aylanadi. Evropa adabiyotidagi masal tuzilmalarining asosiy manbai Yangi Ahddir. Eski Ahdda, odatda, masal deb ataladigan aniq janr shakllanishi hali mavjud emas. Masalan, Ayub, Ibrohim va boshqalar haqidagi ba'zi fitnalarni shartli ravishda masallar deb atash mumkin, ammo ular hali vaqt va abadiylikning yakuniy ajratmasiga ega emas, bu Xushxabar masalini tubdan ajratib turadi. Sulaymonning maqollari - bu ko'proq donolikdir, "kundalik maslahat sifatida taqdim etiladi. Yerdagi, vaqtinchalik va samoviy, abadiylikni bog'laydigan fitna, shaxs haqida gapiradigan fitna axloqiy tanlov va bu qadam uchun individual javobgarlik umuman yo'q. Ertaklarning asosiy qahramonlari ma'lum bir insoniy fazilatlarga ega bo'lgan odamlar yoki hayvonlar bo'lib, odatda kundalik tabiat sharoitida joylashadilar[6]. Masaldagi personajlar na tashqi xususiyatlarga, na "xarakterga" ega. Yuqoridagi masalda ravvin Zusi haqida hech narsa aytilmagan. U savolga javob: «Inson nima qilishi mumkin? U nimaga qodir? " Va bu masal va ertak o'rtasidagi yana bir farq. Ertak, qoida tariqasida, axloqni shakllantiradi, masal tinglovchini yoki o'quvchini topishmoqni qanday hal qilish to'g'risida xulosa chiqarishga majbur qiladi. Masaldagi "donolik" ertakdagi "donolik" ga qaraganda "yuqori" xarakterga ega. Agar ertak tez-tez o'rgatsa dunyoviy donolik, keyin masal odatda falsafiy yoki diniy masalalar bilan tavsiflanadi. Masalning yuqori uslubi odatda shu bilan bog'liq. Masalning sevimli mavzulari - haqiqat va yolg'on (shoh Sulaymonning hukmiga oid Injil masallari), hayot va o'lim (O'rta asrlar masallari O'lim bilan qorin munozarasi), inson va Xudo (ko'plab xushxabar masallari: adashgan o'g'il, xantal urug'i va boshqalar haqida). La Fontein qahramonlarini (hayvon) inson xarakterining ba'zi xususiyatlarini aks ettirib beruvchi allegoriyadir [2; 23-28]:

Tulki - g'ayrat va ayyorlikni ifodalaydi ("Qarga va tulki").

Chumoli - mehnatsevarlik ("Ninachi va chumoli").

Ninachi - beparvolik ("Ninachi va chumoli").

Eshak - o'jarlik ("Eshak va bulbul").

Cho'chqa - johillik ("Eman ostidagi cho'chqa").

Ayiq - kuch va mehribonlik (mehnatkash ayiq").

Maymun - ahmoqlik ("Maymun va ko'zoynak").

Xo'roz - takabburlik va mag'rurlik ("Kuku va xo'roz").

Qo'zi - muloyimlik ("Bo'ri va qo'zi").

Quyvon - qo'rqqoqlik va maqtanish ("quyon baliq ovida ").

Ammo La Fontein allegoriyalar ostida nafaqat personajlarni, balki o'sha davrdagi jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarni va tarixiy daqiqalarni yashiradi. Bunga yorqin misol "Bo'ri va qo'zi" ertakidir.

-La raison du plus fort est toujours la meilleure: Nous l'allons montrer tout à l'heure. (- Eng kuchlining sababi har doim eng yaxshisidir: Biz buni hozir ko'rsatamiz.) degan misralar bilan masalni boshlaydi.

Masal syujetga ko'ra, Bo'ri o'zi bilan bir joydan suv ichishga jur'at etgan Qo'zini har tomonlama haqorat qiladi va kamsitadi. Ammo masal bu juft hayvonlar haqida emas, La Fontein Bo'ri va Qo'zi tasvirlari orqasida o'sha davr amaldorlarini va oddiy xalqni yashirgan. Diqqatli o'quvchi savol berishi tabiiy - allegoriya va metafora o'rtasidagi farq nima? [1] Axir, bu ikkala tushuncha ham o'xshatishlarni nazarda tutadi. Haqiqatan ham mohiyat bir xil - yozilganlarning ma'nosini oshirish uchun yorqin tasvirlardan foydalaniladi. Shunchaki o'xshatishdagi miqyos boshqacha. Metafora,

qoida tariqasida, xarakter yoki xususiyatni juda aniq tasvirlab beradigan bitta so'zdir. Misol uchun, oltin qo'llar, o'lim sukunati. Ammo allegoriya butun bir asar shaklini olishi mumkin. U mazmunan boyroq va chuqurroqdir. Va ba'zida hatto shunchalik murakkabki, ayrim o'quvchi uning ma'nosini tushuna olmasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G. Katsadoros. Aesopic Fables in the European and the Modern Greek Enlightenment. // Review of Europeans Studies (ilmiy maqolalar to'plami) 3(2). Canada. 2011. –B. 111
2. T. L. Noel. The rise and fall of a genre: theories of the fable in the eighteenth century. –Illinois universiteti – Urbana-Champain. // Ph.D diss... -1971. –B. 23
3. Fazliddin G. Peculiarities and differences of french, uzbek and russian fables: ideology and image analysis //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T. 18.

UO'K 801.3

TERMIN VA TERMINOLOGIYA HAQIDA NAZARIY QARASHLAR Z.T.Hakimova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lmish terminologiya bo'yicha ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Bundan tashqari terminologiyaning asosiy qismi bo'lgan termin tushunchasiga ham olimlar tomonidan berilgan ta'riflar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, konsept, maxsus leksika,

Аннотация. В этой статье анализируются научные взгляды на терминологию, которая в настоящее время является одной из развивающихся областей лингвистики. Кроме того, были указаны определения, данные учеными понятию термина, которое является фундаментальной частью терминологии.

Ключевые слова: термин, терминология, понятие, специальная лексика,

Abstract. In this article some theoretical views about terminology, which is one of the developing fields of linguistics, are analyzed. Moreover, some definitions for term, which is one of the main components of terminology, are given by scientists.

Key words: term, terminology, concept, special vocabulary

Terminologiya – leksikologiyaning sohalaridan biri hisoblanadi va u ma'lum bir sohaga oid maxsus atamalar yoki lug'atlarni o'rganish, tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Terminologiya o'z navbatida bir qancha sohalariga bo'linadi: tibiyot terminologiyasi, aviatsiya terminologiyasi, qishloq xo'jaligi terminologiyasi, sport terminologiyasi va shu kabilar. Terminologiya yangi ilmiy yo'nalish sifatida XIX asrda kirib tilshunoslikka kirib keldi va ko'plab soha vakillarining tadqiqot obyektiga aylandi. Shuni ta'kidlash kerakki har bir soha terming o'z sohasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib ta'rif beradi. Demak tilshunoslar ham termin va terminologiya atamalarini lingvistik jihatdan yondashib ta'riflaydilar.

Fan va texnikaning taraqqiyoti, axborot kommunikatsiyasining rivojlanishi va globallashuv jarayonlari dunyo tillarining o'zaro integratsiyalashuviga, bu esa o'z navbatida ushbu tillarda yangicha tushunchalar paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu asos tilshunoslikda terminologiyaning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Terminologiya va terminga dunyo olimlari turlicha ta'rif beradilar. Bundan ko'rinadiki, haligacha termin atamasiga yagona ta'rif mavjud emas. Shu jumlaning o'zi ham garchi terminologiya bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu soha yanada ko'proq tadqiqotga muhtoj ekanligini ko'rsatmoqda.

Terminologiya – ma'lum bilim yoki ishlab chiqarish sohasidagi termin to'plami, shuningdek, terminning shakllanishi, tarkibi va faoliyati haqidagi ta'limot. Terminologiya umumiy nazariyasining predmeti: maxsus so'zlarni yaratish va ulardan foydalanish, ular yordamida insoniyat tomonidan to'plangan bilimlar to'planib, kelajakka qoldiriladi; mavjud terminologik tizimlarni takomillashtirish; yangi termin va ularning tizimlarini yaratishning maqul usullarini izlash; bilimlarning turli sohalarini terminologiyasiga xos bo'lgan universal xususiyatlarni izlashni ko'zda tutadi [1].

Termin grekcha “terminus” so'zidan olingan bo'lib, “chek”, “chegara” degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. Terminologiya – terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui degan ma'nolarni anglatadi [2].

“Terminus” – o'rta asrlardagi lotin tilida “aniqlash, belgilash”, degan ma'noni anglatadi. Katta Oksford lug'ati mualliflarning fikriga ko'ra, aynan ushbu ma'no ta'siri osida ingliz tilida “term”, “termin” so'zi shakllangan [3].

Ayni paytda turli tizimli tillarda muayyan terminologik sistemalarning shakllanishi, rivoji, va taraqqiy etishi hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida mutaxassislar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, terminologiyaning munozarali muammolar hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan va ayni paytda o'z mukammal yechimini kutmoqda. Shu ma'noda *termin* tushunchasi va atrofida sodir bo'layotgan turli xil yangiliklar, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham birdek o'ziga jalb qilmoqda va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda [4].

“Termin” konseptini yaratish jarayoni uzoq va xilma xil nazariyalarga asoslanadi. Bir tomondan buning sababi ushbu tushuncha juda murakkab bo'lsa, boshqa tomondan “konsepsiya”ning o'zi ham ta'riflash va anglash eng qiyin bo'lgan tushunchadir.

Ilmiy adabiyotlarda termin xususida turlicha mulohazalar berilgan. Ushbu ta'riflarning deyarli barchasida termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi [5].

O'zbek tilshunosi H.Dadaboyev o'zining “O'zbek terminologiyasi” nomli o'quv qo'llanmasida terminga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni izohlab o'tadi:

O.Vinokurning fikricha, termin – har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasini tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi [6].

Yangi tushunchalar paydo bo'lar ekan, tildagi mavjud lug'at boyligi ushbu yangi konseptni ifodalash uchun ojizlik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, terminlar xalq ehtiyoji sabab vujudga keladi.

A.Gerd ham termin haqida o'z mulohazasini bildirar ekan, termini Im-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir [7]. O.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashmng mumkin emasligidadir [8].

V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi [9].

Fanda terminga nisbatan ikki xil qarash mavjud. Ba'zi olimlar terminlarni lug'aviy birlikning alohida turi desa, ba'zi olimlar terminni leksik birlikning bir qo'llanishi xolos degan fikrni bildirishadi. V.G.Gak ham terminga lug'aviy birlikning jargonlar singari alohida qatlami sifatida qaralishiga qarshi chiqadi va uning leksikadagi o'rnini ko'rsatishga harakat qiladi.

Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos kategorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi [11].

XVIII asrda bir vaqtning o'zida ilmiy sohalarning kengayishi, texnologiya va kommunikatsiyalarning o'sishi davrida terminologiya ushbu ko'plab taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi qiyinchiliklarni yengish uchun zarur vosita sifatida qaraldi. Lekin XX asrdagina terminologiya ilmiy yo'nalishga ega bo'lib, ayni paytda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida tan olindi.

Terminologiya ilk bor 1930-yillarda fan sifatida shakllana boshlagan va keyinchalik turli ilmiy yondashuvlarga asoslangan. Terminologiyani tizimlashtirish va uning ilmiy maqomi bugungi kunga tegishli bo'lsa-da, bu sohadagi faoliyat ancha ilgari boshlangan.

Davrlar silsilasida *termin* so'zining turli tizimli tillarda paydo bo'lishi, kelib chiqishi tarixini taxminiy tarzda qayd eta olsak-da, o'rta asrlarda paydo bo'lgan lotincha *terminus* (lotincha – *chegara*, *chegaralamoq* ma'nosini anglatgan) so'zi va qadimgi yunoncha *logos* (“*tushuncha*”, “*ta'limot*” ma'nosini bildirgan) so'zlarining o'zaro birikishidan hosil bo'lgan *terminologiya* so'zining paydo bo'lishini *termin* so'ziga nisbatan aniqroq qayd etishimiz mumkin [13]. *Termin* tushunchasi dastavval *chegaralar ilohiyligi*, keyinroq esa *chegara toshi*, *so'nggi* yoki *tugallangan joy*, *manzil* kabi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan. O'rta asrlarga kelib esa *terminus* so'zi (biror narsani) *aniqlash*, *belgilash* degan ma'noda qo'llanilgan [13].

Ushbu leksemaning etimologiyasi terminologiyaning insonning o'zini, atrofdagi dunyo va boshqa haqiqiy tasavvur qiladigan denotatlarni anglashidagi yakuniy bosqich ekanligini ko'rsatadi. Terminologiyani ikkinchi tartibdagi til deb atash orqali Y.V. Slojenikina ta'kidlaydiki “bu shunchaki terminlar ro'yxati emas, bu muayyan ilmiy dunyoqarashni aks ettiruvchi tushunchalarni

ifodalaydigan semiologik tizim, Insoniyat tarixida terminologiyaning vujudga kelishi faqatgina imiy dunyoqarsh yetarlicha taraqqiyot darajasiga erishgandagina yuz beradi [14].

Terminologiya umumiy adabiy til ichida joylashgan, lekin V.P. Danilenko ta'kidlaganidek, "mustaqil sektor sifatida". Tadqiqotchilar umumiy adabiy til va

Maxsus lug'at o'rtasidagi asosiy farqni ikkalasini ham tizimli tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarida ko'rishadi. Ilm-fan tilining maxsus lug'ati yuqori darajada ilmiyligi bilan ajralib turadi [15].

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslani ayta olamizki, terminologiya sohasida garchi bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, globallashuv jarayoni tufayli tilning rivojlanib borishi ushbu sohadani yanada chuqurroq tadqiq qilishga undamoqda. Ushbu soha nafaqat tilshunoslar, balki boshqa ko'plab sohalarning ham tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи Фил. фан. ф. д-ри. (PhD) ... дисс. Тошкент 2020.

2. Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. Томск, Омск, Изд-во гос. ун-та 1987. – 198 с.

3. A'zamov S.M. Inglizcha- o'zbekcha to'qimachilik va yengil sanoat terminlarining struktur-semantik tahlili. Filol.fan. d-ri...diss.- Andijon.,- 2021. –B 14-15.

4. Dadaboyev, Hamidulla. O'zbek Terminologiyasi: o'quv qo'llanma. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 6- b.

5. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961.-С.3-10.

6. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2. -М.,1991. №10. - С.1-4.

7. Ахманова О.С., Тер-Мкртчян С.А. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. Проблематика определений терминов в словарях разных типов.-М.: Наука, 1976.- С.57-63.

8. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. - М.: МГУ.1972. - С.68 -71.

9. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. - М.: МГУ, 1971.

10. Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. -М.: Наука, 1971.

11. Кожин А.Н. О характере отношений в терминологических устойчивых выражениях // Уч.зап.МОПИ. Вопросы русской фразеологии. т.160. – М., 1966. – С.89.

UO'K 808.3

CHET EL ADABIYOTDAGI QO'SHMA SO'ZLARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

I.I.Hotamova, oqituvchi, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy

Annotasiya. Maqolada chet tili adabiyotidagi murakkab so'zlarining kognitiv asoslarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan bo'lib, u qo'shma va murakkab so'zlarni va ularning majoziy ma'nolarini shakllantirishning kognitiv mexanizmlari va modellarini, shuningdek, izohlovchi xususiyatlarni aniqlashini o'z ichiga oladi. Chet tili adabiyotida murakkab so'zlar qo'shma so'zlar va ularning ko'chma ma'nolari asosida yaratilganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma so'zlar, chet el adabiyoti, kognitiv xususiyatlar, mexanizmlar va xususiyatlarni izohlovchi modellar.

Аннотация. Статья посвящена обзору когнитивных основ сложных слов в иноязычной литературе, в ней выявляются когнитивные механизмы и модели сложных и сложных слов и их переносных значений, а также их объяснительные особенности. В иноязычной литературе выявлено, что сложные слова создаются на основе сложных слов и их переносных значений.

Ключевые слова: сложные слова, зарубежная литература, когнитивные признаки, механизмы и модели, объясняющие признаки.

Abstract. The article is devoted to the review of the cognitive bases of complex words in foreign language literature, it identifies the cognitive mechanisms and models of compound and complex words and their figurative meanings, as well as their explanatory features. includes. In foreign language literature, it is revealed that complex words are created on the basis of compound words and their figurative meanings.

Key words: compound words, foreign literature, cognitive features, mechanisms and models explaining features.

Kirish. Shaxs lisoniy qobiliyatining dinamik xususiyati namoyon bo'ladigan lingvistik tuzilma bo'lgan qo'shma so'zni o'rganish muammosi tadqiqotchilarni o'ziga tortgan va jalb qilishda davom etmoqda. Qo'shma so'zlar ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, bu bir tomondan, tarkibiy

qismlardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, yaxlit ma'noga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Qo'shma so'zning semantikasi transformatsion tahlil, yuza va chuqur tuzilmalar nuqtai nazaridan tahlili, komponentli tahlil yordamida o'rganildi. Hozirgi vaqtda qo'shma so'zning integral ma'nosini aniqlash masalasi ham lingvistik, ham konseptual darajalarni hisobga olgan holda hal qilinmoqda. Birinchidan, tadqiqotchilar semantik shaffof so'zlarning idrok etish xususiyatlarini, ya'ni ma'nolari ularning tarkibiy qismlarining ma'nolaridan kelib chiqqan so'zlarni yangi semantik xususiyatlarini qo'shma so'zlar orqali idrok etishni hisobga olib, qo'shma so'z tarkibiy qismlari ortida turgan tushunchalarga murojaat qilish va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash orqali ularning tushunchasini belgilovchi konseptual tuzilmani tiklash zarurligi haqida bayonot berilgan. Olimlarning fikricha, bu so'zlarni aniq ajratib bo'lmaydi, bu taniqli so'zlardan yangi so'zlarga qadar o'zgarib turadigan o'ziga xos davomiyligidir.

Qo'shma so'zlarni o'rganishdagi yana bir muammo - ularning kognitiv xususiyatlarini ko'rib chiqishdir, chunki qo'shma so'zlar tilning boshqa birliklari kabi bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lishga qodirdir. O.D.Meshkov ta'kidlaganidek, qo'shma so'zning ko'p ma'noliligi kompozitsiya jarayonlari bilan bog'liq emas, balki oddiy leksik birlik vazifasini bajaradigan tayyor qo'shma so'z ma'nosining rivojlanishidir. Bir qo'shma so'zning ma'nolari o'zaro bog'liq bo'lmagan qo'shma polisemiya bilan aralastirib yubormaslik kerak, chunki qo'shma so'z tarkibida so'z tarkibiy qismlaridan biri turli ma'noda qo'llanadi. Olimning fikricha, qo'shma so'zlarning ko'p ma'noliligi masalasiga to'xtalar ekan, tavsiflangan qo'shma so'zlarni bir-biridan farqlash zarur bo'lgan, ular tarkibiga ko'p funksiyali ob'ektlarning belgisi bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda keng ma'noli so'zlar kiradi. Birinchi turdagi so'zlarga olim misol sifatida ko'p ma'nolariga ega bo'lgan qo'l granata so'zini keltiradi, ular tomonidan belgilangan ob'ektning turli maqsadlardagi merosxo'rliigi natijasidir. Yuqoridagi fikrga qo'shilib, aqliy va lingvistik tuzilmalarning o'zaro ta'sirini ko'rib chiqadigan kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan qo'shma so'zning polisemiyasi muammosiga murojaat qilmoqchiman.

Tadqiqot usullari va tamoyillari. Taklif etilayotgan tadqiqot usullari chet el adabiyotlari tarkibidagi qo'shma so'zlardagi muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Qo'shma so'zlar va ularning ko'chma ma'nolarini yaratishning kognitiv mexanizmlari va modellarini tavsiflash; izohlovchi xususiyatlarni aniqlash, ular asosida qo'shma so'zlar yasaladi va ularning ko'chma ma'nolari rivojlanadi. Tadqiqot material majoziy ma'nolarni rivojlantiruvchi murakkab zoonimlar va fitonimlar bo'lib, ular qisqa onlayn lug'atlardan doimiy tanlab olish yo'li bilan tanlangan. Tadqiqot jarayonida ta'rifiy-kontseptual tahlil usullari, etimologik tahlil, kognitiv modellashtirish usullari qo'llaniladi.

Tadqiqotni o'tkazar ekanmiz, biz qo'shma so'zning yaratilishini ham, uning noaniqligini rivojlanishini ham belgilaydigan kognitiv jarayon kontseptual hosila ekanligidan kelib chiqamiz. U asl tushunchaning ma'lum xususiyatlariga asoslangan yoki asl tushunchalarni birlashtirish yo'li bilan bilimlarning ikkilamchi strukturasi yaratishni ta'minlaydi, buning natijasida asl tushunchalarning bir-biri bilan ma'lum kontseptual xususiyatlarga ko'ra muvofiqlashtirilishi mumkin. Qanday bo'lsin, kontseptual kelib chiqishi bilan asl bilimni talqin qilish ma'lum xususiyatlar asosida ma'lum kognitiv modellar va mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, chet el adabiyotidagi qo'shma so'zlarning tahlil qilish natijasida murakkab so'zlarning shakllanishini, shuningdek, ularning majoziy ma'nolarini belgilovchi kognitiv modellar va izohli xususiyatlar aniqlangan, hamda bu bilan xususiyatlar qaysi qo'shma so'z asosida yaratilganligi ko'rsatiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan ingliz tili leksikologiyasi, kognitiv lingvistik va ingliz tilini o'qitish kurslarida foydalanish imkoniyati bilan bog'liq.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, chet el adabiyotida qo'shma so'zlarning ko'chma ma'nolarni ishlab chiqish orqali shaxs haqidagi bilimlarni etkazishga qodir. Ko'chma ma'nodagi murakkab modeli bo'yicha kognitiv mexanizm yordamida amalga oshiriladi. Murakkab fitonimlarning majoziy ma'nolari kognitiv mexanizmi yordamida yaratilgan. Qizig'i shundaki, qo'shma so'zning ko'chma ma'nosining rivojlanishi qo'shma so'z yasaliishini belgilovchi belgi asosida amalga oshiriladi. Biroq, ko'pincha, agar murakkab fitonim jismoniy xususiyat haqida tasavvur beradigan belgi asosida yaratilgan bo'lsa, u holda majoziy ma'noni shakllantirishda xususiyatlar jismoniy / fiziologikdan psixologik va ijtimoiy sohalarga o'tadi. Artefaktlarni, shaxsni, mavhum tushunchalarni bildiruvchi qo'shma so'zlarning polisemiyasini rivojlantirishning kognitiv asoslarini tahlil qilish istiqbolli ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vezhbitskaya A. Kalit so'zlar orqali madaniyatlarni tushunish / transl. ingliz tilidan. A. D. Shmeleva. M.: Slavyan madaniyati tillari, 2001. 288 b.

2. Danilenko V.P. Rus terminologiyasi. Lingvistik tavsiflash tajribasi. M.: Nauka, 1977. 246 b.
3. Kulikova I. S., Salmina D. V. Metallingvistikaga kirish (lingvistik terminologiyaning tizimli, leksikografik va kommunikativ-pragmatik jihatlarini). Sankt-Peterburg: Saga, 2002. 352 b.
4. Suyarova S. T., Ashirmatova M. J. The process of teaching students to foreign languages at agrarian university //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – C. 683-685.
5. Jumanbaevna A. M. Activity and communication aspects of russian-speaking competence of a future specialist in agrarian university. – 2022.
6. Ashirmatova M. J. Terminology at agrarian university in Russian language //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – C. 350-352.
7. Jumanbaevna A. M. Development of oral and written speech in the study of the Russian language in an agrarian university //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 1743-1747.

UO'K 801.6.82

DRAMATIK ASARLAR QURILISHIDA TIL BIRLIKLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

M.Ikramova, tayanch doktorant, Namangan Davlat Universiteti, Namangan

Annotatsiya. Maqolada dramatik asarlar jumladan, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” tragediyalarining kompozitsiyasi shakllanishiga xos bo‘lgan til birliklarining lisoniy xususiyatlari tahlili berilgan. Dramatik asarlar qurilishida ustuvor lisoniy xususiyat fojeaviylikdir. Tahlil jarayonida dramalardagi ana shu yetakchi xususiyat qahramon nutqidagi monologlarda, dialoglarda, shuningdek muallif nutqida ifodalanishi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: nutqiy faoliyat, muallif nutqi, qahramon nutqi, monologik nutq, dialogik nutq, kommunikatsiya, emotsional xususiyat, sukut.

Аннотация. В статье проводится анализ языковых особенностей языковых единиц, характерных для композиции драматических произведений, в том числе трагедий «Мирзо Улугбек» и «Джалалуддин Мангуберди» Максуда Шейхзаде. Основным языковым признаком в построении драматических произведений является трагедия. В ходе анализа было изучено, как эта ведущая черта в драмах выражается в монологах, диалогах, авторской речи.

Ключевые слова: речевая деятельность, авторская речь, речь героя, монологическая речь, диалогическая речь, общение, эмоциональный характер, молчание.

Abstract. The article provides an analysis of the linguistic features of language units characteristic of the composition of dramatic works, including the tragedies "Mirzo Ulugbek" and "Jalaluddin Manguberdi" by Maqsud Sheikhzadeh. The main linguistic feature in the construction of dramatic works is tragedy. During the analysis, it was studied how this leading feature in dramas is expressed in monologues, dialogues, and author's speech.

Key words: speech activity, author's speech, hero's speech, monologic speech, dialogic speech, communication, emotional character, silence.

XX asr oxirlarida o‘zbek tilshunosligida matnning nazariy va lisoniy tahlili masalalari tadqiq etila boshlandi. Bu kabi tadqiqotlar esa matnning, ayniqsa badiiy matnning til sistemasidagi mavqeyini yanada oshiradi va yozuvchi zimmasiga yanada mas’uliyat yuklaydi. Ijodkor kulliyotidagi har qanday badiiy asar turli til birliklari vositasida yaratiluvchi matndir. Matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo‘lib, gaplar ketma-ketligining bog‘lanishlilik asosida og‘zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunlikdir [1:10]. Ijodkor yaratmoqchi bo‘lgan voqelik badiiy matnda o‘z shakliga ega bo‘ladi.

Badiiy asar asosini, qahramon yetkazib bermoqchi bo‘lgan fikrni ijodkor tomonidan mohirona qo‘llangan til birliklari shakllantiradi. Xususan, dramatik turga mansub asarlar sahna asari hisoblanadi, yozuvchi matnni yaratish jarayonida teatr san’ati uchun xos bo‘lgan til birliklaridan foydalanishga harakat qiladi. Yozuvchidan bu turdagi matn yaratish uchun ham teatr san’ati, ham adabiyot, ham til ko‘nikmalarini bilish talab etiladi va bu ko‘nikmalarni mohirlik bilan asar matniga singdira olishi zarurdir. Ishimizda badiiy matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari masalalari yoritilgan tilshunos M.Yo‘ldoshev[1], D.Xudoyberganova[2], adabiyotshunos Y.Solijonovlarning[3] tadqiqot materiallari bizning ilmiy faoliyatimiz uchun muhim manbalardan biri bo‘ldi.

Dramatik turga mansub asarlar matn qurilishida **qahramon nutqi, muallif nutqi, monologik nutq, dialogik nutq** kabi nutqiy jarayonlar asar kompozitsiyasini tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Bular dramatik asar matnining asosini tashkil etadi va bir paradigma ostida birlashadi, voqealar peripetikasida bir birini taqozo etadi. Bu kabi nutq jarayonlar badiiy matnda o‘z ifodasini topadi. Nutqiy jarayonlar bo‘lmas ekan til mavhumligicha qolaveradi, ifoda shakliga ega bo‘lmaydi. Nutq til birliklarning ma’lum maqsad asosidagi voqelanish jarayonidir. Dramaturgiya sahna harakat

asoslariga qurilganligi bois, harakatlar qahramonlar nutqida ifoda shakliga aylanadi, voqelanadi. Qahramonlar nutqi dramatik matnda dialogik nutq va monologik nutq ko'rinishlarida ifoda shakliga ega bo'ladi. Dramatik matndagi nutqning bu kabi ko'rinishlari qandaydir kommunikativ aloqani ta'minlash bilan birga asar davomiyligi uchun ham muhim nutqiy jarayon hisoblanadi.

Dramatik asarlar pardalarining kirish qismida **muallif nutq**ining keltirilishi adabiy qoidadir. **Muallif nutqi** – turli til birliklari vositasida asardagi bevosita yozuvchi tilidan berilgan izohlardir. Muallif nutqida ma'lum bir voqea-hodisa haqida axborot berish funksiyasi anglashiladi. Adabiyotlarda bu tushuncha o'rnida *kiritma gap*, *remarka* terminlari ham qo'llaniladi. Muallif nutqi, kiritma, remarkalar ko'proq dramatik matnda ishlatiladi va asarning yanada tushunarli bo'lishini ta'minlab beradi. Sahna harakatlari ifodalashi mushkul bo'lgan nutqiy jarayonlarni yozuvchi kiritma gaplarda, remarkalarda aks ettiradi. Xususan, dramaturgiya ustasi Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida til uslubini (muallif nutqi) asar matniga shunday joylashtirganki, ular asardagi makon va zamon semasini ochib berishga xizmat qilgan. Masalan:

Samarqand atrofida Ko'hak tog'ining etagida uch oshyonalik rasadxonaning old tomoni va eshigi ko'rinadi. Pastroqda go'zal chorbog' ko'rinadi. Ikkinchi tomonda Ulug'bekning chiniy koshonasi ko'zga tashlanadi. Avvalkuz fasli. Qosh qorayib qolgan payt. Onda-sonda osmonda yulduzlar charaqlaydi[4:7].

Jumlalar asar matnida birinchi pardaning birinchi ko'rinishida berilgan bo'lib, yozuvchi asar boshidayoq Ulug'bek shaxsiyati bilan bog'liq axborotni ifodab bermoqda. **Samarqand, chiniy koshona** leksemalarini keltirish orqali Ulug'bekning *Samarqandlik saroy ahliga mansub oliynasab hukmdor* shaxs ekanligi haqidagi sema anglashilyapdi. **Rasadxona, osmon, yulduz** paradigmasidagi leksemalarda esa Mirzo Ulug'bekning koinot ilmi bilan bog'liq olim ekanligiga ishora qilinmoqda. *Ko'rinadi, tashlanadi, charaqlaydi* kabi fe'l shakllarining hozirgi zamon formasida keltirilishi badiiy voqelik ekspressivligini kuchaytirgan. Dramatik matnda muallif nutqining aksariyat ko'rinishida makon va zamon haqida axborot berish funksiyasi ustuvorlik qiladi.

Nutqning ko'p ishlatiladigan ko'rinishi dialogdir. Dialog kommunikatsiyaning ikki hamkori tomonidan yaratiladigan matn bo'lib, bunda ulardan biri, ya'ni adresant boshlagan mavzu asosida olib boriladigan, adresat esa ushbu dasturda faol ishtirok etadigan muloqot turi sanaladi[5:91]. Tilshunos S.P.Potseluev dialogning asosiy lingvistik belgisi sifatida formal-lingvistik til vositalarining mavjudligi, dialektik: muloqotning mazmunli kechishini ta'minlash, obyektli: muhokama uchun mavzu obyektining mavjudligi, subyektli: muayyan makon va zamonda haqiqiy muloqot subyektlarining navbatma-navbat ishtiroki[6:195] kabi til xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Dialogning bu lisoniy funksiyalari dramatik turdagi dialogik nutqiy vaziyat uchun ham xosdir. Dramatik asarlarda ham yozuvchi aynan dialoglardan qahramonlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonini ifodalash maqsadida shuningdek, qahramonlar xarakterlari va voqealar rivojini ifodalashning asosiy vositasi va badiiy ifoda usuli hisoblanadi. Dialogik nutq qahramon nutqi replikalaridan tashkil topadi. Dialogik nutqda badiiylikni va harakatlar semasini ochib beruvchi *leksema va iboralardan*, shuningdek, *turli so'roq olmoshlari, murojaat shakllari, yuklamalar, sukut* kabi vositalardan keng foydalaniladi. Bu vositalar orqali qahramonlarning voqealar jarayoniga o'zlarining shaxsiy munosabat bildirishi kuzatiladi.

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ham dialogik nutqning badiiyat ifodasi ekanligini yana bir misolda ko'rishimiz mumkin:

Piri Zindoniy

Zo'ra vonning zillatiga hech toqatim yo'q.

Baloxo'rlar nazarimda ayni qalloblar,

Tekin vegan hazratlar-chi, xuddi hasharot.

Ulug'bek

So'zlaringda tafakkurdan zug'um ortiqroq,

Sultonlar ham xudovandning navkarlari-ku!

Yo'q, bularni haromtomoq devish nohaqlik!

Saltanatki, sultoni yo'q – boshsiz bir tanga.

Piri Zindoniy

Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli Mirzo,

Vaholanki, toj - boshdagi fikrga qafas.

Ulug'bek

Siz ellik yil g'aflat ichra qolgansiz, usta.

Piri Zindoniy

(qahqaha solib kuladi)

*Istasangiz tiz cho 'kayin oyog 'ingizga,
Sizga, buyuk qalbli inson, ulug 'munajjim!
Ammo, sulton Ulug 'bekka, sohibi tojga
Bosh egmayman, egolmayman, yo 'q egolmayman[4:135].*

Dramatik nutqda nutqiy vaziyatlarning keskinligi sezilib turadi va bu nutqiy vaziyatlar qahramonlarning nutqi, ularning asardagi faolligi, voqealar rivoji, keskin burilishlarga mos keladi. Dramatik matnlarda uchraydigan nutqiy vaziyat ko'rinishlaridan yana biri **monologik nutq**dir. Yozuvchi monologik nutq orqali qahramonlar ichki dunyosini, psixologiyasini yoritib beradi. "Mirzo Ulug'bek" fojeasida ham Ulug'bek nutqida ko'plab monogik nutq namunalari ko'rishimiz mumkin:

Ulug'bek

*Shu – qirq yillik andishaga alamli yakun.
Ketib qoldi zamonadan diyonat, rostlik,
Mudhish bir jar yoqasida turmish mamlakat.
Zulmatli tun qo 'nayotir yurtning ufqiga.
Bobo Temur, omonating saqlayolmadik.
Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil.
Endi nega maydalandi Temur urug 'i.
Endi nega razillashdi hokimlar ruhi. [4:173.]*

Ushbu monologik nutq mazmun semasida Ulug'bek alamli hayotining hech kimga aytolmaydigan, o'zigagina ma'lum hasratlari aks ettirilgan. *Alamli yakun, jar yoqasi, zulmatli tun* kabi metaforik birikmalar nafaqat Ulug'bek nutqiga, shuningdek, asar kompozitsiyasiga xos tragik pafosni ochib berishga xizmat qilgan. Ijodkor *maydalandi Temur urug 'i, razillashdi hokimlar ruhi* kabi jumalalarda esa "*saltanatda ilm-u urfonning yo 'q qilinishiga, mamlakatning zavolga yuz tutishi*" semalariga ishora qilmoqda.

Dramatik asarlarda ifodalangan monologik nutq qahramon baralla aytolmagan nutqiy vaziyatni shakllantirishga, qahraman ichki dunyosini ro'y-i rost ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda monologik nutq orqali muallif nutqi ham mujassamlashadi. Chunki muallif makon va zamondagi voqealar jarayonida badiiylikni ta'minlovchi muhim va yetakchi mavqeda turadi. Shu sababdan dramatik asarlarda nutqiy vaziyatlarni shakllantirish muallifga biroz qiyinchilik tug'diradi.

Xulosa. Dramatik asarlar qurilishida ustuvor lisoniy xususiyat fojeaviylikdir. Bu xususiyat esa asar matnlarida nutqiy vaziyatlarning keskinligi asosida *qahramon nutqi, muallif nutqi, dialogik nutq, monologik nutqlarda* ijod sohibi tomonidan individual uslubda ifodalanadi. Shuningdek, dramatik matn qurilishida ham *qahramon nutqi, muallif nutqi, dialogik nutq, monologik nutq* kabi nutqiy vaziyatlar asar sujeti asosini tashkil etadi. Dramatik matnda yozuvchi tomonidan shu kabi nutqiy vaziyatlar til birliklari orqali voqelantiriladi. Bu esa ijodkordan teatr va so'z san'ati ilmini puxta egallashini talab etadi. Nutqiy vaziyatlar dramatik matnning kommunikativ, ekspressiv kabi funksiyalarini ifodalash bilan birga sahna ortidagi tomoshabin yoxud kitobxonga ham nutqiy ta'sirni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Shayxzoda mahorati har bir nutqiy vaziyatda dramatik matn uchun xos bo'lgan fojeaviylik xususiyatiga ishora qiluvchi til birliklaridan o'rinli foydalana olganligidadir. Maqsud Shayxzoda bu kabi asarlari orqali dramatism maktabini yuksaltira olgan shayxona ijodkordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Йўлдошев М. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2010.
2. D.Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: "Fan", 2013.
3. Солижонов И. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2018.
4. Шайхзода М. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
5. Давлатова Р. Тилшуносликда диалог ва квазидиалог масалалари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2021. - №3.
6. Поцелуев С.П. Диалог и парадигма как формы дискурсивного взаимодействия в политической практике коммуникативного общества. Д.Д. – Ростовна-Дону, 2010.

UO'K 811.161.1

HAMID OLIMJON ASARLARI MATNIDA LEKSIK BIRLIKLARNING POETIK IMKONIYATLARI

G.T.Imamova, o'qituvchi, Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Jizzax

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli shoir Hamid Olimjon she'riyatidagi leksik birliklar (*leksik omonimlar, sinonimlar, antonimlar,*)ning qo'llanilishi, uslubiy jihatlari haqida nazariy jihatdan ma'lumotlar berilib, misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: leksik- sintaktik vositalar, omonimiya (shakldosh so'zlar), sinonimiya (ma'nodosh so'zlar), leksik, ma'noviy, kontekstual sinonimiya antonimiya (zid ma'noli so'zlar), antiteza, graduonimiya.

Аннотация. В данной статье представлены теоретические сведения об употреблении и методологические аспекты использования лексических единиц (лексических омонимов, синонимов, антонимов) в поэзии талантливого поэта Хаида Олимжана и проанализированы на примерах.

Ключевые слова: лексико-синтаксическое оружие, омонимия (слова с одинаковым значением), синонимия (слова с одинаковым значением), лексическая, духовная, контекстуальная синонимия, антонимия (слова с противоположным значением), антитеза, градуонимия.

Abstract. This article provides theoretical information about the use and methodological aspects of lexical units (lexical homonyms, synonyms, antonyms) in the poetry of the talented poet Hamid Olimjon and analyzed based on examples.

Key words: lexical-syntactic weapon, homonymy (similar words), synonymy (synonymous words), lexical, spiritual, contextual synonymy, antonymy (words with the opposite meaning), antithesis, graduonymy.

So'zga oshuftalik, so'zning ostini ham ustini ham ko'ra olishga intilish, nutqning latifligidan, nutqdagi so'zlarning favqulodda uyg'unligidan zavqlanish, ona tilida ta'sirli nutq ayta oluvchiga, xitobat san'ati sohibiga ayricha havas bilan qarash o'zbekning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo'lgan fikrga musallam va mutlaqo mos libos kiydira bilish, maqsadga muvofiq lisoniy ifodalarni saylay olish, so'z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt eta bilish Sharqda, xususan, o'zbeklarda tarbiyalanganlik, ma'rifatlilik, ziyolilikning qabariq belgilaridan biri bo'lgan[2]. Darhaqiqat ustoz, tilshunos olim N. Mahmudovning yuqorida keltirilgan purma'no fikrlariga H. Olimjon ijodi to'la mos va oshufta yo'g'rilgandir. Adabiyot quroli so'zdir. So'z san'atkorlari til birliklarining uslubiy imkoniyatlarini ochib berish bilan birga ularning kengayishiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Bu xususda adabiyotshunos olim M. Qo'shjonovning: "Iste'dod darajalari har xil bo'lgan shoirlar asarlarida uchrab tursa-da, ulardan Hamid Olimjon asarlaridagi kabi ta'sirchanlik sezilmaydi. Demak, so'z qo'llash, tasviriy vositalardan foydalanib, o'ziga xos va mos uslub, maktab yaratgan shoirning o'zbek adabiy tili rivojidagi beqiyos o'rni, tilning soddaligi, uslubning ravonligiga qo'shgan ulkan hissasidir"[1] - degan fikrlarining o'ziyoq Hamid Olimjonning so'z qo'llash mahoratiga berilgan yuksak bahodir.

H. Olimjonning poetik asarlarida tilshunoslik manbalarida til birliklarining shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra tiplaridan - omonim so'zlar (shakldosh so'zlar, omogroflar, omofonlar) muhim leksik-stilistik vositalaridan biri sifatida o'rinli qo'llanilgan. Ular badiiy matnning ta'sirchanligi, obrazlilik va jozibadorligi kabi uslubiy vazifalarni bajargan. Chunki ular tilshunos olimlarimiz e'tirof qilganlaridek, adabiyotimiz asarlariga husn beruvchi leksik-stilistik omillardan biri hisoblanadi. H. Olimjon asarlarida yuqorida tavsiflangan shakldosh so'zlardan **so'z** lug'aviy birligining yaxshi so'zlash, ilhom parisi ma'nolarida qo'llashi bu fikrning eng xarakterli dalilidir. Bunday xususiyatni leksik omonimlardan hisoblangan "o't" lug'aviy birligi misolida ham kuzatamiz. **O't-olov, o't-maysa, o't-tana a'zosi** kabi ma'nolaridan tashqari **o'tmoq** fe'lining o'zagidan badiiy matnning leksik-uslubiy vositasi sifatida foydalangan.

El xonumonin butkul

Sen o't yoqib etding **kul**.

O'tardi oy-u kunlar.

Qonga g'arq bo'lib tunlar.[3] (H. Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor")

Yuqoridagi misolda "o't" leksemasi orqali bir o'rinda ot turkumidagi o't "olov", va bir o'rinda o't "o'tmoq" fe'li ifodalangan, parchadagi "**kul**" leksemasi ham omonim leksema bo'lib, bir o'rinda kulmoq "xursandchilik holatidagi ovoz" fe'l ma'nosida va kul "yonishdan hosil bo'lgan chiqindi" semalarini ifodalovchi leksemalar orqali jozibadorlikni ifoda

Bu sevgida yo'l boshlar **vaf**o,

Ham vafoni yemirmas **jafo**. (H. Olimjon "Zaynab va omon")

Hassos shoir misralarda ohanrabodek jozibadorlikni yaratgan **vaf**o va **jafo** **leksik antonimik** juftliklaridan unumli foydalanib badiiylik ko'lamini yanada yorqinroq tasvirlab bergan.

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: **oq** va **qora**, **qalin** va **yupqa** kabi. Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi.

Sifatlarda: a) hajrn belgisiga ko'ra: *katta* va *kichik*, *baland* va *past*; b) harorat belgisiga ko'ra: *issiq* va *sovuq*; d) yosh belgisiga ko'ra: *yosh* va *qari*; e) xarakter-xususiyat belgisiga ko'ra: *saxiy* va *xasis*, *botir* va *qo'rqoq*, *aqli* va *ahmoq*; f) shakl belgisiga ko'ra: *to'g'ri* va *egri*; g) maza-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq* va *shirin* kabi.

Payt, holat, miqdor ma'noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* va *ertaga*, *avval* va *keyin* (payt belgisiga ko'ra); b) *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga ko'ra); d) *ko'p* va *oz*, *mo'l* va *kam* (miqdor belgisiga ko'ra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingipaytlarda birqadar munozarali bo'lib qolmoqda.

Otlarda: a) belgi otlarida: *boyluk* va *kambag'allik*, *botirlik* va *qo'rqqoqlik*; b) qarama-qarshi tomon nomlarida: *sharq* va *g'arb*, *janub* va *shimol* d) fasl nomlarida: *yoz* va *qish*, *kuz* va *bahor*, e) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda: *kecha* va *kunduz*,

Fe'llarda: a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqmoq*; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: *kengaymoq* va *toraymoq*, *ko'paymoq* va *ozaymoq*, *sekinlashmoq* va *tezlashmoq* kabi.

Ba'zan fe'ning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishishi mumkin: *o'qigan* va *bilimsiz*, *o'qimagan* va *bilimli* kabi. Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va fe'llarda biroq kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bo'lmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno).

Shoir H.Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor» poemasida qarshilantirish usulidan unumli foydalangan. *Yolg'on-chin, kun-tun, oq-gora, kecha-kunduz, botir-qo'rqqoq, achchiq-shirin, eski-yangi* kabi leksik antonimik vositalardan foydalanib mazmuniy ta'sirchanlikni oshirgan. Ayni chog'da adib ular vositasida tabiat manzaralarini jozibali, obrazli tasvirlagan.

Kimlar **o'ldi**, kim **omon**

Jambil edi bir **bo'ston**,

Qilding uni **go'riston**[5].

Parchada *bo'ston* va *go'riston* (kontekstual antonim otlari), *o'ldi* va *omon qoldi*(antonim fe'llari) leksemalari ham o'zaro nutqiy zidlikni hosil qilmoqda.

Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatga kiritilishidir[4].

Tinglar edim **betinim**,

Uzun tunlar yotib **jim**.

Seza olardim kuchin,

Ko'pi **yolg'on** ko'pi **chin**.(H.Olimjon.“Oygul bilan Baxtiyor”)

Ushbu misralarda ifodalangan “*betinim*”, “*jim*” leksemalari faqat matn tarkibidagina o'zaro zidlik munosabatlarini ifodalalab kelmoqda. “*yolg'on-chin*” so'zlari esa sifat turkumi doirasida narsa-hodisalarning belgisini ifodalab misralarning badiiyligi va o'qishlilikini ta'minlamoqda.

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: *yelka*, *kift*, *o'miz* (birinchi guruh); *in*, *uya*, *oshiyon* (ikkinchi guruh); *nur*, *shula*, *yog'du*, *ziyo* (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qatorlar* deb nomlanadi. Har bir sinonimik qatorda:

Leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qo'llanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan, *ozod*, *erkin*, *hur*, *sarbast* leksemalari bitta denotatni — «o'z erki, haq-huquqiga egalik»ni ataydi, biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bor. Xususan, **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, **ozod** leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir.

Shamol va bo'rondir binokorlari,

Shularga bog'liqdir nomus, orlari,

Shulardan topilar do'st-u yorlari;

Shulardan chiqqandir ko'p darbadarlari

Boshkesar, betiyiq va oqpadarlar.[4]

Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Sinonim ya'ni ma'nodosh so'zlarning bir turi bo'lib, bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, yuqoridagi parchada keltirilgan *shamol* va *bo'ron* so'zlarining semantik jihatdan ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, “yel”dan “sabo”ga, “shabada”dan, “shamol”ga, “bo'ron”dan, “to'fon”ga qarab kuchayib boradi. “Leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi- graduonimiya hodidasi sanaladi.[6] Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi.

Bunda aslo **qora** kun yo'qdir,

Bunda **motamsaro** kun yo'qdir.(H. Olimjon "Zaynab va omon")

Ushbu parchada *qora* va *motamsaro* leksemalari o'zaro sinonimik qatorni hosil qilmoqda. Bu shunday sinonimlarning bir turidirki, buni tilshunoslik ilmida **kontekstual** sinonimlar deb nomlanadi. Ya'ni faqat ma'lum bir matn tarkibidagina ma'nodoshlikni hosil qilib, matn (kontekst)dan tashqarida esa boshqa umumga tegishli semalarni anglatadi. Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa **muallif** leksemasining nutqdagi qo'llanishida ko'p uchraydi. Demak, uning ma'no ko'lami ancha keng. Kontekst ichida esa **muallif** sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta'minlaydi.

Sinonimlarni qaysi o'rinda va qanday holatda ishlatish ham shoir Hamid Olimjonning o'ziga xos ijodiy qobiliyati hisoblanadi.

Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta'minlab, so'zlovchining lisoniy mahoratini, nutqiy ta'sirchanligini, emotsionallikni oshirishga, fikrni ixcham, lo'nda va aniq tushunilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.N.Mahmudov Tilimizning tilla sandig'i G'. G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy ijodiy uyi,2012.
- 2.https:arboblar.uz. M. Qo'shchonov O'lmas so'z maqolasi
- 3.H. Olimjon. "Semurg" Yangi nashr -2019.
- 4.Hamid Olimjon.Ikkinchi tom.Balladalar, poemalar,pyesalar. Toshkent-1958.
- 5.H.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent -"Talqin"- 2005.
- 6.Ne'matov H., Rasulov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.: "Fan" 2000.

UO'K 81'272

"VATAN" KONTSEPTINING LEKSIK BIRLIKLAR VOSITASIDA VERBALLASHUVI

I.I.Ismatullayeva, dots.v.b., Toshkent Davlat Transport Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Vatan" kontseptining leksik birliklar vositasida verballashuvi o'rganilgan. Shuningdek, Ingliz va Amerika davlatlari taniqli shoirlarining vatan haqida yozgan sherlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kontsept, sinonimik birliklar, vatan, matn.

Аннотация. В данной статье рассматривается вербализация концепта "Родина" с помощью лексических единиц. Автор анализирует известные стихотворения американских и английских поэтов.

Ключевые слова: концепт, синонимичные единицы, родина, текст.

Abstract. This article examines the verbalization of the "Motherland" concept by means of lexical units. The author analyses the well-known poems of American and English literature.

Key words: concept, synonymic units, motherland, text.

Kirish. Tilshunoslik taraqqiyotidan ma'lumki, dunyo tillari bu dunyo xalqlari madaniyati bilan birga ularning qadriyatlarini ham o'zida aks ettiradi. "Vatan" kontseptining har xil tizimli tillarda verballashuvini o'rganish o'sha tillar orqali turli madaniyat, mentalitetlarni o'rganish imkonini berdi. Aslida "Vatan" kontseptining o'zi alohida bir qadriyat. Negaki, tug'ilib o'sgan yurti cho'l va saxrolardan iborat afrikalik uchun o'sha sahro Vatan hisoblanadi. Rossiyaning Sibir o'lkasi yoki tayga kengliklarida istiqomat qiluvchi yamal, nenets millatlari uchun bugungi texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda boshqa qulayroq hududlarga ko'chib o'tishning nazariy jihatdan balki, iloji bordir ammo ularning ajdodlari o'sha quyosh ko'rinmas, sovuq o'lkalarda bug'ular ko'magida kun kechirishgan. Oiladan yoki kishlog'idan bir nechasi katta shaharlarga ketishi mumkindir, biroq boshqalari o'sha yurtga qon-qoni bilan ko'nikib ketishgan. Ular boshqa yurtlarda xatto yashay olmasligi ham mumkin. Eng muhimi, ularni Vatan degan buyuk bir tuyg'u tortib turadi va birlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mazkur maqolaning yozilishida turli hil adabiyotlardan, hamda internet saytlardan foydalanildi va tahlil qilindi. Qiyosiy metod, ma'noning komponent analiz metodi hamda kontseptual analiz metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Mazkur maqolada "Vatan" kontseptining leksik birliklar vositasida verballashuvi o'rganildi va ushbu birlikni turli sheri asarlarda tahlil qilindi.

Muhokama. "Vatan" kontsepti barcha tillardagi ekvivalentlari qatori ingliz va o'zbek tillarida inson uchun eng muqaddas tuyg'u va tushunchalarni ifodalashi, insonning jamiyatga, jamiyatning esa

o'z o'rnida ma'lum bir hududga, madaniyatga, davlatga tegishli bo'lishi bois, u avvalo lingvistik toifaga ko'ra "madaniy kontsept" hisoblanadi.

"Motherland" – "Ona Vatan" kontsepti relativ xarakterga ega, ya'ni u kimgadir tegishliligi bilan ahamiyatlidir. "My country" – "Mening yurtim" sinonimlari aynan "Motherland" – "Ona Vatan" kontseptini mazmunan to'ldiruvchi sinonimik birliklar bo'lib, ular insonning ijtimoiy-milliy qiyofasi, jamiyat tarixi, madaniyati, o'ziga xosligini ochib beruvchi komponentlar hisoblanadi.

Ingliz tilidagi "Motherland", "Fatherland" kontseptlari, nemis tilidagi "Vaterland", "Heimat" kontseptlari, ispan tilidagi "Madre Patria" kontsepti, rus tilidagi "Rodina", "Otechestvo", "Otchizna" kontseptlari yuqoridagi ta'riflar bilan birgalikda lingvo-etimologik jihatdan ma'lum ma'noda milliylik, xududiylik, siyosiylik va tarixiylikni o'zida aks ettiradi. Bu esa kognitiv va madaniy lingvistikada ta'kidlanganidek, Ona Vatan kontseptining to'liq tasvirini ochishga ko'maklashuvchi assotsiativ birliklar vazifasini bajaradi. (Lyapin, 1977,16-18).

Ingliz tilidagi "Motherland" va "Homeland" kontseptlarini mazmunan ko'proq milliylik va universallik bilan yo'g'rilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Angliya tilshunos olimlarining tadqiqot ishlari, Britaniya madaniyati, hayoti, she'riyat va adabiyotini kuzatar ekanmiz, Angliyada "Motherland" kontsepti zamirida xuddi o'zbek tilidagi kabi inglizlarning ham Ona Vatan tushunchasini qalblarida jo qilishining guvohiga aylandik. Ingliz shoirasi D.Shelkott o'z she'rlarida ingliz yeri, tuprog'ini "bizniki, u aziz, u cheksiz" deb ta'riflaydi. Ingliz adabiyotining boshqa yorqin namoyondasi Robert Byorns xaqida so'z yuritsak u Shotlandiyaning madaniy tarixining eng mashhur qahramonlaridan biri hisoblanadi. U romantik harakatining birinchi kashshofi sifatida dunyoga tanilgan. Uning Vatan haqidagi "My heart's in the Highlands" mashhur she'riy asarini mutolaa qilarkanmiz, shoirning yuksak muxabbati va vatanparvarlik tuyg'ularining cheksiz ifodalanishini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

My heart's in the Highlands, my heart is not here,
My heart's in the Highlands, a-chasing the deer;
Chasing the wild-deer, and following the roe,
My heart's in the Highlands, wherever I go.

Oddiy til, tasvir va adabiy shakllar bilan biz tabiati injiq, ammo chiroyli Shotland yurtiga mansubligi bilan faxrlanadigan muallifni ko'ramiz. Ushbu asarda tabiat bir vaqtning o'zida Vatanning ramzi va bir bo'lagi sifatida shoir tamonidan gavdalanadi. Muallif bolalik va o'smirlik davrida uni o'rab turgan tabiatning ahamiyatini ta'kidlash uchun adabiy yuksak uslubdan foydalanadi. Kompozitsion jihatdan she'r misralarga bo'linadi, ularning har biri ushbu fikrning asosiy g'oyasini yoki bir qismini ifodalaydi.

Amerikalik shoir Volt Uitmenning "Long, too long America" she'ri Vatanga da'vat bilan boshlanadi. Ushbu vatanparvarlik ruhida yozilgan asarni mutolaa qilganda, she'riy personaj o'z mamlakatiga uning uzoq yo'li borligini aytadi. Bu nafaqat o'z vataniga, balki vatandoshlariga ham aniq chaqiriqdir. Shoir ona vataniga dard alamli nidosini xuddi tirik insonga qarab aytayotganiga guvoh bo'lamiz.

Long, too long America,
Traveling roads all even and peaceful you learn'd from joys and prosperity only,
But now, ah now, to learn from crises of anguish, advancing, grappling with direst fate and recoiling not,

And now to conceive and show to the world what your children en-masse really are,
(For who except myself has yet conceiv'd what your children en-masse really are?)

Shu o'rinda tadqiqotlarimiz davomida o'rganilgan bir jihatni ta'kidlash o'rinliki, Angliyada "Motherland" kontseptiga nisbatan "our" olmoshi ko'proq ishlatiladigan bo'lsa, Amerikada bu kontseptga nisbatan yoxud mazkur kontseptga sinonimik qatorni tashkil etishi mumkin bo'lgan kontseptlarga nisbatan "mu" olmoshini ko'proq ishlatilar ekan. Bu kaysidir ma'noda Amerikacha xayotda Vatanga nisbatan ham individual yondoshuv ustunroq ekanligini tasdiqlaydi. Masalan quyida berilgan matn ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

So when the flag is raised and I light my sparklers, snakes and firecrackers I will look into my glow and I will daydream about my **America**. What I believe is the real America (Lewis. 2004)

Of all the States in East or West

Unto my heart thou art the best

Here may I live, here may I rest

Florida, my Florida

Yield their rich store of good supply,

To still the voice of hunger's cry, For thee we'll live, for thee we'll die, **Florida, my Florida**

(Waugh 1894)

Tilshunos olimlar “Ona Vatan” kontseptiga nisbatan bunday yondoshuvni turlicha izoxlaydilar. Masalan rus lingvist olimi Kochetkov bu hodisani xalq, millat yoki davlatning o‘tmishi, tarixiy jarayonlari bilan bog‘liq deb hisoblaydi. “Rossiya hayoti tarixidagi 1917 yilgi voqealar – kollektivlashtirish siyosati, mulkka nisbatan davlatniki, Vatanga nisbatan barchaniki degan nisbatlarni singdirgan” degan talqinga urg‘u bersa, (Kochetkov 1986, 78 b) Ter-Minasova Amerika hayoti, turmush tarzida “Homeland” kontsepti ko‘proq “Freedom”, “Democracy” talqinlari bilan yo‘g‘rilganligini ta’kidlaydi. (Ter-Minasova, 2000, 264)

Amerika lingvistik adabiyotida, xususan ijodkor Veynberger asarida “our” olmoshi va uning o‘rnida “Amerika” prototipi ishlatilganligining guvohi bo‘lamiz:

“Motherland” is free. We don't try to shut people up because we disagree with them, and we don't accuse them of being unpatriotic because they have a different opinion.

Our America is just. We don't drudgingly let people into the tent and make a big deal of it. We go outside, we meet them where they live, and for who they are. And you know who they are? They are our neighbors.

We are brave. We are free. We love justice. That's is **our America**.

Xulosa. Ushbu maqolamizga xulosa qilsak, biz “Motherland - Ona Vatan” kontseptini Ingliz va Amerika adabiyotining turli parametrlarda qanday voqealanishini o‘rganib chiqdik. Kezi kelganda shuni aytish o‘rinli, ingliz yoki inglizzabon xalqlar tarixi va adabiyotida ham Vatanga nisbatan o‘rinli o‘xshatishlar uni chiroyli ta’riflashlar holatlarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa yuqorida keltirilgan sheriylar asarlardan parchalarda bu narsa ularda ham qadriyat sifatida mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda Vatan mavqei, Ona zamin qadri masalalarida Ingliz va Amerika shoirlari uchun aloxida o‘rin egallashining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashurova D.U. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o‘qitishning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman masalalari. Toshkent, 2010.
2. Ismatullaeva, I.I.(2022). Concept as the basic term of the cognitive linguistics. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 533-538. educational sciences, 3 (10), 621-628
3. I.I.Ismatullaeva, L.Yu.Filimonova, & Achilov O.R.(2022). Sociolinguistics and its development as an independent science. Academic research in educational sciences, 3 (10), 621-628
4. FauconnierG., Sweetser E. Cognitive Links and Domains: Basik aspects of Mental Theory// Spaces, Worlds and Grammar. Chicago and London: University of Chicago Press, 1996. P. 1-28.
5. Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты : дис.... д-ра филол. наук / Г.Г. Слышкин. — Волгоград, 2004
6. Тер-Минасова С.Г. Язык в межкультурной коммуникации. Язык и люди выбрать книгу [www/abroad.ru/english/termin/9/htm/](http://www.abroad.ru/english/termin/9/htm/)
7. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.:Слово, 2000.-264с.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик-Жиззах:Сангзор,2006.-926.;
9. Ismatullayeva, I.I. (2020). Some ways of teaching vocabulary through interaction at the english lesson. *Theoretical & Applied Science*, (1), 563-566.

UO‘K 808.5

TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

I.Ismoilov, DSc, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi bosh qahramon Iskandarning nasabiga oid qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Iskandar, obraz, talqin, bahs, shahzoda.

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды Алишера Навои на родословную Искандара, главного героя эпоса «Садди Искандари».

Ключевые слова: Алишер Навои, Искандар, образ, интерпретация, диспут, князь.

Abstract. This article analyzes Alisher Navoi's views on the genealogy of Iskandar, the main character in the epic "Saddi Iskandari".

Key words: Alisher Navoi, Iskandar, image, interpretation, debate, prince.

Alisher Navoiy ijodkor sifatida xilma-xil mavzularda qalam tebratdi, xususan, anchayin murakkab tarixiy mavzuga bir necha bor qo‘l urib, go‘zal asarlar ijod qildi. Ularning eng mashhuri “Saddi Iskandariy” dostoni bo‘lib, ko‘lamdor mazmuni va muallif salohiyatini yaqqol ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Biroq dostoniga oid bahslarda muallifning badiiy konsepsiyasiga zid talqinlar uchrab turadiki, ularni tuzatish zarurati bor. Shoirning o‘zi “Saddi Iskandariy”ni yozishda tarix ilmiga jiddiy e‘tibor qaratganini bir necha bor ta’kidlaydi. Jumladan, u debochadayoq dostonni yozishdan

ulug' maqsud tarixi ilmi maxzanig'a vuquf topmog'lig' ekanini uqtiradi. Bu kayfiyat dostonidagi to'rt sulola tarixi va asarning bosh qahramoni Iskandarning nasabiga oid badiiy talqinlarda ham namoyon bo'ladi. Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da "*faqir "Saddi Iskandariy"da ul iki buzurgvor qavlini soyir muarrixlar aqvolig'a tarjih qilib, nazm adosig'a qaror beribmen*" [Navoiy, 2000: 217], – deya dostonni yozishda Nizomiy va Xusrav iskandarnomalaridan ijodiy ilhomlangani, shuningdek, yana ko'plab tarixiy manbalarga suyangani haqida ham ishora beradi. Iskandarnomalarni "mashhur fothning yurishlari xronikasi deb qarash asossiz" [Qayumov, 1975: 10] bo'lsa-da, Navoiyning yuqoridagi qaydlari "Saddi Iskandariy" tarixiy asoslarga tayanuvchi asar ekani, binobarin, unga butunlay to'qima yoki majoziy asar sifatida qarab bo'lmasligini ham anglatadi.

Mazkur fikrlarni doston "*ulug' maqsud*"ga muvofiq klassik tarixnavislik qoidalari asosida boshlangani, asosiy qismning boshida Ajam shohlari: *pehdodiy, kayoniy, ashkoniy va sostoniy*lar tarixi qisqa bayon qilingani ham dalillaydi. Navoiy Ajam shohlari tarixi borasida, asosan, Qozi Bayzoviyning "Nizom ut-tavorix"iga [Bayzoviy, 1382(h): 162], o'rni bilan "Tarixi guzida" [Mustavfiy, 1339(h): 107 – 117] va "Tarixi Banokatiy"ga [Banokatiy, 1348(h): 58 – 62] tayanadi. Biroq Navoiy jiddiy ahamiyat bergan va katta mehnat bilan asariga olib kirgan bu kabi o'rinlar har doim ham to'g'ri talqin qilinavermaydi. Navoiyshunoslikda kam e'tibor qaratilgan, lekin ko'plab chalkashliklarga sabab bo'lgan ana shunday o'rinlardan biri Navoiyning Iskandar nasabiga oid talqinlaridir. Aksar navoiyshunoslar bugun ham Navoiy "*Saddi Iskandariy*" dostonining bosh qahramoni bo'lgan Iskandar obrazini asrandi farzand sifatida talqin etgan degan fikrni bildirishadi. Afsuski, bu – Navoiy tasvir-u talqinlariga zid qarash, ырғ ищшы juda ko'p mantiqsizliklarni keltirib chiqaradi. Navoiy ayni masalani alohida bir faslda (XV) yoritgan bo'lib, unda Iskandarning nasabiga oid ixtilof borasida aniq munosabat bildirgan.

Navoiy Ajam shohlarining ikkinchi sulolasi – kayoniylardan biri Doroyi Bahman hukmronligi zamonida Iskandar dunyoga kelgani, bu paytda Rum voliyi Faylaqus Doroga boj to'lashi to'g'risida yozar ekan, shu o'rinda Nizomiy Faylaqus ishidan yaxshi xabardorligini ta'kidlab, uning "Iskandarnoma"sidan barchaga ma'lum "*vayronadan topilgan Iskandar*" haqidagi afsonani iqtibos qilib keltiradi. Navoiy ayni lavha Nizomiydan iqtibos ekanini shunday eslatadi:

Nizomiyki nazm ahlig'a shoh edi,
Bu shah sarguzashtidin ogoh edi,
Kitobida der chog' nishonin aning,
Bu yanglig' dedi dostonin aning
Ki, nasl ichra yo'q erdi payvand anga,
Murod erdi olamda farzand anga... [Navoiy, 2006: 63].

Bu lavha Navoiy uchun ham Faylaqusning tarixi, ham Iskandarning nasabiga daxldor ekani bilan ahamiyatli edi: *Skandar atab, o'g'li bildi ani, / O'larda valiahd qildi ani*. Mazkur bayt iqtibos qilingan "asrandi farzand" haqidagi lavhaning yakuni bo'lib, ayrim izlanuvchilar ushbu lavha va baytga tayanib, Navoiy Iskandarni asrandi farzand sifatida talqin etgan, degan xulosaga kelishadi. Ammo bunday xulosa qilishga shoshmaslik kerak, chunki Navoiy bundan keyin Iskandarning nasabiga oid bahsni davom ettirib, yana ikkita qarashni keltiradi.

Ulardan biri "Iskandar Dorobning o'g'li, u nasabiga ko'ra kayoniylardan" degan qarash bo'lib, Navoiy bu nasabga oid navbatdagi qarashlardan biri ekaniga shunday ishora qiladi: *Muarrix yana nav' ham surdi so'z / Ki, nisbatda Dorog'a yetkurdi so'z*. Ushbu fikr yakunlangach, Navoiy Iskandarning nasabiga oid uchinchi – dunyoda ikkita Iskandar o'tgan, biri Doro bilan jang qilgan, biri Ya'jujga qarshi sad qurgan, degan talqinga o'tadi: *Yana bo'yla so'z dog'i mazkur erur / Ki, "Ta'rixii furs" ichra mastur erur. / Ki, olamda iki Skandar emish / Ki, ikisi davronda dovar emish*. Iskandar nasabiga oid bunday ixtiloflar Navoiyni taraddudda qoldirgan va uni o'sha kezlarda "Xiradnomayi Iskandariy"ni yozayotgan Jomiy bilan maslahatlashishga undagan. "Saddi Iskandariy" dostonidan ma'lum bo'lishicha, Navoiyning mazkur masalaga oid savoliga Jomiy quyidagicha javob bergan:

Aningdekki aslin Nizomiy dedi,
Hamul nav' farzona Jomiy dedi
Kim, ul Faylaqus o'g'li ermish yaqin,
Emas ahli ta'rix tardidi chin [Navoiy, 2006: 65].

Ikkinchi bayt Jomiy *Iskandar asrandi farzand emas, balki Faylaqusning haqiqiy o'g'li* degan fikrda bo'lganini tasdiqlaydi. Shunday bo'lsa-da, Nizomiyning bu masalaga oid pozitsiyasini ham ko'rsatish zarurati bor. Nizomiy "Iskandarnoma"da Iskandarning nasabiga oid uch xil qarashni keltiradi: 1) Rumliklar talqini: Iskandar bir zohid ayolning farzandi bo'lib, onasi vayronada tug'ib oq vafot etgan; 2) Ozarparastlar talqini: Iskandar Dorobdan bo'lgan farzand; 3) Tarixchilar talqini: Iskandar Faylaqusning haqiqiy o'g'li. Nizomiy uchinchi qarashni ma'qullab, dastlabki ikki qarashni

tanqid qiladi [Ганчавӣ, 2012: 43]: *Bildimki, har ikki talqin ham xato, / Unda haqiqatdin asar yo'q aslo*. Jomiy Navoiy bilan suhbatda Nizomiyni ayni qarashini nazarda tutgan, buni “Xiradnomayi Iskandariy”da Iskandar haqiqiy shahzoda sifatida tasvirlangani ham tasdiqlaydi. Navoiy Jomiy bilan suhbatdan so'ng ustozlarining “Iskandar haqiqiy shahzoda bo'lgan” degan qarashini qabul qilgan. Buni Jomiy bilan maslahat yakunida kelgan quyidagi bayt ham ko'rsatadi: *Qilindi chu tahqiq tadqiq ila, / Qilay emdi tadqiq tahqiq ila*. Ya'ni, sinchiklab tekshirish bilan haqiqat aniqlandi, endi ana o'sha haqiqat asosida birma-bir (voqealarni) yozay. Aslida, Navoiy mazkur xulosani Iskandarning nasabiga bag'ishlangan faslning sarlavhasidayoq aniq qayd etgan: “...aning nasabida ixtilofkim, tarix ahli qilmishlar va ul ixtilofni raf' etib, ahli tahqiq ishining haqiqatin bilmishlar”. Sarlavhadagi “ahli tahqiq” sifati Nizomiy va Jomiyga ishora bo'lib, bu – Navoiy Iskandarning nasabi borasida ustozlari bilan hamfikir ekanini anglatadi. Hatto, yuqoridagi baytda kelgan “tahqiq” so'zi ham sarlavhadagi “ahli tahqiq” birikmasi bilan aloqadorlikda fikrimizni tasdiqlashga xizmat qiladi. “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar asrandi farzand emas, balki chinakam shahzoda sifatida badiiy talqin etilganini asoslovchi yana boshqa dalillar ham mavjud. Ulardan biri shuki, dostonning biror o'rnida o'gay ona haqida qayd yo'q, aksincha, Iskandar umrining oxirida onasiga maktub yozib, unga tuqqan onadek munosabat bildiradi. Shuningdek, doston xotimasida yetti hakimning alohida-alohida ta'ziya bildirishida ham haqiqiy ona va qonuniy malikaga bo'lgan hurmat aniq sezilib turadi. Yoki dostonning XIX bo'limida Iskandar o'z xalqiga murojaat qilgan ekan, nasabi to'g'risida shunday deydi:

V-ar obovu ajdodima qildi Haq

Bu mulk ahlig'a hukmronliq nasaq [Navoiy, 2006: 77].

Mazkur misralar ham Iskandar nasabiga ko'ra Faylaqusning qonuniy farzandi ekanini ochiq dalillab turibdi. Bordiyu Navoiy Iskandarni asrandi farzand sifatida tasvirlashni maqsad qilganida, albatta, bunga ochiq ishoralar bergan bo'lardi. Ta'kidlash kerakki, xamsanavislik an'anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarning birortasida Iskandar asrandi farzand sifatida talqin etilgan emas. Mazkur voqelik, afsuski, keyinroq yangilash tushunilgan, natijada Navoiy kurashgan tarixiy haqiqat va ilmiy asos biryozlama, buzib talqin etila boshlangan. Oqibatda keyingi davr tadqiqotlarida Iskandarning nasabi borasida “asrandi farzand” varianti mutlaqlashib ketgan. Holbuki, Navoiy o'z asarlarida tasvirlagan haqiqatlarni aslicha yetkazish va tadqiq etish – Navoiy shaxsi va ijodini tushinishda bosh masala bo'lishi zarur. Bu jarayonda, bizningcha, navoiyshunoslarni bir necha omillar chalg'itgan. Dastlabki omil dostonda *asrandi farzand* variantining boshqalariga nisbatan oldin kelgani bo'lishi kerak. Bu o'quvchida muallif shu variantni ilgari surgan, *ikki Iskandar, Dorob o'g'li Iskandar* variantlari esa ma'lumot uchun keltirilgan degan tasavvurni paydo qilgan. Ikkinchi omil ushbu baytdagi “topdi” so'zi bo'lishi kerak: *Skandarni topti malik Faylaqus, / Yasab mulkin andoqki zebo arus*. Ushbu bayt Iskandarning nasabi borasidagi bahslar yakuni, keyingi voqealar rivojining boshida kelgan. Undagi “topdi” so'zi, bir qarashda, “asrandi farzand” haqidagi dastlabki variant bilan tutashib, o'quvchida muallif dastlabki qarashni davom ettirmoqda degan tasavvurni hosil qilgan. Holbuki, “topmoq” so'zi farzandga nisbatan qo'llanganda “farzandli bo'lish” deb ham tushunilishi mumkin.

Bu borada tadqiqotchilarni chalg'itgan eng asosiy omil Navoiy asarlariga sovetcha metodologiya asosida yondashish edi, nazarimizda. O'sha davrda Iskandar obrazini asrab olingan farzand sifatida talqin qilish orqali Navoiy dunyoqarashining “progressiv xarakteri”ni, monarxiya davrida yashasa-da, uni qoralagani, go'yo zotining tayini bo'lmagan bola ham yaxshi tarbiya orqali buyuk shaxs bo'lishi mumkinligini ko'rsatishga intilgani haqida yozildi. Qisqasi, “Saddi Iskandariy”ning bu o'rnidan ham Navoiyni o'z davri tuzumlariga qarshi shaxs sifatida ko'rsatish uchun foydalanildi. Aslida, tarixiy va obyektiv haqiqat buzildi, dunyoqarashiga zid talqin Navoiyga nisbat berildi.

Navoiy Iskandarni Faylaqusning haqiqiy o'g'li sifatida talqin etgani tushunilsa, ko'pgina mantiqsizliklar barham topadi. Birinchidan, muallif nazarda tutgan obyektiv haqiqat yuzaga chiqadi, ikkinchidan, Navoiy intilgan ilmiy xolislik, ya'ni muhim tarixiy faktlar bilan doston voqealari o'rtasidagi muvofiqlik namoyon bo'ladi. E'tibor berish kerakki, Navoiyning Iskandarni “asrandi farzand” deb talqin etish, mantiqan, “Iskandar – Dorob farzandi” degan soxta qarashga uyg'un holni yuzaga keltiradi. Navoiyni xuddi shu aqida ta'siridagi bir qarashga ergashgan, kamida undan kelib chiqqan yangilash talqinga suyangan ijodkor sifatida baholash uchun zamin yaratadi. Bunday folklorga xos talqinlarning barchasi fors nasabshunoslarining “Iskandar, aslida, Dorob farzandi” degan soxta talqini hosilalaridir. Beruniy X asrda, Saolibiy XI asrda va Nizomiy XII asr oxiridayoq mazkur talqin asossiz ekanini ta'kidlagan. Bunda forslarning Iskandarni forslashtirish bilan bog'liq muhim mafkuraviy kurashi aks etganini Y.E.Bertels ham juda o'rinli ko'rsatib bergan [Бертельс, 1965: 288].

Xulosa shuki, Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida *Iskandar nasabiga ko'ra Faylaqusning haqiqiy o'g'li* degan tarixiy haqiqatni badiiy talqin etgan. Navoiydek ulug' ijodkor asarlari tahlilida badiiy mantiq bilan birga hayotiy va ilmiy mantiqni ham yoddan chiqarmaslik, ijodkor intilgan va o'z asarida poetik tasvirlagan voqelikni muallif pozitsiyasi, ishoralaridan kelib chiqib talqin etish juda muhim. Bunda ikkilamchi qarashlar, farazlarga emas, matnda aks etgan muallif tasviriga, ifodasiga tayanish zarur. Har qanday bahsli masalaga Navoiyning o'zidan javob izlash – eng to'g'ri yo'ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. بناکتی. تاریخ بناکتی. – تهران: داویناه، ۱۳۴۸. ۵۹۳ ص.
2. بیضاوی عبدالله بن عمر. نظام التواریج. – تهران: بنیاد، ۱۳۸۲. ۱۴۰ ص.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джамии. – Москва: Наука, 1965. – 499 с.
4. Ганчавӣ Н. Хамса: Искандарнома. – Душанбе: Адиб, 2012. – 480 с.
5. مستوفی حمدالله. تاریخ گزیده. – تهران: امیر کبیر، ۱۳۳۹. ۶۴۲ ص.
6. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б.
7. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.11. – Тошкент: Фан, 1993. – 640 б.
8. Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M.Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – 672 b.
9. Қаюмов А. Садди Искандарий. – Тошкент: Фан, 1975. – 196 б.
10. طبری محمد بن جریر. تاریخ طبری. ترجمه ابوالقاسم پاینده. ج. ۲. – تهران: اساطیر، ۱۳۶۲. ۷۸۸ ص.
11. Чомӣ Абдурахмон. Осор. Дар ҳафт ҷилд. Ҷилди 5. Лайли ва Мачнун. Хирадномаи Искандарӣ. Ба чоп ҳозиркунанда А. Афсаҳзод. – Душанбе: Адиб, 1988. – 384 с.

UO'K 808.3

TILSHUNOSLIKDA KVANTITATIVLIKNING O'RGANILISHI

Sh.M.Iskandarova, prof., Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona
Sh.B.Karimova, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Maqola kvantitativlik tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilish masalalariga qaratilgan bo'lib, unda kvantitativlikning turli tizimli tillarda ifodalanish usul-vositalari berilgan. Kvantitativlikning semantik-struktural, fonologik, leksik, grammatik, lingvokognitiv, lingvokulturologik xususiyatlari turli tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili orqali yoritilgan. Shuningdek, maqolada kvantitativlik masalasiga turli davr tilshunoslarining yondashuvlari beriladi.

Kalit so'zlar: kvantitativlik, son, miqdor, birlik, ko'plik, kategoriya, struktur, semantik, maydon, fonologik, leksik, grammatik, lingvokognitiv, lingvokulturologik, frazeologik.

Аннотация. В статье основное внимание уделяется понятию *квантитативности* ее изучению в лингвистике, а также приводятся способы выражения *квантификации* в разных систематических языках. На основе анализа исследований различных лингвистов выделяются *семанτικο-структурные, фонологические, лексические, грамматические, лингвокогнитивные, лингвокультурологические* особенности *квантификации*. Также в статье представлены подходы лингвистов разных периодов к вопросу *квантификации*.

Ключевые слова: *квантитативность, число, количества, единица, множественное число, категория, структура, смысловой, полевой, фонологический, лексический, грамматический, лингвокогнитивный, лингвокультурологический, фразеологический.*

Abstract. The article is focused on the concept of *quantitativeness* and its study in linguistics, and methods of expressing *quantification* in different systematic languages are given. *Semantic-structural, phonological, lexical, grammatical, linguo-cognitive, linguo-cultural* features of *quantification* are highlighted through the analysis of research conducted by various linguists. Also, the article presents the approaches of linguists of different periods to the question of *quantification*.

Key words: *quantitativeness, number, quantity, unit, plural, category, structure, semantic, field, phonological, lexical, grammatical, linguocognitive, linguocultural, phraseological.*

Kvantitativlik tushunchasi uzoq yillar davomida jahon tilshunoslari tomonidan o'rganib kelingan masala hisoblanadi. Rus tilshunosligida dastlab kvantitativlikning asosan til sathlarida ifodalanishi va son kategoriyasi sifatida talqin etilgani ma'um bo'ladi. Shuningdek, aksar izlanishlarda kvantitativlik struktur tilshunoslik asosida turli tillar misolida qiyosiy tahlil qilingan. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar rus tilshunosligida asosan XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Kvantitativlik haqidagi dastlabki izlanishlar rus olimi A.A.Xolodovich tomonidan olib borilgan bo'lib, tilda umumiy ko'plik nazariyasini yapon tilidagi ko'plik kategoriyasi tahlili orqali yoritib bergan. A.P.Riftin ko'plik shaklining tarixi, shuningdek, V.I.TSinsiusning tungus va manjur tillarida ko'plik shakli, S.A.Kozinning mo'g'ul tilidagi ko'plik ko'rsatkichlari masalasi kabi tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

G.A.Menovshikov o'z tadqiqotida asosan turli tillarda sonning grammatik shakllari va kategoriyasi semantik, morfologik va sintaktik jihatdan otlarda birlik va ko'plikning ifodalanishi orqali universal usullar bilan taqqoslanganligini bayon etadi. Bundan tashqari, V.G.Gavrilova mari adabiy tilidagi predmetlar miqdorini ifodalash usullari haqida fikr yuritib, birlik, ko'plik va noaniqlikni ifodalashga diqqatini qaratgan[14].

T.Tzyan miqdor tushunchasi haqida fikr yuritib, rus va xitoy tillari misolida nominal miqdorni ifodalash vositalarini beradi. Tadqiqotda son-miqdor tushunchasining paydo bo'lishi uning falsafiy, matematik va mantiqiy asoslariga keng to'xtalgan[16].

T.V.Igoshina esa kvantitativlik ikki tomondan tahlil qilinishi kerakligini izohlaydi. 1.Mustaqil grammatik son kategoriyasi sifatida. 2.Miqdorni ifodalovchi birliklarning kognitiv semantik belgilari tahlili orqali[12].

M.V.Vsevolodova slavyan tillar grammatikasida son kategoriyasi alohida e'tibor bilan o'rganadi va slavyan tillaridagi sonlar otlar bilan qo'shib ma'lum morfo-sintaktik butunlik – miqdoriy-nominal guruhlar, kvantitativlar tashkil qilishini va ular sintaksisda farqlanishini bayon etgan[6].

Kvantitativlikni maydon sifatida o'rganish tilshunoslikda alohida o'rin tutadi. Aksariyat izlanishlarda kvantitativlikning semantik, funksional jihatlarining turli sathlardagi ifodalanish xususiyatlari yoritilgan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlardan, I.M.Tronskiyning yunon va lotin tillarida ko'plik semantikasi haqidagi ishi dastlabki tadqiqot sanaladi. N.S.Chirkinyan o'z tadqiqot ishida rus va arman tillari materiallari misolida miqdor maydonini tahlil qilgan. K.N.Simonova 2003 yilda ilmiy izlanishida ingliz va rus tillarida miqdorni ifodalovchi funksional-semantik maydon tushunchalari va struktur-funksional xususiyatlari batafsil yoritgan[5].

A.V.Stepanova ingliz, rus, chuvash tillarida miqdorni ifodalovchi grammatik va leksik-semantik birliklarni o'rgangan[1]. O.V.Lazerova 2010-yildagi rus va ispan tillari tarixida sonning grammatik va semantik xususiyatlariga bog'liq muommolarga qaratilgan bo'lim ishini boshqalardan ajratib turadi va uning qimmatini oshiradi[10].

V.G.Subich tadqiqotida miqdor tushunchasining falsafiy, matematik va lisoniy xususiyatlari va rus, ingliz va yapon tillarda miqdorriylikni semantik kategorial belgilarini funktsional-semantik maydon sifatida tahlil qilgan[15].

M.A.Biryukova ingliz va rus tillarida miqdor tushunchasini funksional-semantik makro maydonda tadqiq qilib, ingliz shoiri I.Brodskiyning matnlari asosida noaniq miqdorni ifodalanishi o'rgandi.

Kvantitativlikning tilda ifodalanishining lingvokulturologik va lingvokognitiv asoslari ham o'rganilgan bo'lib, tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanishni boshlagan.

O.V.Slugina tadqiqotida ingliz tilidagi she'riy matnlarda kvantitativlikning ifodalashining lingvokognitiv asoslarini o'rganadi[11].

Kvantitativlik frezeologik sathda tahlil qilingan izlanishlardan T.X.Dangning rus tilida frazeologik birliklar orqali noaniq miqdorni toifalanishi xaqidagi ilmiy izlanishida noaniq miqdoriylikni leksik va grammatik belgilari, ularning stilistik xususiyatlari ochib berilgan tadqiqotini keltirish mumkin[13].

O'zbek tilshunosligi ham kvantitativlikning obyekt sifatida ko'rilishi va o'rganilishi muhim holat sifatida baholanadi. Sababi, ushbu mavzuda salmoqli izlanishlar ilmiy xulosalar mavjud, turli davrlarda olimlarni qiziqtirib kelgan, munozarali holatlarni keltirib chiqargan va ma'lum yondoshuv talab etgan.

Dastlab kvantitativlik va uni ifodalovchi miqdoriy birliklar haqidagi ilk qarashlarni Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'oti-t-turk" asarida ko'rishimiz mumkin[9]. Tilshunos olim bu borada fikrlarini fe'l so'z turkumidagi sonning arab tilida ifodalanishi bilan solishtirib, turkiy tillarda bu holat arab tilidan farqli ravishda ikkitalik yoki ko'plikda emas, son: birlik va ko'plik shakllariga bo'linishini aytib o'tadi.

Zaxiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub qimmatli asar "Boburnoma" qo'lyozmasida miqdoriy ifodalarni asarning bo'limlarga ajratilishida, yillar, sanalar ifodasida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, "Boburnoma"da muallif so'zlarni takror qo'llashni ma'qullamagan, xususan, "ko'p" so'ziga muqobillar sifatida ma'no-besh, behad, bisyor, bebadal, behayo, vofir, ziyod, kulli, mabzul, ma'fur, mufrid, pul, pur, arfaravon, bemamur, ko'chum, cho'x, cho'p, g'alaba kabi so'zlarni qo'llaydi.

Abdurauf Fitrat qalamiga mansub "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. "Sarf" nomli asarda ham sonlarga tegishli alohida bo'limlar mavjud. "Fitrat sonlar haqida bu asarida sonlarning sifat so'z turkumi ichida o'rganilishi, ularni tub va yashama sonlarga ajratilishi" haqida fikr yuritadi.

Shuningdek, asarda sonlar haqidagi bo'limida "o'lchov otlari" atamasi qo'llanilgan bo'lib, olim *bir yutum suv, bir siqim tamaki, ikki qadoq uzum* birikmalarini misol sifatida keltiradi. Bu o'rindagi *yutum, siqim, qadoq* so'zlarini o'lchov otlari deb ataydi. Bu atama ko'proq hozirgi tilshunosligimizdagi "hisob so'zlar" (numerativlar)ga to'g'ri keladi[2].

O'zbek tilshunosligida miqdor va miqdorni ifodalovchi birliklarni kategoriya sifatida tizimli tadqiq etish XX asrga kelib keng tarqaldi. Bu borada A.G'ulomovning "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" asarida ta'kidlash mumkin. U tadqiqotida ko'plikni quyidagi uch usullardan biri orqali ifodalanishini aytib o'tadi:

1. Morfologik ifodalanish (bolalar, gullar)
2. Leksik ifodalanish (xalq, olamon)
3. Sintaktik ifodalanish (to'da-to'da bola)

Ushbu qarashlar til birliklarini tizimli tahlil qilish, qolaversa, har bir til sathiga xos xususiyatlarni anglashdagi dastlabki qadamlar deb aytishimiz mumkin. A.G'ulomovning ko'plik va jamlikni ifodalovchi so'zlar, qo'shimchalar tarixidan hozirgi kundagi ko'plik shaklining morfologik, sintaktik va leksik ifodlanish yo'llari haqidagi ilmiy izlanishlari davr nuqtai nazaridan juda qimmatli hisoblanadi[3,68].

Y.Zulfiyev miqdor ifodalovchi tushunchalar haqida fikr bildirar ekan, jamlik kategoriyasi atama sifatida kam murojaat qilinishi chunki u son kategoriyasi singari leksik-grammatik kategoriya sifatida funktsiya bajarmasligini ta'kidlaydi. Jamlik atamasi asosan otlar va sonlarga tegishli bo'lib, jamlik ma'nosini bera olishigina xulosa qilib aytadi.

Miraziz Mirtojyev o'zining "O'zbek tili fonetikasi" asarida o'zbek tilidagi leksik urg'uni kvantitativ urg'u deb qaraladi deydi va so'zlardagi unli yoki undosh harflarni cho'zib, talaffuz miqdorni ifodalay olishini ta'kidlaydi[8,175].

F.Safarov "O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati" tadqiqoti bilan miqdor tushunchasi haqida monografik izlanish olib borganlardan biri hisoblanadi. Ilmiy izlanishda son-miqdor tushunchalarini maydon nazariyasi asosida tahlil qilgan. F.Safarov miqdor tushunchasini o'zbek tilida murakkab sathli makromaydon hisoblab, uchga bo'lib o'rganadi: 1) Mavjudot son-miqdori maydoni, 2) O'lchov-miqdor maydoni, 3) Harakat miqdori maydoni[4].

M.Mamajonova kvantitativlikni barcha til sathlarida ifoda topadigan belgi sifatida qaraydi. Uning aytishicha, miqdorni oddiy bir tovushdan to butun boshli matnlarda ham ifodalash mumkin. Tadqiqotchining ilmiy izlanishida o'zbek tilida kvantitativlikni ifodalanishda ko'makchi, bog'lovchi orqali amalga oshirish mumkinligini kuzatish mumkin. Bulardan *bilan* ko'makchisi biror so'zga birikkanda ortiqlik, juftlik kabi kvantitativ ko'rsatkichini berishi mumkin[7,45].

Xulosa qilib aytganda, kvantitativlik borasidagi izlanishlar o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur mavzu juda keng qamrovli hisoblanib, har bir izlanuvchi o'z nuqtai nazaridan yondoshgan, muhimi, bu boradagi fikrlar sayqallanib kvantitativlik tushunchasi atroflicha o'rganila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. А.В.Степанова. Функционально-семантическое поле количественности в разноструктурных языках: на материале английского, русского и чувашского языков: Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Чебоксары. 2007
2. А. Фитрат. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Сарф. Китоб 1. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр. 1930
3. А.Ғуломов. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, Ўздавнашр. 1944
4. Ф.С.Сафаров. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайdonи ва унинг лисоний нутқий хусусияти: Филол.фан.номз.автореф. – Самарқанд. 2004
5. К.Н. Симонова. Функционально-семантическое поле количественности в современном английском языке в сопоставлении с русским языком: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону. 2004
6. М.В.Всеволодова Категория количественности в славянских языках: числительные и квантитативы: Вестник московского университета. Сер. 9. Филология. 2013.
7. М.Мамажонова. Квантитативликнинг тил birlikларини тахлил қилишдаги аҳамияти: Молодой ученый. №3. 2016
8. М.М.Миртожиев. Ўзбек тили фонетикаси: Тошкент. Фан. 2013
9. М.Кошғарий. Девону луғоти-т-турк (Туркий сўзлар девони). Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-манбаа ижодий уйи– Тошкент. 2017
10. О.В.Лазерова. Категориальная семантика количественности в русском и испанском языках: Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2010
11. О.В.Слугина. Лингвокогнитивные основы поэтической квантитативности: на материале английского языка: Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Нижний Новгород. 2009
12. Т.В.Игошина. Морфотемный анализ категория квантитативности в разносистемных языках: На материале русского и английского языков: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ульяновск. 2004
13. Т.Х.Данг. Разряд неопределенно-количественных фразеологических единиц в русском языке: Автореф.

Дисс. канд. филол. наук. – Иванова. 2016

14. В.Г.Гаврилова. Способы выражения количества предметов в марийском литературном языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Йошкар-Ола. 2003

15. В.Г.Субич. Функциональный анализ лексико-семантического аспекта количественности в английском, японском и русском языках: Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Ребоксары. 2009

16. Ц.Цянь. Семантика квантитативности в именных группах китайского и русского языков: Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2017

UO'K:891.709

SAKKOKIYNING NA'T G'AZALI XUSUSIDA

G'.B.Israilov, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqola Sakkokiyning na't g'azali tahliliga bag'ishlangan. Maqolada adabiyotshunoslikda an'ana, vorisiylik, badiiy mahorat, devon tartib berishning o'ziga xos xususiyatlari, shungdek janriy xilma-xilligi kabi bir nechta masalalar o'rganilgan. Xususan, Sakkoki devonidagi g'azallar mavzu yo'nalishiga ko'ra hamd, na'tga bo'linishi va na't g'azallar ham o'z navbatida ikkiga – vasf na't g'azallar va me'rojnoma na't g'azallarga bo'linishi tahlil va talqin qilingan. Natijada, Sakkoki na'tlari orqali uning dunyoqarashining muhim jihati ko'rsatilib, amalda muallif g'oyaviy maqsadlari muhim qirralari namoyon etilganligi bilan na't g'azallarining shoir ijodida tutgan o'rni aniqlangan. Na't g'azallardagi talqin va tasvirlar, shuningdek, uslubiy o'ziga xosliklarda oyatlar va hadislar bilan aloqadorligi ochib ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *na't, vasf na't, me'rojnoma na't, shafe al-muznibin, kuntu kanzan, shaqqi qamar, xaybar urushi, Tarixi Muhammadiya.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу на'т газели Саккоки. В статье в литературоведении исследуются такие вопросы, как традиция, преемственность, художественное мастерство, особенности аранжировки девана, а также жанровое разнообразие. В частности, газели в диване Саккоки делятся на хвалебные и нат по тематике, а натские газели делятся на две - wasf nat газели и мерожнома нат. Анализируется и интерпретируется деление на газели. В результате важная сторона мировоззрения Саккоки показана через стихи Саккакия, а роль нат-газелей в творчестве поэта определена через показ важных сторон мировоззренческих целей автора. Выявляются толкование и образы в газелях На'т, а также их связь со стихами и хадисами, а также стилистические особенности.*

Ключевые слова: *на'т, wasf на'т, меражнома на'т, шафе ал-музнибин, кунту канзан, шакки камар, Хайбарская война, история Muhammadiya.*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of Sakkoki's na't ghazal. In the article, several issues such as tradition, succession, artistic skill, specific features of devan arrangement, as well as genre diversity are studied in literary studies. In particular, the ghazals in Sakkoki's divan are divided into praise and nat according to the topic, and nat ghazals are divided into two - wasf nat ghazals and merozhnoma nat. The division into ghazals is analyzed and interpreted. As a result, an important aspect of Sakkoki's worldview is shown through Sakkakiy's poems, and the role of nat ghazals in the poet's work is determined by showing the important aspects of the author's ideological goals. The interpretation and images in Na't ghazals, as well as their connection with verses and hadiths, as well as stylistic features are revealed.*

Key words: *na't, wasf na't, me'rojnoma na't, shafe al-muznibin, kuntu kanzan, shaqqi qamar, war of Khaybar, History of Muhammadiyah.*

Kirish. *Istiqlolgacha bo'lgan davrda chop etilgan asarlarda totalitar tuzum tazyiqi ostida mumtoz adabiyot namunalariidagi "Devon"lar ibtidosida keladigan kirish boblar hamd, na't, sano, me'roj, munojaat talqiniga doir boblar berilmadi, chunki bu mavzularni o'rganish umumislomiy mavzular sirasiga kirgan. Va shu bois bu mavzu adabiyotshunoslar nazaridan boshqa mavzularga qaraganda chetda qolgan. Buni isboti sifatida Sakkokiyning 1958-yilda Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan "Tanlangan asarlar"ini keltirishimiz mumkin. Aslida esa bu mavzularni o'rganishni "zamonasi uchun, butun jahon adabiyoti uchun katta ijobiy hodisa"[9, 299] deb hisoblamok kerak. Biz quyida adabiyotshunos olimlar M.Hasanova, H.Sheraliyev tomonidan nashrga tayyorlangan "Mavlono Sakkoki devoni" (Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2017)da berilgan na't g'azallarini ko'rib chiqamiz.*

Adabiyotlar tahlili va metodlar. *Mumtoz adabiyotimizning tamal toshlari hisoblanmish eng go'zal va salmoqli adabiyot namunalari yaratilgan davr XIV– XV asrlar deb hisoblaydigan bo'lsak,*

bu davr adabiy jarayonida Mavlono Sakkokiy va uning devonini alohida o'rni bor. Shuningdek, adabiyotshunoslikda an'ana, vorisiylik, badiiy mahorat, devon tartib berishning xos xususiyatlari, janriy xilma-xillik masalalari muayyan ijodkor asarlari asosida yoritib berish muhim ekan, quyida biz ham Sakkokiy devonidagi na't g'azallari tahliliga to'xtalamiz.

Ma'lumki, badiiy adabiyotdagi payg'ambar vasfiga bag'ishlangan asarlar na't deyiladi. "Na't – payg'ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash"[11, 444]. Demak, na't (arab. – maqtov, ta'rif) – mumtoz adabiyotning an'anaviy tarkibiy qismlaridan biri. Odatda, katta she'riy– epik asar (doston)lar, ba'zan ilmiy asarlar bosh qismida hamd va munojaatdan keyin keladi. Na't, asosan, payg'ambar(lar) sha'niga aytiladigan maqtovdan iborat bo'lib, ko'pgina mumtoz she'riy asarlarda uchraydi [4].

Mavlono Sakkokiy devoni ham an'anaviy hamd va na't bilan boshlangan. Shu o'rinda, aytish joizki, hamd va na't – janr emas, balki muayyan janrning mavzuga ko'ra turi. Hamd va na't g'azallar ham shunday. Demak, Sakkokiy g'azallari mavzu yo'nalishiga ko'ra, hamd va na'tga ham bo'linadi va na't g'azallar ham, o'z navbatida, ikkiga – *vasf na't* g'azallar va *me'rojnoma na't* g'azallarga bo'linadi. *Vasf na't* g'azallarda shoir payg'ambarning umumiy fazilatlarini madh etadi, mo'jizalarini ta'riflaydi. *Me'rojnoma na't* g'azallarda Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning me'roj mo'jizasi bilan bog'liq ta'riflari keltiriladi.

Ma'lumki, shoirlar na't g'azallarida qat'iy ravishda "Qur'on"ning Muhammad (s.a.v.) haqidagi oyatlar va hadislariga suyanilganlar. Sakkokiy ham bu an'anadan devonining "Na'ti Nabiy sallallohu alayhi va sallam" qismida unumli foydalangan:

*Osi(y) ummatning panohi, yo Shafe al– muznibin,
Jahl chohidin chiqorg'a sunnating hablul– matin.*

Shafe al– muznibin [3, 125] – gunohkor osiylarni vositachilik qilib shafolat qiluvchi demakdir, **hablul– matin** esa, **habl** ip, arqon, ya'ni nodonlik chohiga qulab tushgan kishilarni chiqarmoq uchun **xalaskor arqondir**, degani. Sakkokiy payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga murojaat qilar ekan, gunohkor ummatning panohisiz, ularni shafolat qiluvchisiz, jaholat chohidan chiqaruvchi, arqonsiz, deydi.

Keyingi misrada esa:

*Yo'lg'a kirg'anlarga xulqungdur yaqin sarmoyasi,
Yo'l yangilg'anlarga sha'ring shohrohedur mubin.*

Hidoyat yo'liga kirganlarga sening xulqing sarmoya – asosdir. Yo'ldan adashganlar uchun esa, sening yo'ling ravshan, *shohrohedur* – ulug' yo'ldir.

*Kun chiqib yulduz qamug' mansux bo'lg'ondek qachon,
Chiqti ersa sunnating mansux bo'ldi o'zga din.*

Ya'ni, Quyosh (kun) chiqib (qamug' – barcha, hamma, bari) barcha yulduzlar mansux bo'lganidek (mansux – amaldan to'xtamoq, ishlamay qolmoq), sening sunnating paydo bo'lgach, boshqa din mansux bo'ldi.

*Sen basharsan yo malak, hayron bu yerda aqli kull,
Zarraga bo'lmas bale, xurshed kunhidin yaqin.
Bo'lsa ham oriz erur zotingg'a bu jismi bashar
Bo'ldi ne bo'ldi, necha kun dur sadaf ichra makin.*

Muallif keyingi baytlarda Nabiy (s.a.v.) ni ulug'lab, unga murojaat davom ettirar ekan, Sen basharsan yoki malaksan deydi. Bashar – odam avlodi, lug'aviy ma'nosi esa, boshqa hayvonlardek odam jasadini o'rab olgan jun mavjud emas. Shu jihatdan odam boshqa yaratilmishlardan farq qiladi. Malak esa farishtadir. Sen basharsan yoki malaksan, hamda butun yaratilmishlarning aqli hayron (aqli kull), Quyosh (xurshed) mohiyatan (kunhidin) zarraga teng bo'lmasligi aniqdir (yaqin). Agar dur– sadaf kabi yaratilgan bu jism– u bashar mavjud bo'lganda ham, u sen uchun oriyatga, omonatga olingandir.

*Odam o'g'li sen vale, Haq garchi odam suratini,
Qildi rahmat suyini qudrat ili birla ajin.*

Sen odam o'g'lisan, garchand Alloh odam suratini muruvvat suvi hamda qodirlik qo'li bilan qorigan. "Yaratilishining ilk davridan boshlab inson o'zining komil va go'zal suratida bo'lgan. Ba'zi dinsizlar aytganidek, avval sodda jonzot bo'lib, so'ng maymunga va nihoyat odamga aylanmagan. Balki Alloh taolo uni eng go'zal suratda, eng chiroyli xilqatda yaratgan. Bu haqiqatni Alloh taolo Qur'oni Karimda alohida ta'kidlab, shunday marhamat qiladi: "Biz insonni eng go'zal tuzilishda

yaratdik” (Tiyn surasi, 4–oyat¹). Manbalarga ko‘ra, Odam alayhissalom bilan yerga, Ka‘baga o‘rnatilgan Hajar al–Asvad, ya‘ni qora tosh ham tushgan. Odam Ato yer yuzida juda uzoq vaqt (2000 yil atrofida) yashagan va vafotidan keyin Makkada dafn etilgan va toshqindan keyin uning jasadida Quddusga ko‘chirilgan. Xotini eridan 40 yil keyin vafot etgan. Uning qabri Jidda shahrida bo‘lib, Maqbaratul Ummi Havva (Havvo maqbarasi) deb nomlanadi. 1975 yilda Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan qabr ustiga maqbara qurilgan [11].

*Nur bahridin arig‘ zoting erur duri yatim,
Ne deb ayto yin aningdek gavhar aslin movutin.*

Sening zoting nur ummonidagi bir sadaf ichida yakka o‘zi yetilgan donador dur bo‘lib, bu dur (gavhar) loyqa suvning tingani kabidir. “Batahqiq, sizlarga o‘zingizdan bo‘lgan, mashaqqat chekkaningiz uning uchun og‘ir bo‘lgan, siz (ning saodatga yetishishingiz)ga tashna, mo‘minlarga mushfiq, mehribon Rasul keldi”².

*Avval odamg‘a vadi‘at qo‘ydi nuringni O‘g‘on,
Ushbu sirni bilmag‘onlar bo‘ldi mardudi lain.*

Alloh (O‘g‘on) Muhammad s.a.v. ning nurlarini yaratib, uni Odam a.s.ga omonatga (vadi‘at) berdi. Va bu sirni bilmaganlar la‘natlandi.

*“Kuntu kanzan” din xazoyin Xozini zoting erur,
Ore–ore ul amonatg‘a kerak sentek Amin.*

Kuntu kanzan bir xazina bo‘lsa, xazinachisi sensan va, albatta, bu xazinaga sendek Amin (omonatga xiyonat qilmaydigan, payg‘ambarimizning sifatlaridan biri) kerak. “Kuntu kanzan” [3, 89] haqida hazrat Navoiy 1499– yil yozilgan “Lison ut– tayr” dostonida ham aytib o‘tgan. Inson hayotining mazmuniga oid qimmatli fikrlar ramzlar tili vositasida ochib berilgan. Parvardigor o‘z sirlari xazinasini namoyon qilmoqchi bo‘lganda, uni na samo na yer qabul qildi. Insondan o‘zga jamiki jonli– yu jonsiz mavjudodlar jaholatga botib uning xitobini anglamadi.

*Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz. [A.Navoiy, 2013]*

Binobarin, inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi va “kuntu kanzan...” siridan xabardor etildi. Odamzod boshiga to‘g‘ri yo‘ldan borish toji³ kiydirildi. Sharaf me‘rojiga yuksalish uning qismati bo‘lib qoldi. Jaholatga botgani uchun osmon– u yer sharaf tojiga munosib ko‘rilmagan ekan, baniy odam orasidagi johil– u nodonlar mumtozlik maqomiga munosibmi? Yo‘q. Faqat “kuntu kanzan” siridan voqif insongina bunday sharafga loyiq. Ammo bu qanday sir? Bu Allohning kalomiga ishora bo‘lib, Alloh taolo aytadi: “Men bir maxfiy Xazina erdim, tanilmoqlikni istadim. Olamni yaratdim, to qudratimni namoyon etsam, Odamni yaratdim, to o‘zimni (rahmatim va mag‘firatimni) oshkor etsam” [10;162].

*“Li ma‘alloh” hujrasinda sendin o‘zga sig‘madi,
Mahram ermas sir saroyinda sanga Ruhul– amin.*

Sendan o‘zgasi Alloh dargohida bo‘la olmadi, hattoki, Jabroil a.s. ham. Jabroil a.s.ning yana bir nomi Ruhul–amindir. Farishtalar bajaradigan ishlarning eng ahamiyatlisi, Allohning vahiysini payg‘ambarlarga yetkazishdir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga Qur‘on oyatlarini keltirgan farishtaning ismi Jabroildir. Qur‘on uni “Ruhul amin” va “Ruhul qudus” deb ham ataydi. Farishtalarning vazifalaridan yana biri payg‘ambarlarni qullab–quvvatlash, ularning og‘irini yengil qilishdir. Bu baytda Muhammad s.a.v.ning me‘roj kechasi haqida gap ketadi. Me‘roj kechasida payg‘ambarimiz Buroq otiga minib, Jabroil a.s. uni yetti qavat osmonni sayr qildirib, “sidrat ul–muntaho”[12] degan manzildagi daraxtgacha yetkazdilar. (Sidr daraxti asosan Arab o‘lkalarida o‘sadigan daraxt bo‘lib, u biroz tikonli bo‘ladi. Insonlar uning mevasidan ko‘ra soyasidan ko‘proq foydalanishadi. Suvda o‘sadigan gulga ham sidr deyiladi. Sidra kalimasi Qur‘oni Karimning 4 oyatida hammasi bo‘lib 4 marta keltilgan. Ular orasidan Najm surasida aynan “*Судрпамыл Мухмахо*” deb keltirilgan. Sidratul Muntaho daraxti qayerdagi va qaysi daraxt ekani haqida esa quyidagi oyat va hadislardan bilib olamiz. Aloqador oyat va hadislar quyidagicha: “Muhammad s.a.v. (vahiyni o‘rgatgan malakni) o‘zgacha bir tushishda ham ko‘rdi. o‘shanda u Sidrat ul–Muntahoni yonida edi. Jannat ul–Ma‘vo esa, Sidrat ul–Muntahoni yonida edi. o‘sha damda, Sidrat ul–Muntahoni nimalar qoplagan edi, nimalar! Ko‘zi hech qayerga burilgani ham yo‘q, haddan oshgani ham yo‘q.

¹ Tiyn surasi (arabcha: التين سورة, nomining ma‘nosi — Anjir[8][9]) — Qur‘onning 95–surasi. Makkiy suralardan biri, 8 oyatdan iborat. Bu sura Qur‘onning 597–sahifasida va 30–juzida joylashgan. 28–bo‘lib nozil bo‘lgan.

² Tavba surasi, 128–oyat

³ Toji Lavlok – Agar sen bo‘lmaganingda. (qisq. Lavloka lamo xalaqtul–afloka, agar sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lur edim) Muhammad s.a.v. uchun aytilgan.

Haqiqatda, u Rabbining buyuk oyatlaridan bir qismini ko'rdi." (Najm 53/13–18). *Sidrat ul-Muntaho yettinchi qat samodadir.* (Buxoriy, *Bad'ul Xalq* 6.)

Shu joyda Jabroil a.s. qolib, payg'ambar s.a.v. yolg'iz o'zi Alloh dargohi tomon yuradi. Sakkokiy aytadiki, sen sir saroyiga borganda hatto Ruhul Amin (Jabroil a.s.) ham senga hamroh bo'la olmadi.

Sen basharsan, ming malak bandangdurur, ey joni pok!

O'farin ul pok joningg'a, hazoron [4, 717] ofarin.

Bu misrada muallif Hazratga "ey joni pok" deya murojaat qiladi. Sen odam avlodisan va barcha farishtalar senga hizmatkoridir. Sening bu pok joningga ofarin, ming bor (hazoron) ofarin (M.Hasanova, H.Sheraliyev tomonidan tayyorlangan nashrida "xazonon" shaklida berilgan).

Anbiyo-yu mursalin xalqa tutub o'ltursalar,

Barcha bir angushtari-yu sen ular aro nigin.

Shu o'rinda anbiyolar bilan mursalinlarning farqlarini tushunib olsak. Anbiyo⁴ – payg'ambarlar demakdir. Mursalin ham – payg'ambarlar, o'zagi "rasala" – yuborilgan degani. Ammo anbiyo bilan mursalinni farqi bor. O'zi bilan shariat olib kelgan anbiyolar "mursalin" deyiladi. Demak, baytda barcha payg'ambarlar, anbiyo-yu mursalinlar uzukka o'xshab xalqa hosil qilib o'tirsa, sen o'sha uzukning ko'zisan deyiladi.

Ne bashar topti bu joh-u manzilatni ne malak,

O'z qulig'a Xojadin izzat hamin bo'lg'ay hamin.

Yer yuzidagi barcha insonlar o'z martabasini topa oladimi, sensiz qanchadan qancha farishlar o'z manzilini topa oladimi?! Ho'jayindan o'z quliga hurmat bo'lsa, shunchalik bo'lar!

Ey Muhammad, oting-u Mahmud zotingga maqom,

Qullaringg'a kamtarin nuzli erur Xuldi barin.

Bu baytda esa, ey Muhammad isming jisingga mos mahmuddir⁵. Qullaring uchun jannatdan kelgan mehmonsan, deydi.

Qul qilur G'ilmon o'zin, topsa Buroqing soyasin,

Subsa qilg'oy zulfini, qilsang kanizak Huri iyn.

Bu bayt yanada ta'sirli yozilgan. Agar g'ilmonlar⁶ buroqingni gar soyasini ko'rsa o'zini uning uchun qul qilmoqqa tayyor bo'ladi. Nafaqat g'ilmonlar balki, Huri iynlar⁷ ham zulfini (sochlarini) subsa (supurgi) qilishga tayyordir, deydi Sakkokiy.

Beli bog'liq bandadur shirin so'zingga nay shakkar,

Xalqa dar go'shi erur alfozingg'a duri samin.

Bu o'rinda Sakkokiy ajoyib tashbeh ishlatadi: shakarqamishdan yasalgan nay kabi so'zlaring bilan belini bog'laganlar sening shirin so'zingga tobedur. Qimmatbaho dur kabi so'zlaring ularning qulog'idagi halqadir.

Ul javod ilging kafidin kon- u daryog'a yasor,

Bosqon izing tuprog'idin Arsh- u kursiga yamin.

Chap tomoningda javod⁸ qo'llaring kaftidagi kabi daryolar bor, ong tarafingda esa sen bosgan tuproqdan yasalgan Arsh-u kursi bor.

Barmoqing qilsa ishorat ikki bo'lur ko'kda oy,

Bir ovuch tuproqni sochsang, tortar a'doning ko'zin.

Ushbu misrada "agar barmog'ing bir ishora qilsa, oyni ikkiga bo'linadi", deyilgan. Shu o'rinda misra tushunarli bo'lishi uchun payg'ambarimizning oyni ikkiga bo'lganligi mo'jizasi haqida ma'lumot berishni lozim topdim. "Shaqqi qamar [8] mo'jizasi Sarvari Olam (s.a.v.) payg'ambarlik bilan vazifalantirilganlaridan so'ng voqe bo'ldi. Quraysh qabilasining peshvolaridan bir guruh mushriklar Allohning rasulidan payg'ambarligini isbotlaydigan bir mo'jiza ko'rsatishlarini so'rashga kelishib olib, bir joyga to'planishdi. Kechaning ilk soatlari edi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) porloq o'yni yorug'i ostida Hazrati Ali, Huzayfa ibn Yamon, Abdulloh ibn Mas'ud, Anas ibn Molik, Abdulloh ibn Abbas, Jubayr ibn Mut'im va Abdulloh ibn Umar (r.a.) kabi sahobalar davrasida suhbat qurib o'tirar edilar. Mushriklar nurli halqa atrofini o'rab olib, payg'ambarimizdan mo'jiza ko'rsatishlarini qayta-qayta talab etishdi. Nihoyat, Faxri Koinot (s.a.v.) o'rinlaridan turib, muborak qo'llarini osmonda oltin tovoq bo'lib nur sochayotgan oyga qaratdilar. Yaratilganidan beri vazifasidan bir soniya ham

⁴ arabcha nabiy, payg'ambar so'zining ko'pligi

⁵ maqtalgan, maqtovga sazovor bo'lgan

⁶ o'g'il bolalardan bo'lgan jannat hizmatkorlari

⁷ qiz bolalardan bo'lgan jannat hizmatkorlari

⁸ sahiy, sahovatli, qo'li ochiq

adashmagan oy koinotning yaratilishiga sabab bo'lgan u Zotning (s.a.v.) bir ishoratlari ila shu zahoti ikkiga bo'lindi. Mino tog'i o'ynining ikki parchasi o'rtasida qolib, muhtasham bir manzara yuzaga keldi. Sarvari Koinot (s.a.v.) atroflaridagi sahobalariga “Shohid bo'linglar! Shohid bo'linglar!” deya takrorlar ekanlar, Quraysh kofirlari hayronlik bilan bir– biriga qarar, “Muhammad bizni sehrlab qo'ydi”, der edi. Mushriklardan biri: “Muhammad (s.a.v.) bizni sehrlab qo'ydi, xolos: U ko'zimizga oyni ikki parcha qilib ko'rsatdi. Bu hodisani atrofdan kelayotgan qobila va karvonlardan so'rash kerak”, dedi. Tabiiyki, bu taklif boshqalarga ham ma'qul bo'ldi. Ertasi kuni ertalab Yaman va boshqa taraflardan kelgan karvonlarga savollar yomg'irdek yog'ildi. Karvonlar asosan kechalari yo'l yurgani uchun O'ynining ikkiga bo'linganiga ular ham guvoh bo'lgan edi. Qaysar makkalik mushriklar endi: “Abu Tolibning asrandisi ko'rsatgan sehr samoga ham ta'sirini o'tkazdi”, deya boshlashdi. Va garchi Sayyid ul– Basharning (s.a.v.) yonlarida hozir bo'lishlariga qaramay, bu mo'jizani ko'rgan boshqa mushriklar kabi, kufrlarida sobit qoldilar. O'sha asnoda Allohning kalomi nozil bo'ldi: “(Qiyomat) soati yaqinlashib qoldi va oy ham bo'lindi. Agar ular (Quraysh kofirlari Muhammad alayhissalomning haq payg'ambar ekanliklariga dalolat qiladigan) biron oyat–mo'jiza ko'rsalar (ham, u payg'ambarga iymon keltirish o'rniga) yuz o'girurlar va “(Bu) har doimgi sehr–ku!” derlar. Ular (payg'ambarni) yolg'onchi qildilar va havoyi nafslariga ergashdilar. Har bir ish o'z joyini topguvchidir (ya'ni, garchi kofirlar yuz o'girsalar– da, bu haq din Yer yuzida qaror topur)⁹”.

Keyingi misrada bir hovuch tuproqni sochib, dushmanning ko'zlarini ko'r qilgansan, deyilmoqda. Bu o'rinda esa, “Husayn g'azoti” haqida gap ketmoqda. Alixonto'ra Sog'uniyning “Tarixi Muhammadiyya” asarida shu haqda ma'lumot berilgan: *“Makkaning fath bo'lgani, Quraysh mushriklarining yengilgani butun Arabistonga tarqalib ma'lum bo'ldi. Shu bilan Islom dinining shon– shavkati ko'tarildi. Barcha arab qabilalariga qo'rqinch tushdi. Butparastlik davlati yiqilib, Islom davlati rivojga kirdi. Arab qabilalari ersa, qaysi biri qo'rqanidan, qaysi biri suyganidan dinga kirisha boshladilar. Yolg'izlanib toyifliklar va uning atrofidagi Havozin, Saqif qabilalari tushunmaslikdan, o'jarlik qilishib, Rasulullohga qarshi urushmoqchi bo'ldilar”*. Aynan shu urush tarixga “Husayn g'azoti” nomi bilan kirgan bo'lib, dushman g'olib kela boshlagan paytda edi: *“Mana shu chog'da Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yerdan bir hovuch tuproq olib: “Yuzlari qora bo'lsin!”, deb hujum qilib kelayotgan qalin dushmanga qarab otdilar. Alloh amri bilan bir changal tuproq butun dushman askarining og'iz–ko'zlarini to'ldirdi. Ilohiy kuch bilan otilmish bir siqim tuproqqa qarshi turolmay, seldek kelayotgan dushman askari orqa o'girib qochdilar. Rasululloh ersalar bu holni ko'rgach: “Men Abdulmuttalib o'g'li, shaksiz Allohning payg'ambariman”, degan so'zlarni aytib, askarni urushga qizdirdilar”*[8]. Bu haqda shu oyat nozil bo'ldi: *“Va yavma Hunaynin iz a'jabatkum kasratukum falam tug'ni ankum shay'an”*. Ya'ni, *“Husayn urushida ko'pchilik bo'lganlaringga ishondinglar, u ersa sizlarga foyda bermadi”*¹⁰.

Vuslatingdin goh kirur tilg'a pishiq buzg'olayi,

Furqatingdin goh qilur Hannona zori–yu anin.

Seni ko'rgach (vuslat – o'zagi vasl) pishirilgan echki ham tilga kirgan. Pishirilgan echki go'shtining tilga kirishi Xaybar jangida [13] bo'lgan. 628–yili Muhammad s.a.v. boshchiligidagi musulmonlar bilan Xaybar vohasida yashovchi yahudiylar o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Islomiy manbalarga ko'ra, musulmon qo'shinlari Xaybarga yurish qilib, musulmonlar bilan kelishuvni buzganidan keyin qal'alarda to'siq o'rnatgan yahudiylar bilan jangga kirishgan. Xaybar urushida musulmonlar g'alaba qilishgan, mag'lub tomon echki go'shtini pishirib, unga zahar solib, Rasulullohga jo'natadi. Shunda echki tilga kirib, “men zaharlanganman” deydi.

Ikkinchi misra Rasulullohdan ayrilishni istamagan “Hannona” – “Yig'laguvchi” (masjid ustunining nomi) haqidadir. Alixonto'ra Sog'uniyning “Tarixi Muhammadiya” asarida Payg'ambarimiz bilan bog'liq jami ellik ikkita mo'jiza sanalgan. Ushbu mo'jizalardan o'n to'rtinchisida Hannona degan ustunning yig'lagani haqida aytilgan. Imom Buxoriy ham buni “Mutavotir¹¹” hadis deb atagan. *Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkadan Madinaga hijrat qilib kelganlarida, dastlab bir masjid bino qildilar. Uning uzunligi yuz gaz, eni qirq gaz kelur edi. Bunga xurmo yog'ochidan bir necha ustun qo'yilg'on edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har vaqt juma namozi o'qisalar, shu ustunlarning biriga suyanib turib, shu yerda xutba o'qib, xalqqa va'z aytur edilar. U kunlarda minbar qo'yish rasm bo'lmagan edi. Sahobalardan Tamimud– doriy raziyallohu anhu: – Yo Rasulalloh, siz uchun bir minbar yasatsak, ustida va'z aytgudek bo'lsangiz,*

⁹ Qamar surasi, 1-3 oyatlar

¹⁰ “Tavba” surasi, 25-oyat

¹¹ Mutavotir hadisga ulamolalar shunday ta'rif berganlar: ‘Yolg'onga kelishib olishlari mumkin bo'lmagan darajada ko'p roviydan rivoyat qilingan hadis mutavotirdir’.

qanday bo'lur? – deb so'radi. – Yaxshi bo'lur, – deb ruxsat berdilar. So'ngra bir minbar yasashdi. Uni keltirib, imomning o'ng tomoniga qo'ydilar. Islom olamida eng avval yasalgan va masjidga qo'yilgan minbar shul edi. Juma kuni kelgach, jamoat namozga yig'ildi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odatlaricha xutba o'qimoqqa turib, ustun oldidan to'xtamay o'tib ketdilar. Mana shu chog'dayoq ul ustun ingray boshladi. Bo'talog'idan ajragan tuya singari bo'zlagani turdi. Rasululloh minbar ustiga chiqib edilar, bola baqirgandek bo'lib yana qattiqroq yig'ladi. Silkinib ketib, yorilishga yaqinlashdi. Buni ko'rib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam darhol minbardan tushib ul ustunni quchog'lab turdilar. Uzoqroq yig'lab qolgan yosh bolani onasi olib ovutganda o'ksib– o'ksib yig'lagandek, Rasululloh quchog'larida turib, bu ustun ham shuning singari o'ksib yig'ladi. Anda Rasululloh: – Buning oldida har juma Alloh zikri aytilib, andin bahra olur edi. Shundan ajrab qolganiga yig'laydi, – dedilar. Buni ko'rib sahobalar barisi yig'lashgali turdi. Masjid ichi larzaga kelib yig'i– sig'iga turdi. Anda Rasululloh: – Qasam Allohgakim, buning yig'isini o'zim kelib to'xtatmasam, qiyomatgacha shu ahvolda bo'zlab yig'lar edi, – dedilar. Shundan keyin bu ustun oti “Hannona”, ya'ni “Yig'laguvchi” bo'ldi. U yig'idan to'xtagach, unga Rasululloh aytdilar: – Ey Hannona! Xohlasang qaysi chorbog'dan seni kesib kelgan bo'lsalar, o'shal bo'stonga eltib o'ltirgizay, yangidan ildiz olib ko'karursan. Agar buni xohlamasang, seni jannatga ko'chat qilib o'ltirgizurman. Jannat ahllari, Xudoning do'stlari mevandan yegaylar, bu ikki ishdin birini ixtiyor qil, – deb uning javobiga quloq solib turdilar. Anda ul: – Yo Rasulalloh, meni jannatga ko'chat qilib o'ltirgizing, shuni xohlayman. Mening mevamni Allohning do'stlari yegaylar, foniy dunyo bo'stonida bo'lishni istamayman, eskirmaydigan jannatda turishni tilayman,– dedi[8].

*Do'stlaring oldida yerdek past Xaybar qal'asi,
Dushmaning daf'ig'a o'rgamchi uyi Hisni Hasin.*

Birinchi misra Rasululloh s.a.v.ning Xaybar qal'asini ishg'ol qilishi haqida bo'lsa, ikkinchi misra Hisni Hasin haqidadir. Hisni Hasin – o'rgimchak to'rlaridan yasalgan mustahkam qal'a. Bu haqda imom Ahmad ibn Hanbal Abdulloh ibn Abbos¹² roziyallohu anhudan quyidagi rivoyatni keltiriladi: “Quraysh bir kecha Makkada mashvarat qildi. Kimdir “Ertalab Muhammadni ushlab, bog'lab qo'yinglar”, dedi. Boshqalari esa “Yo'q, uni o'ldirish kerak”, deyishdi. Ba'zilar “Makkadan chiqarib yuboringlar”, dedi. Alloh taolo Payg'ambari sollallohu alayhi vasallamga buni bildirdi. Hazrati Ali Rasulullohning to'shaklariga kirib, yotdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam esa Makkadan chiqib, g'orgacha yetib oldilar. Mushriklar Ali roziyallohu anhuri Rasululloh sollallohu alayhi vasallam deb o'ylab, kechasi bilan poylab chiqdilar. Ertalab yopirilib kirib, Alini ko'rganlarida Alloh ularning makrlarini o'zlariga qaytardi. Ular: “Og'ayning qani?” deb so'radilar. Hazrati Ali: “Bilmayman”, dedi. Ular Rasulullohning izlaridan axtarib ketdilar. Toqqa yetganlarida adashtirib yubordilar. Tog' tepasiga chiqib, g'or yonidan o'tdilar. G'orning og'zida o'rgimchak uyasini ko'rib: “Agar u bu yerga kirganida, o'rgimchak uyasi bo'lmas edi”, deb, o'tib ketdilar. Rasululloh o'sha joyda uch kun qoldilar”[7]. “Kufr keltirganlarning seni qamash, o'ldirish yoki chiqarib yuborish uchun makr qilganlarini esla. Ular makr qildilar va Alloh ham “makr” qildi. Alloh “makr” qilguvchilarning eng yaxshisidir”¹³

*Ikki dunyoni sening haqqingda paydo qildi Haq,
Xud na bo'lg'ay xidmat¹⁴ingda Turk– u Hind– u Rum– u Chin.*

Alloh taolo ikki dunyoni sen uchun yaratdi¹⁵, hamda Turk, Hind, Rum va Chin, xud (albatta), hizmatigda bo'ladi. Dunyo xaritasidan qararak Rum g'arbda, ularga nisbatan turklar esa shimolroqda, hindlar janubda, Chin diyori esa sharqda joylashganini ko'ramiz. Ikkinchi misrada kelgan Turk, Hind, Rum hamda Chin so'zlari ramziy ma'noda dunyoning to'rt tomoni degan tahmini ilgari sursak, noto'g'ri bo'lmaydi.

*Barcha olam osiy sen qo'lsang, bag'ishlar Haq senga,
Chun tufaylingdur bu xalqi avvalinu oxirin.
Pok joningni haqqi ulkim, erur o'z nuridin,
Ul O'g'on haqqi seni kim qildi barchadin guzin.*

Agar sen qo'lasang yoki xohlasang, Alloh dunyodagi barcha gunohlarni shafolat qiladi. Alloh taolo seni o'z nuridan yaratib, barchadan ustun (guzin¹⁶) qildi.

Rahm qil, mahshar kuni Sakkokiy osi jonig'a,

¹² hadis va fiqh sohasidagi olim, shuningdek, hanbaliyya mazhabining asoschisi

¹³ “Anfol” surasi, 30-oyat

¹⁴ Hizmat, ish, yumush

¹⁵ Lavloka lamo xalaqtul-afloka, agar sen bo'lmaganingda falaklarni yaratmagan bo'lur edim.

¹⁶ Tanlangan, ma'qul va maqbul bo'ladigan, sara.

Yo shafe'al muznibin¹⁷, yo rahmatan lil-olamin¹⁸.

Natijalar va muhokama. Sakkokiy de'vonining na't qismi yakunida, muallif Rasululloh sallolohi alayhi vasallamga murojaat etib: “ey shafolat etuvchi, mahshar kuni mening gunohkor jonimga rahm qil”, deydi. Mahshar kuni Odam atodan to qiyomatgacha yashagan odamlar qayta tirilib yig'iladigan joy mahshar maydonidir. “Sog'lom e'tiqot – mo'minga najot”[14] kitobida shunday savol– javob bor: “Agar Odam atodan to qiyomatgacha yashagan odamlar qayta tirilsa, mahshar maydoniga qanday sig'adi? – Javob: trillionlab yulduzlar sig'adigan koinotni yaratgan Zot barcha insonlar sig'adigan maydon yaratishga ham qodirdir. Osmondagi minglab yulduzlarni kichgina ko'zimizga sig'dirgan Zod mashhar maydoniga ham istaganicha insonni sig'diradi”. Mavlono Sakkokiy na'tning so'nggi baytida Rasululloh sallolohi alayhi vasallamdan mahshar kuni o'zining gunohkor joniga shafolat so'rab, “Senga olamlarning rahmati bo'lsin”, deya tugatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sakkokiy na't g'azallari Muhammad (s.a.v) vasf qilar ekan, Qur'on oyatlari va hadislariga suyanadi va o'ziga xos tarzda obraz tasvirini badiiyat darajasiga ko'taradi va mohiyat e'tibori bilan Sakkokiy na't g'azallari yuksak ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega: ular kishini imonga, har bir ishni bilib qilishga, har bir qadamni o'ylab bosishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nashrga tayyorlovchilar M.Hasanova, H.Sheraliyev. Mavlono Sakkokiy devoni. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2017. (Preparers for publication: M. Hasanova, H. Sheraliyev. Mavlana Sakkoki's office. - Tashkent: MUMTOZ SOZ, 2017.)
2. Mamadaliyeva Z. Lison ut– tayr obrazlari: ramz va majoz olami. – Toshkent.: Fan, 2022. (Mamadaliyeva Z. Lison ut-tyre images: the world of symbols and metaphors. - Tashkent.: Science, 2022.)
3. Farhangi zaboni tojiki, nashriyoti sovetkaya ensiklopediya.– Moskva, 1969. (Farhangi zaboni Tajiki, published by Soviet encyclopedia. - Moscow, 1969.)
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000 (National Encyclopedia of Uzbekistan. The first volume. - Tashkent, 2000)
5. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. – T.: Fan, 1983– yil. (Explanatory dictionary of the language of Navoi's works. 4 roofs. - T.: Science, 1983.)
6. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. “Hadis va Hayot”. 19– juz kitobi, 2021– yil, ISBN: 978– 9943– 7035– 2– 0 (Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. "Hadith and Life". 19– juz book, 2021– year, ISBN: 978– 9943– 7035– 2– 0)
7. Alixonto'ra Sog'uninying “Tarixi Muhammadiyya”, <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=436.0> Doniyor va Laylo tayyorlagan. www.ziyouz.com 2007. (“History of Muhammadiyya” by Alikhontora Soguni, <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=436.0> Prepared by Daniyori and Layla. www.ziyouz.com 2007.)
8. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2010. – B. 299 (Soul notebook of Sultan I. Navoi. - T.: NMIU named after Gafur Ghulam, 2010. - P. 299)
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 2– tom. – T.: Fan. 1983 (Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works. 4 roofs. 2- roof. - T.: Science. 1983)
10. <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/>
11. Манба: <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/> Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti “Hadis va islom tarixi” fanlari kafedrasini o'qituvchisi Po'latxon Kattayev (Source: <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/> Polatxan Kattayev, teacher of the Department of Sciences "Hadith and Islamic History" of the Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari)
12. <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/>
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xaybar_jangi (https://uz.wikipedia.org/wiki/Battle_of_Khyber)
14. Sayfuddin Sayfulloh Odilxon qori Yunusxon hoji o'g'li. Sog'lom e'tiqot – mo'minga najot. – T.: Sharq, 2014. (Saifuddin Saifullah Adil Khan, son of Haji Yunus Khan. Healthy faith is salvation to the believer. - T.: Sharq, 2014.)

UO'K 808.5

“QASDI SAFAR” ASARINING JANRI XUSUSIYATLARI M.A.Jo'rayeva, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning “Qasdi safar” asarining janr xususiyati haqida so'z boradi. Publitsistik yo'nalishda yozilgan asar kundalik asosida safar taassurotlarini bayon etgan.

Kalit so'zlar: janr xususiyatlari, memuar janri, kundalik janri, safarnoma va sayohatnoma janri tahlili.

Аннотация. В статье рассказывается о жанровой особенности произведения Махмудходжи Бехбуди “Касди Сафар”. Написанное в публицистическом направлении, произведение повествует о впечатлениях от поездки на основе дневника.

¹⁷ Shafolat etuvchi

¹⁸ Olamlarning rahmati bo'lsin, payg'ambarimizning muborak nomlariga qo'shib aytiladi.

Ключевые слова: жанровая характеристика, мемуары, жанр дневника, сафари и жанровый анализ путевых заметок.

Abstract. The article is written about the genre feature of the work of Mahmudhoja Behbudi "Qasdi safar". The work, written in the journalistic direction, outlined the impressions of the trip on a daily basis.

Keywords: genre feature, memoir, daily genre, travelogue and travelogue genre analysis.

XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib yetuk badiiy namunalarni yaratdilar. O'zbek jadid adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o'rni beqiyos. Mumtoz adabiyot tarixida safar tafsilotlarining bayon qiluvchi asarlarning ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Biroq safarnoma bilan sayohatnomani farqlab olish darkor. Bizning fikrimizcha, shu paytgacha o'zbek adabiyotida bu ikkita janr sinonim sifatida qo'llangan. "Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol o'ynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeyatga tobe' bo'ladi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin"[1.149-bet]. Memuar janrining yana bir shakli bu kundalikdir. Safarnoma erkin janr bo'lib, bu boshqa janrlardan tubdan farq qiladi. Safarnoma janri kundalik tarzida, maktub, xat tarzida, badiiylilik jihatdan boyitilgan asar tarzida, obrazlarga boy safar tasviri holatida tasvirlanadi.

Behbudiy "Qasdi safar" asarida safar tafsilotlari berilgan. Adibning ikki jildlik "Tanlangan asarlari" kitobi "Akademnashr" tomonidan 2021 yili nashrdan chiqdi. Kitobning "Sayohat xotiralari" deb nomlangan bobida "Qasdi safar" asari berilgan. Bo'limga sayohat xotiralari, deyilsa-da, biroq adib o'zi safar deb nom bergan. Bu safarnoma adibning boshqa publitsistik asarlaridan farq qiladi. Chunki Mahmudxo'ja Behbudiy safarga chiqqan kundan boshlab, kundalik tarzida ko'rgan voqealari, tabiat tasviri, xalqlar va millatlar taqdiri haqida bayon qiladi. Safarnomani boshida safarga chiqishni istagani, lekin bir muncha sabablar tufayli oila va ishdan uzula olmagan haqida, "Oyina" jurnali qismatidan xavotiri borligi haqida shunday deydi: "Bir sanadan beri idora ishiga oshno bo'lgan Sayyid Rizo afandi Alizoda janoblarining "Oyina"ga mas'ul mudirligi uchun hukumatdan ruxsat olindi. Muvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin janoblarig'a havola qilindi. Kitobat va tartibig'a Mullo Faxriddin Rojii janoblari mutasaddidur. Olloh taoloning inoyati va qorilarning tavajjuhlariga kamina bo'lmasa-da, "Oyina" eskicha chiqib turar va sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib turamiz"[2. 72-bet].

"Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalining nashr etilishi bilan bog'liq Behbudiyning bir qancha orzu niyatlari bor ediki, ulardan biri o'zbek, fors, rus tillarida nashr etish, uzoqdagi xalqlarga ham yetib borishi edi. Biroq uning niyatlari amalga oshmadi, "Samarqand" gazetasi bir yilgina umr ko'rdi. Ammo Behbudiy "Behbudiya" kutubxonasida kitob savdosini yo'lga qo'yish maqsadida 1914 yil 29 may kuni poyezdga o'tirib, ikki oylik safarga chiqadi.

Sayohatga chiqishni istagan adibga Rusiya Davlat Dumasi deputati Tevkelevdan taklifnoma keladi va shu taklifnoma asosida safarga chiqadi. Lekin safarga borishga do'sti yo'qligi, o'g'li Mas'udxo'jani olib ketay desa, imtihonlari borligi, gimnaziya tayyorgarlik ko'rayotganini, rus, fransuz, nemis tili o'rganayotganini ta'kidlaydi. Adib o'zi yetishmagan orzulariga, ko'pgina tillarni o'rganib, boshqa millat kitoblarini xalqqa yetkazish kabi orzularini farzandi orqali amalga oshirish istagini bildiradi. O'z bolasini namuna qilish orqali xalqni ma'rifatga, ilm olishga chorlaydi.

1914 yil 29 may kuni Samarqanddan poyezdga o'tirganidan tortib, oilasi bilan xayrlashuv onlarini ham kundalik shaklidagi safarnomaga yozadi. Qalbidagi tug'yonini, ayriliq azobi muallifni qiynaydi. Bu qiynoqqa na kitob o'qish, na xayol surish taskin beradi. Uning qalbiga Qur'oni karim taskin beradi.

Behbudiy kunda ko'rgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham ma'lumotlar berish orqali o'z fikrlarini aytib o'tadi. U islom dini va Qur'oni karimni yaxshi bilgan. Shuning uchun muhojirlarni mazhablarini bemalol ajratib olgan. Marv tomonni istilo etgan buxoriylarni sardori sarig' va ko'k ko'zli bir kishi ekanligi orqali real hayotdagi va tarixdagi insonlar portretlarini ham chizib beradi. Biroq safarnoma janri kompozitsiyasi boshqa janrlardan farq qiladi. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini hadafi (maqsad) emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulq atvorini amalda ko'rsatadi. Safarnomalarda asosan bir nafar-muallifni xarakteri ko'proq namoyon bo'ladi[1. 150-bet].

Adib safarnoma janrida bir qancha she'riy san'atlar va tasvir vositalaridan foydalanadi. "Murg'ni boshi tashlanilsa, "rg'" qolib 1200 sana uchun ta'rix chiqar, ya'ni Bayramalini buxoriylar halok etganlariga 132 sana bo'lur. G'oliblar shoiri ham "Sari Bayramali shud xalqai dor.."she'r aytganlar. Al-on Rusiya hukumati eski bandni tuzatib, Bayramali va Marv taraflarini obod etib turubdur. Bayramali yerlari hazrati imperaturg'a mansub bo'lub, xalqg'a ijaraga berilur. Bevosita Bayramali Marv shahri bo'lub, qadimda "Marvi Shohjahon" atalardi"[2.74-bet].

Behbudiy muammo qoidasiga amal qilib, sanani chiqarmoqda, ya'ni "murg'" so'zidagi bosh harf "mim" olib qo'yilsa, "re" va "g'ayn" harflari qoladi. Abjad hisobida qo'shilsa, ikki harfdan 1200 sana kelib chiqadi. Demak, 1200 sanada amirlik Marv shahrini qayta ishg'ol qilgan. "Abjad hisobi - arab alifbosidagi harflarning har biri ma'lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisob. YA'ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma'lum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni kat'iy alifbo tartibida birlashtirish orkali sakkizta sun'iy so'z hosil kilingan bo'lib, ular hech kanday lug'aviy ma'noga ega emas. Sharq mumtoz she'riyatida abjad hisobidan u yoki bu voqea hodisaning yuz berish vaktini kayd etish, she'rda turli so'z o'yinlarini yuzaga keltirish kabi maqsadlarda samarali foydalanilgan. Shuningdek, abjad hisoboti imkoniyatlari chiston, muammo kabi she'riy bosh qotirma janrlarida ham keng istifoda etilgan"[3.4-bet].

"Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol o'ynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeaga tobe' bo'ladi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin"[1. 150-bet]. Marv shahri aholisi millati ularning kelib chiqishiga to'xtalib, xalqning ilm-ma'rifati haqida fikr yuritadi. Adib safari davomida har bir millat va ellatning kelib chiqishi, yashash sharoiti, ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritar ekan, xalqlarning ma'rifati, ilm olish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tasvirlaydi. Xalqlarning ijtimoiy hayotini tasvirlash bilan cheklanmasdan, balki ma'rifatparvar, ziyoli shaxslar bilan uchrashganini ham ta'kidlaydi.

"2 iyunda Bokudan chiqib, Mineralni vo'da (Ma'dan suvlari) maxattasig'a mutavajjih bo'ldikkim, orasi 755 chaqirim bo'lub, bir kecha kunduz yurildi. Muning olti yuz chaqirimi komilan musulmon yerlari ham nihoyatda manbit va a'lo yerlardurkim, arpadan sholigacha ekilgan va aksariyatan bahorikori va yerlari qarag'padur. Daraxtlari u qadar ko'pkim, Samarqandning Qaradaraxtu Miyonkoli anga nisbatan hechdur. Xalqi bizning pirsiyon, lazgi, dog'istoniy degan xalqdar bo'lib, yana doxilan, chechen, qo'muq va boshqa ismlar ila ataladur.

Biz, turkistoniyalar, torganimizni to'y, o'luk va ko'pkarig'a sarf qilgandek, bu musulmon qarindoshlarimizning aksari o'z molini qiz olib qochib, janjalig'a sarf etmoq, bir-birovlarini o'ldurub, yana qasosi nomashru' tariqida tarafayndan bir nechalab o'ldurub, so'ngra bor pullarini sudu sinod yo'lig'a va umrlarini Sibiriya cho'llariga sarf qilib, nobud bo'lar ekanlar. Arolarida madrasa nomida bir shay yo'q emish. Ammo o'zlari nihoyatda iymonlik va amalsiz musulmonlardir"[2. 78-bet]. Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi safarning shu asosiy, ikkinchi qismini bezagan mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni o'rganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va G'arb mamlakatlarida ro'y bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno bo'lish, turk, fors, arab tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, o'zining safarnoma parchalarini "Oyina" jurnalida e'lon qilish yo'li bilan vatandoshlarining ham dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish edi [4. 185-bet].

Behbudiy safar davomida Bayrut, Yofa, Quddusi sharif, Xalil ar-Rahmon, Baytullahm singari shaharlardagi diqqatga sazovor joylarni borib ko'radi. Shu narsa g'aroyibki, u bu shaharlarning birida teatr va sinematograf bor bo'lgani holda unga kirmaydi. Safarning o'ziga xos g'aroyib tomoni shunda ediki, sayyohlar uchun belgilangan yo'lda musulmon masjid va madrasalari bilan birga nasroniylarning kalisolari ham joylashgan, ya'ni ikki madaniyat, ikki din obidalari yonma-yon yashar, inson irqi, millati, dinidan qat'iy nazar, bir ota-onaning farzandi ekanligidan dalolat beradi.

Behbudiy kalisoldardan birining oldida toshkentlik yosh atorning narsa sotib o'tirganini ko'rib qoladi. "Do'konig'a biroz o'lturdik. Mamlakatdan so'radi. Qo'lga bir necha nusxa "Oyina" va Turkiston xaritasini berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'ziga surtdi. Hubbul vatani min al-iyman. Xususan, vatan va ahli diyorning qadri musofirlikg'a ma'lum bo'lur. Haqiqatan, vatan muqaddasdur" [2. 147-bet].

Behbudiy Yofadan Iskandariyaga ketayotgan paytida vatandoshini uchratadi. Taqdir taqozosi bilan 5-6 yildan beri Hindiston, Arabiston, Misr va Hijozni kezib yurgan qo'qonlik yigit bilan tanishib qoladi. "Qasdi safar"ning so'nggi sahifalarida samarqandlik Hoji Mir afandini uchratib

qolishi, uning 3 o'g'li borligi, o'g'lilaridan biri fransuz maktabida o'qishi, shu maktabning bitiruv kechasida ishtirok etganligi haqida batafsil to'xtaladi.

Behbudiy bevosita jurnalistik faoliyati bilan bog'liq safarda yurgan bo'lsa ham, uni chamasi, Samarqandda bundan-da muhim ishlar kutib turgan edi. Shu hol Behbudiyga "Qasdi safar"ning so'nggi sahifalarini yozib, unga so'nggi nuqta qo'yish imkoniyatini bermagan. "Oyina" jurnalida peshma-pesh bosilayotgan safar taassurotlari shu hol tufayli yakunlanmay qolgandek taassurot uyg'otadi. Shunga qaramay, "Qasdi safar" Behbudiyning publitsistik merosida alohida o'rin egallaydi [4. 194-bet]. Adib safarda ko'rgan va eshitgan voqealarini kundalik tarzida yozib borar ekan, har voqeaga, ko'rganlariga, tabiat tasviriga o'z munosabatini bildiradi. Vatani, xalqi sharoiti bilan qiyoslaydi. Xalqlarning o'rtasidagi urf-odatlarini, ma'nisiz orzu havaslar haqida gapirib, xalqni ilm olishi, ilmga intilishi kerakligini ta'kidlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bilgan. Millatni millat sifatida tugashdan, jamiyatni falokatdan faqatgina maktab, ilm-ma'rifat islohotigina asrab qolishi mumkinligini keng ziyolilar ommasiga anglatishga intilib, tinmay kurash olib borgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Раҳими Мусулмониён. Назарияи адабиёт. Душанбе. "Маориф" – 1990. 150-бет.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар. Тошкент. Akademnashr. – 2021. 74-бет.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. Akademnashr. – 2010.
4. Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий. Тошкент. Akademnashr. - 2022. 185, 194-бетлар.

UO'K 811

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KURASH ATAMALARINING STRUKTURAL - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

M.Karimova, o'qituvchi, O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri atamalar tuzilishi muammosidir. Bu birinchi navbatda, "terminologik portlash" ga olib kelgan ijtimoiy va ilmiy-texnik rivojlanish, tizimlashtirish, birlashtirish va standartlashtirish zarur bo'lgan yangi atamalarning ommaviy ravishda paydo bo'lishi bilan bog'liq. Maqolada o'zbek milliy kurashi terminlari misolida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, tilshunoslik, transliteratsiya, so'z birikmasi.

Аннотация. Одной из актуальных проблем современного языкознания является проблема строения терминов. Это связано прежде всего с общественным и научно-техническим развитием, приведшим к «терминологическому взрыву», массовому появлению новых терминов, требующих систематизации, унификации и стандартизации. В статье на примере поясняются термины узбекской национальной борьбы.

Ключевые слова: терминология, лингвистика, транслитерация, словосочетание

Abstract. One of the urgent problems of modern linguistics is the problem of the structure of terms. This is primarily due to the social and scientific-technical development that led to the "terminological explosion", the mass emergence of new terms that require systematization, unification and standardization. The article explains the terms of Uzbek national wrestling as an example.

Key words: terminology, linguistics, transliteration, word combination

Kirish. V.M.Leyichikning fikriga ko'ra, "atama juda yuqori mavhumlikdagi inson faoliyati mahsuli bo'lganligi uchun u ko'p asrlik umumlashtiruvchi tafakkur faoliyatining yutuqlarini o'z ichiga oladi". Shu nuqtai nazardan, atamaning tuzilishi juda murakkab va mazmuni, shakli va funktsiyalari nuqtai nazardan tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Ushbu har bir nuqtai nazardan, atama ko'p atributli shakllanishdir, shuning uchun atamaning mazmunli, rasmiy va funktsional tomoni haqida gapirish mumkin [63, 5]. Terminlarning shakli jihatidan tarkibiy xususiyatlari turli faoliyat sohalaridagi mutaxassislarning bir-birini o'zaro tushinishi uchun katta ahamiyatga ega. Muayyan atamalar tizimida ishlaydigan atamalarning strukturaviy modellari qanchalik murakkab bo'lsa, terminologik birliklarni dekodlash ham qiyinlashadi, va shu sababli ma'lumotni qabul qilish va uzatish jarayoni murakkablashadi. Bundan tashqari, mavjud atamalarni tahlil qilish, ularni shakllantirishning eng samarali usullari va modellarini aniqlashga imkon beradi, bu esa yangi atamalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiy manbalar. Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya'ni ular yangi bilimlarni ochishga ham ko'maklashadi.

N. Mahmudov lingvistik adabiyotlarda barcha fanlardagi terminlarga qo'yiladigan talablar, terminlarning zaruriy belgilari ko'rsatib o'tilishini ta'kidlaydi. Professor Mukarramov ularni quyidagicha umumlashtirgan:

1. Termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;
2. Termin aniq, nominative funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalariga xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;
3. Terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;
4. Termin stilistik jihatdan neytraldir;
5. Terminologik leksika alohida sistemadir;
6. Termin funksiyadir;. Termin bilan oddiy so'z o'rtasidagi munosabat ana shu 6 belgiga ko'ra farq qilishi lingvistik adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etiladi. Terminlarning ixcham, aniq, bir ma'noli, bir shaklda bo'lishi lozimligi haqida talablarning muhimligi bugungi kun tadqiqotchilari tomonidan ham muntazam ta'kidlanadi. Aksar tadqiqotchilarning fikricha, fan tili hamisha belgi (termin) va ma'no o'rtasidagi nisbatan qat'iy aloqaning barqarorligiga intiladi. Kurash terminlari uchun ham yuqoridagi talablar amal qiladi.

Bugun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga mahliyo etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. Tarixshunos, qadimshunos, elshunos, va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologlar ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyodligi isbotlandi. Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asori-atiqalar, qoyalarga bitilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq shohidlik beradi. Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma- ashyoviy dalil mavjud. Chunonchi Panjkentdan topilgan kurashayotgan ikki pahlavonning devoriy rasmi sug'diyona davlatchiligiga, ya'ni o'rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. Shunday ashyolardan yana biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O'zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qo'llarini ko'tarib kurashga shaylanayotgan holati o'z ifodasini topgan. Bu idishlar bronza davriga oid bo'lib, u kurashning tarixi yanayam ko'proq ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi.

Istiqlol sharofati va kurash mutasaddilarining tinimsiz sa'y-harakatlari bois kurashning jahonda yangi sport turi sifatida shiddat bilan ommaviylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shib, umuminsoniy qadriyatga aylanishi- jahon ahliga nasib etgan buyuk bir tuhfadir. Kurash tili, dini, millatidan qat'iy nazar jahon xalqlarining ko'ngil to'ridan joy oldi va ular hech ikkilanmasdan o'z leksikalarida "ta'zim", "kurash", "halol", "yonbosh", "chala", "g'irrom" kabi o'zbek so'zlaridan bajonidil foydalanmoqdalar.

Kurash- sport yakka kurashning ma'lum bir turi bo'lib, raqib ustidan qozonadigan g'alaba, ma'lum bir harakatlar va usullar qamrovi yordamida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kurashda barcha usullar 7 nom bilan aytiladi va bajariladi : supurma, chil, qo'shsha, yuk (yuklama), yelka, bardor, yonbosh. Bular esa bir necha yuzlab usullarga bo'linadi. Kurash texnikasini (usullarini) to'la –to'kis tushunish, uni har qanday holatda ham bajara olish, ya'ni to'liq egallash uchun, uning usullari, ikki kurashchining olishuvi, usullarning qanday holatda bajarilishi haqida oldin tushunchaga ega bo'lishi kerak. Kurashchilar olishuvga chiqqan vaqtlarida, gilamning chekkasida bir-birlariga yuzlangan holda tikka turadilar, ta'zimdan so'ng hakamning ruxsati bilan belgilangan qoida asosida kurashadilar. Ular har mashg'ulot davrida ham murabbiylari "chordana" buyrug'ini berishlari bilan bir qatorga chiroyli tizilib, oyoqlari bir-biri bilan chalishtirib, chap oyoqni o'ng oyoq orqasiga o'tkazib, qo'llarini tizzalariga qo'yib, chordona qurib o'tirishlari shart. Kurashda ruxsat etilgan usullar orqali, raqib yoki sherik tayanch muvozanatidan chiqariladi, usul bajarilib raqib ustidan g'alaba qozonadi. Inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan, shikastlantirmaydigan va chiroyli usullar guruhlariga bo'linadi va alohida o'rganiladi. Usullar asosan qo'llar, oyoqlar va toslar yordamida tik turgan holda bajariladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytilganidek, kurashda barcha usullar 7 nom bilan bajariladi va bularning barchasi bir necha yuzlab usullarga bo'linadi. Endi biz bu nomlarni lingvistik tahlil qilishga harakat qilamiz.

bardor usuli- raqibini ko'tarib uloqtiradigan usul	bardor technique- the technique performed by lifting the opponent and throwing
----------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------

qo'shsha usuli- kurashchi raqib yaktagidan ushlab, muvozanatdan chiqarib bir vaqtda to'xtamasdan oyoq bilan urib bajaradigan usul	kushsha technique- the technique performed by hitting with feet gripping the opponent's yakhtak as well as misbalancing at the same time
supurma usuli- kurashchi raqib yaktagidan ushlab, raqibni muvozanatdan chiqarib, o'ng yoki chap oyog'I bilan supurib qilinadigan usul	supurma (sweeping) technique- the technique athlete should take from the convenient place of opponent's yakhtak, misbalancing the opponent, to be sure, all the method's of sweeping with right or left leg
yelka usuli- raqibni muvozanatdan chiqarib, raqibni yelkadan oshirib tashlaydigan usul	elka technique- technique performed by gripping the misbalanced opponent and throwing over shoulders
yonbosh usuli- kurashchi raqib yaktagidan ushlab, uni muvozanatdan chiqarib, yonbosh tarafidan raqibni oyog'I bilan ko'tarib yiqitadigan usul	yonbosh technique- athlete grips the yakhtak of the opponent, stands to the side and lifts with the leg and throws.
yuklama usuli- raqibni muvozanatdan chiqarib, raqibini bel qismi bilan oshirib tashlaydigan usul	yuklama technique- technique performed by throwing the misbalanced opponent over the hip
chil usuli- kurashchi raqibining qulay joyidan ushlab, muvozanatdan chiqarib, chap yoki o'ng oyog'idan ildirib qilinadigan usul	cheel technique- technique performed by gripping the right place, misbalancing the opponent and hooking the either left or right leg with the left or right leg of the opponent

Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib qoladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo'li bilan talqin etaveradilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyatnin siqiq holda talqin etiladi.

Biz ham tarjima qilish jarayonida bevosita hamda translitiratsiya tarjima usullaridan foydalandik. Ko'rinib turibdiki, tarjima jarayonida biz bevosita o'zbek tilidan ingliz tiliga kurash terminlarini tarjima qildik, biroq milliy til atamalari ikkinchi bir tilda, ingliz tilining alifbosi, tovushlar imkoniyatini inobatga olgan holda ifodalandi. Misol tariqasida, qo'shsha, yelka, chil kabi so'zlarni aytishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilganidek, kurashning asosiy 7 usuli bor va ular ham bir necha usullarga bo'linadi. Endi biz ana shu usullarni analiz qilishga harakat qilamiz.

Dastlab bardor usuli bilan tanishamiz:

- orqaga qayishgan holda uloqtirish –throwing backwards;
- oyoq ustidan oshirib orqaga yiqitish –throwing back over the leg;.

Qo'shsha usuli:

- orqadan, tashqaridan qo'shsha qilish –lifting from rear and front side;
- ikki oyoq pastidan qo'shsha –lifting sweeping both feet;.

Supurma usuli:

- oldindan supurib tashlash –sweeping forwards;
- qadam bilan hamohang yon tomondan supurib tashlash –to sweep from the side simultaneously making a step;
- ichkaridan raqib oyoq kaftidan tovonidan supurish –to sweep inside of the opponent's footstep;

- tashqaridan oyoq yuzasi bilan ildirish –hooking from outside with the outer part of the leg;.

Yelka usuli:

- oldindan yelka –front elka (shoulder);
- yelkadan oshirib tashlash –throwing over the shoulder;
- ikki yengidan ushlagan holda yelkadan oshirib uloqtirish –throw over the shoulder gripping both sleeves;

- qarama-qarshi ushlab bilan orqadan oshirib tashlash –throwing over the shoulder via reverse grip;.

Yonbosh usuli:

- yondan yonbosh –side yonbosh;
- orqadan yonbosh –yonbosh from rear side;.

Yuklama usuli:

- beldan oshirib uloqtirish –throwing over the hip;
- bo'yindan o'rab, beldan oshirib uloqtirish –throwing over the hip holding around the neck;
- bir qo'l bilan ushlagan holda beldan oshirib uloqtirish –throwing over the hip gripping with one hand;

Chil usuli:

- oyoq boldiri bilan ichkaridan bir xil oyoqni ilib olish –hooking with the shin from inside the same side leg of the opponent;
- raqibning o'ng yoki chap oyog'ini boldir bilan tashqaridan ilish –hooking with the shin the left or right foot of the opponent from outside;
- boldir bilan ichkaridan chil solish –hooking on the inside with shin;

Biz yuqorida termin va terminologiya yuzasidan fikr bildirib, bu tushunchalarga ta'rif berib o'tgan edik. Endi esa terminlarning tuzilish jihatlariga va ularning shu jihatlariga nuqtayi nazaridan tarjimasining xususiyatlariga to'xtalib o'tsak. Odatda terminlar bir so'zdan iborat (bir komponentli) va bir necha so'zlardan iborat bo'ladi. Terminlarning ikkinchi shaklini turli manbalarda turlicha nomlanishining guvohi bo'lsa bo'ladi, masalan “sostavli terminlar”, “ko'p komponentli terminlar”, “frazologik terminlar”, “so'z birikmasi shaklidagi terminlar”, “polileksem terminlar”, “birikma terminlar”, “terminologik komplekslar”.

Ingliz tilida so'z birikmasi shaklidagi terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning predlog orqali yoki to'g'ridan- to'g'ri semantik butunlik hosil qilib birikishi tushuniladi. Sohalar terminologiyasida ko'p komponentli terminlar soni ko'p uchraydi.

Birikma terminlar quyidagicha ko'rinishlarga ega bo'lib kelishi mumkin.

a) Komponentlari tutashuv yo'li orqali birikib ma'no hosil qiluvchi terminlar

b) Komponentlari predlog orqali birikib ma'no hosil qiluvchi terminlar ya'ni predlogli frazeologik terminlar. Biz buni shartli ravishda jadvalga joylashtirishga harakat qilamiz.

a	b
sweeping forwards	to sweep from the side simultaneously making a step
lifting sweeping both feet	to sweep inside of the opponent's footstep
front shoulder	hooking from outside with the outer part of the leg
throwing backwards	hooking with the shin from inside the same side leg of the opponent
side yonbosh	hooking with the shin the left or right foot of the opponent from outside
	hooking on the inside with shin
	lifting from rear and front side
	lifting and throwing on the inside
	throwing over the hip
	throwing over the hip holding around the neck
	throwing over the hip gripping with one hand
	throwing over the shoulder
	throw over the shoulder gripping both sleeves
	throwing over the shoulder via reverse grip
	throwing back over the leg
	yonbosh from rear side

Kurashda ishlatiladigan o'zbek leksiklarining ma'nolarini O'zbek tilining izohli lug'at orqali ko'rib chiqamiz.

• Tanishing – 1. Tanimoq. 2. Kimsa bilan o'zaro tanish bo'lmoq, bir-birini tanib, bilib olmoq. 3. Mufassal o'rganmoq, ko'rib chiqmoq, bilib olmoq. Ish bilan tanishmoq. Shahar bilan tanishmoq. Kurashchilar gilamga chiqqanlarida birinchi bo'lib shu ibora ishlatiladi. Hakam kurashchilarni tanishtiradi. The phrase is used firstly when wrestlers step on the gilam (carpet). The referee introduces the wrestlers.

• Ta'zim – 1. Tabriklash, salomlashish; ulug'lash, hurmatlash, izzat-ikrom qilish. 2. Yuksak hurmat, minnatdorlik, tahsin. 3. Shunday hurmat ifodasi sifatida egilib, boshni quyi solish yoki qo'lni qovushtirish, ko'ksiga qo'yish. Kurashchilar o'ng qo'lini chap ko'ksiga qo'ygan holda bir-birlariga bo'yin va gavdani egib salomlashishi. Bunda kurashchilar bir-biriga nisbatan hurmatini, izzat-ikromini ko'rsatishadi. Wrestlers greet each other with their right hand on their left chest, bowing to each other with their neck and body. In which the wrestlers show respect to each other.

• O'rtaga –1. Sathning chetlaridan markaziga tomon teng uzoqlikda bo'lgan qismi, nuqtasi, markazi. 2. Uzun narsaning ikki uchidan teng uzoqlikda bo'lgan nuqtasi, joyi. 3. Ikki yoki undan ortiq narsalarning oraliq qismi. 4. Kishilar yoki bir joydagi narsalar orasi; qurshov, davra. 5. Oraliq yoki o'rtada bo'lgan; o'rtadagi. Bu so'z ikkala kurashchini bir-biriga yaqinlashib, halol, mardona

olishishga undaydi. The word calls for the two wrestlers getting closer to each other and fight honestly and courageously.

• Kurash – 1. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv. 2. Yiqitishga asoslangan bellashuvlarning umumiy nomi, sportning shunday turi. 3. Sportning biror turi bo'yicha kuch, mahorat, ustunlik ko'rsatish uchun bo'lgan musobaqa. 4. Qarama-qarshi bo'lgan tomonlar o'rtasida ustunlik kelish, g'alaba qilishga qaratilgan to'qnashuv, olishuv, jang. 5. Biror kimsa yoki narsaga qaratilgan faol qarshilik; uni yengish yoki yo'q qilish uchun bo'lgan harakat, olishuv. Kurashchilar bir-birovlariga ta'zim qilib salomlashgandan keyin olishuvni boshlash uchun ishlatiladigan ibora. A term is used by the referee to start the fight after the wrestlers bow and greet each other.

• To'xta – 1. Davom etmay qo'ymoq, davomdan qolmoq. 2. O'z ishini, harakatini, gaoliyatini bas qilmoq, yurmay, ishlamay qo'ymoq. 3. Ish-faoliyat, harakatdan uzilish qilmoq, to'xtam hosil qilmoq. 4. Safarda, yo'lda biron yerda qo'nmoq. Olishuv davom etayotgan paytda olishuvni to'xtatish uchun ishlatiladigan ibora. A term used to stop a fight while the wrestling is going on.

• Halol – 1. Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo'ladigan; harom emas. 2. Kishining o'ziga qarashli, o'z mehnati bilan peshona teri to'kib topilgan; xiyonat, g'irromlik kablardan xoli. 3. G'irromlikka o'rganmagan, qing'ir yo'lda bormaydigan, birovni aldamaydigan; to'g'ri, sofdil. 4. Nikohlab olingan, qonuniy. 5. O'zbek kurashida sof g'alabaga berilgan baho. Kurashchi g'irromlikdan xoli ravishda sof g'alaba qilganida ishlatiladi, ya'ni a) ikki "yonbosh" bahosini olsa;

b) raqibga usul ishlatib, o'zi ikkala kuragiga yiqilsa;

d) raqibga "g'irrom" berilsa;

e) "yonbosh" olgan holda raqibida dakki bo'lsa;

f) raqib 3 daqiqa ichida gilamga chiqmasa;. Is used when wrestlers wins honestly without a hitch. A) if it takes the price of two "yonbosh" ;

b) using the method on his opponent, he falls on both shoulder himself ;

d) if the opponent is given "g'irrom";

e) if the opponent is dakki taking the "yonbosh"; f) if the opponent does not get on the gilam within 3 minutes;

• Yonbosh – kurashchilardan biri usul qo'llab, raqibini tezlik bilan bir kuragiga yiqitsa yoki raqibiga "dakki" e'lon qilinsa. If one of the wrestlers quickly knocks down an opponent using a method or is declared a "dakki"

• Chala – 1. Naridan-beri; chala qilingan, maromiga yetkazilmagan. 2. To'liq emas; yarim-yorti. Kurashchilardan biri usul qo'llab, uni oxirigacha to'liq bajara olmasa ishlatiladi. One of the wrestlers is used if he can't do it completely using the method. a) kurashchilardan biri usul qo'llab, uni to'liq bajara olmasdan raqibining beli yoki undan yuqori qismini gilamga tekkizsa;

b) raqibiga "tanbeh" e'lon qilinganda;

c) nechta "chala" bahosi berilishidan qat'iy nazar, ularning umumiy soni jamlanmaydi;

d) agar ikkala kurashchida ham bir nechtadan "chala" bo'ssa, g'oliblik ko'p "chala" olgan kurashchiga beriladi;

• Tanbeh – 1. Nojo'ya xatti-harakati uchun berilgan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo. 2. Ish-xizmatda og'zaki yoki yozma tarzda rasmiy jazo olmoq. 3. Kamchilik, xato kabilarni qayd etuvchi gap-so'z, fikr-mulohazalar. 4. O'yin qonun-qoidasiga zid xatti-harakat uchun hakam tomonidan aytilgan gap, so'z; ogohlantirish. Birinchi ogohlantirish, uncha katta bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan kurashchiga beriladi. The first warning is given to the wrestler who has made minor mistakes. a) kurashchi atayin qochayotib, raqibga ushlab olishga yo'l qo'ymasa;

b) atayin raqibini gilamdan itarib chiqarsa yoki o'zi gilamning xavfli maydoniga chiqib ketsa;

d) atayin yoki hakamning ruxsatisiz o'zining kiyimini, ishtonini yechib yuborsa; e) atayin raqibining ishtoni yoki oyoqlaridan ushlasa;

f) ushlab olgandan keyin 8-10 sekund davomida usul qo'llamas;

• Dakki – 1. Nojo'ya ish, xatti-harakat uchun aytilgan achchiq gap, qattiq tanbeh, ta'zir, koyish. 2. Nohaq turtki, xo'rlash, tahqirlash. [] Ikkinchi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. The phrase used in the second warning. "Dakki" ogohlantirishi "tanbeh" dan keyin ikkinchi, unchalik katta bo'lmagan xatoga yo'l qo'ygan kurashchiga beriladi. a) kurashdan bosh tortib, atayin tizzaga ko'p marta o'tirsa;

b) hakamning buyruqlarini bajarmasdan, qo'pol va noma'qul so'zlarni gapirsa yoki baqirsa;

• G'irrom – 1. Ish, hayotda halollik, poklikka rioya qilmaydigan, unga zid ish yurituvchi; nopok, muttaham. 2. O'yin, musobaqa, bellashuvda tartib-qoidaga zid yo'l tutuvchi; halollikka rioya qilmaydigan. 3. O'zbek kurashi atamalaridan biri- bellashuv paytida katta xatoga yo'l qo'ygan yoki

takror qo'pollik qilgan kurashchiga oxirgi ogohlantirish sifatida qo'llaniladi. Oxirgi ogohlantirish, ya'ni katta xatoga yo'l qo'ygan yoki "dakki" jazosini olgan va keyinchalik unchalik katta bo'lmagan yoki o'rta toifadagi xatoga yo'l qo'ygan kurashchiga beriladi. The last warning is that he made a big mistake. a) olishuv davomida raqibning yoki hakamlarning sha'niga tegadigan so'zlarni ishlatlsa, baqirsa, har xil imo-ishoralar qilsa;

b)kurashchi olishuv davomida raqibiga atayin jarohat yetkazsa, unga "g'irrom" e'lon qilinib, shikastlangan raqibiga "halol" bahosi beriladi.

• Bekor – 1. Ishdan xoli, ishi yo'q, ishsiz. 2. Amaliy vazifadan tushmoq; ishdan bo'shamoq. 3. Yaramaydigan, arzimaydigan, foydasiz bo'lib qolmoq. Olishuv to'xtatilgandan keyin harakatlar uchun yoki bajarilga usul baholashga noloyiq deb topilgan vaqtda ishlatiladi. If the method and actions performed after the kurash are found to be inappropriate.

• Vaqt – Zamon, vaqt muddati. Olishuv vaqti tugaganligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Indicates that the fight is over.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Mahmudov. So'z estetikasi. T.: "Sharq", 2004.
2. N. Mahmudov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: "O'qituvchi" - 1995
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli, 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. Tahrir hay'ati, E. Begmatov, A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
4. Лейчик В.М. Лексикографическая терминологическая деятельность (классификация и методика создания терминологических словарей). - В кн.: Терминология библиотечного дела. - М., 1975. - С.13-24.
5. Лейчик В.М. Опыт построения классификации терминологических словарей. В кн.: Теория и практика научно-технической лексикографии: Сб.статей. - М.: Русский язык, 1988. - С.40-47.
6. Лейчик В.М. Основные положения сопоставительного терминоведения. - В кн.: Отраслевая терминология и ее структурно-типологическое описание. - Воронеж: Изд-во Воронеж.ун-та, 1988. - С.3-10.
7. Лейчик В.М., Шелов Д.С. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод. 4.1. - М., 1989. - 153 с.

UDC:81 23:398.9

THE NEGATIVE CONSEQUENCES WHICH AROSE FROM THE ABSENCE OF SEL IN THE CLASSROOM ENVIRONMENT

Z.Kh.Khusinova, student, Urgench State University, Urgench

Аннотация. Мақоллада sinflarda ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarning yo'qligi ko'rsatiladi va uning o'quvchining o'quv va shaxsiy faoliyatiga salbiy oqibatlarini tahlil qilinadi.

Калим сўзлар: SEL, sinf, ruhiy salomatlik, akademik ishlash, xulq-atvor, talaba, SEL qobiliyatlari.

Аннотация. В статье демонстрируется отсутствие социальных и эмоциональных навыков на занятиях и анализируются его негативные последствия для академической и личной успеваемости учащихся.

Ключевые слова: социальное и эмоциональное обучение, класс, психическое здоровье, успеваемость, поведение, навыки SEL.

Abstract. The article demonstrates the absence of social and emotional skills in classrooms and analyses its negative consequences on student's academic and personal performance.

Key words: SEL, classroom, mental health, academic performance, behavior, student, SEL skills.

Introduction. In recent years, there has been a growing emphasis on the importance of Social and Emotional Learning (SEL) in the classroom environment. Social and emotional learning (SEL) is a critical aspect of education that impacts well-being and success of students. Along with traditional academic subjects such as math and science, students must learn social and emotional competencies such as self-awareness, self-regulation, responsible decision-making, social awareness, and relationship-building. The concept was first introduced in the 1990s and has since become widely regarded as a critical component of a well-rounded education. Unfortunately, with the increasing focus on test scores, some schools are cutting out SEL programs. The absence of SEL in a classroom environment can have negative effects on the well-being of students. The absence of SEL in the classroom environment could lead to negative emotional and behavioral consequences among students. Research shows that when students do not learn adequate SEL skills, they may have problems such as aggression, defiance, noncompliance, and anxiety. In this article, we will discuss some of the expected negative effects of the absence of SEL in the classroom environment and provide examples to illustrate these effects.

Literature review. According to my research of the negative consequences of the absence of SEL, it was studied that lack of usage of SEL programs leads to serious problems such as negative impacts on mental health, increased aggressive behavior, negative effects on academic performance, decreased empathy, and community engagement. In order to avoid these detrimental results educators should implement SEL programs into each lesson, especially at schools. Without SEL, students may struggle to focus and concentrate on their studies, which can lead to poor academic performance. Additionally, students may not develop the necessary skills to set goals, manage their time effectively, and make responsible decisions, which can negatively impact their academic success.

Research methodology. The negative effects of the absence of SEL in the classroom environment are:

1. Poor academic performance

One of the negative effects of the absence of SEL in the classroom environment is the impact on student's mental health. Without SEL, students are not equipped with the necessary tools to manage their emotions and cope with stress. This can lead to feelings of anxiety, depression, and other mental health issues, which can negatively impact their academic performance and overall well-being. Without SEL skills, students may struggle with severe academic consequences. For example, if students lack self-awareness and self-regulation skills, they may have difficulty managing their emotions, and this can negatively impact their academic performance. A student might dwell on a prior academic failure or other negative life experience, leading to self-doubt, lack of motivation, and reduced focus in school. Additionally, if a student does not understand the importance of completing academic work or managing their academic responsibilities, they may have poor time management skills and exhibit ongoing poor classroom behavior, such as arriving late, failing to complete work, or not studying for tests. Eventually, poor academic performance can negatively affect self-esteem, further exacerbating problems with academic performance.

2. Increased aggressive behavior

One of the most critical negative effects of the absence of SEL is an increase in aggressive behavior. Without the development of emotional regulation and problem-solving skills surrounding conflicts with classmates, students are more prone to physical confrontations. Additionally, teachers often lack the emotional regulation skills to de-escalate situations. Students who do not learn to navigate their emotions and the emotions of others are more likely to engage in arguments, bullying, and other aggressive behavior. This can create a challenging environment for both students and teachers, and can lead to disciplinary issues that distract from the learning process and therefore can lead to feelings of isolation and a decline in academic performance.

3. Decreased community engagement

Without SEL, students are missing out on opportunities to connect with their community. They may not have the necessary skills to participate in community initiatives or engage in productive conversations with community members. This lack of community engagement can result in a less connected and less informed society. The absence of SEL in schools can lead to a cycle of disengagement from the community, making it difficult for students to form meaningful relationships outside of school. The absence of SEL can negatively impact students' social skills and relationships. For example, a student who does not have the necessary SEL skills may struggle to make friends or resolve conflicts with classmates. In addition, a student who is struggling with social skills may feel isolated and disconnected from their peers, which can lead to poor academic performance.

4. Negative impacts on mental health

Mental health issues are becoming a more prevalent topic, but often overlooked by school systems. Emotional regulation skills are essential for maintaining good mental health. The absence of SEL in a classroom environment can cause students to feel unacknowledged and unsupported, leading to mental health issues such as depression and anxiety. Depression and anxiety can be debilitating conditions that can severely affect academic performance.

5. Decreased empathy

SEL and empathy are highly related. A lack of SEL in a classroom environment can cause students to lack empathy and the ability to understand the feelings of others. Without empathy, students may engage in actions that harm others, not understanding the impact of their actions or words. This can, in turn, lead to strained relationships and further isolation of certain students.

Analysis and Result. While analyzing SEL methodologies and its results of usage or absence, it's crucial to use social and emotional strategies in the classroom as the absence of SEL can cause students to feel disconnected from school and the learning environment. A lack of emotional support can cause emotional fatigue, leading to students being absent more often. Students who do not feel

comfortable and safe in the classroom may spend more time at home, resulting in an increased absence rate. This absence can cause students to fall behind, making it even more challenging for them to catch up once they return to school. In addition, the absence of SEL can negatively impact students' social skills and relationships. Without SEL, students may not develop the necessary skills to communicate effectively, resolve conflicts, and build positive relationships with their peers. This can lead to feelings of isolation and loneliness, which can negatively impact their academic performance and overall well-being.

Conclusion. In conclusion, Social and Emotional Learning is an essential part of education that must not be neglected or ignored. The absence of SEL in the classroom environment can have negative effects on students' mental health, behavior, social skills and relationships, and academic performance. It is important for educators to prioritize SEL and incorporate it into their teaching practices. By doing so, educators can help students develop the skills, attitudes, and behaviors that will enable them to succeed academically and in life. For example, educators can incorporate SEL activities into their lesson plans, provide students with opportunities to practice communication and conflict resolution skills, and encourage students to set goals and make responsible decisions. With the right support and guidance, students can develop the SEL skills they need to thrive in the classroom and beyond.

REFERENCES:

1. Kayla Bilotta, The importance of social and emotional learning in the classroom.2020
2. Taylor, R. D., Oberle, E., Durlak, J. A. & Weissberg, R. P. (2017). Promoting positive youth development through school-based social and emotional learning interventions: A meta-analysis of follow-up effects. *Child Development*, 88: 1156–1171.
3. Durlak, J. et al. (2011) 'The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning.
4. Jones and Bouffard (2012) 'Social and Emotional Learning in Schools: From Programs to Strategies', Society for Research in Child Development.
5. CASEL (2017). CASEL website accessed 04/05/19.
6. Durlak & Wells, 1997; Zins, Weissberg, Wang, & Walberg, 2003
7. Weissberg & Elias, 1993) / Wang, Haertel, & Wallberg, 1997
8. Daniel G. "Emotional intelligence" 2021/ p.380-390.

UDC 808.5

CHARACTERISTICS OF TERMINOLOGY IN LINGUISTICS

N.B.Kuldashova, PhD, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologiya, terminologiyaning kelib chiqishi va uning xususiyatlari, ushbu sohaning tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu mavzu bo'yicha ba'zi olimlarning nazariy qarashlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, konseptual, tarjima, nashr, lug'at, tarmoq, neologizm.

Аннотация. В статье анализируется терминология, происхождение терминологии и ее особенности, место данной отрасли в языкознании. Кроме того, показаны теоретические взгляды некоторых ученых на данную тему.

Ключевые слова: термин, терминология, концепт, перевод, издание, словарь, отрасль, неологизм.

Abstract. This article analyses terminology, origin of terminology and its features, place of this branch in linguistics. Besides there is shown some scholars' theoretical views on this theme.

Key words: term, terminology, conceptual, translation, publication, dictionary, branch, neologism.

It is known that the language, which is considered the greatest product of human spirituality, is not only a means of expressing a certain idea, but all the changes taking place in the society are reflected in the language.

Linguistics is known as the science of language, its social nature, function, internal structure, classification, laws of operation of certain languages, historical development, and according to its purpose, function, and so on, it is divided into general linguistics, structural linguistics, comparative-historical linguistics, linguistic culture- Several fields such as linguistics, neurolinguistics, paralinguistics, ethnolinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, mentalinguistics, cognitive linguistics, and interlinguistics (translation from one language to another) study language characteristics related to the activity of a person in society.

As science, knowledge, technique and technology progress in the world, new ideas, new views, new terms keep appearing. It cannot be denied that the introduction of new terms in linguistics opens

up new opportunities, enriches and develops lexicology and terminology, and also creates unique difficulties.

Currently, due to the development of the field of terminology in linguistics, the creation of new words, the imposition of new meanings on words, the lexicalization of some categories, the formation of a word combination into a semantic whole, as well as the acquisition and creation of words from other languages, and the formation of the lexical layer of linguistics. From the linguistic aspects of terminology and terminology, terminology is the focus of many researchers.

The relevance of finding solutions to puzzles in the field of terminology is wide and goes hand in hand with life. In addition, "although many researches on terminological issues have been conducted in linguistics, we cannot say that this issue has been sufficiently confirmed. There are still many problems waiting to be solved. In particular, issues related to the semantics of the term should be seriously researched" [3, 14].

Although there are a number of studies conducted in the field of terminology and terminology in linguistics, the definition of the term, especially the historical roots, formation, cultural-historical development and development stages of the terminology, the concept of the term and related problems, the national identity of the terms, as well as their compositional aspects The inclusion of research on issues like

A term (lat. *terminus* - a check, a limit) is a word or a combination of words that is a clear and stable expression of a specific concept specific to a field of science and technology [12, 73]. A term is a word or combination of words that clearly means a concept used in science, technology, and art. Unlike common literary words, terms are not characterized by expressiveness and ambiguity [7, 486].

Based on the data, it is reasonable to say that the word "terminology" is composed of the Latin *terminus* and the Greek word *logos*, which means "the science of terms". A.D. Khayutin, based on the etymological dictionary of the English language, notes that this word was first used by the German scientist S. Schutz (C.G. Schutz) in 1786. According to him, this word was used in English and French languages from the end of the XVIII century, and in Russian from the beginning of the XIX century [4,10] .

A term is a word or phrase that is clear in its terminological field, but loses its main characteristics when it leaves its terminological field. The formation of the term occurs with the use of national language tools, including the methods of word formation of the acquired words. A term can be transferred to the national lexicon or, on the contrary, from the national lexicon to a term, as well as to another term system (terminosystem) [8, 8].

Terminology is formed when special words belonging to one subject area are collected in a certain language. O.S. Akhmanova states that "... linguistic terminology is not a simple set of terms like any other terminology, but a unique semiological system" [1, 509].

According to the famous Russian scientist A.A.Reformatsky, in terminological studies, there are two views on the main linguistic signs of terms: firstly, the nominative nature of terms, and secondly, it is related to the concept [5, 47]. When explaining the term and its meaning, the scientist looks at the position of the denomination and related concepts [6, 106].

F.A. Tsitkina defines that "a term is a language sign representing a scientific concept related to a special or professional field of knowledge" [12]. There are cases of using termin instead of termin. But that doesn't seem right. Because we know that the term represents a narrow understanding of the word term.

S.D. Shelov divides the terms according to the fields of science, and argues that the terms related to different fields of knowledge are terminology that acquires meaning on a wide scale. The term expresses some of its ideas that only the terminology of a specific field of knowledge is an integral part of some general environment and that other fields of knowledge, like a complex whole, can enter there with its own terminology, and as a result of continuous communication, their components will intersect or collide [9, 795-799].

Academician V. V. Vinogradov stated that in the field of terminology, the development of the language, its lexical system is clearly connected with the material and spiritual culture of the people [2, 6]. In all the works devoted to terminology, it is considered that the units that represent specific concepts of one or another field, have a definition and, in particular, perform a nominative function, are considered to be terms. Terminology is formed when special words belonging to one subject area are collected in a certain language. F. de Saussure compares the word and the term and distinguishes the following characteristics of the term:

1. The meaning is related to a class or type of objects or events, not to a separate object or event;

2. Relation to scientific or technical concepts rather than to household concepts or common perceptions;
3. The term should be valid within a strictly defined system of terms, that is, the term should always be a part of the system of terms;
4. Being too abstracted from existence, even going to the point of complete disconnection from it;
5. The connection of the term with certain professional activities that require certain knowledge and education.

The listed differences were identified by linguists [10, 285]. Marshyuk, a scientist who studied computational linguistics, said that the word "terminology" has many meanings, it is a science that studies terms, but also a science about the set of terms of a certain field. However, the term "terminology" is more suitable for the definition of a term and a science that studies terms, and "terminography" is a part of lexicography, and defines it as the science of creating terminological dictionaries, inextricably linked with terminology.

In fact, terminology - the science of terms and the set of terms - is a comprehensive and important branch of linguistics. As the development of science, technology and technology develops rapidly, it not only enriches the lexical layer of linguistics, but also expands the range of linguistic units used in speech.

REFERENCES:

1. Akhmanova O.S. Terminology is linguistic. Linguistic encyclopedic dictionary. M., 1990
2. Vinogradov V.V. Opening speech. Questions of terminology. - M.: Nauka, 1961. - P.6.
3. Ismailov G'.M. Semantic term formation in Uzbek language terminological systems. Diss.philol.PhD. T., 2011. - P.14.
4. Nishonov P.P. Comparative-typological study of French and Uzbek legal terminology: Filol. science. PhD. diss. autoref. - T., 2009. - 10 p.
5. Reformatsky A.A. What is term and terminology? Questions of terminology. - M., 1961.
6. An explanatory dictionary of the Uzbek language. - T.: UzME, 2008. - P. 73.
7. Reformatsky A.A. A term as a member of the lexical system of a language. Problems of structural linguistics. M., 1968. - P. 103-106.
8. Rosenthal D.E. and Telenkova M.A. Dictionary-reference book of linguistic terms. - M., 1976. - 486 p.
9. Felber H. Terminological work and standardization of terminology. - Paris, 1974. P.1. 8.
10. Shelov Sh.D. Once again about the definition of the term "term". Bulletin of the Nizhny Novgorod University. 2010. No. 4 (2). pp. 795-799
11. Saussure F.De. Works on linguistics. - M.: Progress, 1977. - 285 p.
12. Tsitkina F.A. Terminology and translation: On the basics of comparative terminology.-Lvov, 1988.-10 p.

UO'K 811.161.1

BADIIY MATNLARDA QO'LLANILGAN ORNITONIMLAR

N.R.Maxmudova, katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Ornitonimlarning metaforik qo'llanilishini o'rganish inson xususiyatlarining aniqlash uchun o'ziga xos xayvon atamalarining konnotatsiyalariga murojaat qiladigan tilga xos madaniy modellarni yoritishi mumkin. Qushlarning nomlari metaforalaridan foydalanishni tahlil qilish, odatda muayyan jamiyatning hukmron madaniy modeli haqida muhim tushunchaga ega bo'lishga olib keladi. Ushbu maqolada mazkur masalalarda fikrlar keltirilib, ornitonimlarning ikki tildagi qo'llanilishi xususiyatlari farqlilik va o'xshashlik jixatidan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *til, lingvistika, semantika, pragmatika, ornitonim, tahlil, qiyos, leksema, ma'no*
Аннотация. *Изучение метафорического использования орнитонимов может объяснить на специфические для языка культурные модели, которые относятся к коннотациям определенных терминов животных для определения характеристик человека. Анализ использования метафор названий птиц обычно приводит к важному пониманию доминирующей культурной модели конкретного общества. В данной статье рассматриваются эти вопросы и анализируются особенности употребления орнитонимов в двух языках с точки зрения различий и сходств.*

Ключевые слова: *язык, языкознание, семантика, прагматика, орнитонимы, лексема, анализ, значение*

Abstract. *The study of the metaphorical use of ornithonyms can shed light on language-specific cultural models that refer to connotations of specific animal terms to define human characteristics. An analysis of the use of bird name metaphors usually leads to an important understanding of the dominant cultural model of a particular society. This article discusses these issues and analyzes the features of the use of ornithonyms in two languages in terms of differences and similarities.*

Keywords: language, linguistics, semantics, pragmatics, ornithonyms, analysis, comparison, lexeme, meaning.

Badiiy matnda qushlar nomi bilan bog'liq tasviriy vositalar ham ko'p uchraydi. Ayniqsa, nazmiy asarlarda metafora, metonimiy va qushlar nomi bilan bog'langan tasviriy vositalar, sinekdoxalarga misollar topish mumkin. Metonimiya nomdoshlanuvchi va nomdoshlovchi narsa o'rtasidagi aloqadorlikka xosdir.

Qushlar adabiyotda xuddi shunday qadim zamonlardan beri paydo bo'lgan. Bo'ri va turna, Tulki va laylak kabi ertaklarda inson xatti-harakatlari haqida axloqiy xulosalar chiqarish uchun qush nomlari - ornitonimlardan foydalaniladi.

Qush tasviridan foydalanish hattoki ba'zi mashxur rassomlar tomonidan tasvirlangan asarlarda ham paydo bo'lgan. Shuningdek, yog'och o'ymakori Tomas Bevikning (1797-1804 yillardagi) Britaniyalik "Qushlar tarixi" asari birinchi marta ommaga rasm usulida taqdim etilgan. Bu kitob qushlar bo'yicha birinchi maydon qo'llanmasini tashkil etdi. Jon Jeyms Odubon esa 1827 yilda qushlarning ulkan va ta'sirli tasvirlarini yaratgan. Amerika qushlari san'atshunoslar va kolleksionerlar tomonidan eng ko'p hayratga tushadigan asarlar qatoriga kiradi: dastlabki nashrlar har qanday bosma kitoblar uchun to'lanadigan eng yuqori narxlar qatoriga kiradi.

Qushlar bolalar kitoblarining mashhur qahramonlari bo'lib, ular ko'pincha chiroyli tasvirlangan. Beatriks Potterning 1908 yildagi Jemima Puddl-Dak haqidagi ertak asari mashhur qush qahramoni (o'rdak)ni yaratdi. Boshqa mualliflar turli yoshdagi bolalar uchun kitoblarda ko'plab qush qahramonlari bilan ergashdilar. Kattalar uchun kitoblarda qushlar ramziy yoki psixologik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Pol Gallikoning 1940-yilda chop etilgan Qor g'oz, Dyunker hikoyasi asari urush davridagi do'stlikning qayta tiklanadigan kuchi haqidagi masal bo'lgan. G'oz ornitonimi bosh qahramonni ham, urushdan yaralangan dunyoni ham ramziy tasviri sifatida ishlatilgan.

Ornitonimlar qo'llash sharq adabiyoti tarixida ham alohida o'rinni egallaydi. Qushlarning obrazi ayrim she'riy misralarda majoziy tasvir uchungina emas, hatto yirik ramziy asarlarning yaratilishiga ham asos bo'lgan. Bu jihatdan Fariduddin Attorning "Mantiq ut-Tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlari ahamiyatlidir. Qushlar poetikasi turkiy xalqlarning qadimgi yodnomalari hamda "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" kabi yirik asarlarida ham ma'lum g'oyaviy maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida o'z ifodasini topgan: "Yog'imiz tegrada qushlardek edi". Ko'chma ma'no hosil qilinganda nomdoshlovchining nomdoshlanuvchiga nisbatan munosabati nazarda tutiladi, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisa tobelik deyiladi. Masalan: "Qiz degani qushlarning onasi bo'lur". Demak, bu misolda ornitonim orqali ko'chma ma'no berilgan, ya'ni aniq bir jonli yoki jonsiz narsa boshqa narsaning nomini ifodalagan. Jonli va jonsiz narsalar o'rtasidagi yaqinlik, o'xshashlik xususiyati bilan bog'langan ko'chma ma'nodagi ornitonimlar Maxsud Shayxzodaning "Kapitan Gastello" balladasida shunday satrlarda keladi:

*Sher yurakli bu lochin,
Qoqib qanot-qulochin.
Quzg'unlardan asradi,
Elning xotin-xalojin.*

Ornitonim ishlatilgan bu parcha shunday ta'riflanadi: "... bunga o'xshagan narsa (Kapitan Gastello) o'rnida o'xshatilgan qush – lochin, dushman fashistlar o'rnida quzg'unlar deyilgan". Bu manbada quzg'un ornitonimi ham metafora hodisasi, tarzida kelgan. Lochin ornitonimi jasurlik yoki samolyotga o'xshatish, quzg'un ornitonimi esa dushmanlikni anglatmoqda. Lochin ornitonimi ikki qanotli, Gastello ham ikki qanotli "temir qush"–samolyotda uchadi. Ana shunday uchishdagi o'xshashlik lochin ornitonimi bilan Gastelloni qiyoslashga, Gastelloning lochindek shiddatli harakatini jasurlik tarzida tasvirlashga asos bo'ladi. Quzg'un ornitonimi esa fashist nomini ifodalashda dushman ma'nosiga asos bo'lgan. Bundagi tabiiy omil shuki fashist – odam dushmani, quzg'un –jonivorlar kushandasidir.

Qushlar hayotda ham, adabiyotda ham hamma joyda uchraydi va ikkala sohada ham ko'p valentli. Bu Anglo-Sakson davridagi kabi bugungi kunda ham xuddi shunday. Hayotda ular zararkunandalar, zararkunandalarga qarshi kurashuvchilar, vaqt belgilari, musiqa yaratuvchilar va shovqinli uyquni buzuvchilardir. Bugungi kunda san'at va adabiyotda uchayotgan qushlar, kuzatuvchining ularni ochiq havoda yoki cheklangan makon ichida kuzatishiga qarab, erkinlik yoki qamoqni ko'rsatishi mumkin. Anglo-sakson qushlari bir xil darajada ko'p valentli bo'lgan. Masalan, qarg'alar tez-tez bo'lajak qirg'in haqida xabar berishdi, ammo Bedening Vita Sancti Cuthberti

kitobida *Crow* – qarg'alar namunali tavba qiluvchilardir. Ularning ma'nolari hayotda ham, adabiyotda ham bog'liq, shuning uchun bu sohalarni alohida-alohida tadqiq qilib bo'lmaydi. *Raven* – Qarg'alarning bu misoli, shuningdek, Anglo-Sakson madaniyati ko'proq nasroniylikka aylanganligi sababli qushlarga tegishli madaniy qadriyatlarining qayta yo'naltirilganligiga e'tibor qaratadi.

Qadimgi inglizcha "dufe" keyinchalik *dove* so'zi "oq kaptar" degan ma'noni anglatadi. Badiiy matnlarda bu ornitonim turli o'rinlarda o'ziga xos qo'llanadi. Masalan, inglizcha "innocent – begunoh" so'zi, *dove* – kaptar ornitonimi bilan ramziy qo'llanadi. Ingliz adabiy matnlarida kaptar ornitonimining ijobiy fazilatlarini ta'kidlash uchun qarg'a ornitonimining salbiy fazilatlarini yonmayon ishlatiladi.

"The raven's demonstrations of intelligence could easily have fueled ascriptions of supernatural knowledge to them. Amongst the raven's clever customs is the act of caching: when it scavenges a carcass, a significant amount of time and effort is spent on hiding food, often with elaborate ploys to fool onlookers (usually, but not always, other ravens) intent on stealing its plunder. Moreover, the ascription of communicative abilities to ravens would easily have been fueled by the way in which they call more ravens to carcasses: in this situation there is a very clear link between vocalization and resulting action".

Qarg'aning aql-idrok namoyishlari ularga g'ayritabiiy bilimlarning ta'rifini osonlikcha kuchaytirishi mumkin edi. Qarg'aning aqlli odatlaridan biri keshlash harakatidir: u tana go'shtini o'g'irlaganda, ko'p vaqt va kuch ovqatni yashirishga sarflanadi, ko'pincha uning talon-taroj qilish niyatida bo'lgan tomoshabinlarni aldash uchun puxta o'ylangan. Bundan tashqari, qarg'alarga kommunikativ qobiliyatlarni bog'lash, ular ko'proq qarg'alarni tana go'shtiga chaqirishlari bilan osonlikcha kuchaygan bo'lar edi: bu vaziyatda ovoz chiqarish va natijada harakat o'rtasida juda aniq bog'liqlik mavjud. *"a crow set up a hoarse croaking from an unpropitious quarter of the sky. [...]"* bir qarg'a osmonning noqulay chorak qismidan xirillab ovoz chiqardi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qushlarning nomlari bo'lgan ornitonimlar dunyoning lingvistik suratining tarkibiga kiradi va she'riyatning ajralmas qismidir. Ornitonimlar antroponimlarga aylanib, shu tufayli onomastikaning predmeti kengaydi.

So'z semantikasida qo'shimcha ekspressiv elementlarni o'z ichiga olgan konnotatsiya ona tilida so'zlashuvchilar ongida ornitonimlarning ko'chma ma'nosi bilan izchil bog'liqdir.

O'zbek klassik poeziyasida esa bulbul ornitonimi oshiqni, to'ti – o'zganing fikrini o'g'irlovchi, lochin – chaqqonlik, botirlik; boyqush – yomonlik, inson hayotida mudhish kun kelishidan darak beruvchilar obrazi sifatida keng tasvirlangan. O'zbek adabiy matnlarida esa xo'roz – mardlik, tovuq esa esi paslik sifatini ifodalash yoki majoziy ta'riflashda keltiriladi.

Ushbu misollar ornitonim leksemalari atrofida ma'lum bir semantik makon yaratilganligini ko'rsatadi. Maydon qanchalik kuchli bo'lsa, u xalq ongi va kundalik hayotida qanchalik ko'p joy egallasa, til shu qadar ko'p so'zlarni odamlarning og'zaki nutqi uchun zarur bo'lgan ma'nolarni ifodalashga moslashadi.

Demak, ornitonimlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalari - ma'naviy-ruhiy va kundalik-amaliy parametrlarini og'zaki bayon qilish uchun ishlatiladi. Abstrakt kategoriyalarning og'zaki nutqining etnik madaniy o'ziga xosligini o'rganish insonning ma'naviy dunyosi va atrofidagi voqelikning turli xil hodisalari o'rtasidagi yashirin aloqalarni ochib berishga yordam beradi. Laylak, chumchuq, qarg'a, qarag'ay, qarag'ay, kaklik, bedana, chumchuq kabi muhim, ramziy va keng tarqalgan ornitonimlar barchasi badiiy matn tarkibida o'ziga xos semantik ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan ular kundalik nutqda obrazli ma'nolarda faol ishlatiladi. Og'zaki fikrlash va madaniyatning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan e'tiborga olish kerak. Frazologik obraz, idealistik xususiyatiga ko'ra, dunyoning lingvistik suratining asosiy, konstitutsiyaviy, ajralmas qismi, uning asl tizimini shakllantiruvchi tarkibiy qismi bo'lgan milliy kognitiv belgi sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T. Bugnyar and B. Heinrich, 'Pilfering ravens, *Corvus corax*, adjust their behaviour to social context and identity of competitors', *Animal Cognition*, 9 (2006), 369-376; T. Bugnyar and B. Heinrich, 'Ravens, *Corvus corax*, Differentiate between Knowledgeable and Ignorant Competitors', *Proceedings of the Royal Society of London, Series B*, 272 (2005), 1641-46; T. Bugnyar, C. Schwab, C. Schloegl, K. Kotrschal, and B. Heinrich, 'Ravens Judge Competitors through Experience with Play Caching', *Current Biology*, 17 (2007), 1804-8.
2. Maxmudova, N. (2021). Lexical-semantic group of ornithonyms in language and their use. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 107-116.
3. Maxmudova, N. (2021). Bird names really matter: features of ornithonyms in language. *Theoretical & Applied Science*, (5), 116-118

4. Makhmudova, N. R. (2019). The use of multimedia learning tools in the English language. *Мировая наука*, (9), 44-48.
5. Maxmudova, N. (2022). Pragmatic signs of ornithonyms in proverbs in uzbek and english languages. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 88-91.
6. Maxmudova, N. (2021). Bird names really matter: features of ornithonymes in language. *Theoretical & Applied Science*, (5), 116-118.
7. Maxmudova, N. (2021). Lexical-semantic group of ornithonyms in language and their use. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 107-116.

UO'K 808.3

MONOLOGIK MATNLARDA MODAL SO'ZLARNING ISHLATILISH XUSUSIYATLARI

M.B.Mustafayeva, o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada turli funktsional uslubdagi monologik matnlarda modal so'zlarning ishlatilish xususiyatlari haqida bayon etilgan. Maqolada badiiy uslubdagi monolog va dialogik matnlarda modal so'zlarning qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilingan va misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy uslub, monolog, dialog, matn, pragmatika, mantiqiy baholash, hissiy baholash, funktsional uslub, modal so'zlar.

Аннотация. В статье описываются особенности употребления модальных слов в монологических текстах разных функциональных стилей. В статье сравнительно анализируется и поясняется на примерах употребление модальных слов в монологических и диалогических текстах в художественном стиле.

Ключевые слова: Художественный стиль, монолог, диалог, текст, прагматика, логическая оценка, эмоциональная оценка, функциональный стиль, модальные слова.

Abstract. The article describes the features of using modal words in monologic texts of different functional styles. In the article, the use of modal words in monologue and dialogic texts in the artistic style is comparatively analyzed and explained through examples.

Key words: Artistic style, monologue, dialogue, text, pragmatics, logical evaluation, emotional evaluation, functional style, modal words.

Tilshunosligida funktsional uslublar odatda muloqotning pragmatik tomonida farq qiluvchi matn turlari deb ataladi. Taniqli tilshunos V.V. Vinogradov "Uslub - bu ijtimoiy ongli va funktsional jihatdan aniqlangan, u yoki bu umummilliy til sohasida nutq aloqa vositalarini qo'llash, tanlash va birlashtirish usullarining ichki integratsiyalashgan to'plami, boshqa maqsadlarga xizmat qiladigan boshqa shunga o'xshash ifoda usullari bilan bog'liq ma'lum bir xalqning ijtimoiy nutq amaliyotida boshqa funktsiyalarni bajaradi" deb ta'rif berib o'tgan [1: 19].

Bugungi kunda tilshunoslikda funktsional uslublarning turli tasniflari mavjud. Masalan, I.R. Galperin badiiy nutq uslubi, gazeta uslubi, jurnalistik uslub, ishbilarmonlik uslubi, ilmiy nasr uslubini farqlashni taklif qiladi [2:347]. I.V. Arnold ilmiy, so'zlashuv, ishbilarmonlik, she'riy, notiqlik va publitsistik uslublarni ajratib ko'rsatgan bo'lsa, [3:245] M.D.Kuznets va Y.M.Skrebnev tomonidan berilgan ingliz tilining funktsional uslublari va rasmiy-klerikal uslub hamda adabiy-suhbat uslubi va tanish uslubni o'z ichiga olgan erkin ("suhbatli") uslublar tasnifi qiziqish uyg'otdi [4:122]. O'zbek tilshunosligida nisbatan yangi soha sifatida sanalgan uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomila jarayonida turli soha va vaziyatda qo'llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma'no nozikliklarini aniqlash bilan shug'ullanadi.

Har bir uslubning o'ziga xosligi ushbu uslub matnlarida amalga oshiriladi. Zamonaviy tilshunoslikda matn semantik aloqa bilan birlashtirilgan ramziy birliklar ketma-ketligi sifatida qaraladi va izchillik va yaxlitlik ularning asosiy xususiyatlaridir [5: 507]. Matnning ikki turi mavjud - monolog va dialogik. Bu farq matnni tashkil etuvchi jumalarning kommunikativ yo'nalishiga asoslanadi. Dialogik matn - nutq aktidagi ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning gaplarini almashish natijasida tuzilgan jumalar zanjiridir va har bir ishtirokchi nutq jarayonida so'zlovchi yoki nutqning adresati sifatida harakat qiladi [6:122]. Dialogik matndan farqli o'laroq, monolog matn bir shaxsning bir yoki bir nechta tinglovchilarga (o'quvchilarga) qaratilgan og'zaki yoki yozma bog'langan nutqidir. Shuning uchun bu turdagi matndagi gaplar ketma-ketligi bir tomonlama yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi [7: 353]. Monolog matnlar yozma nutqda, jumladan badiiy, ilmiy va gazeta-publitsistik uslublarda keng tarqalgan.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi lingvistik va o'ziga xos stilistik vositalardan foydalangan holda, muallifning niyatiga hissa qo'shish va u yoki bu voqelikning mavjudligi, rivojlanish shartlarini o'quvchiga chuqurroq ochib berishdir. Badiiy va fantastik uslub boy tasvir, hissiyot va o'ziga xos ekspressivlik bilan ajralib turadi [8:244].

Badiiy uslubdagi monolog va dialogik matnlarda modal so'zlarning qo'llanilishini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular dialogik matnlarga nisbatan monolog matnlarda ko'proq qo'llaniladi. Matnning ikki turi - monolog va dialog o'rtasidagi farq matnni tashkil etuvchi gaplarning kommunikativ yo'nalishiga asoslanadi.

Badiiy uslubdagi monologik matnlar uchun xos bo'lgan va dialogik matnlarga xos bo'lmagan quyidagi modal so'zlar va modal iboralarni o'z ichiga oladi: “ostensibly, vaguely, clearly, surprisingly, virtually, conceivably, genuinely, inevitably, unbelievably, visibly, undeniably, obscurely, plausibly, illogically, seemingly, admittedly, strangely, supposedly, inexorably, theoretically, unmistakably, unquestionably, without doubt, in fact”. Sanab o'tilgan modal so'zlar va modal iboralarning monolog matnlarda qo'llanilishi, ularning konnotativ ma'no xarakteriga ko'ra, kitobiy, adabiy qayta ishlangan nutqda qo'llanilishi bilan genetik bog'liqligi bilan bog'liq [9:101].

Modal so'zlar va modal iboralar subyektiv-baho modallikni ifodalovchi vosita bo'lib, badiiy adabiyotning monolog matnlarida ikkita umumiy ma'no – “mantiqiy baholash” va “hissiy baholash”ni bera oladi. “Mantiqiy baholash”ning umumiy ma'nosi doirasida modal so'zlar to'rtta alohida ma'noni qabul qilishi mumkin.

Birinci alohidagi ma'no bu so'zlovchining fakt yoki hodisaga bo'lgan ishonchining qiymatidir. Bu ma'no “certainly, surely, naturally, definitely, undoubtedly, sure, absolutely, doubtless, inevitably, undeniably, unquestionably, unmistakably” kabi modal so'zlari hamda “of course, in fact, no doubt, without doubt, very doubtfully” kabi modal iboralar bilan ifodalanadi. Misol uchun:

1. My face, I knew, must be giving the same rainbow performance and I **undoubtedly** had two lovely black eyes (Christie A. Death in the Clouds). (Men bilardim, mening yuzim bir xil kamalak ko'rinishini berayotgan edi va shubhasiz, mening ikkita yoqimli qora ko'zlarim bor edi.)

2. **Unquestionably**, he had been put in a difficult position (Hailey A. The Final Diagnosis). (**Shubhasiz**, u qiyin ahvolga tushib qolgan edi)

“Mantiqiy baholash” umumiy ma'nosi doirasidagi ikkinchi xususiy qiymat “really, truly, inevitably, genuinely, indeed, obviously, rightly, clearly, actually, vividly, positively, visibly, ostensibly, virtually, admittedly, inexorably, reasonably” kabi modal so'zlari bilan uzatiladigan har qanday fakt yoki hodisaning amalga oshirilishini so'zlovchi uchun dalil qiymati deb qaralishi kerak. Misol uchun:

3. She was dead, **indeed**, she was dead (Mailer N. An American Dream). (U o'lgan edi, **haqiqatan ham** o'lgan edi)

4. The man's effrontery did not exasperate her as it **obviously** exasperated Margaret and Arthur (Maugham W.S. The Magician). (Erkakning beadabligi uni g'azablantirmadi, chunki bu Margaret va Arturni g'azablantirgani **aniq**)

Modal so'zlarning “mantiqiy baholash” umumiy ma'nosi doirasidagi uchinchi xususiy ma'nosi so'zlovchining fakt yoki hodisaning ehtimollik qiymatini ifodalashidir. Bu ma'no “probably, apparently, likely, presumably, hopefully, plausibly, conceivably, supposedly, theoretically, seemingly” modal so'zlariga xosdir. Mana bir nechta misollar:

5. **Probably** I read the same two pages over several times (Hemingway E. Fiesta). (**Ehtimol**, men bir xil ikki sahifani bir necha marta o'qiganman)

6. When I was sitting here it was **likely** they were doing an autopsy on Deborah (Mailer N. An American Dream). (Men bu yerda o'tirganimda, ular Deboraning o'lgan tanasini yorishayotgan **bo'lishlari mumkin** edi)

“Mantiqiy baholash” ning umumiy ma'nosi doirasidagi to'rtinchi o'ziga xos ma'noni so'zlovchining fakt yoki hodisaning amalga oshirilishiga shubhalari qiymati deb hisoblash mumkin. Bu ma'no “perhaps, possibly, maybe, unlikely, vaguely, obscurely, unbelievably, strangely, surprisingly” modal so'zlari orqali ifodalanadi. Masalan:

7. **Perhaps** they would step into his private office (Christie A. Death in the Clouds). (**Ehtimol**, ular uning shaxsiy kabinetiga kirishar edi)

8. **Maybe** that was why he was a good lawyer (Canning V. Birdcage). (**Balki** shuning uchun ham u yaxshi advokat edi)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, badiiy nasrning monolog matnlarida modal so'zlar ishonch, dalil, ehtimollik, shubha, ijobiy va salbiy ma'nodagi ifoda vositalarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. - М.: Высшая школа, 1981. - 320 с.
2. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Изд-во лит-ры на иностр.яз.,1958.-460 с.
3. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. М.: Высшая школа, 1991. - 140 с.
4. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. - Л.: Учпедгиз, 1960. - 173 с.
5. Николаева Т.Н. Текст // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. - М.: Советская энциклопедия, 1990. - С. 507.
6. Москальская О.И. Грамматика текста. Пособие по грамматике немецкого языка для институтов и факультетов иностранных языков. - М.: Высшая школа, 1981. - 183 с.
7. Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. - 2nd ed., rev. - M.: Higher School, 1994. - 381 p.
8. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М.: Просвещение, 1993. - 224 с.
9. Мороховский А.Н., Воробьева О.П., Лихошерст Н.И., Тимошенко З.В. Стилистика английского языка. - Киев: Вища школа, 1984. - 248 с.

UO'K 811.161.1(043)

**RASMIY MULOQOTDA LISONIY VOSITALAR TANLOVI VA UNING NUTQIY
MULOQOT MAZMUNIGA TA'SIRI**

X.Narxodjayeva, dots., PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada rasmiy muloqotda lisoniy vositalarini tanlab qo'llanilishi va uning nutqiy muloqot mazmuniga ta'siri, o'zbek rasmiy muloqot madaniyatida ham ayrim til vositalarining qo'llanishi, rasmiy nutqiy muloqotda muayyan til birliklarining tanlanishidagi tashqi omil – kommunikantlarning ijtimoiy mavqei, jamiyatda bajarayotgan rollarining ta'siri kabi xususidagi fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, nutqiy muloqot, rasmiy muloqot, lisoniy vositalar, muloqot mazmuni, so'z birikmalari, qoliplar.

Аннотация. В статье рассматривается избирательное использование языковых средств в официальном общении и его влияние на содержание речевого общения, использование определенных языковых средств в культуре узбекского официального общения, внешний фактор в выделении определенных языковых единиц в официальной речи. общение - социальный статус коммуникантов, определение их роли в обществе. Его личные мысли выражаются как тайна.

Ключевые слова: общение, устное общение, формальное общение, языковые средства, содержание общения, фразы, шаблоны.

Abstract. In the article, the selective use of language tools in official communication and its influence on the content of speech communication, the use of certain language tools in the culture of Uzbek official communication, the external factor in the selection of certain language units in official speech communication - the social status of communicants, the definition of their roles in society His personal thoughts are expressed as a secret.

Key words: communication, spoken communication, formal communication, linguistic tools, content of communication, phrases, patterns.

Rasmiy nutqiy muloqotda lisoniy birliklar tanlovi rasmiy nutqning uslubiy xususiyatlari bilan bog'liq. Rasmiy nutqiy muloqotda rasmiy uslubga xoslangan til birliklari, ayniqsa, leksik birliklar, turg'unlashgan so'z birikmalari, qoliplarga tushirilgan sintaktik birliklarning qo'llanishi betaraf leksikaga nisbatan faol. Bunday til birliklari nutqiy muloqotning rasmiy yoki norasmiy xarakterda ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi.

Sh.Safarovning qayd etishicha, rasmiy va norasmiy munosabatlarning grammatik va lug'aviy birliklar vositasida belgilanishi qariyb barcha tillar uchun umumiy qoidadir. Ammo ba'zi tillar uchun bu qoida o'ta majburiy xususiyatga ega bo'lib, ushbu tillar grammatik tizimidan mustahkam o'rin egallaydi. Olim manbalarga asoslangan holda "bu borada, ayniqsa, yapon va koreys fe'l tizimi alohida ajralib turadi. Birgina "o'qi!" imperativi yo me (o'ta qo'pol), *yonde kure* (biroz yumshoqroq, o'zidan past mavqedagiga buyurilganda), *yonde* – *o-kure* (yanada yumshoqroq), *yonde yare* (qo'pol, "uchinchi shaxsga o'qib ber" mazmunida) *o-yomi*, *yonde tyoday*, *yominasay*, *yomitamae* (norasmiy muloqotda), *o-yominasay* (bir oz hurmat ma'nosida), *yonde kudasay* (hurmat shakli), *o-yomi kudasay* (ehtiroimli "marhamat, o'qing" mazmuniga ega), *o-yomi kudasaimasi* (o'ta ehtiroimli) kabi shakllarda ifodalanishi mumkin"ligini qayd etadi. [1]

O'zbek rasmiy muloqot madaniyatida ham ayrim til vositalarining qo'llanishi majburiy tus olgan deyish mumkin. Masalan, sud tizimida *sudya janoblari*, *muhtaram sudya*; qonunchilik

palatasida *hurmatli deputatlar, muhtaram deputatlar* murojaat birliklarining qo'llanishi qat'iylashgan.

Bu holat o'rta asrlar diplomatik nutqiy muloqotida ham kuzatilgan. Q.Sodiqovning ma'lumot berishicha, o'zga yurt hukmdoriga yo'llanayotgan rasmiy-diplomatik xatlarning boshlanishida, islomiy etiketga ko'ra, avval Ollohning inoyati, Muhammad alayhis-salom mo'jizotiga tahsin aytib, so'ng adresatga salom berilgan. Hukmdor oti tilga olinganda, taomilga binoan, unvonlari qo'shib aytilgan. Masalan, Ulug' Muhammadxonning II Murodga yo'llagan maktubining boshlamasi shunday: *Haq ta'ālā 'ināyatiylā, Muḥammad payyambar mo'jizātiylā Muḥammaddīn yāzī Murādqa salām.* – "*Haq taolo inoyati ila, Muhammad payg'ambar mo'jizoti ila Muḥammaddan g'oziy Murodga salom. Bu o'rinda Haq ta'ālā 'ināyatiylā, Muḥammad payyambar mo'jizātiylā – bitig yo'llanayotganligining shukronasi; uning ketida turgan xat yo'llayotgan kimsa (adresant) chiqish kelishigida (Muḥammaddīn), xat yo'llanayotgan kimsa esa unvoni bilan birga jo'nalish kelishigida (yāzī Murādqa) berilgan*". [2]

Bundan xulosa qilish mumkinki, rasmiy muloqotning har bir janrida muayyan leksik birliklar, sintaktik qoliplar qat'iy o'rtnashib qolgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi tijorat xatlari leksikasini o'rgangan R.Karimov bu tillarda betaraf leksikaga qaraganda quyidagi funksional stilistik bo'yoqqa ega so'zlardan ko'proq foydalanilishini aniqlagan:

– alohida so'z va so'z birikmalari ko'rinishidagi yozma kitobiy leksika: *because of above mentioned – yuqorida bayon etilganlar tufayli, according to above mentioned – yuqorida qayd etilganlar asosida, privileged several times – bir necha bor rag'batlantirildi* va b.;

– tijorat, sanoat va texnika atamalari: *customs service – bojxona xizmatlari, production capacity – ishlab chiqarish quvvati, unanswered letter of credit – javobsiz akkreditiv* va b.;

– rasmiy va idoraviy qoliplar: *production needs – ishlab chiqarish zarurati, problem solving – masalaning yechimi, to help – yordam ko'rsatish, to inform – ma'lum qilish* va b.; [3]

E'tibor berilsa, rasmiy tijorat xatlarida rasmiy uslubga xoslangan til birliklarining qo'llanish chastotasi yuqori. Ushbu birliklar tijorat xatiga rasmiylik ruhini bag'ishlash bilan birga, uning janr turini shakllantirishga ham xizmat qilgan.

Umuman, bu kabi rasmiy uslubga xoslangan til birliklarini rasmiy-idoraviy muloqotda qo'llanadigan, diplomatik muloqotda yoki qonunchilikda ishlatiladigan maxsus til birliklari sifatida bir-biridan farqlash mumkin. Shu jihatga ko'ra ham rasmiy nutqiy muloqot tularida lisoniy vositalarning tanlovi masalasi muhim o'rin tutadi. Rasmiy nutqiy muloqot jarayonida til birliklarining to'g'ri tanlanishi, ularning rasmiy nutq uslubi meyorlariga mos kelishi muhim shartlardan biridir.

I.Matitsinaning qayd etishicha, nutqiy muloqotning turli vaziyatlarida ishlatiladigan verbal va noverbal vositalar ulushi va majmui bir xil bo'lmaydi. Bu ko'plab lingvistik va ekstralingvistik sabab va omillarga bog'liq. Xususan, rasmiy ishbilarmonlik muloqoti asosan verbal vositalardan foydalanishga, noverbal vositalarni minimallashtirishga moyildir. Bu ishbilarmonlik doirasidagi nutqiy munosabatlarning asosiy qismi nafaqat masofadan turib, ya'ni bilvosita – yozma ravishda yoki texnik vositalardan foydalangan holda (faks, kompyuter, telefon) amalga oshishi bilan bog'liq, balki ishbilarmonlik muloqoti qat'iy reglamentga tushirilganligi, ya'ni reglamentga to'la amal qilinishi yoki, aksincha, undan har qanday og'ish axborotni qabul qiluvchi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ham bog'liq. [4]

Rasmiy nutqiy muloqotda muayyan til birliklarining tanlanishiga yana bir muhim tashqi omil – kommunikantlarning ijtimoiy mavqei, jamiyatda bajarayotgan rollari ham sabab bo'ladi. Bu omil barcha davrlarda rasmiy nutqiy muloqotda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillardan biri bo'lib kelgan. Jumladan, rasmiy nutqiy muloqotda til birliklarining tanlovi o'rta asrlar diplomatik nutqiy muloqotida ham yaqqol kuzatiladi. Q.Sodiqovning qayd etishicha, o'rta asrlarning diplomatik hujjatlarida o'ziga qaram kishilarga, qaram yurt egalariga nisbatan *ini-oyulluq, xidmatkārliq*, yaqinlik ma'nosida *dostluq, qarindašliq* birikmalari ishlatilgan. Bunda hukmdorning siyosiy maqsadi ham bo'lgan, qaram yurt egasini o'ziga yaqin tutayotganligini bildirib qo'yish, avrab qo'lga olish uchun ham shunday yo'l tutilgan. [5]

Bugungi kunda ham rasmiy nutqiy muloqotda til birliklarining tanlanishida, ayniqsa, adresatning ijtimoiy maqomi, ijtimoiy rolini inobatga olish nihoyatda ahamiyatga ega. Sh.Iskandarova qayd etganidek, "Har bir so'zlovchi o'zining va suhbatdoshining ijtimoiy maqomiga ko'ra nutq birliklarini ajratib, saralab qo'llaydi". [6]

Bundan ma'lum bo'ladiki, ham adresantning, ham adresatning ijtimoiy maqomi, roli rasmiy nutqiy muloqotda til birliklarining tanlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rasmiy nutqiy

muloqot ishtirokchisi adresat elchi rolidagi rasmiy shaxs bo'lsa, unga *muhtaram elchi, janob elchi, elchi janoblari* tarzidagi murojaat birliklari ishlatiladi.

Sh.Safarov bu haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni yozadi: "...*“hazrat”, “hazrati oliylari”* iboralarining qo'llanishi bajarilayotgan muloqot faoliyatining rasmiyligi pressupozitsiyasidan darak beradi. Bunda muloqot adresati xuddi shu turdagi murojaatni talab qiluvchi lavozim, daraja sohibi bo'lmog'i darkor (Binobarin, “hazrat” yuqori diniy lavozimdagi shaxs bo'lishi mumkin.). Muloqot jarayonida bunday talab va qoidalarga rioya qilinishini o'rganish natijasida *ritorik pragmatika* yo'nalishi shakllandi. Ushbu turdagi pragmatik ta'limotning asosiy maqsadi muloqot tamoyillari va kategoriyalarini aniqlashdir”. [7] Ammo bunday muloqot tamoyili ba'zan buzilishi mumkin. Rasmiy shaxs maqomidagi kishilar o'ziga yaqin insonlar, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari davrasida bu tamoyilga rioya qilib o'tirmaydilar. Bunday holatda rasmiy shaxslar muloqoti norasmiy tus oladi. Masalan: *Lobar o'tirdi. Erta-indin sudi bo'lib, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinajak mahbus ichki ishlar xodimi libosida qamoqxona boshlig'i kabinetiga kelgan edi.*

– *Forma juda yarashibdi, – dedi qamoqona boshlig'i. – Tanishing, bu odam sizning xaloskoringiz polkovnik Ivolgin. Meni esa otning qashqasidek bilsangiz kerak. Sudgacha va suddan keyin kamida ikki yil mobaynida shu qamoqxonada yashashingiz tayin edi. Ya'nikim, kaminaning qo'l ostida. So'ng bepoyon o'lkamizning qaysidir chekkasidagi bir parcha yerda umringizning qolgan qismini o'tkazishga jo'nab ketardingiz. Ammo ko'rib turibsizki, ertalab mahbus bo'lib uyg'ongan ayol tushgacha militsiya xodimiga aylandi qoldi.*

Unvondor shaxslar o'zlaridan mamnun ekanligini sezgan Lobar sovuqqina ohangda dedi:

– *Men buni hech kimdan iltimos qilganim yo'q. Sizlar o'ylagandek, qamalishdan cho'chimayman ham. Inson qiyofasidagi iblislar hayotimni allaqachon barbod qilib bo'lishgan. (A.Qorjovov. “Qil ustidagi taqdir”)*

Qamoqxona boshlig'i va mahbus o'rtasida bo'lib o'tgan ushbu nutqiy muloqotda qamoqxona boshlig'ining rasmiy muloqot tamoyillariga rioya qilmaganligi kuzatiladi. Uning nutqida qo'llangan *Meni esa otning qashqasidek bilsangiz kerak. Ammo ko'rib turibsizki, ertalab mahbus bo'lib uyg'ongan ayol tushgacha militsiya xodimiga aylandi qoldi* jummalari rasmiy muloqot tamoyillariga zid.

Rasmiy nutqiy muloqotda adresatning yoshi, jinsiga ko'ra ham lisoniy birliklar tanlovi kuzatiladi. Masalan, rasmiy-idoraviy nutqiy muloqotda adresat ayol jinsiga mansub rasmiy shaxs bo'lsa, unga nisbatan o'ziga mos hurmat shakli va murojaat birliklari tanlab ishlatiladi. O'zbek diplomatiyasida ayollarga nisbatan *xonim*, erkaklarga nisbatan *janob* so'zi hamda so'z birikmasi shaklidagi *janobiy oliylari* birliklarining qo'llanishi qabul qilingan. Yosh bo'lsa-da, o'zbek xalqi madaniyatida rasmiy shaxslarga *Siz* deb murojaat qilinadi.

L.Muhammadjonovanning ma'lumot berishicha, rasmiy murojaatda jamoaga *xonimlar va janoblar, bir insonga Janob Ivanov* deb, agar familiya ishlatilmasa, *janob direktor, direktor xonim* deb murojaat qilish mumkin. *O'rtoq* so'zi ichki ishlar xodimlari va harbiylarga nisbatan qo'llanadi. Ya'ni, *O'rtoq Abdullayev, o'rtoq general*. Elchilarga *Janobi* dindorlarga *hazrat, pirim, hoji, mullo yigit* deb murojaat qilinadi. [8]

Darhaqiqat, o'zbeklarda suhbatdoshiga familiyasi bilan murojaat qilish faqat rasmiy doirada kuzatiladi. Rasmiylikni kuchaytirish maqsadida shaxsning ismi bilan birga uning ota ismi ham qo'shib aytiladi. H.Turdiyeva o'zbek rasmiy muloqotiga bu nutqiy odat rus madaniyati orqali kirib kelganligini qayd etib, quyidagilarni yozadi: “O'zbek tilida ism bilan murojaat etish ruslar ta'sirida shakllangan tizim nutqiy etiket qoidalariga juda yaqindir. Familiya bilan chaqirish katta lavozimdagilar kichikroq lavozimdagilarga nisbatan qo'llanilib, rasmiy xarakterga ega. O'ta rasmiy holatda, hurmat ma'nosida ism va otasining ismi qo'llanadi. (Sarvinoz Ro'ziyevna, Bobur Asrorovich) Bu tarzda qo'llashda yoshning ahamiyati bo'lmaydi. Familiya yoki ism va otasining ismini qo'llashda negativ feys yetakchilik qiladi”. [9]

Anglashiladiki, rasmiy murojaatda maxsus til birliklarining tanlovi turli nutq vaziyati bilan bog'liq holda ham amalga oshiriladi.

Rasmiy nutqiy muloqotda ba'zan adresatga uning millatini ko'rsatib, murojaat qilinishi kuzatiladi. Bunday vaqtda rasmiy munosabat yanada kuchayadi. N.Ahmedova bu holatni quyidagicha izohlaydi: “O'zaro muloqot jarayonida so'zlovchi tinglovchiga millati bilan murojaat qilishi orqali unga alohida hurmat-e'tiborini, yaqinligini ifodalashi mumkin. Bu esa so'zlovchi bilan tinglovchi orasidagi samimiy munosabatni yuzaga keltiradi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bunday murojaat birliklari rasmiy nutqlarda, badiiy asarlarda, ba'zan esa so'zlashuv nutqida ham qo'llanadi. Qiyoslang: Aziz bo'vurlar! Muhtaram qirg'iz bo'vurlarim! (I.Karimov). Qadrlil qozoq tug'ishganlar! Aziz qozoq birodarlarim! (I.Karimov)”. [10]

Bizningcha, bu o'rinda murojaat birliklari tarkibida qo'llangan *aziz, muhtaram, qadrli* sifatleri orqali N.Ahmedova nazarda tutgan "hurmat-e'tibor" ma'nosi ifodalangan. Egalik qo'shimchasini qabul qilgan *bovurlarim, birodarlarim* so'zlari orqali esa "yaqinlik" grammatik ma'nosi hosil qilingan.

Rasmiy nutqiy muloqot matnlarini semantik jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) axborot-ma'lumot berish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 2) buyruq berish, talab qo'yish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 3) vazifa, majburiyat yuklatish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 4) ko'rsatma berish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 5) iltimos xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 6) taklif xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 7) rozilik, ishonch bildirish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 8) ruxsat berish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 9) taqiqlash, rad etish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 10) tavsiflash xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 11) tushuntirish berish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 12) kafolat berish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 13) so'rov jo'natish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 14) eslatish xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 15) qayd etish, ro'yxatga olish, tasdiqlash xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 16) tashviqot-targ'bot xarakteridagi rasmiy muloqot matnlari; 17) huquqiy majburiyatlarni aks ettiruvchi rasmiy muloqot matnlari va boshqalar.

Xullas, rasmiy nutqiy muloqotning rasmiy-idoraviy, diplomatik, qonunchilik uslubiga xos muloqot turlarida lisoniy vositalar rasmiy uslub talabi asosida tanlab qo'llaniladi. Lisoniy vositalar tanlovi rasmiylik, aniqlik, huquqiy asoslanganlik, qat'iylik, majburiylik kabi rasmiy nutqiy muloqotning kommunikativ sifatleri bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.132.
- 2.Содиқов Қ. Турк тилшунослиги сиёсий, расмий-дипломатик нутқ стилистикаси // Sharq mash'ali. – Тошкент, 2020. – № 2(2). – Б. 50-61. <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/14848>.
3. Каримов Р. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материалида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.12.
4. Матыцина И. Язык официально-делового общения как явление и как понятие // Žmogus ir žodis / Svetimosios kalbos Man and the Word / Foreign Languages. 2014. T. 16. –№. 3. – P. 103-110)
5. Содиқов Қ. Кўрсатилган манба // <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/14848>.
- 6.Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 10.
- 7.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.213.
8. Мухаммаджонова Л. Давлат хизматчиси этикаси ва имижии. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2017. – Б. 47.
- 9.Турдиева Х. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 91.
10. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат birlikларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 19.

UDC 808.5

THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN LITERARY TRANSLATION

D.A'.Nasriddinov, doc., PhD, TIAME-NRU, Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjimada eng muhim bo'lgan stilistik vositalarning o'zbek tilidagi tarjimasida qanday ma'nolarni kashf etishi tahlilga tortilgan. Shuningdek, stilistik vosita turlariga izoh hamda ularni mazmun mohiyatini asoslovchi misollar ikki (o'zbek va ingliz) tillarida keltirilgan.

Kalit so'zlar: *alliteratsiya, anafora, ironiya, metafora, metonimiya, sinekdoha.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу наиболее важных стилистических приемов в художественном переводе, которые раскрывают смыслы при переводе на узбекский язык. Кроме того, приведены и объяснены значения типов стилистических приемов, а также обосновано их содержание примерами на двух языках (узбекском и английском).*

Ключевые слова: *аллитерация, анафора, ирония, метафора, метонимия, синекдоха.*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the most important stylistic devices in literary translation, which discover meanings in translation into Uzbek. In addition, there are given and explained the meaning of types of stylistic devices and also justified their content with examples in two languages (Uzbek and English).*

Keywords: *alliteration, anaphor, irony, metaphor, metonymy, synecdoche*

In the literature, various methods are used to give the content of speech an auxiliary meaning, idea or feeling. Sometimes a word departs from its normal meaning or a phrase acquires a special meaning that is not based on the direct meaning of the words contained in it. Such means are called artistic and stylistic (pictorial) means. Artistic visual means greatly contribute to the fact that a literary work is beautiful, attractive and attractive to the reader. By stylistic means we mean such elements of writing as metaphors, contrasts, rhetorical questions, humor, doubts, etc., which are used by writers to create certain emotions in readers. They are means for writers to circumvent many of the limitations of a communicative goal. Like structural devices, these stylistic devices exist at every level of the text structure. Literature is a science that fulfills cultural, moral and social tasks. It also affects a person's mood. Literature shows a sense of beauty through the stylistic techniques used by the artist. Artistic stylistic means are available in both English and Uzbek languages. Since the object of the dissertation is the English language, this section discusses the artistic stylistic means of the English language. At this stage, it is necessary to get acquainted in more detail with the types of artistic and stylistic means and their description.

Alliteration - is a literary device that involves the repetition of a sound or letter at the beginning of multiple words in a sentence or phrase. Alliteration is often used in poetry, song lyrics, and prose to create a musical effect or to emphasize certain words or phrases. Here are a few examples of alliteration:

1. "Peter Piper picked a peck of pickled peppers."
 2. "She sells seashells by the seashore."
 3. "Big brown bears bask in the bright blue sun."
 4. "Five fat frogs foolishly fled from fierce forest fires."
 5. "Mighty mountain men march through misty meadows."
- sweet smell of success,
-a dime a dozen,
-bigger and better,
-jump for joy

In Uzbek literature:

Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qayiq qayrilma qoshing, qiz,
Qilur qatlinga qasd, qayrab
Qilich qotil qaroshing, qiz...[1]

In each of these examples, the repetition of the initial letter or sound creates a memorable and sometimes humorous effect. Alliteration can also be used to create a mood or tone in a piece of writing, such as a sense of playfulness or excitement.

Anaphora is a literary and rhetorical device in which a word or phrase is repeated at the beginning of successive clauses or sentences. The purpose of anaphora is to create emphasis, to reinforce a message, and to create a rhythmic effect that can captivate the reader or audience. Here are a few examples of anaphora:

1. "We shall fight on the beaches, we shall fight on the landing-grounds, we shall fight in the fields and in the streets, we shall fight in the hills." - Winston Churchill
2. "I have a dream that one day this nation will rise up and live out the true meaning of its creed: "We hold these truths to be self-evident, that all men are created equal." - Martin Luther King Jr.

3. "It was the best of times, it was the worst of times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity." - Charles Dickens, *A Tale of Two Cities*.

Mad world!

Mad kings!

Mad composition![2]

In Uzbek literature:

Endi odam quldek sotilmas,
Endi odam o'tga otilmas,
Endi unga qafas bo'lmas jon,
Endi dunyo bo'lmaydi zindon.[3]

In each of these examples, the repetition of a word or phrase at the beginning of the sentence creates a powerful effect and emphasizes the message that the writer or speaker is trying to convey.

Anaphora is commonly used in speeches, political rhetoric, poetry, and even in everyday conversations.

Irony is a literary device that uses language to express the opposite of what is expected or intended. It often involves a discrepancy or incongruity between what is said or written and what is actually meant or what actually happens. There are three main types of irony: verbal, situational, and dramatic.

Verbal irony occurs when a speaker says something but means the opposite. For example, if it is raining heavily outside and someone says "What a lovely day!" this is using verbal irony to express the opposite of what is actually happening.

Situational irony occurs when there is a discrepancy between what is expected to happen and what actually happens. For example, if a firefighter's house catches on fire, this is an example of situational irony since they are trained to put out fires but now need to help fight one in their own home.

Dramatic irony occurs when the audience or reader knows something that the characters do not. This can create suspense or tension in the plot. For example, if the audience knows that a character in a horror movie is about to be attacked by a killer who is hiding behind a door but the character does not, this is an example of dramatic irony. Irony is often used in literature, poetry, and film to make a point, create humor, or add depth to a character or plot.

- *His argument was as clear as mud.*

- *The two identical twins were arguing. One of them told the other: "You're ugly."*

- *The thieves robbed the police station.*

In Uzbek literature:

- *"Nyuton" bo'lsang ham mayli edi, fizikadan gap ochishga.*

- *Xonimning "nozik" qo'llariga og'irlik qilmasmikan?!*

Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?[4]

Metaphor is a figure of speech that implies a comparison between two things that are not actually alike but share common characteristics. It involves using a word or phrase that represents one thing and applying it to another thing to suggest a resemblance or analogy between the two. For example, "Life is a journey" is a metaphor that suggests that life and a journey share common characteristics such as ups and downs, twists and turns, and unexpected events. Another example of a metaphor is "She has a heart of stone" which implies that the person being described lacks empathy or compassion, just as a stone is hard and unfeeling. Metaphors are commonly used in literature, poetry, and everyday language to make comparisons and to help the reader or listener understand complex ideas or emotions.

In Uzbek literature:

Sheryurakli bu Lochin

Qoqib qanot-qulochin,

Quzg'unlardan asradi

Elning xotin-xalajin.[5]

In English literature:

All the world's a stage,

And all the men and women merely players;

They have their exits and their entrances;[6]

"The sun was a toddler insistently refusing to go to bed: It was past eight thirty and still light."[7]

They can also create vivid images in the reader or listener's mind and add depth or meaning to a text.

Metonymy is a figure of speech in which a word or phrase is substituted for another word or phrase that it is closely associated with, in order to suggest a particular meaning or association. Unlike metaphor, metonymy does not involve a direct comparison. For example, "The White House issued a statement today" is an example of metonymy because "White House" is being used to refer to the executive branch of the United States government. Similarly, "The pen is mightier than the sword" is an example of metonymy because "pen" stands for literary writing, while "sword" stands for violence or military force. Metonymy is often used in everyday language, as well as in literature, poetry, and journalism, to make writing more concise, vivid, and memorable, and to create associations between words or concepts. It can also add to the depth of the meaning of the text and convey complex ideas with a minimum of words.

In Uzbek:

*Po'lat qush ham qomatin rostlab
Bulutlarni etar tumtaraq.
Fuzuliyini oldim qo'limga,
Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi...[8]*

In English:

The pen is mightier than the sword.

Synecdoche is a type of figure of speech in which a part of something is used to refer to the whole thing, or the whole thing is used to refer to a part of it. It is a type of metaphor that involves using a closely related term to represent the whole or part of a thing. For example, "Nice wheels" refers to a car, where "wheels" is a part of the car, but is used to refer to the whole thing. Another example is "He got a new set of threads" where "threads" is used to represent a person's clothes. Synecdoche is commonly used in literature, poetry, and everyday language to create a more vivid and memorable image or to convey a complex idea in a simple way. For instance, "All hands on deck" represents the need for everyone to help, where "hands" is used to represent the whole person. It can also add depth and nuance to a text by creating associations between different parts of a thing or idea.

A hundred head of cattle (using the part head to refer to the whole animal)

The whole of a thing is used to represent part of it -

The world treated him badly (using the world to refer to part of the world)

A general class of thing is used to refer to a smaller, more specific class -

The good book (referring to the Bible or the Qur'an)[9].

In conclusion, literary devices are an integral part of any language and they play a crucial role in creating nuanced and powerful texts. When it comes to translating these texts, it is important to acknowledge the presence of these devices and find appropriate ways to convey their meaning in the target language. A successful translation not only conveys the literal meaning of the text, but also captures the mood, tone, and style of the original. This requires a deep understanding of the nuances of the source and target languages, as well as an ability to creatively adapt to new contexts. The choice of translation strategy can also be affected by the type and purpose of the text being translated. All in all, literary devices provide a rich tapestry of language that can be celebrated and appreciated in translation, as long as the translator is skilled enough to adapt them into the target language whilst maintaining the original's intent and meaning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.Vohidov Qaro qoshing, (she'r) «Sharq», Toshkent – 2005
2. Uilyam Shekspir, "Qiro'l Jon", Jahon adabiyoti jurnali. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2008 58 b.
3. Hamid Olimjon, "Zaynab va Omon" Toshkent-1981. "O'qituvchi", 74 b.
4. Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasi <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-o-g-ri-hikoya>
5. Maqsud Shayxzoda "Kapitan Gastello" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014. 78 b.
6. Uilyam Shekspir "As you like it"
7. John Green "Fault in our stars". Dutton books | An imprint of Penguin Group (USA) Inc.-2008. P-25.
8. Hamid Olimjon, "Zaynab va Omon" Toshkent-1981. "O'qituvchi", 68 b.
9. John Green "Fault in our stars". Dutton books | An imprint of Penguin Group (USA) Inc.-2008. P-48.

UO'K 81'42:316

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASIDA MASAL JANRINING TADQIQI

D.M.Nosirova, o'qituvchi, Buxoto davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada abiyotshunoslikda masal janrining tarixi va kelib chiqish asoslari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy tarix, tadqiqot, badiiy asar, an'ana, masalchilik, doston

Аннотация. В данной статье рассматривается происхождение и история литературы.

Ключевые слова: Национальная, история, исследование, художественное, произведение, традиция, притча, эпос.

Abstract. This article discusses the history and origins of the parable genre in literature.

Keywords: National history, research, artistikwork, tradition, parabl, epic

Barchaga ayonki, O'zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixining mustaqil tarmoq sifatida shakllana boshlashi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Sohaning shakllanishi va

rivojlanishida A.Fitrat, A.Sa'diy, O.Sharofuddinov, V.Zohidov, V.Abdullayev, H.Sulaymonov, F.Karimov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov singari olimlarning ulkan xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Ularning tadqiqotlarida adabiyotimiz tarixining turli bosqichlari keng oritildi, ko'plab yirik ijodkorlarning hayoti va faoliyati monografik planda o'rganiladi. Bugungi kunda butun dunyoda barcha sohalar kabi adabiyotshunoslik ilmi ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmogda Mustaqillik o'tmish adabiy merosiga munosobati o'zgartirishni, qator adabiy hodisalar, faktlar, ijodkor shaxslar taqdiri va faoliyatini yangicha ilmiy talqin qilish zaruratini kuntartibiga qo'ydi. Bu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq ta'kidlash kerakki, bu boradagi vazifalarning katta qismi yangicha sharoitda yetishgan adabiyotshunoslar zimmasiga tushadi. Rivoyatlarga qaraganda, Ezop frigiyalik qul bo'lib, so'ng ozod qilingan. Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari (asosan, hayvonlar) o'ta shartli, voqealar ixcham bayon qilingan; tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari masallari syujeti Yevropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan. Lotin masalchisi Fedr (1-asr) va yunon masalchisi Babriy (2-asr) dan tortib fransuz J. Lafonten va rus Ivan Krilovgacha Ezop masallari syujetini davrga moslab ijodiy rivojlantirganlar.

Buyuk xalq og'zaki ijodlari (ertak, masal, topishmoq, maqollar) bir necha asrlardan buyon foydalanib, qo'llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda ham o'zligini yo'qotmay rivojlanib borayotgan xalq og'zaki ijodlaridan masalchilik haqida fikr yuritmoqchimiz. Barchamizga ayon-ki, ertak, masal, topishmoqlar til o'rgatish avval og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masal - axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi. Buyuk masalchi Gulxaniyning barcha ijod namunalarini hammamiz, ayniqsa bolajonlar tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Shuningdek jahon adabiyotiga nazar tashlasak buyuk fransuz shoiri, masalchi La Fontaine (Lafonten)ning asarlari barcha adabiyotshunos ixlosmandlarining yuragidan joy olgan delak mubolag'a bo'lmaydi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqiyu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tom onlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bolishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi.

Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning katta ko'pchiligini alla-qo'shiq, ertak topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og'ki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to'la-to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Ammo shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga mos tilda, ulaming yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim. Ma'lumki, bolalar jonivorlar, xususan, qushlarga ilk yoshlaridan boshlab qiziqadilar. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, Bu xildagi masallar kichkintoylan mustaqil fikrlashga, turmush taassurotlarini to'plab, ulardan xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bolalarning, ayniqsa, jajji qizchalarning sevimli mashg'ulotlaridan qo'g'irchoq o'ynashdir. Yo'ldosh Sulaymonning «Qo'g'irchoq» she'rida qo'girchoqlarni asrab-avaylash, oddiy bir o'yinchoq vositasida kattalarning mehnatini e'zozlash masalasi o'rta tashlanadi: Quyosh bilan teng turib, Ozoda kiyintirib, Senga taqamiz marjon, Qo'g'irchoq, qo'g'irchoqjon. Har qanday yozuvchi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib beriladigan asar tilining badiiy jihatdan puxta-pishiqligiga, tushunarli, aniq va ravonligiga alohida e'tibor beradi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiiya etiladigan asarlar havot haqida muayyan tasavvur berishi bilan birga zavq-shavq bag'ishlaydi. Qadimdan bolajonlar uchun talaygina ertaklar, topishmoqlar, masallar, tezaytishlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi amunalaridan masal haqida fikr yuritmoqchimiz.

Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri masaldir. Masal arabchadan olingan bo'lib-namuna, misol didaktik adabiyot janri hisoblanadi. Ta'limiy harakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar. Masallarda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalarini vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masallarga hajviy ruh bag'ishlaydi. Masallarning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarda yaqin bo'lib, xotimasi, ta'limiy xulosasi maqol, hikmatli so'z va iboralar tarzida bo'ladi. Masallar materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqada ham qo'llanishi mumkin. Ramzli hikoyadan farqli ravishda masallarning o'z an'anaviy obrazlar va otivlar doirasi mavjud bo'ladi (hayvonlar, o'simliklar, qushlar, muayyan tizimdagi odamlar va h.k.). Masallar janri unsurlari juda qadimdan ma'lum. Qadimgi yunon adabiyotida Ezop (milodiy 6—5-asrlar), Rim adabiyotida Fedr (miloddan avvalgi 1-asr), fransuz adabiyotida Lafonten (17-asr), rus adabiyotida Krilov bu janrning yetuk namoyandalari sifatida shuhrat qozonganlar. Rus adabiyotida D. Bedniy, S. Marshak, S. Mixalqov Masallarning ajoyib namunalarini yaratdilar. Zamonaviy o'zbek adabiyotida S. Abduqahhor, O. Qo'chqorbekov, Ya. Qurbonovva boshqalar masallar janrini rivojlantirdilar. Masal - axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kul'minatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi. Masallar poetik jihatdan ham, epik jihatdan ham insonning ichki tuyg'ulari bayoni sifatida ham xalq ijodining bo'lak turlaridan ajralib turadi. Masallar chuqur mazmunli so'zlar yordamida ifodalanadi: Shuningdek, bolaning to'g'ri tarbiyalanishida xalq og'zaki ijodining roli katta ekanligi ko'rsatiladi. Bola yoqimli qo'shiqlar ohangini osongina o'rganib oladi. Masallar bolalarga zavq bag'ishlaydi, ma'naviy-tarbiyaviy ozuqa beradi. Masallarning xalq og'zaki ijodida o'ziga xos o'rni bor. Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

“Chumoli va Tipratikan” masali nasriy turga mansub bo'lib, unda Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar. Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim. Masal tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur. Mehnatkash xalqning og'ir hayoti, huquqsizligi va nochorligi, bir so'z bilan aytganda ayanchli qismati “Tuya bilan bo'taloq”da o'ziga xos badiiy ta'sirli qilib beriladi. Shoirning tasvirlashicha tuya hayotda, ezilgan, tutqin, erk-ixtiyorsiz, og'ir mehnat bandisi hamda qul qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning majoziy obrazidir. Bo'taloq esa ona sutiga to'ya olmay, og'ir mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalarning timsolidir. Jumladan, adib “Toshbaqa va Chayon” rivoyatida jamiyatdagi nohaqliklarni, yovuz, nonko'r insonlarning obrazini ochib bergan. Muallifning ushbu masalida bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: Toshbaqa – aqli, farosatli, safarlarda ko'p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli sodiq va qadrdon do'st timsoli. U o'z hamrohi chayonning suvdan o'ta olmasligini bilgach, uning yordam qo'lini cho'zadi. Gulxaniy bu masali orqali Chayonga o'xshagan odamlar bilan do'st va hamroh bo'lmaslikka, kishi o'zini va taqdirini o'shanday kishilarga topshirib qo'ymaslikka chaqiradi.

Umuman olganda, qadimdan xalq og'zaki ijodining barcha namunalari o'z aksini topgan, keyinchalik esa masallar paydo bo'la boshlagan. Ayni paytda masallarning juda keng qirralari o'rganilgan va kelajak avlod o'qib o'rganishi, mutolaa qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xalq kitoblari: Oshiq Garib va Shohsanam —T., 1960.
2. Abulg'oziy Sh.ajarayi turk. - T., 1992;
3. Adabiy tarjimalar: O'zbek adabiyoti, 4-jild ,
4. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi Darslik. —T., 1980.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 3-jild -T., 1978. 1993. II. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. — T., 1993.
6. Jumaxo'jayev N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros. DDA .-T., 1999.
7. Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshent. 1974.
8. Ezop. Masallar to'plami.
9. Jan de Lafonten. Масаллар.С, М. Холмуродовалар таржимаси

UO'K 808.5

MAGIK REALIZM ADABIY OQIM SIFATIDA

U.S.Ochilov, PhD, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ilmiy maqolada magik realizm kelib chiqishi, uning realizm adabiy oqimining bir qismi ekanligi va fantaziya janridan farqli tomonlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *magik realizm, fantaziya, realizm, sehr, syurrealizm*

Аннотация. *В научной статье анализируется происхождение магического реализма, его принадлежность к литературному направлению реализма и его отличия от жанра фэнтези.*

Ключевые слова: *магический реализм, фэнтези, реализм, магия, сюрреализм.*

Abstract. *The scientific article analyses the origin of magic realism, the fact that it is a part of the literary trend of realism, and its differences from the fantasy genre.*

Key words: *magic realism, fantasy, realism, magic, surrealism*

Kirish. Magik realizm dunyoni real holatda tasvirlaydi, sehr elementlaridan foydalanib, ko'pincha xayol va haqiqatni birlashtirib ifodalaydi. Magik realizm odatda romanlar va dramatik spektakllarda real muhitda taqdim etilgan sehrli hodisalar bilan ifodalanadi. Fantaziya janrini ko'pincha magik realizm bilan bir tushuncha deb bilishadi. Ammo ular o'rtasida o'xshashlik bo'lgani kabi, farq ham mavjud. Magik realizm ko'roq real hayot va real voqealardan foydalanadi, magik elementlarni real hayotni ifodalashda qo'llaydi. Fantastik hikoyalar esa ko'pincha haqiqatdan ajralib turadi. Magik realizm realizm oqimi, yoki fantastik hikoyalarga nisbatan ko'proq haqiqiy va sehrli elementlarning uyg'unligi sifatida qaraladi.

Magik realizm atamasi keng tavsifga ega va Metyu Strecher (1999) uni "juda batafsil, realistik muhitga ishonish uchun juda g'alati narsa bostirib kirganida nima sodir bo'ladi" deb ta'riflaydi. Bu atama uni keng ta'riflaydi. Ushbu atama 1920-yillardagi nemis va italyan rassomlarining ishlarida qo'llanganligi ko'plab chalkashliklarga olib kelishi mumkin, shunki bu uslub adabiy realizmning bir qismi emas. Britaniyalik yozuvchi va tanqidchi Devid Lodj "Badiiy adabiyot" asarida magik realizmga shunday ta'rif beradi: "Ajoyib va ilojsiz voqealar sodir bo'lganda, realistik hikoya qilish - bu ayniqsa zamonaviy Lotin-Amerika fantastikasi bilan bog'liq bo'lgan effektdir (masalan, Kolumbiyalik yozuvchi, Gabriel Garsia Marques), lekin boshqa mamlakatlarning adabiyotida ham bu uchraydi, masalan, Gyunter Grass, Salman Rushdi va Milan Kundera. Ushbu yozuvchilarning barchasi katta tarixiy talvasalar va shafqatsiz shaxsiy g'alayonlarni boshidan kechirgan, o'zlarini ijobiy realizm zamirida yetarlicha ifodalay olmaydi, deb hisoblaydilar", deb Kunderaning "Kulgi va unutish kitobi"ni misol tariqasida keltirgan." Michiko Kakutani shunday yozadi "Lotin Amerikasi fantastikasida uchraydigan g'ayrioddiy va odatiy kundalik hayotning bir qismi bo'lgan haqiqatni real va sehrli voqealar uyg'unligi sifatida aks etadi. Magik realizm ko'pincha tarix va fantaziyaning aralashirib yuboradi, bunga Salmon Rushdining "Yarim tun bolalari" asarida Hindiston mustaqillikka erishgan 1947-yil 15-avgustda yarim tunda tug'ilgan bolalar telepatik bog'langanligini aytadi.

O'rganganlik darajasi. Iren Genter (1995) bu atamaning nemis ildizlarini, oldingi magik realistik san'atni va realizm oqimining bir qismi bo'lgan magik realizm bilan qanday bog'liqligini ko'rib chiqadi. Ushbu janr asoschilari Gabriel Garsia Marques, Izabel Allende, Xorxe Luis Borxes, Xuan Rulfo, Migel Anxel Asturias, Elena Garro, Mireya Robles, Romulo Gallegos va Arturo Uslar Pietri. Ingliz adabiyotida uning asoschilari Nil Gayman, Salmon Rushdie, Elis Xoffman, Nik Xoakin

va Nikola Barkerdir. Bengal adabiyotida magik realizmning taniqli yozuvchilari orasida Nabarun Bhattacharya, Axteruzzaman Elias, Shahidul Zohir, Jibanananda Das va Sayid Valiulloh bor. Yapon adabiyotida bu janrning asosiy mualliflaridan biri Xaruki Murakamidir. Kanada adabiyotida Shivaram Karanth va Devanur Mahadeva o'zlarining eng ko'zga ko'ringan asarlarida magik realizmni singdirdilar. Polsha adabiyotida magik realizmni adabiyot bo'yicha 2018-yilgi Nobel mukofoti sovrindori Olga Tokarchuk ifodalaydi. Bu atama birinchi marta nemis tilida "magischer Realismus" sifatida paydo bo'ldi. 1925 yilda nemis san'atshunosi Frants Roh nemis muzey direktori Gustav Xartlaub tomonidan qo'llab-quvvatlangan ekspressionizmga muqobil bo'lgan Noye Saklixkayt ("Yangi ob'ektivlik") deb nomlanuvchi rassomchilik uslubiga murojaat qilish uchun magik realizmdan foydalangan. Frants Roh magik realizmning aniq detallari, silliq fotografik ravshanligi va ratsional dunyoning "sehrli" tabiati tasvirini aniqladi; u odamlarning g'ayrioddiy ekanligini va bizning zamonaviy texnologik muhitimizni aks ettirdi. U, shuningdek, magik realizmning moddiy ob'ektga qaratilishi va narsalarning haqiqiy mavjudligi tufayli syurrealizm bilan bog'liq, lekin undan farq qiladi deb hisoblagan. Syurrealizmning ko'proq mavhum, psixologik va ongsiz haqiqatdan farqli dunyo.

Frants Rohning magik realizmi Ispan Amerikada (Hispanic America) yozuvchilarga ham ta'sir qildi va 1927 yilda "realismo magico" sifatida tarjima qilindi. Bontempelli bilan tanish bo'lgan venesuelalik yozuvchi Arturo Uslar-Pietri 1930-40-yillarda biz qanday yashayotganimiz sir va haqiqatiga qaratilgan ta'sirchan magik-realistik qisqa hikoyalar yozgan. 1948 yilda Ispaniy Amerikada realismo magiko atamasini birinchi bo'lib qabul qilganlar. Meksikalik yozuvchi Elena Garro E.T.A.Xoffmanning asarlarini tasvirlash uchun xuddi shu atamani ishlatgan, lekin o'z asarini janrning bir qismi sifatida rad etganligi haqida dalillar mavjud. Frants Rohning magik realizmini zerikarli da'vo sifatida rad etgan frantsuz-rus kubalik yozuvchi Alexo Karpentier 1949 yilda o'zining "lo real maravilloso" ("ajoyib realizm") kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Meggi Enn Bavers yozishicha: Turli madaniyatlar muhitida "haqiqatga pragmatik, amaliy va aniq yondashish va sehr va xurofotni qabul qilishning qarama-qarshi ko'rinishidir". Magik realizm keyinchalik 1940 va 1950 yillarda boshqa rassomlar qatorida Ivan Olbrayt, Piter Blum, Pol Kadmus, Grey Foy, Jorj Tuker va Venada tug'ilgan Genri Koerner kabi amerikalik rassomlar tomonidan g'ayrioddiy realizmni tasvirlash uchun ishlatilgan. Biroq, adabiyotda qo'llanilishidan farqli o'laroq, magik realistik san'at ko'pincha ochiq-oydin fantastik yoki magik tarkibni o'z ichiga olmaydi, aksincha, u dunyoviy narsalarga giperrealistik va ko'pincha sirli ob'ektiv orqali qaraydi.

Adabiy magik realizm Lotin Amerikasida paydo bo'lgan. Yozuvchilar ko'pincha o'z vatanlari va Parij yoki Berlin kabi Evropa madaniy markazlari o'rtasida sayohat qilishgan va o'sha davrdagi san'at harakati ta'sirida bo'lgan. Masalan, kubalik yozuvchi Alexo Karpentier va venesuelalik Arturo Uslar-Pyetri 1920-1930-yillarda Parijda bo'lganlarida syurrealizm kabi Yevropa adabiy oqimlaridan kuchli ta'sir oladilar. Rassomlik va adabiy magik realizmni bog'lagan muhim voqealardan biri 1927 yilda yirik adabiyot arbobi Xose Ortega Gasset boshchiligidagi Ispaniyaning Revista de Oksidente nashriyotida Frants Roh kitobining ispan tiliga tarjimasi va nashr etilishi bo'ldi. "Bir yil ichida Magik realizm Buenos-Ayres adabiy doiralarida yevropalik mualliflar nasriga tatbiq etilmoqda." Xorxe Luis Borxes boshqa Lotin Amerikasi yozuvchilarini, magik realizmning rivojlanishi uchun, o'zining ijodi orqali ilhomlantirdi va rag'batlantirdi. Birinchi magik realistik nashr, Historia universal de la Infamia deb nomlanib 1935 yilda nashr etildi. 1940—1950-yillarda Lotin Amerikasida magik realizm o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, taniqli yozuvchilar asosan Argentinada paydo bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Yigirmanchi asrning mashhur fantastik romanlari noma'lum qo'rquv bilan bog'liq bo'lmagan g'ayritabiiylik tushunchasini kiritdi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan keyingina fantastik hikoya janri paydo bo'ldi va badiiy adabiyot tanqidiy muvaffaqiyatga erisha boshladi. Adabiy janr sifatida qabul qilindi. Brayan Stablefort uning ichida Fantaziya adabiyotining A dan Z gacha kirish qismida shunday tushuntiriladi: "Fantaziya" adabiy janr sifatidagi tushunchasi shunday. 1969 yilgacha adabiy asarlarga nisbatan "fantaziya" ta'rifi odatda faqat xilma-xillikka nisbatan qo'llanilgan. Bolalar fantastikasi, shundan kelib chiqadiki, xayolparastlik va ahmoqligi kattalar e'tibor bermas narsadir." Fantastik hikoyalar hurmat qilina boshlaganligi va 20-asr o'rtalarida o'ziga xos adabiy janr sifatida qabul qilinganligini ham ta'xis etilishi bilan tasdiqlash mumkin. Fantastik hikoya uchun uchta eng nufuzli mukofotlar: "Hugo", "Nebula" va "World Fantasy Awards". 1953, 1966 va 1975 yildan beri taqdim etilgan.

Sehrli realizm xayoliy romanlardan ajralib turadi, chunki u sehrli yoki sehrni saqlashga harakat qilmaydi. Biz yashayotgan oddiy dunyodan g'ayritabiiy ajralmagan va boshqa muhitni yaratmaydi. Shunda savol tug'iladi: Bir asar ham fantaziya ham magik realizmga xos bo'lishi mumkinmi? J.K.Roulingning Harri Potter nomli ko'p qismli asari qaysi janrga mansub? Ayrim manbalarda Harri

Potter fantaziya janrida yozilgan deyiladi. Darhaqiqat, asardagi voqealar xayoliy olam, xayoliy shahar va xayoliy sehrgarlar maktabida bo'ladi. Ammo magik realizm xususiyatlaridan biri bo'lmish real hayotni sinchiklab tasvirlash ham J.K.Roulingning Harri Potter asarida mavjud. Biz uni magik realizm uslubida yozilgan asar deyishimiz xato bo'ladi, chunki asarning asosiy maqsadi sehr, real hayot emas. Demak, bu asar magik realizm xususiyatlariga ega fantaziya janrida xos asar desa xato bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, magik realizm bu real hayotdagi g'ayritabiiy elementlarning ishlatilishi va fantastik hikoya (fantaziya) bu fantastik olamdagi vaziyatga har ikki vaqt va joylashuvi nuqtai nazaridan turlicha munosabatda bo'lganligi sababli farq qiladi. Holbuki, fantast yozuvchilari odatda hikoyani noreal dunyoda tasvirlaydilar, magik realist yozuvchilar o'z hikoyalarini asosan real hayotni, zamonaviy dunyo va zamonni tasvirlashga bag'ishlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Strecher, Metyu C. 1999. "Magical Realism and the Search for Identity in the Fiction of Murakami Haruki". Yapon tadqiqotlari jurnali 25(2):263–98. p. 267
2. Lodge, David. *The Art of Fiction*. 1992.
3. Bowers, Maggie Ann (2004). *Magic(al) Realism*. New York: Routledge. ISBN 978-0-415-26854-7.
4. Guenther, Irene (1995). "Magic Realism, New Objectivity, and the Arts during the Weimar Republic". In Lois Parkinson Zamora; Wendy B. Faris (eds.). *Magical Realism: Theory, History, Community*. Duke University Press. pp. 33–73
5. Очилов У.С. Абдулла Қодирий ва Теодор Драйзернинг асарларида натурализм тамойиллари. Editorial board. 2022 May 17:650.
6. Sayfulloevich, Ochilov. "Naturalistic Features In Abdulla Qodiriy's "Bygone Days"." *International Journal of Progressive Sciences and Technologies* [Online], 28.2 (2021): 333-337. Web. 24 Mar. 2023
7. Очилов, У.С. "Абдулла Қодирийнинг "Обид кетмон" қиссасида колхоз мавзуси ва унинг социалистик реализм адабий методига холиги." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 155-157.
8. Ochilov, U.S. "Naturalistic images in the novel "Sister Carrie" by the American writer Theodore Dreiser." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.3 (2020): 179-183.
9. Ochilov, U. «Teodor Drayzerning „Baxti Qaro Kerri“ Asaridagi Takrorlar Tasnifi Va Ularning Matnda Bajargan Vazifasi». *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, т. 6, вып. 6, июль 2021 г.
10. Ochilov, U. «Abdulla Qodiriyning „Obid Ketmon“ Qissasi - Kollektivlashtirishni o'zgacha Talqin Qilgan Asar». *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, т. 8, вып. 8, май 2022 г.

UO'K 808.3

CHOG'ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA GEOLOGIYA SOHASIGA OID TERMINLARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

B.X.Omonov, o'qituvchi, Qo'qon DPI, Qo'qon

Annotatsiya. Ushbu maqolada chog'ishtirilayotgan tillarda geologiya sohasiga oid terminlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi hamda geologik terminologiyani rivojlantirishga hissa qo'shgan daslabki o'zbek va chet el olimlarning ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Termin, geologiya, semantik birliklar, suffiks, prefiks, leksikologik tizim, o'zlashgan terminlar, lug'atlar, glassariylar.

Аннотация. В данной статье анализируется история возникновения и развития терминов, относящихся к области геологии в смешанных языках, а также работы ранних узбекских и зарубежных ученых, внесших свой вклад в развитие геологической терминологии.

Ключевые слова: термин, геология, семантические единицы, суффикс, префикс, лексикологическая система, заимствованные термины, словари, глоссарии.

Abstract. This article analyzes the history of the emergence and development of terms related to the field of geology in mixed languages, as well as the work of early Uzbek and foreign scientists who contributed to the development of geological terminology.

Key words: term, geology, semantic edinitsy, suffix, prefix, lexicological system, borrowed terms, dictionaries, glossaries.

Kirish. Ma'lumki, terminologiya fanga bevosita bog'liq holda shakllanadi va iqtisodiyot kabi ayrim fanlar hozirgi kunda ijtimoiy sohaga oid axborotlardagi o'zgarishlar, ilgari mavjud bo'lmagan bilim sohalarining jadal rivojlanishi tufayli tub o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bu jarayonlar yangi terminologiyaning va oldingi terminlar va butun terminologik tizimlarni o'zgartirishning murakkab jarayonlarini yaratishda o'z aksini topadi. Binobarin, so'zning shakllanishi bo'yicha XX asrning 70-yillarida ishlab chiqilgan va ko'p jihatdan eskirgan nazariya so'nggi yillarda ikkinchi nafasga ega bo'ldi. Shu sababli terminlarni yaratish va shakllantirish masalasi yangitdan ko'tarilib, termin yasashdagi tendensiya va tushunchalardagi o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Geologiya sohasiga oid terminologiyaning leksik birliklari soni geologiya fani rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida olingan ma'lum ko'nikma va bilimlar massasiga proporsionaldir. Binobarin, soha bo'yicha bilimni oshirish bilan yangi so'z va terminlarga bo'lgan ehtiyoj kengayadi, bu esa, ma'lum darajada, fanning boshqa sohalaridan so'z va terminlarni o'zlashtirish yo'li bilan qoplanadi. Shuningdek, yangi so'z va terminlarni shakllantirish orqali qondiriladi. O'zbek tilidagi geologiya sohasiga oid maxsus terminologiyaning son jihatdan o'sishi hozirgi zamon o'zbek adabiy tili leksik fondining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda yuz beradi.

Asosiy qism. Geologiyaga oid terminologiyaning terminologik tizimga o'tish davri Markaziy Yevropada (XI-XII asrlardan XVI asr oxirigacha) kon terminologiyasi va ishlab chiqarishning gurkirashi davrida yuz berdi. Aynan shu davrda Yevropada nemis tilidagi kon-geologik terminlar tizimi paydo bo'lgan edi. Mazkur terminologiyaning tarqalishiga bosma nashrning joriy etilishi va Germaniyada qazib olishga oid kitoblarning nashr etilishi katta ta'sir ko'rsatdi. XIX asrda geologiya fan sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlana bordi. Shunga ko'ra, geologiya sohasiga oid terminologiya ko'paya bordi va rivojlandi. Binobarin, 1841-yilda, birinchi bo'lib, rus tilidagi "Konchilik lug'ati" nashr etildi va mazkur lug'at geologiya, metallurgiya, shuningdek, kimyo, fizika, mexanika va qurilishga oid 3,800 ga yaqin terminlarni o'z ichiga olgan edi. Shunday qilib, ushbu lug'atning nashr etilishi ortidan Rossiyada birinchi bo'lib, rus tilining alifbosi tartibidagi konchilik va geologiya sohasiga oid terminologik tizim yaratilgan[3, 254].

Respublikamizda malakali tuproqshunos mutaxassislarini tayyorlash uchun dunyo talablariga javob beradigan Yevropa, Amerika va Osiyo tuproqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy g'oyalarga asoslangan umumiy ta'limni rivojlantirishga to'g'ri keladi. Shu davrgacha tuproqshunoslik fanining asoschisi V.V. Dokuchayev va uning shogirdlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va ta'limotlarga asoslanib keldik. Dehqonchilik fani va tabiatshunoslik tarixiga oid hamda tuproq to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy Yunoniston, Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan buyuk allomalimiz - Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, al Farobiy asarlarida keltirib o'tilgan. Markaziy Osiyo tuproqlari haqidagi ma'lumotlar zardushtiylikning "Avesto", al Xusayn Narshaxiyning "Tarixi Narshahiy" va "Qobusnoma" kabi tarixiy kitoblarda bayon etilgan. Buyuk mutafakkirlarimiz hazrati Navoiy va Boburning asarlarida ham tuproq to'g'risida tafsilotlar keltirilgan.

Tablillar. O'rta asrlarning mashhur olimi Avitsenna yoki Abu Ali Ibn Sino (980-1037) asarlarida ham ilmiy terminlar ko'zga tashlanadi. Uning ijodi ilmiy termin tizimini shakllantirishning eng qimmatli manbalaridan biriga aylangan. Yirik faylasuf va shifokor Abu Ali Ibn Sino geologiyani, shuningdek tog' jinslari va rudalarning xossalari o'rgangan. Taniqli olim barcha foydali qazilmalarni to'rt guruhga ajratgan: 1) tog' jinslari va yer; 2) metallar; 3) yonuvchi yoki oltingugurtli qoldiqlar va 4) tuzlar. Aytish mumkinki, bunday yondashuv tog' jinslari va foydali qazilmalarni tasniflashga bo'lgan birinchi urinish hisoblanadi, shuningdek, yangi geologik termin tizimini yaratishga ilk urinish hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tasnif keyingi asrlarda, to XVIII asrgacha butun dunyoda qo'llanib kelingan.

Geologiyaga va fanning boshqa tarmoqlariga oid barcha kuzatishlari, tadqiqot va xulosalarini Abu Ali Ibn Sino o'zining "*Donishnoma*" deb nomlangan falsafiy risolasida umumlashtirgan[4, 176]. Aynan Abu Ali Ibn Sino o'rta asrlarning yirik olimi sifatida XI asr boshlarida turkiy tilga terminlarning salmoqli qismini kiritgan va pirovardida, o'zbek ilmiy terminologiyasi tizimining yaratila boshlanishiga katta turtki bergan, deb aytishimiz mumkin. "Bu asarning so'z boyligi va ayniqsa terminologiyasini yaratishning asosiy manbalari sifatida pahlaviy tilidan meros bo'lib qolgan va o'sha davr adabiy hamda og'zaki tilining so'z boyligi ko'plab fors tili tadqiqotchilari e'tiborini tortgan. O'zbek terminlarining asosiy massasi, ya'ni arab tilidagi terminlarning muqobillari, Abu Ali Ibn Sino tomonidan kundalik so'z birikmasi asosida terminlar yaratish va ilmiy terminologiyani rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida ma'lum bo'lgan so'zlarning ma'nosini ixtisoslashtirish yo'li bilan yaratilgan[5].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Abu Ali Ibn Sinoning turkiy tillar ilmiy-texnik terminologiyasini yaratishga bo'lgan intilishi keyinchalik fan va tilda ham izziz ketmagan. Keyingi davrlarda o'zbek va fors tillarida ijod qilgan bir nechta mualliflarning risolalarida "*Donishnoma*"da qo'llanilgan terminlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, Ibn Sino qo'llagan termin yaratish usullariga o'xshash usullar yordamida bir qator yangi terminlar yaratildi[6, 116].

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy yaqin Sharqda birinchi bo'lib koinotning geliotsentrik sistemasini taklif etgan va sayyoramizning sferik shakli haqidagi xulosani tasdiqlagan. U yer aylanasining uzunligini aniqlagan. Bu borada olimning Amudaryoning qadimgi daryobo'yi manzilgohi haqidagi tadqiqotlari juda qiziqarlidir. Bu xulosalar XIX asr Yevropa olimlarining

qarashlaridan ilmiy jihatdan ahamiyatga molikdir. Shu bilan bir qatorda, olim ushbu asarida o'z davrining mashhur foydali qazilmalari va rudalari, shuningdek, Boltiq dengizi bilan tutashgan Xitoy, Hindiston, Seylon, Vizantiya, Misr va boshqa hududlardagi bunday foydali qazilmalarning konlari haqida ishonchli ma'lumotlar bergan. Uning O'rta Osiyodagi mineral va ruda konlarining tavsifi haqidagi taxminlari juda qiziqarli va ilmiy jihatdan qimmatli hisoblanadi.

Xulosa. O'zbek tilidagi geologiya sohasiga oid terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishining ikkinchi bosqichini inqilobdan keyingi davrga bog'lash mumkin. "O'tgan asrning 20-yillarida O'rta Osiyodagi boshqa respublikalardagi kabi O'zbekistonda ham o'zbek yozuvini yangi alifboga o'tkazish uchun keng miqyosdagi harakatlar boshlangan. Dastlab, 1929-yilda yangi – lotin alifbosiga asoslangan alifbo qabul qilindi, so'ngra 1940-yilda o'zbek yozuvi kirill alifbosiga asoslangan yangi alifboga o'tkazildi va natijada, ilmiy-texnik terminlar, joy nomlari, atoqli otlarning yozilishi unifikatsiya qilindi va bu boradagi barqarorlik ta'minlandi. Bu davrda ijtimoiy tizim va xalq xo'jaligining tubdan qayta qurilishi o'zbek tilida ilmiy-texnika sohasiga oid terminologiyaning yaratilishiga olib keldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, termin yaratish jarayoni ma'lum darajada uyushmagan va tabiiy ravishdagi xususiyatga ega bo'ldi va natijada, yangi davr nashrlari, o'quv va ilmiy-adabiy nashrlar paydo bo'ldi. "Ilmiy terminologiya yaratishning uchta asosiy manbai ilgari surildi: 1) jonli o'zbek tili; 2) o'zbek tiliga mustahkam o'rnatilgan va xalq tomonidan o'zlashtirilgan arab terminologiyasi; 3) yangi terminlar yaratish uchun rus va xorijiy, jumladan, Yevropa tillari terminologiyasidan foydalanish" [6, 10].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, chog'ishtirilayotgan tillarda geologiya sohasiga oid terminlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi turlichadir. Bunga sabab sifatida ikkala tilning milliy til sifatidagi rivoji turlicha davrda yuz berganligi va siyosiy-ijtimoiy omillarni ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Суперанская, А.В. Подольская, Н.В. Васильева, Н.В. Общая терминология: вопросы теории / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. Т.Л. Канделаки: Изд.5-е. – М.: Либроком, 2009. –248 с.
2. Агрикола Г. (О месторождениях и рудниках в старое и новое время – М.: Просвещение, 1546. – 114с.
3. Денисов П.Н. О некоторых общих аспектах изучения языков науки. // Современные проблемы терминологии в науке и технике. – М.: Наука, 1969. – 254 с.
4. Абуали ибн Сино. Донишномаи Алаи («Высшая мудрость»), 1986. – С. 176.
5. Буранов М. Қорақалпоқ тилидаги географик терминларни лексик-грамматик хусусиятлари. Филол.фанлари номзоди...дис. автореф. – Т.1972.
6. Буранов Дж. Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков – Москва.: Высшая школа., 1983. –116 с.
7. Канделаки Т.Л. К вопросу о номенклатурных наименованиях // Вопросы разработки научно-технической терминологии. – Рига: "Зинатне", 1973. – С. 60-70.
8. Omonov B.X. Geologiyaga oid terminlarning lingvistik xususiyatlari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – 2021. – №10 (81). – 56 bet.

UO'K 811.161.1

SHERMUHAMMAD MUNIS IJODIDA AN'ANAVIY OBRAZLAR

S.T.Otamuratova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shermuhammad Munis ijodida keng qo'llanilgan an'anaviy obrazlarning o'ziga xos jihatlari, zohiriy va botiniy ma'nolarda qo'llash mahorati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: oshiq, ma'shuqa, raqib, ag'yor, sham, quyosh, tashbeh, tanosub, istiora, an'anaviy obraz

Аннотация. В данной статье анализируются особенности традиционных образов, широко используемых в творчестве Шермухаммада Муниса, и мастерство их использования во внешнем и внутреннем смыслах.

Ключевые слова: ошик, машука, противник, свеча, солнце, аллегория, таносуб, метафора, традиционный образ

Abstract. This article analyzes the specific aspects of the traditional images widely used in the works of Shermuhammad Munis, and the skill of using them in external and internal senses.

Keywords: oshiq, opponent, opponent, candle, sun, allegory, analogy, metaphor, traditional image

Shermuhammad Munisning ishqiy g'azallarining har birida, balki, ularning har baytida, albatta, oshiq, ma'shuq va raqib obrazlari ko'rinish beradi. Ushbu obrazlarni qo'llashda Munis mahoratini yaqqol namoyon qiluvchi baytlarini quyida tahlil qilishga harakat qildik.

Nola qilmon har nechakim yor bedod aylasa,

Ayb erur ishq ahli ma'shuq ilgidin dod aylasa [1].

Yor har qancha zulm qilsa ham nola qilmayman, ma'shuq ilgidin ishq ahli dod aylasa ayb bo'ladi. Ushbu baytda ma'shuq cheksiz zulm qiluvchi, oshiqning holiga achinmaydigan qilib tasvirlangan. Oshiq esa har qanday holatga bardosh beruvchi holda tasvirlangan, ya'ni oshiqning fikriga ko'ra ma'shuqdan qancha zulm kelsa ishq ahli bunga bardosh berishi lozim, bunday qilolmasa u ishq ahliga to'g'ri kelmaydi, ayb bo'ladi. Baytda ilohiy ishqqa ham ishora borday go'yo, chunki Allohni sevuvchi banda aslo, Uning taqdiriga qarshi chiqmaydi, chiqsa, albatta, gunoh bo'ladi. Ma'shuq – Alloh, ishq ahli – insonlar ma'nosida kelgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Rag'batim yo'q sen pari borida har dildorg'a,

Rag'bat etmak mumkin ermas sendin o'zga yorg'a. (O'sha manba, 48-bet)

Oshiq ushbu baytda hayotida ma'shuqdan boshqa hech bir parini xohlamasligini, ya'ni ma'shuqa uning hayotida yagona ekanligini, hattoki, undan boshqasini xohlash mumkin emasligi haqida fikr yuritgan. Haqiqatdan ham shoir ko'plab baytlarida ilohiy, ham majoziy ishqqa murojaat qilganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu baytda ham aynan shu ko'rinish bor. Baytning ma'nosi Alloh yagona ishora qilmoqda va albatta, ilohiy ishq ahillari uchun undan boshqasini xohlash, sevish mumkin emas. Shoir ushbu baytda "pari, dildor, yor" so'zlari orqali tanosub san'atiga murojaat qilgan.

Hur erursan yo pari yoxud malak bu husn ila,

Yo'qsa qaysi til bila deolg'amen inson sanga. (O'sha manba, 49-bet)

Yuqoridagi baytda ham "hur, pari, malak" so'zlari orqali tanosub san'atini yuzaga keltirgan shoir, baytda ma'shuqni tariflar ekan,

Arz bisyor ayladim holimni to yor oldida,

Bo'lmisham mubrim gadodek xor bisyor oldida. (O'sha manba, 51-bet)

Oshiq yor oldida qanchalik ko'p holidan arz qilgani sari, u xalq oldida mubrim, shilqim gado bo'ldi. Bu yerda ma'shuqa yana jafokor, sitamkor holidan tasvirlanmoqda. Oshiqqa e'tibor bermaydigan, uning holidan bexabar kabi ko'rsatilmoqda. Oshiq unga qancha arz qilsa ham ma'shuq buni ko'rmayabdi, xalq esa oshiqni shilqim gadoga o'xshatmoqda. Birinchi misrada "bisyor" so'zi ko'p ma'nosida, ikkinchi misrada xalq ma'nosida kelib, tajnis san'atini yuzaga keltirmoqda. Oshiqni mubrim gadoga o'xshatish orqali tashbeh san'atini o'ziga xos namunasi namoyon bo'lmoqda.

Boshni qilib xoki po, jonim etarman fido,

Noz ila bazmim aro kelsang agar sollonib. (O'sha manba, 85-bet)

Albatta, yorning bazmga kelishi yoki kelmasligi, oshiqning boshini xoki po qilishi mumtoz adabiyotda bor bo'lgan ko'rinish, ammo bu baytdagi asosiy fikr oshiqning ma'shuqaga bo'lgan ulkan ishqidadir. Yuqoridagi baytlarda ko'ryabsizki, ma'shuqa oshiqqa e'tibor qilmayabdi, unga sitam qilyabdi. Shu voqealardan keyin, agar ma'shuqa yorning bazmiga noz ila kelsa, bu oshiq uchun ulkan sovg'adir, hatto boshini xoki po qilib, jonini fido qilmoqqa ham tayyor holda tasvirlanmoqda oshiq. Ushbu ko'rinish shoirning ko'plab baytlarida uchraydi, quyidagi bayt ham bunga misol bo'la oladi.

Jilva aylab chiqsang aylarmen boshimni xoki po,

Noz ila kulbam aro kirsang berurman jon sanga. (O'sha manba, 49-bet)

Oshiq ma'shuqqa murojaat qilyabdi: agar jilva aylab chiqqaningni ko'rsam boshimni xoki po qilaman, agar kulbamga noz ila kirsang jonimni fido qilaman.

Ohkim, g'am qaydig'a bo'ldi asir,

Ko'nglim ul oy zulfig'a shaydo bo'lib. (O'sha manba, 84-bet)

Ko'nglim ul oy, ma'shuqa zulfiga shaydo bo'lib, g'am hibsga oldi, asir qildi. Bu yerda "ul oy" ma'shuqa ma'nosida kelmoqda. Oshiqning o'sha-o'sha dardli holi aks etmoqda, ma'shuqaga oshiq bo'lishi bilan, uni g'am, qayg'u, dard chulg'ab olmoqda. Ushbu baytda yorning zulfiga oshiq bo'lgan, bilamizki, zulf qora rangda bo'ladi, g'am qaydi ham qora kunlar deya ifodalaganda, go'zal va o'ziga xos o'xshatish namunasi yuzaga keladi.

Jurmim, ey gulrux, ne erdikim yuzing hijronida

Bag'rimi qon aylading, ko'zumni xunbor aylading. (O'sha manba, 105-bet)

Ey gulrux, gunohim nima ediki, yuzing hijronida bag'rimni qon qilding, ko'zimni qon yig'lovchi qilding. Majoziy ishq bo'yicha ma'shuqa oshiqqa uzoq vaqt ko'rinmagani uchun, oshiq uning hijronida bag'rini qon qilib, ko'zyosh to'kmoqda. Ilohiy ishqqa esa bu tasvir Allohning jamoliga yetishish uchun duo qilayotgan inson ko'rinishini ifodalaydi.

Chu qatl qildi meni yor komima yetdim,

Agarchi topdi g'ami dardig'a raqib iloj. (O'sha manba, 117-bet)

Yor meni qatl qilishi orqali raqibim g'amli dardlariga iloj topgan bo'lsa-da, men ham yor visoliga yetishib, o'z maqsadimga yetdim. Ya'ni bu yerda ilohiy ishq kuylangan, oshiqning maqsadi Alloh jamoliga yetish, va bu uchun qadam tashlaganligiga ishora qilinmoqda. Oshiqning qatl etilishi raqibni xursand qilgan bo'lsa-da, u oddiy, majoziy ishqqa yetishishiga hech qanday to'siq qolmagan bo'lsa-da, bu oshiqni g'am bilan o'rtanishiga sababchi bo'lolmaydi, chunki oshiq ilohiy ishq tomon ketmoqda.

Raqiblar so'ziga yorim e'tiqod aylab,

Jafo qilib manga qadrimni bilmadi hargiz. (O'sha manba, 127-bet)

Raqiblar so'ziga kirib, yorim menga jafo qildi, hech qachon qadrimni bilmadi, deya nido qilayotgan oshiq timsoli gavdalangan ushbu baytda raqib obrazi an'anaviy tarzda ifodalangan. Ya'ni ma'shuqa va oshiq o'rtasidagi yengib bo'lmas to'siq holida.

Malul o'lmish aningdek yor mendin,

Ki xushroqdur anga ag'yor mendin. (O'sha manba, 174-bet)

Ma'shuqa oshiqdan xafa shu sababdan, ma'shuqaga ag'yor yoqimli, xushroq ko'rinmoqda. Yuqoridagi baytdagi kabi, ushbu baytda ham raqib ma'shuqaga xushroq, uning so'zlariga doimo quloq soladi. Oshiqning g'amli holidan ko'ra, raqibning so'zlari unga yoqimli ko'rinadi. Oshiqni har doim qadrsiz qiladi, doimo undan xafa bo'ladi, "sham'i husni"ni unga ko'rsatmay hijron azobiga soladi.

Ag'yor ta'nasi bila majruh xotirim,

Qilmay nazora holima bir lahza yor ham. (O'sha manba, 168-bet)

Raqibim ta'na-malomatlarini tufayli o'ylarim majruh, yor ham bir lahza holimga nazar solmaydi. Ushbu baytda ham raqim oshiq yo'lga g'ov, to'siq bo'lmoqda. Ma'shuqadan ayrilishiga sabab bo'lmoqda. Ammo ma'shuqaning b holatga parvo ham qilmaydi. Oshiqning unga bo'lgan ishqini nazarga ilmaydi, hijron azobiga soladi.

La'lgun may ichsang, ey nasrin uzor, ag'yor ila,

Lola bargidek ko'ngul jomin to'la qon aylaram. (O'sha manba, 169-bet)

Ey nasrin uzor, agar ag'yor ila qizil may ichsang, lola bargidek yashnab turgan ko'ngil jomimni qonga to'ldiraman. Oshiq bu yerda ma'shuqaga murojaat qilyabdi. Agar mening holimdan xabar olmay, g'am-qayg'ularimga darmon bo'lmay, ag'yor ila birlikta, uning so'zlariga quloq solib, uni xushroq ko'rsang, menga bundan ortiq azob, dard-u alam yo'q, xuddi ko'nglim qonga to'lgan kabi demoqda.

Sham'i husning yorutub kulbamni ravshan aylagil,

Kim ko'z ochmoq istamasmen shu'lai diydorsiz. (O'sha manba, 122-bet)

Yorug' husning ila kelib kulbamni ravshan qil, qorong'u kulbanga nur kirmaguncha uyg'onishni xohlamayman. Ushbu baytda ma'shuqa kulbaga kelishi, quyosh chiqishiga qiyos etilgan, ya'ni ertalab quyosh chiqishi bilan qorong'u kulbalarga uning nurlari tushib ravshan, yorug' qilishi bilan insonlar uyg'onadi. Sham' – quyosh, yorug'lik ramzi bo'lib ma'shuqa yuziga qiyos etiladi, oshiq ko'ngli g'am-qayg'u ichida shu qadar qorong'likka burkanganki, u ma'shuqaning yorqin va go'zal husnini ko'rishi bilan ko'ngli ravshan bo'ladi.

Baxtimizdek tiyra bo'lsa ne ajab ravshan jahon,

Sham'siz qoldi qorong'u kulbai ehzonimiz. (O'sha manba, 125-bet)

Ushbu bayt shoir hayoti bilan bog'liq bo'lsa ajab emas, chunki shoir ham oilasidan erta ayrilgan. Yuqoridagi baytda shoir yor ma'shuqadan ayrilib g'am chekayotgan oshiq ahvolini quyidagicha ifodalagan. Sham' baytda ma'shuqaning yorug' husni ma'nosida keltirilgan. Ma'shuqadan ayrilgach oshiqning g'am uyi, ya'ni kulbayi ehzoni qorong'ulikga burkandi. Ravshan jahon ham oshiqning bu baxtsizligini ko'tarolmay qayg'uga ko'milsa ne ajab, deya tasvirlanmoqda.

Baski sham'i husningdur jongudoz-u rohatso'z,

Ohkim, sola olmon orazing'a oson ko'z. (O'sha manba, 128-bet)

Bu baytda ham sham'i husni deya yorning yuzini quyoshga qiyos etilgan. Go'zal va yorqin husning ko'ngilga harorat soluvchi va rohatbaxshdir, afsuski, unga osonlikcha nazar solib bo'lmaydi, xuddi quyoshga qarab bo'lmagandek. Oshiqning yordan ayroligini ko'rsatuvchi ushbu bayt, oshiqning yorning husniga yetishmoqligi qanchalar qiyinligini ham ifoda etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Munisning an'anaviy obrazlar tasvirlangan g'azallarida botiniy va zohiriy ishqning aralash holda kelishi, qolaversa, badiiy san'atlar bilan to'yintirilgan holda namoyon bo'lishi, o'ziga xos va an'anaviy badiiy detallarni yuzaga keltirganligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. 51-bet.

2. Jumayev.N. Munis g'azaliyoti. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1991. 19-bet.

3. Iqboloy Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan", 2009

4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. Toshkent, "Fan", 1983-1985.

UO'K 81'23

ZAMONAVIY NOM-TAXALLUSLAR (NICKNAME) HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

S.Otaxonova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch
D.T.Yuldashev, f.f.d.(DSc), Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda faol iste'molda bo'lgan zamonaviy nom-taxalluslar (nicknamelar)ning yuzaga kelishi, ularning ayrim ko'rinishlari, nominatsiyasi, an'anaviy taxalluslar bilan umumiy va farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pseudonim, nikenime, antroponim, abbreviatura, proksonim stigmonim, avtonim, anagramma.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы возникновения современных прозвищ (прозвищ), которые сегодня активно используются, некоторые их формы, обозначения, общие и отличные аспекты с традиционными прозвищами.

Ключевые слова: Псевдоним, Никенейм, Антропоним, Аббревиатура, Проксоним, Стигмоним, Автоним, Анаграмма.

Abstract. This article discusses the emergence of modern nicknames(nicknames) that are in active use today, some of their forms, ways of making them, common and different aspects with traditional nicknames.

Keywords: Pseudonym, Nikenime, Anthroponym, Abbreviation, Proxonym Stigmonym, Autonym, Anagram

Bugungi globallashuv jarayoni tilning barcha sathlarida o'z ta'sirini namoyon qilmoqda. Xususan, shu kungacha antroponimlar lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan bo'lsa, ularning funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator nolisoniy omillar ham antroponimlarni integratsion shaklda o'rganish vazifasini talab qilmoqda. Ushbu maqolada antroponimlarning bevosita ko'rinishi hisoblangan taxalluslar va ularning bugungi kundagi zamonaviy ko'rinishi hisoblangan "nikename"lar haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Pseudonim (yunoncha; pseudos – yolg'on, onima – ism) – shaxs tomonidan haqiqiy ism o'rniga (tug'ilganda berilgan, rasmiy hujjatlarda qayd etilgan) jamoat faoliyatida qo'llaniladigan uydirma ism. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da taxallus lug'aviy birligiga: "Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh. k.) yoki siyosiy arbobning o'zi uchun tanlab olgan boshqa ikkinchi nomi" tarzida izoh berilgan [1]. K.S.Mochalkinaning fikricha, taxalluslar boshqa antroponimik birliklarga nisbatan kattaroq to'plamdagi funksiyalarning murakkab o'zaro ta'sirida yuzaga keladi, ya'ni maxsus ezoterik va reklama funktsiyalarini bajarishi bilan boshqa onimlar (ism, familiya, otatism)dan ajralib turadi [2]. T.Qorayev va R.Vohidovlar taxallus so'zi bir qator tarixiy lug'atlar, o'zbek va tojik tilining izohli va ikki tilli lug'atlarida, she'riyat lug'ati, adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida deyarli bir xil izohlanishini aniqlaganlar [3]. Ismailov O'sarjon Usubjonovich o'zining "Taxalluslar haqida ayrim mulohazalar" nomli maqolasida "nickname" lar haqida fikr bildirgan [4]. Sh.Nizamova "Taxalluslarning lisoniy maqomi" nomli maqolasida taxallus terminiga atroflicha to'xtalib, uning turli lug'atlarda berilgan ta'riflariga munosabat bildirgan hamda taxallus va pseudonim terminlarining umumiy va xususiy ma'nolarini izohlagan [5]. Ta'rif va leksikografik izohlarni umumlashtirib, taxallusni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Biror ijodkor (shoir, yozuvchi) va san'atkor (rassom, qo'shiqchi, hofiz, raqqosalar) yoki qisman, olim, siyosiy arboblarning asl ismi bilan birgalikda yoki ularning o'rnida qo'llanadigan, shaxsning o'zi tomonidan tanlab olingan, boshqa ikkinchi nomi".

A.V.Superanskayaning fikriga ko'ra, taxalluslar o'ziga xos nomlar turi bo'lib, ular faqat ma'lum darajada haqiqiy ism bilan bog'liq: agar obyekt o'z nomiga ega bo'lsa, unda umumiy oti ham bo'lishi kerak. Agar uning taxallusi bo'lsa, u ham haqiqiy o'ziga xos taxallusga ega bo'lishi kerak [6]. Taxalluslarning yuzaga kelishida motivatsion va nominatsion bosqichda taxallus egasining ijtimoiy mavqeyi, yoshi, millati, qiziqish sohasi, tashqi ko'rinish xususiyatlari, madaniy mansubligi, xarakter xususiyatlari, dunyoqarashi, jinsi va boshqalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Bular birgalikda va individual ravishda taxallus va uning tashuvchisi o'rtasidagi munosabatni aniqlaydi.

Vaqt o'tishi bilan har qanday tushuncha o'z sathini kengaytiradi yoki butkul yo'qolib ketishi mumkin. Taxallusni yaratishda lingvistik va ekstralingvistik jihatlar (jins, yosh, ijtimoiy mavqe, shaxsiy xususiyatlar va boshqalar) bir xil darajada muhim belgilar bo'lishi mumkin. Taxalluslarning

There is no doubt that knowing a foreign language, studying and investigating it, introduces one to a new national culture, introduces one to a great spiritual wealth that is embodied by a given language. This paper aims to perform a comparative study of the English and Uzbek somatic proverbs. To achieve this aim, the following tasks are planned: to perform an examination of the somatic proverbs of the English and Uzbek languages and demonstrate their peculiarities; to investigate their equivalence; and to investigate the semantic and structural relationship among somatic proverbs. The aim of the study is to compare English and Uzbek somatic proverbs, revealing their semantic and structural equivalence. The research methods used in the present paper are both descriptive and comparative; semantic and qualitative research, as well as logical systematization and general exceptions were included. The content of this comparative study includes English and Uzbek somatic proverbs. Their collection consists of both monolingual and bilingual proverbs dictionaries.

Proverb is a term used to describe a particular form of oral folk art. It is a wise adage that is short, figurative, grammatically and logically complete, a term with a deep meaning. Proverbs, which have a common, steady, and widely used rhythmic structure, were created on the basis of people's centuries-long learning. Proverbs describes people's life-related experiences, their reactions to the world, their personal life, their spiritual life, moral values, and positive attributes. They were preserved by the people for centuries, resulting in a simple and straightforward poetic form. In both spoken and written language, a proverb can be used in a real life.[1]

Structurally we're analyzing a conventional linguistic unit with tendencies in the direction of positive identifiable traits e.g. topic. remark and statement. Functionally, proverbs are usually conversational and spoken: and frequently through metaphor, they provide a option to a selected hassle. They may be considered as a rhetorical method for resolving a trouble through developing a metaphorical situation in which the identical kind of hassle is solved. They have a tendency to be impersonal, didactic, and from time to time humorous.

Proverbs, on the other hand, are a mirror that depicts a particular cultural background of a population in a particular region. Proverbs' origins vary from society to society due to the cultural makeup of the various ethnic groups that use them. The proverb is a century old, indicating that wisdom and perceptions were transmitted by story. Some folklorists emphasize the fact that proverbs are the result of multiple periods of knowledge and wisdom gathered and summarized in one word. Some proverbs are older than others, according to him, but they all reflect the life of a person over a period of time.

The origin of the Uzbek proverb is derived from the old trade relations that made the Uzbek people of that period get proverbs from their industries. Apart from the fact that there have been many explanations about the origin of Uzbek proverbs, no one explains the exact source, as it is as old as the language itself. However, some scholars have reached a limit in their predictions about the source of the disease. Nonetheless, it is important to understand how the Uzbek people use the technological aspects of utterances that call for thoughtful thinking. In addition, this study has yielded some promising results. It is also important to obtain detailed information on them, among which are: - through old people, - through story telling, - tracing the first historical research. The factors have provided crucial clues to the origin of Uzbek proverbs.

Somatisms in proverbs that contain a body part as a component are used in spoken language in general. Due to their complex lexical and semantic structure as well as socio-cultural differences, the translatability of these formulaic constituents is often difficult. Translators and language teachers are constantly faced with the challenge of finding possible equivalence in the intended language.[2] A great number of somatic proverbs, which were popularized by word of mouth as cultural heritage, are now considered to be universal, cultural peculiarities. The proverbs have a special status in translation. For the formulaic constituents, a different translation must be found. [3] They are not usually translated literally because of their structure and meaning. Proverbs that do not correspond in terms and meaning are often misinterpreted incorrectly. For the translation of the proverbs, it is necessary to find the equivalent in the target language. If this equivalent cannot be found, it is a good way to try the simple way of finding a word or even a phrase that conveys the meaning of the proverbs. However, it is also a fact that many dictionaries are now required to provide an accurate translation. We have analyzed the equivalents of somatic proverbs in English and Uzbek.[4]

English and Uzbek are obviously two separate languages. The results of our analysis showed that there are some similarities between somatic proverbs in English and Uzbek. In English and Uzbek, we encountered a variety of equivalents proverbs. We can see that in English and Uzbek, there are a number of common cultural and socio-cultural aspects. Here are some examples of somatic proverbs;

A long tongue is a sign of a short hand. It means that if someone speaks and promises more, he will not do anything. We have a variety of equivalents of this proverb in Uzbek: *Gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top, Gap desang qop-qop, ish desang betob, Dangasaga, ish buyursang otangdan ko'p aql o'rgatar.* Mostly bad habits are portrayed in these proverbs, such as laziness. The following proverb encourages us not to do thieving and looking after our parents. *O'g'irlik osh badanga yuqmas- yomon farzand ota-onaga boqmas.* The meaning is that stolen food isn't good for the body of a man, and a bad child does not look at his parents (care, pay attention to them). It is the equivalent of *A wise child who knows its own father*, which is the same as a proverb in English.

A closed mouth catches no flies, a closed mouth catches no flies. It's better to keep silent and not to speak more often than to say more. There is somatic word is mouth, in Uzbek equivalent instead of mouth, mostly used somatic word- *til* (tongue)[5]. *Sukutda hikmat ko'p, bulutda himmat, Til suyaksiz- til qal'a, til yomoni bir balo, Uzun tilim- uzgun tilim, qisqa tilim- tizgin tilim, Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi.*

Ikki quloqdan ko'ra, bir ko'zga ko'proq ishon. The meaning is - better to believe one eye than two ears. It is better to believe less what you hear, than what you see. Equivalent in English - *Believe not all you see nor half what you hear. Cold hearts, warm hands.* Explanation is although sometimes people's hands are cold, the heart is warm, that is we can not estimate people according to their appearance and features, some people do not express their feelings, but this is can not be the cause to consider them stony-hearted. Uzbek version is *Tashqi ko'rinish – aldamchi*

One nail drives out another. Explanation is sometimes even brothers or sisters do wrong or bad things to each other. Equivalent is *O'rtada burun bo'lmasa, Ko'z ko'zni o'yar. U ko'z bu ko'zga do'st emas.*

Of the ten fingers, some are long and some are short. The meaning is: there are a lot of people around us, they have completely different character and life style. Equivalent is *Besh qo'l barobar emas, Besh barmoq barobar emas, Bir ikki bo'lmas, bit sirkabo'lmas, Kishi bilan kishi teng bo'lmas.*

Although somatic proverbs and proverbial expressions have been collected and studied in depth, they have mainly used older and traditional materials. Very little is known about the role that certain body parts play in proverbs penned during the last century. According to "the dictionary of modern proverbs" (2012), newer merican proverbs contain many references to such somatic terms as eye, foot, hand, head, mouth, nose, and others. Quite a few of them are simple indicative sentences, but there are also many metaphorical proverbs that address modern life and its many aspects,

including the emphasis on the body, hair, beauty, and body parts. These modern proverbs, in a certain way, reflect the American society's mores and worldview.[6]

We have analyzed some of the equivalent proverbs in English and Uzbek which somatisms were involved. This is the conclusion, we can say that somatisms in proverbs describes human life and its good and bad habits. We consider Uzbek and English culture, traditions are reflected in proverbs. Most used somatic words we have faced, are head, hand, heart, leg, eyes, tongue in proverbs.

REFERENCES:

1. Mirzaev T. O'zbek xalq maqollari.-Toshkent:SHarq,2012.
2. Wakk F. On somatic phraseology in the modern Estonian language. Abstract of the thesis. dis.Cand. philol. sciences. Tartu, 1964. - P. 22.
3. Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units //International Journal on Integrated Education. Volume 3, Issue III, March, 2020. ± P.73-78.
4. Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN:2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. ± P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 ±5,599).
5. Gadoeva M.I. Expression of the somatisms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 ± 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. ±P.125-130. (JIF -7.223).
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/no-body-is-perfect-somatic-aspects-of-modern-american-proverbs>.

UO'K 811.111:316.77

BOLALARGA XOS NUTQIY AKT TURLARINING PRAGMATIK TAHLILI

(Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida)

M.J.Qurbonova, magistrant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada X.To'xtaboyev asarlaridagi bolalarning o'ziga xos so'z qo'llashi pragmatik tahlil etilgan. Bolalarga xos nutqiy akt turlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: pragmatolingvistika, nutqiy harakat, nutqiy akt, perlokutsiya, dialog, sintaktik struktura.

Аннотация. В данной статье прагматически анализируется своеобразное словоупотребление детей в произведениях Х. Тухтабоева. Изучены типы речевых актов, характерные для детей.

Ключевые слова: прагматингвистика, речевой акт, речевой акт, перлокуция, диалог, синтаксическая структура

Abstract. This article pragmatically analyzes children's unique use of words in the works of H. Tokhtaboyev. The types of speech acts specific to children have been studied.

Key words: Pragmatolinguistics, speech act, speech act, perlocution, dialogue, syntactic structure

Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunosligida ko'chma va tag ma'nolarni, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi. O'zbek tiliga bo'lgan chuqur e'tibor tilshunoslikning yangi yo'nalishlarini o'rganishga bo'lgan keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu yaratilayotgan imkoniyatlar sababini shunday ta'kidlaydilar: "Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi"– deydilar[1.189].

Lisoniy birliklarning aniq va voqeiy muloqot sharoitida qo'llanishi pragmatik tahlil obyektidir. So'zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi. Nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot konteksida mazmunga ega bo'ladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit bo'lishi darkor. Muhit o'z navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili: Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham V.Gumboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan. M.Hakimov nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnif qiladi:

- 1.Reprezentativ
- 2.Undash
- 3.Majburiyat
- 4.Eksoressiv
- 5.Deklarativ

“Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma’nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, vada berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma’nolar so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir”-deydi Sh.Safarov[7.77].

Tahlillar va natijalar. M.Qurbonova bolalarga xos nutqiy axtarlarni P.Qodirovning “Akramning sarguzashtlari” nomli hikoyalar turkumini pragmalingsvistik tahlil etadi. Masalan, quyidagi matnda bolalarga xos bo‘lgan buyruq aktining namoyon bo‘lishini tahlil qiladi:

...*Shu payt Akramning o‘rtog‘i Shavkat darvozadan boshini suqib:*

– *“Chiq, o‘ynaymiz! – dedi.*

– *Mashinalaringni opchiq!”*

Matnda ajratib ko‘rsatilgan buyruq aktida nutq egasi, yani bolaning suhbatdoshini harakatni bajarishga undash aks etgan.

Tilda perlokutsiya xabar, so‘roq aktlari orqali ham ifodalanadi. Masalan: *“Shavkat Akramdan kattaroq va kuchliroq edi. Shavkat yurgizganida avtobuscha uzoqroq yurar edi. Shavkat nuqul:*

– *Sen menday yurgizolmaysan, Sen menday yurgizolmaysan!”- deb maqtanar edi.*

Matnda “Sen menday yurgizolmaysan!” jumlasini nutq egasining bolalarga xos o‘z ishidan g‘ururlanish, maqtanish hissini aks ettiruvchi xabar akti hisoblanadi. Sintaktik takror orqali buning ifodalanishi, perlokutsiyaning ta’sir kuchini orttirgan hisoblanadi [6.97]. Nutqiy akti bilvosita ifoda etish nutqning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan;

“-Dada, shuni ham ohering! -Yo‘q, endi bas. -Dadajo-on!”

Birinchi gapda bolaning bevosita iltimosi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi gapda bilvosita, yani undalma orqali iltimosning yuzaga chiqishi namoyon bo‘ladi.

Bola nutqi o‘ziga xos hisoblanadi. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida bola nutqiga xos bo‘lgan illokutiv va perlokutiv aktlardan quyidagilar uchraydi:

1.Xabar

2.Buyruq

3.Maqtanish

4.So‘roq

Masalan, quyidagi matnda:

“Oysha!-deb qichqiraman.

-Labbay, akajon?

-Tomdan o‘tin tashlab bergin”.

Bu dialogda “bergin” fe’li orqali aslida iltimos kelstirilsa-da, birlamchi ma’no buyruqqa beriladi. Demak, ba’zan iltimosni ifodalovchi shakl ostida ham buyruq ma’nosini yuzaga chiqarish mumkin ekan.

“Orif!-deb chiqaman.

-Nima deysan?-deydi Orif uylaridan turib.

-Chiq, dars tayyorlaymiz”.

Matnda buyruq mayli turibdi, ya’ni “chiq” fe’li orqali buyruq ma’nosini ifodalagan, ammo “dars tayyorlaymiz” jumlasini buyruqqa biroz taklifni ham yuklaydi va bu bilan buyruq-taklif shakli hosil bo‘ladi.

“Bo‘lmasa seni sinab ko‘raman. Hozircha joning o‘zingda tursin. Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlanib, Hoshim degan bola so‘rasa yo‘q demagin...”

Yuqoridagi matnda ham buyruq shakli bir shaxsdan ikkinchi shaxsga qarata yuklanyapti. Buyruqqa qo‘shimcha -ginni qo‘shish orqali o‘ziga xos "buyruq-nasihat" shakli hosil bo‘lgan hisoblanadi.

“Menga qara, ana u qalpoqchalardan esdalik uchun menga ikkita berib turolmaysanmi?

-Nima qilasan bularni?

-Ikkita singlim bor, o‘shalarga sovg‘a qilib bormoqchiman.

-Yo‘q, berolmayman.

-Berasan, keyin qo‘limga pul tushganda kelib to‘lab ketaman”.

Matnda buyruq aniq berilmoqda, “berasan” fe’li inversiyaga uchrab gapda oldinga chiqqani uchun ham unga yana qo‘shimcha ma’no, ya’ni buyruq-dag‘dag‘a ma’nosi, qisqa qilib aytganda, kuchaytirilgan buyruq shakli yasalgan.

Xulosalar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bolalar nutqiy faoliyatlarida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy aktning bevosita va bilvosita turlaridan unumli foydalanadilar. Nutqiy aktning bir turidan foydalanar ekan, ba’zan kontekstda ikkinchi turini ham yuzaga

chiqaradilar. Ularning nutqida qo'llangan bilvosita nutqiy akt turlarida quyidagi ikki xil holat kuzatiladi:

- a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qolib, unga qo'shimcha ma'no yuklanadi;
- b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi biroz yo'qoladi.

X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarining tahlili jarayonida 8-14 yoshli bolalar nutqida eng ko'p maqtanish, buyruq, so'roq, xabar nutqiy aktlari namoyon bo'ladi. Demak, bola nutqida nutqiy aktlarning paydo bo'lishida jinsi, yoshi, qiziqishlari, xarakteri va temperamentiz muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б 488.
2. . Тўхтабоев Х. Сарик девни миниб. Ёш гардия, 1982. Б460.
3. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. филол. фан. докт. дисс. автореферати. – Тошкент, 2001, Б49.
4. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. -Тошкент: Академнашр, 2013.Б176.
5. Мирсаинов Г. Ўзбекистонда прагмалингвистика тараққиёти./ХФ. 2016.№3. 76-83-б.
6. Курбонова М. Болаларга хос нуткий акт турларининг прагмалингвистик таҳлили./ХФ.2016.№4.96-100-б.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, УМЭ. 2008. Б.318.

UO'K 81'33

KONTSEPT KATEGORIYANING MOHIYATI VA MAZMUNI XUSUSIDA

Sh.A.Qurbonova, doktorant, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda **tilshunoslikning yangi yo'natishlardan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik masalalari hamda ushbu yo'nalaishning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan konsept kategoriyasining mohiyati va mazmuni hamda tuzilishi xususida so'z boradi.**

Kalit so'zlar: konsept, kategoriya, psixologik, ilmiy, emotsional, maishiy, badiiy vaziyat, mantiq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы когнитивной лингвистики, являющейся одним из новых направлений языкознания, и сущность, содержание и структура понятия категории, являющегося одним из основных понятий этого направления.

Ключевые слова: концепт, категория, психологическая, научная, эмоциональная.

Abstract. This article deals with the issues of cognitive linguistics, which is one of the new directions of linguistics, and the essence, content, and structure of the concept category, which is one of the main concepts of this direction.

Key words: concept, category, psychological, scientific, emotional, domestic, artistic situation, logic.

Kontsept atamasi tilshunoslikka doir tadqiqotlarda XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshlagan xamda ilmiy iste'molga kirgan davrda uni «tushuncha» bilan tenglashtirish holatlar tez-tez kuzatilgan bo'lib [1], tilshunos olim Yu.Stepanov ushbu birliklarning o'zaro sinonimligini uqtirish bilan birga ularning noo'xshashligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, atamalar o'rtasidagi asosiy farq ularning faoliyat muhiti bilan belgilanadi: tushuncha asosan, mantiq va falsafada qo'llaniladi, kontsept esa mantiqning bir tarmog'i – matematik mantiq atamasi bo'lib, so'nggi paytlarda madaniyatshunoslik va lingvokulturologiyada ham mustahkam o'rinlashdi. «Madaniyat haqidagi fanda kontsept atamasi faqat tuzilish haqida so'z yuritilganda, madaniy mazmun mavhumlashtirilganda qo'llaniladi» [2]. Boshqacha aytganda, tushunchadan farqli o'laroq, kontsept – bu nafaqat mantiqiy belgilarni, balki psixologik, ilmiy, emotsional, maishiy, badiiy vaziyat va hodisalarnio'z ichiga qamrab olgan ma'lum madaniy ahamiyatli kechinmadir.

Axborot nazariyasi tafakkur va lisonning keshishishmaydoni bo'lib, tafakkur vositasida inson atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishadi, uning vositasida voqelik obrazlari farqlanadi, hissiyot organlari va miya tomonidan qabulqilinayotgan axborot qayta ishlanadi va amaliy faoliyatgajalb etiladi. Axborot faoliyatini ta'minlovchi ushbu jarayon maxsus belgilar qo'llanishi hamda axborotning belgilar yordamida ifodalanishi bilan boshqa tus oladi.

N.Kondakovning fikrlari yuqoridagi ta'rifga hamohangdir: «moddiy lisoniy qobiq bilan chambarchas bog'liq», «o'z voqelanishini verbal shakllanishda topadi», «so'zlarning shakllanish bazasida vujudga keladi va ulardan tashqarida mavjud emas. So'z tushuncha tashuvchisi hisoblanadi... So'z bilan o'zaro chambarchas bog'liq tushuncha unga o'xshash emas» [3].

Ayrim falsafiy lug'atlar, xususan, I.Frolova tahriri ostidagi lug'atda kontsept tushuncha ma'nolaridan birining sinonimi, ma'nodoshi sifatida berilgan va g'oyalar nomi deb talqin qilingan. «...tushuncha ushbu nomning adekvat qabul qilinish, o'zlashtirish shartidir» [4].

Kontseptni ta'riflashga yo'naltirilgan ko'plab yondashuvlarga qaramasdan, ilmiy adabiyotda uning definitsiyasi va mohiyatini tushunishga qaratilgan yagona yondashuv mavjud emas. Mazkur atamani anglashdagi qiyinchilik sababi uning tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, falsafa chegaralarida muvozanatni saqlab turgan kategoriyaning ko'psathligi, o'zida lingvistik, falsafiy sathlarni sintezlashi, turli ilmiy soha, yo'nalish va tadqiqotlarda qo'llanilayotganidir.

A.S.Kubryakova ishlarida keltirilgan va hozir eng keng tarqalgan ta'rifga asosan kontsept o'zida tushunchaning kognitiv mohiyatiga diqqatni jalb qilgan holda «inson tajribasini aks ettiruvchi ong va axborot strukturasi birligi» hamda «olamning barcha manzarasi va bilim kvanti xotirasining tezkor birligi»ni namoyon etadi [5].

O'zbek tilshunosli olimi Sh.Safarov ham yuqoridagi ta'rifga havola keltiradi [6] hamda kontseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugashini ta'kidlaydi [7].

N.V.Kryuchkovaning tadqiqotlarida esa kontsept til egasi ongida «ixchamlashgan», «muxtasar» ko'rinishdagi va «faqat diskurs darajasidagi kommunikatsiyada zohir bo'luvchi bilimlar zahirasi strukturasi»ni [8] tushuniladi. Demak, kontsept o'zining reprezentatsiyasini faqat kommunikatsiya, o'zaro munosabatlar jarayonida namoyon etuvchi mental tuzilmadir.

Mazkur kategoriyaning mukammal ta'riflaridan biri D.M.Kalishukning ishlarida taqdim etilgan. U kontseptni «madaniyat olami va shaxsiy tushunchalar olami o'rtasidagi kesishish nuqtasi», tezkor mentalbirlik; mental leksikon, kontseptual sistema va tilning bilish jarayonlarini amalga oshirish birligi» [9] deb ta'riflaydi. Kontsept strukturasi axloq, niyat, istak, maqsad, o'y, qasd, ahdkabilar qadriyatlar sistemasini tashkil etadi. Ular inson hayotining barcha jabhalarini tartibga soladi, boshqaradi, yaxshilaydi yoki aksincha.

G.V.Tokarev kontsept mazmuniy tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi turdagi kontsept o'zida butun insoniyat uchun ahamiyatli hisoblangan bilimlar majmuini ifodalaydi. Bunga yorqin misol sifatida ilmiy ijod jarayonida olimning umume'tirof etilgan tushunchalardan foydalanishini keltirish mumkin. Muallif bunday kontseptlarni universal kontseptlar deb ataydi. Ikkinchi turdagi kontseptlar o'ziga ma'lum bir belgilar (til, tarix, madaniyat, din va b.) bilan birlashtirib turuvchi lingvomadaniy jamoaga xos bo'lgan milliy o'ziga xos bilimlarni jamlaydi va ularni madaniy kontsept deb atash mumkin [10].

Keltirilgan ta'riflar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kontsept mohiyatini tushunishda ikki asosiy yondashuvni kuzatish mumkin [11]:

- 1) Olamning milliy-qadriyatli interpretatsiyasi bilan bog'liq kontsept tushunchasi;
- 2) Shaxsning kognitiv faoliyatini amalga oshirish mexanizmi bilan bog'liq kontsept tushunchasi;

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan yondashuvlar bir-birini inkor qilmaydi: kontsept universal mental tuzilma sifatida ob'ektiv borliqni bilish, qabul qilish, ob'ektivlashtirish, kategoriyalashtirish vositasi; madaniy birlik sifatida individ tomonidan jamoa (millat) tajribasini, boshqacha aytganda, milliy o'ziga xos tushunchalarni o'zlashtirish vositasidir.

Kontsept ijtimoiy-tabiiy borliqni bilish vositasi, shu bilan birga aynan ushbu bilishning milliy kontseptlar muhitida muhrlangan natijasi hamdir; obraz, tushuncha va ma'no o'rnini egallagan va ularni o'z ichiga soddalashgan ko'rinishda sintezlagan lingvomental tuzilmadir [12].

Shunday qilib, kontsept o'zida kognitiv va lingvistik, ratsional va emotsional, mavhum va konkret, universal va etnik, umummilliy va individual-shaxsiy xususiyatlarni jamlagan ko'po'lchamli kategoriya; bu «ong, til, matn va madaniyatning o'zaro munosabatdorligini tavsiflovchi hodisadir». Kontsept borliqning ma'lum bir lavhasini aks ettiruvchi va mavjud borliq ob'ektlarining nomlanishi va kategoriyalashtirilishiga muvofiq bo'lgan mental birlikka aylangan, madaniy «libos»dagi tushunchani ifodalaydi, denotatsiya, konnotatsiyava emotsionallikni qamrab oladi. Umuman, kontsept o'zida ma'lum bir til (demakki, madaniyat) egasining mental olamidagi so'zning barcha ma'nolari, tasavvurlari, assotsiatsiyalari yig'indisini mujassam etgan mohiyatini ifodalaydi, demak, madaniy qadriyatlarga ega hamdir.

Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, kontsept tavsifida yakdillik bo'lmagani bois, uning tuzilishi borasida ham yakdillik yo'q. Ayrim olimlarning taxminicha, kontsept strukturasi, chunki unga permanentlik xos; ayrimlari uchun kontsept murakkab ko'psathli qurilmadir.

Ushbu maqolada kontseptga xuddi shunday – murakkab tuzilishga ega tuzilma sifatida yondashish ustuvorlik qiladi.

Kontsept strukturasi quyidagi darajalarni o'z ichiga olgan bir qator struktur komponentlarni ajratib olish mumkin:

- 1) etimologik darajao'zida kontsept semantikasi tarixiy taraqqiyot yo'lining tavsifini, uning denotativ va konnotativ ma'nolari shakllanishini namoyon etadi;
- 2) asosiy daraja, o'zida kontseptning zamonaviy qomusiy ma'nolari majmuini namoyon qiladi;
- 3) assotsiativ-kengaytiruvchi daraja, kontsept strukturasi assotsiativ aloqalar negizida vujudga keluvchi barcha denotativ va konnotativ ma'nolari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ye.V.Vdovinaning ta'kidlashicha, sinonim va antonimlar lug'atlaridagi materiallarni tahlil qilishni nazarda tutadi.

Mazkur yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar kontsept strukturasi uch asosiy komponentni ajratadilar. Ular turlicha nomlanishlariga qaramasdan, quyidagicha birlashtiriladi [13].

1) etimologik, predmetli-obrazli qism, obrazliqism – ob'ektning bevosita moddiy va ma'naviy idrok qilinishi, ijtimoiy madaniy borliqning tadqiq etilishi jarayonida tushunchaga qo'shilgan birlamchi ma'nosi;

2) asosiy, tushunchaviy qism, axborot qismi – kontseptning hodisa, ob'ektning idrok etish natijasida shakllangan barcha belgilari, sifat va xususiyatlari yig'indisi;

3) assotsiativ-kengaytiruvchi, tushunchaviy qism, interpretatsiya qilingan maydon qismi – assotsiativ aloqalar, kontseptning sintagmatik, paradigmatik munosabatlar, milliy kontseptlar muhiti negizida til tashuvchisi ongida paydo bo'luvchi barcha belgilar.

Shunday qilib, kontseptning struktur komponentlari umumlashmasi uning mohiyati, til tashuvchisi ongidagi kontsept bilan uyg'unlashib ketgan tasavvur va ishonch-e'tiqodlarning tarixiy taraqqiyotini ifodalagan barcha bilim, tavsif va belgilari yig'indisini ifodalaydi [14].

Kontseptning yadrosiga birlamchi, hissiy qatlam, periferiyaga – o'ta mavhum, yorqin obrazlar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kontsept maydonida kontseptual belgining periferiyada joylashuvi uning kam ahamiyatli ekanligidan dalolat bermaydi biroq yadrodan uzoqlashganlik darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga kontseptning murakkab strukturasi uni batafsil, to'liq tavsiflash jarayonini qiyinlashtiradi. Chunki kontseptga nom bergan individuum ongida yuzaga kelayotgan mazmun, denotat va konnotatlarning mental ifodalanish jarayonini nazorat qilishning amalda imkoni yo'q.

Bundan tashqari, kontseptlar ko'lamli muntazam ravishda yangi kontseptual tavsif, ta'riflarning paydo bo'lishi yoki kashf qilinishi hisobiga yoki mazkur kontsept bilan ifodalangan tushunchaning individual, jamoaviy, milliy yoki global ong ta'sirida kengayib boradi. Boshqacha aytganda, modomiki, alohida shaxs yoki jamiyat yangi sifatlarni kashf qilib, ularni kontsept tomonidan ifodalangan u yoki bu hodisa yoki jarayonga qo'shimcha qilar ekan, albatta, kontsept muntazam kengayib boraveradi.

Xullas, ilmiy adabiyotlarda kontsept tushunchasi ostida o'zida milliy mentallik, tarixiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlari ta'sirida shakllangan, lingvistik va ekstralingvistik ifodasiga ega, kognitiv birlik, sxema, freymlarni birlashtirgan murakkab tuzilma anglashiladi.

Kontsept o'z mohiyatiga ko'ra murakkab tuzilma, unda bir qator komponentlar va qismlar, shu bilan birga etimologik, asosiy, assotsiativ qatorlarni ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кондаков Н. И. Логический словарь-справочник. – Москва: Наука, 1975. – С. 258.
2. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – С. 42.
3. Кондаков Н.И. Кўрсатилган манба. – Б. 456 – 457.
4. Философский словарь. Под ред. И.Т.Фроловой. – М.: Политиздат, 1991. – С. 203.
5. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – К.: ЛКИ, 2008 г. – 160 с. – С. 37.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2008, – Б. 17.
7. Сафаров Ш. Ўша ерда.
8. Крючкова Н.В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... док. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 9.
9. Калишук Д.М. Базовые концепты современного англоязычного дискурса. Концепт «демократия» // Научный вестник Волынского ун-та им. Леси Украинки. – Луцк, 2009. – С. 81.
10. Қаранг: Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалс.докт... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 23.
11. Чижова Л.Е. Специфика репрезентации концепта здоровье в речевом этикете // Известия Саратовского университета. Новая серия Филология. Журналистика. – Саратов, 2009. – С. 47.
12. Воркачёв С. Постулаты лингвоконцептологии // Антология концептов. – Волгоград, 2005. – С. 11.
13. Степанов Ю.С. Юкоридаги манба. – Б. 42-45; Филиппова М.А. Концепт «демократия» в американской лингвокультуре // Известия Волгоградского педагогического гос. ун-та, – Волгоград, 2007. – №2. – С. 18-22.

14. Крючкова Н. В. Роль референции и коммуникации в концептообразовании и исследовании концептов: на материале русского, английского, французского языков: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 2009. – С. 9.

UO'K 81-13

“YURAKNIKI BO'LSIN XOTIRAM...”

B.B.Rahimova, f.f.n., Urganch Davlat universiteti dotsenti, Xorazm

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik vakili shoir, tarjimon, publisist Matnazar Abdulhakimning shoir Ro'zimat Otayev xotirasiga bag'ishlangan “Vido” sarlavhali she'ri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shoir, xotira, bag'ishlov, she'r, zamon, umr ma'nosi, badiiyat, peyzaj, lirik tur.

Аннотация. В данной статье анализируется стихотворение «Прощание», посвященное памяти поэта Розимата Отаева поэтом, переводчиком, публицистом Матназаром Абдулхакимом, крупным представителем хорезмской литературной среды.

Ключевые слова: поэт, память, посвящение, стихотворение, время, смысл жизни, искусство, пейзаж, лирический тип.

Abstract. This article analyzes the poem entitled "Farewell" dedicated to the memory of the poet Rozimat Otayev by the poet, translator, publicist Matnazar Abdulhakim, a major representative of Khorezm literary environment.

Key words: poet, memory, dedication, poem, time, meaning of life, art, landscape, lyric type.

Zamonaviy o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, ko'pqirrali ijodkor Matnazar Abdulhakimning hayoti ham, ijodi ham ibrat namunasidir. U XX asr oxiri va XXI asr boshidagi o'zbek adabiyoti tarixiga shoir, tarjimon va adabiyotshunos-publitsist sifatida kirdi, “donishmand shoir” maqomida tanildi. Uning o'ttizdan ziyod kitoblari, original va tarjima asarlari, Sharq tafakkuri falsafasi munosabatlariga doir tahliliy bitiklari davr adabiyoti, estetikasi va badiiy publitsistikasi takomiliga muayyan hissa bo'lib qo'shiladi. Matnazar Abdulhakimning teran falsafiy-ijtimoiy qarashlari, ibratomuz hikmatli fikrlari turfa she'riy shakllarda turli miqyos va darajada aks etsa ham ularda muallifning o'ziga xos poetik nigohi, badiiy tafakkur tarovati qabarib turadi.

Shoirning istiqloq arafasi va ilk davridagi yaratgan asarlarida Inson fenomenini yuksak maqsad va ideallar mujassami sifatida talqin qilindi, hayot va shaxs tushunchalari tadrijida murakkab ijtimoiy jarayonda bashar qiyofasi ifodasi, adolat va haqiqatga mehr, razolatga nafrati, umr va inson sha'nini qadrlash, Vatan va xalqqa sadoqat tuyg'ulari ifodasiga qaratildi. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy she'riyati, turli tillardan qilgan tarjimalari, adabiy-estetik qarashlarini yaxlit mazmuni istiqloq davridagi erkin ijod qilish tamoyilining namunasi bo'lib, zamondoshlarimizni ma'nan boyitishga, ong-shuuriga ezgulik fazilatlarini chuqur singdirishga xizmat qilmoqda.

Matnazar Abdulhakim ijodida bag'ishlov, xotira she'rlar talaygina. ning “Oydinlik” (Toshkent, “Yozuvchi”, 1997) nomli kitobida o'n to'rtlikdan iborat “Vido” sarlavhali she'ri bor. U shoirning ishlab chiqarish ilg'orlari, san'atkorlar, shoirlar va pedagoglar, umuman vohamizning taniqli kishilariga bag'ishlangan she'rlaridan biri bo'lib, shoir Ro'zimat Otayev (1937-1986) xotirasiga atalgan. Muallif bag'ishlov she'rlar bahonasida o'zining odam va hayot, umr mazmuni, insoniylik haqidagi ijtimoiy-estetik qarashlarini aks ettiradi.

“Vido” Xorazmning iste'dodli ijodkori Ro'zimat Otayevning qisqa hayoti va o'ziga xos ijodi saboqlarini ifodalovchi monolog shaklida yozilgan. Shoir uning mohiyatini quyidagi baytda mujassam etgan:

Yo'qdir she'rdan bo'lak hech larzam,
Erdan-ko'kdan bo'lak hech narsam
Do'stlarimdan boshqa hech kimim,
Yerdan, ko'kdan boshqa hech narsam (46-bet).

Darhaqiqat, shoir o'z tirikligiyu borligini, umr manosini She'r, Zamon va Samo bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib yashadi va ijod etdi. Bu esa uning badiiy konsepsiyasi bo'lib, har bir asarida bevosita yoxud bilvosita ifodalanadi.

60-yillarda o'zbek she'riyatiga o'ziga xos badiiy salohiyati va teran nigohi bilan kirib kelgan Ro'zimat Otayev she'rlaridan birida shunday satrlar bor:

Hech kim bu dunyodan ketmas bedarak,
Osmon charx urib, erda chopdilar...
Shu matoh orqali oxir topdilar

Ha, ortda bir belgi qolishi kerak!

Darhaqiqat, shoir ham dunyodan bedarak ketmay, ortda uzidan birga “belgi” qoldirdi. Bu - ezgu nom, Inson va Hayotni sevish belgisi edi. Uning shoir, nosir va jurnalist sifatidagi butun ijodiy faoliyati ana shunga dalolatdir.

Ro‘zimat Otayev 1955 yildan “Xorazm haqiqati” gazetasida dastlabki she‘rlari bosildi, 1961 yildan esa Samarqand Davlat universitetini bitkazib, dastlab “Xorazm haqiqati” viloyat gazetasida, so‘ngra viloyat radio va televideniesida xizmat qila boshladi. Jurnalistika unga hayotni chuqur o‘rganish, qalamni charxlab, badiiy ijod sari chiniqib borishga imkon berdi.

Ro‘zimat Otayev inson va ijodkor sifatida ibratomuz xislatlarga ega edi. Avvalo uning o‘ta mexnatkash, sinchkov, rostguyligi shundayligicha bilinib turardi, ikkinchidan kuyinchak, adolatparvar do‘stlar yutuqlaridan quvonguvchi, ijodda esa yangi fikr aytishga intilib, o‘zining badiiy “topilma”sini izlashdan charchamasdi. Shoir, ayniqsa, 70-80-yillarda samarali ijod kildi. Bu davrda uning asarlari janr jixatdan rang-baranglashib, g‘oyaviy-badiiy mundarijasi boyib bordi, she‘rlar bilan bir qatorda qasida, doston, ocherk va qissalar maydonga keldi. Ro‘zimat Otayevning birinchi she‘rlar to‘plami “Bahorni qarshilab” nomi bilan 1968 yil chop etildi. To‘plamga kirgan she‘rlar shoirning o‘ziga xos iqtidoridan darak bo‘lib, uning badiiy didi, poetik ma‘no topish va ta’sirchan ifodalash salohiyatini kursatdi. Shoir milliy og‘zaki va yozma adabiy an‘analardan hamda zamonaviy ustoz ijodkorlar tajribasidan ilhom va rag‘bat olgan holda narsa va hodisalar haqida o‘zicha kuylashga, boshqalarga o‘xshamaslikka intildi, an‘anaviy ifoda, tashbeh va obrazlarning yangi qirralarini kashf etishga harakat qildi. Chunonchi, chanoqdagi oppoq paxtani “oq non”ga, paxtaning besh chanog‘ini “besh qita”ga, Xivaning har bir tarixiy obidasini “yuz asrlilik shox kitob”ga, serma‘no va go‘zal ona tilimiz shirinligini “g‘ich sharbatga to‘la bir bosh uzum”ga qiyoslash orqali betakror va original ifodalar yarata oldi.

Ro‘zimat Otayev ijodi davr bilan hamnafas bo‘lib, unda quruq va‘zxonlik, bayonchilik emas, voqelikka teran munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, hayotiy go‘zallikni baralla kuylashga moyillik ustuvor edi. SHoirning “Mening bog‘im”(1975), “Yurakdagi Vatan”(1978) to‘plamlaridagi she‘rlar muallifning ijodiy kamolot sari yangi qadami va qiziqish doirasining tobora kengayib borayotganiga guvohlik bo‘ldi. Ularda tabiat tasviridan tortib, farzand quvonchi-yu, sevmoq-sevilmoq kechinmalari, odob-axloq ziynati, ezgulik sharofati, yovuzlik kasofati kabi masalalar qalamga olindi.

Ona-Vatan shoir ijodining bosh mavzusi edi. U yurtning bir qarich eriyu, bir siqim tuprog‘ini, osmon o‘par gumbazlariyu, jannatmakon bog‘u-dalalarini farzandlik mehri bilan sevdi, qalb qo‘ri bilan nafis ohanglarda kuyladi. “Yuz yil yashab, bor bisotin sochib, quduq qazib, o‘zidan yaxshi nom qoldirgan” inson haqidagi “Quduq” she‘rida yaxshilikni ulug‘lar ekan, bu ezgu ishni qadrlamaydigan kimsalar borligidan ham ko‘z yumolmadi:

Uning zilolidan ichdilar ko‘plar:

Kim bir lahza o‘ylar, kim loqayd xo‘plar.

Shoir hayotdagi ijobiy va salbiy hodisalarga sira befarq emasdi. Insonni ulug‘lovchi yaratuvchilik mexnati va yuksak odob qanchalik mehr bilan tarannum etilsa, tubanlik, g‘irromlik va jaholat shunchalik nafrat bilan fosh etilardi uning nazmida.

Shoir nafs balosiga yo‘liqib, insoniylikni yo‘qotgan shaxslarni bo‘riga qiyos etsa (“Changalzor” she‘rida), “Shitir-shitir” she‘rida do‘st qadrini, yaxshilikni bilmagan kimsalardan qattiq nafratlanadi. Soxta ahillik, yuzaki mulozimat, ikkiyuzlamachilik shoir nigohida razil hislatlardir. U samimiylik, ochiqko‘ngillik, chinakam do‘stlikni bu hislatlarga qarshi qo‘yar ekan, har bir she‘rini muayyan ibratomuz xulosa bilan yakunlashga erishadi. Quyidagi satrlar shulardan namuna bo‘lib, ikki ulfatning uchrashuvi orqali kishilarga azaliy do‘stlikni bir umr saqlash zarurligini uqtiradi:

Eslashlar.. .Fakat duch kelishgani chog‘,

Oxir topishdik deb bo‘lishadi shod.

Uchrashganda ular juda ham yaqin

Yo‘llar ayrilganda yana etti yot.

Xorazmning uzoq va yaqin o‘tmishi haqidagi asarlar Vatan mavzusining tarkibiy qismi bo‘lib, shoir ijodiy takomilida yangi bosqichni boshlab berdi. Etmishinchi yillarning ikkinchi yarmida boshlangan bu bosqichda “Xorazm”, “Yurakdagi Vatan”, “Asrlardan kelgan nur” kabi dostonlari va qator nasriy asarlari yaratildi. “Xorazm dostonida” jahonga mashhur bu qadim zaminning bir qirrasini - ilm-fan, madaniyat sohasidagi nufuzi qalamga olingan bo‘lsa, “Yurakdagi Vatan” qasidasi ona yurtga oshufta ko‘ngilning dil rozidir. Yigirma to‘qqiz bobdan iborat bu asarda Vatan ishq, xalqlar do‘stligi va birodarligi g‘oyasi ulug‘lanadi. Bunda mavzu va tashbeh an‘anaviy (Vatan - ulkan chinor, do‘stlik esa uning ildizi) bo‘lsa ham talqin yangi, ta’sirli va ishonarlidir: epik voqealar lirik kechinma va ehtirosalar bilan uyg‘unlashib, mazmun-mohiyatni ifodalashga hizmat qilgan.

Ro'zimat Otayevning 1983 yilda nashr etilgan "Asrlardan kelgan nur" kitobi muallifning jiddiy ijodiy yutug'i bo'ldi. Undagi shu nomdagi dramatik doston matematika fanining asoschisi, eldoshimiz buyuk alloma Muxammad ibn Muso al-Xorazmiyga bag'ishlangan. Doston tarixiy haqiqat bilan badiiy to'qimaning tabiiy xosilasi bo'lib, shaxs va zamon munosabatidan bahs etadi, inson ahdu zakovatini ulug'laydi.

Ro'zimat Otayevning jurnalistik faoliyatida yaratgan ocherk, badiiy lavhalari xam izziz ketmadi. Bu sohadagi tajribalari keyinchalik unga nasrda ham muvaffaqiyatli ijod qilishga imkon berdi, hikoya va kissalari "Sharq yulduzi", "Guliston" jurnallarida bosilib turdi. Ayniqsa, uning "Zumrad yaproqlar"(1964), "Katta sevgi"(1969), "So'qmoqdagi soyalar"(1972) qissalari o'zbek nasriga muayyan yutuq bo'lib qo'shildi. Bu asarlarning barchasiga xos asosiy xususiyat — inson taqdiri, uning muqaddas hilqat sifatidagi olijanobligini ulug'lash, riyokorlikni qoralashdir.

Ro'zimat Otayev Olam va Odamni madh etib, eru osmonni, ayniqsa, yulduzlarni dildan sevib yashadi, kishilarga yulduzlarday yuksaklik tilashdan charchamadi. U eng sevimli, lekin nomsiz yulduzni madh etib:

Samo yulduzlari ichra yonib jim

Shu'la sochajakdir bir umr xolis, - degan edi.

Shoirning har bir asari, nazarimizda ana shu yulduz shu'lasiday qalblarga taraluvchi faraxbaxsh ziyodir. Lekin u nomsiz emas: uning nomi - ezgulik, shoirdan qolgan belgidir.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, 70-80-yillar Xorazm adabiy muhitida yetishib, o'ziga xos salmoqli o'rin egallagan jurnalist, shoir Ro'zimat Otayev ijodi o'zbek she'riyatiga qo'shilgan munosib hissa sifatida qadrlidir. Matnazar Abdulhakim "Vido" she'rining oxirgi to'rtligida Ro'zimat Otayev tilidan quyidagi ehtirosli misralarni bitadi:

Do'stlaringa baxshida bo'ldim

Ummon edim, qolmay bir qatra.

Yuragimni tortgan oshufta

Yurakniki bo'lsin xotiram...

Xorazm elining "misralar bilan dardlashgan" zukko farzandi Ro'zimat Otayev xotirasi yuraklarda mangu yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. Toshkent, "Yozuvchi", 1997. B.46-47.
2. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent. 2017. B.68-69.
3. Hamdam Abdullayev. Mangulikka muxtasar nazar. Urganch. 2018.

UO'K:494.3

SUYIMA G'ANIYEVANING ALISHER NAVOIYNI "VAQFIYA" ASARI HAQIDAGI TADQIQOTI

*G. Rahimova, dots., O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti, Toshkent
Sh. Fayziyeva, talaba, O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti, Toshkent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada "O'zbekiston qahramoni" adabiyotshunos olima S.G'aniyevaning hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, ijtimoiy faoliyatini o'rganish uchun muhim manbalardan biri bo'lgan "Vaqfiya" asari haqidagi ilmiy izlanishlari tadqiq etilgan. Bino-barin, ushbu asar buyuk shoirning shodligi-yu quvonchi, orzu armoni, qutlug' damlari-yu hasrat-o'kinchlarining badiiy tasviridir. Shoirning boshidan kechirgan voqealar orqali insonning ruhiy olami, his-tuyg'usi, kechinmasi, qayg'u-alami, sevinch-istaklari va ma'naviy dunyosini anglashga molik masalalarning falsafiy va axloqiy jihatdan qalamga olganligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Vaqf- davlat tomonidan ajratilgan yer, poyetika, his-tuyg'u, kechinma, qayg'u-alam, sevinch-istak, davlat arbobi, insoniylik, odamgarchilik, yaxshilik, mehr-muruvvat, vafo-sadoqat.

Аннотация. В этой статье исследует «Герой Узбекистана» литературовед научные исследования С.Ганиевой о произведении "Вақфия", являющемся одним из важных источников для изучения жизни и творчества, общественной деятельности хазрата Алишера Навои. Следовательно, это произведение-художественный образ великого поэта радостью, желаний, великие моменты, памяти-печали. Через переживания поэта познается духовный мир человека, его чувства, переживания, мир печали, радости и желания, философски и нравственно запечатлеваются вопросы, достойные постижения в его духовном мире.

Ключевые слова: Вакуф - земля, выделенная государством, поэтика, чувство, переживание, горе, радость-желание, государственный деятель, человечность, доброта, милосердие, верность-преданность.

Abstract. This article examines the "Hero of Uzbekistan" literary critic S. Ganieva's scientific research on the work "Waqfiya", which is one of the important sources for studying the life and work, social activities of Hazrat Alisher Navoi. Therefore, this work is an artistic image of the great poet of joy, desires, great moments, memory-sadness. Through the experiences of the poet, the spiritual world of a person is known, his feelings, experiences, the world of sadness, joy and desire, philosophically and morally imprinted questions worthy of comprehension in his spiritual world.

Keywords: Waqf-land allocated by the state, poetics, feeling, experience, grief, joy-desire, statesman, humanity, kindness, charity loyalty-devotion.

“O‘zbekiston qahramoni” adabiyotshunos olimi Suyuma G‘aniyeva o‘tgan asrning 70-yillaridayoq hazrat Alisher Navoiy hayoti va va merosini tadqiq etish bilan shug‘ullangan. Shoirning hayoti va ijodi boyicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borgan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoim ul-muhabbat”, “Nazm ul-javohir”, “Munojot”, “Waqfiya” va boshqa bir qator asarlarining tanqidiy matnini tayyorlab, dastlab 15 tomlik, keyinchalik 20 tomlik mukammal asarlari to‘plami [1]ga nasriy bayoni bilan kiritgan. Olima Alisher Navoiy hayoti va xususan, ko‘pqirrali merosini o‘rganishda shoir va nosirning badiiy mahorati, badiiyati olamining ko‘lam va mohiyatini keng kitobxonlarga tushinarli tarzda sharhlab bergan. Olima Navoiy asarlarining nasriy bayonini talqin qilish barobarida ushbu asarlarni ilmiy jihatdan o‘rgangan va o‘zining munosabatini ham bildirgan. Xususan, Alisher Navoiyning “Waqfiya” asarini tadqiq etar ekan olimi hazratning “...ushbu asarini yaratishdan maqsadi – o‘zining davlat arbobi sifatidagi faoliyatida qanday prinsiplarga asoslanib ish tutgan, qanaqa xayrli ishlarni amalga oshirgani va vaqf qildirgan yer, bog‘-rog‘lari, mulklarini ko‘rsatib berish edi” [2], - degan fikrlarni bildiradi. Asarning tuzilishi va mundarijasi haqida so‘z yuritar ekan uning ikki qismdan iborat ekanligini birinchi qismda Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saroyiga taklif etulgungacha bo‘lgan kayfiyati, saroy xizmati paytidagi nufuzi va martabasi, Husayn Boyqaroning unga munosabati, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatini shoirning o‘z e‘tirofidan kelib chiqib tadqiq etadi.

O‘sha davrlarda navoiyshunoslikda Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga o‘z xohishi bilan qaytgan, degan fikr ustivor edi. Olima ushbu asar tadqiqida Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga Husayn Boyqaroning maxsus farmoni bilan chaqirtirib olinganligini asoslab berdi. Navoiy “Waqfiya”da yozadi: “Nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishti va xilofat borgohidin hidoyat qosidi yetishti va davlat manshurin ilgimga berdi”. Olima ushbu farmonning Navoiy tilidan nazmiy bayonini ham keltiradi va uni quyidagicha izohlaydi:

K-ey fazl jahonining sipehri.

Yo‘q, yo‘qki, o‘shul sipehr mehri.

Emdiki tarab zamoni yetti,

Davrondin alam nishoni ketti...

Olamni bizning quyosh yorutti,

Haq – markazida qaror tutti. [3]

Sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni podshohlik muhrdori lavozimiga ta‘yin etdi va amirlik unvonini ham berdi. Shundan Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati boshlandi. Keyinchalik amirlik faoliyatini bajarishga kirishib ketdi. Amirlik faoliyati ko‘pqirrali bo‘lib, mamlakat osoyishtaligi, obodonligi, ilmiy-adabiy muhitni tashkil etishga qatnashish, xayr-ehson ishlarini amalga oshirish kabi sohalarni ham qamrab olardi. Eng muhimi shundaki, bu ishlarni amalga oshirishda mamlakat podshohi ham, fuqarosi ham shoir Navoiyga ishonganlaridek, Nizomiddin Amir Alisher Navoiyga ham astoydil ishonardilar. Bu esa Alisher Navoiyga yana ko‘proq mas‘uliyat yuklar edi.

Suyima F‘aniyeva “Waqfiya”da shoir ko‘zda tutgan maqsadlarni va ular yuzasidan Navoiy foliyati qirralarini quyidagicha saralab chiqadi:

1. Sulton Husayn Boyqaro saltanati va uning obro‘cini mustahkamlashga kirishish va uni izchil amalga oshirish.

Har kimki, birov ishqiga bo‘lsa dilband.

Jon rishtasidin qilsa keraktur payvand.

Gar g‘ayr xayoli bo‘lsa ko‘ngilga pisand.

Qilmoq kerak ul ko‘ngulni yuz ming parkand.

Navoiy nazdidagi insoniylik deganda – odamgarchilikni, yaxshilikni, mehr-muruvvatni, vafosadoqatni tushunamiz. Shoir ruboiyda bironing ishonchini amalga oshirishda ko'ngilda g'araz bo'lmasligini, mobodo u xayoliga kelsa ham bu ko'ngilni vafosizlikda ayblab, uni yuz ming bo'laklarga ajratib burdalab tashlash lozimligini uqtiradi. Shuning uchun ham hazrat Navoiy o'zining halol mehnati, xush odobi, kamtarinligi, jo'shqin faoliyati, ajoyib insoniy fazilatlarini bilan kishilar o'rtasida hurmat-e'tibor qozongan. U inson degan yuksak nomni ijtimoiy va shaxsiy hayotda pokiza saqlab, unga munosib ish tutgan, kishilar taqdiri haqida qayg'urib, og'irini yengil, mushkulini oson qilishga harakat qilgan.

2. Beg'araz, shaxsiy manfaat ko'zlamay, xolis xizmat qilish.

3. Davrdagi, mamlakatdagi mavjud g'araz, hirs, razolat, yaramaslik kabi illatlarni yo'otish.

4. Zulm adolatga soya solgudek bo'lsa yoki biror nomunosib va shariatga zid voqea yuz bersa, undan ogoh qilib turish – yoxud shoh ijozati-hukmi (ya'ni shohning Navoiyga yaratib bergan imkoniyatlari)ga binoan tadbirlar ko'rish.

5. Adolatsizlik va zulmni bartaraf etish.

6. Barchaning dardi va alamini yengillatish, iltimosi va hojatini chiqarish harakatida bo'lish.

[4]

Olimaning ushbu fikrlaridan kelib chiqib, Navoiy shaxsini ma'naviyat va insonparvarlikning markaziy nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Navoiy butun umri bo'yicha insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug'lab o'tgan. Kishilar g'amida bo'lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo'lgan. Uning qabrida mana bu so'zlar bitib qo'yilgan: "Shohi g'aribon", ya'ni g'ariblar, yolg'izlar, faqirlar shohi.

"Vaqfiya"ning ikkinchi qismida Navoiyning xayrli ishlari va vaqf qildirgan mulk yerlari haqida, vaqf joylaridagi idora yoki xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin etilgan maosh, o'rnatilgan tartib-qoidalar, xayrli marosimlar, binolar ta'miri haqida so'z ketadi. Olimaning fikricha, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Vaqf qilingan yerlar va mulklar.

Urush va urushdan keyingi davrni tasvirlovchi asarlar qatoridan joy oldi. Kitobxon qalbiga yetib ulgurdi. Ota makoni bo'lgan Vatanining har bir javhalarini imkon qadar mukammal va kengroq tarzda yorqinroq tasvirlashga harakat qiladi. Asarni yozishda millat kayfiyatini badiiy yo'sinda yetkazib bermoqda. Nutqiy madaniyatini, Kiyinish madaniyatini, millatga xos bo'lgan xarakterni umuman olganda o'zbek millatining urf-odati va etnik xususiyatlariga ham ishora, ham tayangan holda bugungi kun kitobxonini millatimizning o'tmishiga bog'lab qo'ymoqda. Kitobxon badiiy asarni o'qir ekan, uning mazmun-mohiyatiga qiziqib, badiiy asar mavzusi, mazmuni, g'oyasi, shakli kabi xususiyatiga e'tibor berishi tabiiy hol. Shuningdek bevosita va bilvosita badiiy asarning davr jihati: ijtimoiy-siyosiy muhit, diniy muhit, sharoiti, voqea hodisasi, shuningdek koloritga xos xususiyatlariga razm soladi. Kolorit millatning kim ekanini ko'rsatuvchi ya'ni millat oynasidir. Kolorit asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lsa-da, ijodkorning mahorati bilan asarning badiiy va tahliliy qiymatini orttiradi. Obraz va obrazlilikni yaqqol ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Ijodkorning psixologik ruhiy kechinmalari olamning yaralishiga sabab bo'lgan "so'z" orqali aniqlanadi. Badiiy asarning milliyliги, davrga xosligi, geografik joylashuvi kabi o'rinlar aks etadi. Koloritga xos belgilardan yana muhimi bu diniy jihatlardan ham ma'lum bo'lib turadi. Badiiy asarlarda milliy koloritning aks etishi esa kitobxonning e'tiborini tortadi. Badiiy asar o'qirman kitobxon asarning yozilishida syujet o'sib borishini kuzatadi. Albatta, kiyish madaniyati, tabiat tasvirini, personajlar nutqini kuzatib badiiy asar voqeyligining tub mohiyatini anglaydi. Yozuvchi g'oyasi badiiy asar mazmuniga ko'chgan bo'lishi va so'zlarni mohirlik bilan qo'llagan san'atigina kitobxon e'tiborini zabt etadi. Badiiy asarning mohiyatini ijodkor so'z orqali ifodalaydi.

So'z har bir detali mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Shuningdek ayrim hududlarga tegishli bo'lgan so'zlar, koloritga xos jihatlari yuzaga keltiradi. Badiiy asar ta'sirchanlik darajasini orttiradi. Ana shunday ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lgan badiiy asari yozuvchini xalqqa tanitadi. Ijodkorning yozilayotgan badiiy asarga o'z atrof muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni qog'ozga tushiradi. So'zlar esa yozuvchining qurolidir. Yozuvchi asar yozilishdan oldin tarbiyaviy, geografik, tipologik va ma'naviylik jihati obdon mulohaza qiladi. Yuqoridagi aytilgan jihatlarga qarab kolorit yozuvchi tomonidan badiiy asarga singdirib boriladi. Tarbiyaviy jihatida bir millat o'zining odob-axloqi, so'zlashuv odobi, o'zini tutush madaniyati, eng asosiy diniy etiqodi kabi ko'plab umuminsoniy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Geografik ya'ni hududiy joylarning o'ziga xos bo'lgan sharoitidan kelib chiqib muhitga mos tarzda yashashadi. Yashash sharoitidan farq qilgan xalqlarning urf-odatlarini ham turli tus oladi. I.S.Axmanovning "Lingvistik atamalar lug'ati"da shunday "Kolorit badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari, personajlarning nutq xarakteristikasi sifatida ta'riflanib, ularning nutqida biron davr tilidan yoki shevalaridan olib, o'zlashtirgan tilning o'ziga xos belgilari, biron mamlakat yoki joyning tushunchalari(realiya) majmuidan iborat" [2], deya ta'kidlashda ma'no bor. Kolorit badiiy umumiy va xususiy qirralarini ochib berishi asoslidir. Personaj va epizodlar nutqi, xarakterida kolorit namoyon bo'lishi odatiy holdir. Asarda qaysi davr yoritilsa, o'sha davr nutqi(sheva), xarakter, kiyinish ma'daniyati kabilarda aniq ifodasini topadi. Anvar Suyunning "Eshmonbek" qissasida peyzaj tasvirlanishi, tili, nutqiy talaffuzi va boshqa jarayonlari goh nasr goh nazmda yozilishi xalq og'zaki ijodi bo'lgan eposga o'xshashi bilan e'tiborimizni tortadi. Shuningdek asarda koloritimizni ifodalovchi so'zlarga boy ekanligi bilan boshqa asarlardan farqlanib turadi. Tilimizda shunday so'zlar borki xalq orasida o'zlashgan so'zligi mutlaqo bilinmay ketgan. O'zlashgan so'zlar tilimizda ko'p. Bunga misol sifatida Anvar Suyunning "G'o'bdin tog' hihoyalari" asarida "keying paytlarda idorada tet-tez majlis o'tkaziladigan bo'ldi". Yana "G'o'bdin tog' hikoyalari" 85-betda Katta Ulkanovich nutqida tilidan o'zlashgan "-ich", "-vich" qo'shimchasi misolida ko'rishimiz mumkin. Demak, familiyamiz oxirida "-ich", "-vich" qo'shimchalari o'zlashganligidan dalolatdir. Albatta o'zlashgan so'zlar har qanday tilda uchraydi. Anvar Suyun asarlari xalqona yo'sinda yozilgan bo'lsa-da, birqancha kirib kelgan so'zlaridan foydalanish holati ko'p. Bunday bo'lishiga sabab shuki, o'zbek xalqi o'sha tillardan ma'lum davrlarda foydalanganidan bir qancha so'zlar o'zlashtirilib xalqimiz nutqida bugungi kunda ham uchray turadi. Hozirgi kunda iste'molda foydalanib yurgan o'zlashma so'zlar ko'p bo'lsa ham xalqimiz nutqida go'yoki, avvaldan foydalanib kelgandek tilimizda o'rin olgan. Millatimiz nutqining ajralmas qismiga aylangan o'zlashma so'zlarning muqobili yo'q tarzda ishlatilmoqda. Bu kabi so'zlar "lakuna"ligi bizga ma'lum. Tilimizga kirib kelgan "lakuna"lar "realiya"lardan farqlanib turadi. Lakunalarda foydalanish uchun boshqa sinonim uchramaydi. Realiyada esa sinonim bo'lgan so'zlardan foydalaniladi. Bugungi kunda yosh o'zbek nasrida realiya va lakunalar keng-ko'lamda foydalanilmoqda. Albatta, realiya va lakunalarni ishlatish orqali millatimiz urf-udumlarini, nutqiy madaniyatini, shuningdek asarda badiiy bo'yqadorlikni, mazmunan mukammallikni, g'oyaviy teranlikni aks ettirib kelmoqda. Shuningdek tilimizning so'z boyligi ko'payib, so'zlashuv imkoniyati ortib borishidan dalolat beradi. Bibirobiya Saidovning "Kuz yomg'iri" hikoyasida film, poyafzallar, eksponat kabi so'zlar o'zlashgan so'zlar ekanligi ko'rinib turadi.

Ana shunday saviyada yozilgan badiiy asar xalqimiz madaniyatini, ma'naviyatini ifoda etish bilan birga o'zbek millatining koloritini tasvirlaydi. Kolorit deganda faqat surat chizib, uni ranglarga bo'yash emas, ayni damda badiiy adabiyotda esa mazmunan turli xillik va boshqa bir qancha tushunchalarni qamrab oladi. Badiiy adabiyot insonning ruhiy olamini o'rganish uchun badiiy adabiyot yuksak darajadagi noyob kechinmadir. Millatlar ichki dunyosi ham turli xildir. Rus, o'zbek, fors va boshqa xalqlar adabiyoti, madaniyati, geografik muhiti, etnografik kelib chiqishi, urf-odati, xarakter xususiyati, so'zlashuv madaniyati, kiyinish madaniyatidagi turli xilliklar umumiy millatga xos tabiati bilan badiiy adabiyotda yaqqol ko'zga tashlanadi. Umume'tirof bilan aytadigan bo'lsa insoniyatning etnogenetik kelib chiqishiga razm solganda har bir xalq kelib chiqqan muhitiga moslashib, o'sha muhitning tabiati belgilab bergan yozilmagan qonuniyatlariga ixtiyoriy ravishda ifodalanadi.

Xulosa. Milliy koloritimizning umumiy qiyosiy-tipologik, biografik va ruhiy tahlil kabi usullarni samarali istifoda etishni talab qilmoqda. Dunyo adabiyotshunosligida milliy koloritning o'ziga xosligiga nisbatan alohida yondashuvlar kuzatilyapti. Jarayonda yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan milliy ruhning o'ziga xosligini chuqur va atroflicha tadqiq etish asosiy vazifa etib qo'yilishi bugungi kun uchun zarur. Darhaqiqat, milliy koloritning o'ziga xosligi muayyan davr prozasining badiiy poetik ko'lamini belgilashda alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiyotshunoslikka kirish Dilmurod Quronov
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1966. 608 с.
3. Uzbek S.O.F.E.L.O.F., Afghanistan W.C.I.N.N. Muhammad Humayun Nadim PhD student of Termez State University.
4. "Parvoz" Bibi Robiya Saidova "Adib" nashriyoti 2014 yil.
5. Nadim M. H. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnografik leksikasining tarixiy-etimologik xususiyatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 22-29.
6. Nadim M. H. Ethnocultural situation of uzbek people in Northern Afghanistan //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 6. – C. 490-492.

7. Ahmad, Amini Aziz. "The interpretation of agricultural words in "Baburnama"." Interpretation 7.12 (2021).
8. Davidov Y. J. Word formation patterns in uzbek language //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
9. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
10. Davidov Y. O'zbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalarining qiyosi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 836-839.

UO'K 808.3

QISHLOQ XO`JALIGI SOHA TERMINLARINI TARJIMA QILISHNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Sh.T.Suyarova, o'qituvchi, Toshkent Davlat Agrar Universiteti, Toshkent

Annotasiya. Maqolada qishloq xo`jaligi soha terminlarini tajima qilishning lingvomadaniy jihatlari ko`rib chiqildi. Lingvomadaniy rakursda ingliz tilidagi qishloq xo`jaligi sohaga oid tushuncha va so`zlarning o`zbek tiliga tarjimasi masalasi hozirgacha chuqur o`rganilmaganligi hamda bu borada amalga oshirilgan amaliy ishlar barmoq bilan sanarli bo`lganini hisobga olib, qishloq xo`jaligi sohaga oid tushuncha va so`zlar lingvomadaniy komponentli leksika sifatida ingliz tilidan o`zbek tiliga tarjimaning dolzarb masalasi sifatida tahlilga tortilishi lozim.

Kalit so`zlar: qishloq xo`jaligi, termin, tarjima, lingvomadaniy jihatlari, ingliz tili, tushuncha

Аннотация. В статье рассмотрены лингвокультурологические аспекты дефиниции сельскохозяйственных терминов. С лингвокультурологической точки зрения, принимая во внимание тот факт, что вопрос перевода понятий и слов, связанных с сельскохозяйственной отраслью, с английского языка на узбекский язык до сих пор досконально не изучен, а практические работы, проводимые в этой области. Учитывая немногочисленность и редкость, понятия и слова, относящиеся к словам сельскохозяйственного сектора, следует анализировать как лексику с лингвокультурологическим компонентом как актуальную проблему перевода с английского языка на узбекский.

Ключевые слова: сельское хозяйство, термин, перевод, лингвокультурологические аспекты, английский язык, концепт.

Abstract. Linguistic and cultural aspects of the definition of agricultural terms were considered in the article. From a linguistic and cultural point of view, taking into account the fact that the issue of the translation of the concepts and words related to the agricultural sector in English into Uzbek has not been thoroughly studied so far, and the practical works carried out in this regard are few and far between, the concepts and words related to the agricultural sector words should be analyzed as a lexicon with a linguistic and cultural component as an actual issue of translation from English to Uzbek.

Key words: agriculture, term, translation, linguistic and cultural aspects, English language, concept

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo`lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to`siqlar, yasalish prinsiplari va usullari xususida turfa g`oyalar, nuqtai nazarlar ko`zga tashlanadi. Terminga muayyan talablar qo`yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so`zlardan ajratib turadi.

Ingliz qishloq xo`jaligi adabiyotiga mansub asarlarida uchraydigan qishloq xo`jaligi so`z va shu sohaga oid tushunchalar tarjimasida muqobillik darajasini belgilashdan avval, ularni guruhlarga ajratish hamda tarjima tili lug`atlaridagi muqobillari bilan qiyosiy-lingvomadaniy tahlil o`tkazish hamda ushbu taqqoslash natijalariga tayangan holda nazariy va amaliy xulosalar qilish samarali usul deb hisoblaymiz.

Qishloq xo`jaligi sohasiga oid so`zlar va tushunchalar tarjimasida bilimlar hal qiluvchi rol o`ynaydi, aks holda tarjimonning analogizm va anaxronizm holatlarining yo`l qo`yish ehimoli oshadi. Bizning fikrimizcha, yorqin tarixiy yoki milliy koloritga ega qishloq xo`jaligi sohasiga oid leksik birlikni bildiruvchi qishloq xo`jaligiso`zlar tarjimasida anologizm va holatlarining ko`p uchrashi asarning tarjimadagi milliy-madaniy va tarixiy qiymatini tushuradi, shu sababli tarjima tilidagi muqobil funksional analogik qidirayotgan tarjimon albatta bu jihatlarni nazaridan chiqarmasligi lozim.

Tarjimadagi lingvomadaniy tahlil uchun leksik tabiatga ega qishloq xo`jaligi sohasiga oid leksik birliklar ahamiyatlidir: ularning bir guruhi yorqin milliy koloritga egaligi bilan transkripsiya usuli orqali tarjimada saqlanishini talab qilsa, keyingi guruh qishloq xo`jaligi sohasiga oid so`zlari

garchi alohida milliy belgiga ega emasdek ko'rinib-da, an'ana bo'yicha transkripsiya qilinuvchi qishloq xo'jaligi sohasiga oid bo'lmagan sohta so'zlar sifatida funktsional analog yoki ekvivalent bilan o'giriladi.

Qishloq xo'jaligitarjimonning asliyat tili va madaniyat egasi bilan hamkorlikda ish olib borishi, asar qiymatini saqlab qolishga beqiyos hissa bo'lib qo'shiladi.

U yoki bu lingvomadaniy jamiyatda xususiy, kasbiy muloqotning o'ziga xosligi xalq mentaliteti taqozosi tufayli shakllangan bo'lib, ushbu xususiyatlar boshqa bir lingvomadaniy jamiyat bilan qiyoslash orqali yuzaga chiqariladi. Asarlar tarjimasida milliy qishloq xo'jaligini ifodalovchi lingvomadaniy konseptlar qishloq xo'jaligi xujjat va asar badiiy qiymatini belgilovchi unsurlar sifatida qabul qilinmogi lozim.

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid termin va so'zlar tarjimasida inobatga olinishi lozim bo'lgan beshta omil tarjima muqobilligini ta'minlashga xizmat qiladi: 1) matn tabiati; 2) kontekstda qishloq xo'jaligi sohasiga oid so'zning muhimlik darajasi; 3) qishloq xo'jaligiso'zning tabiati, uning asliyat va tarjima tillari leksik tizimlaridagi o'rni; 4) tillarning so'z yasash imkoniyatlari, adabiy va lisoniy an'analari; 5) tarjima o'quvchisi.

Parafrazalon yoki tarjima usuliga murojaat qilish bevosita nutq turiga bog'liq bo'lgan holatlarda qishloq xo'jaligi sohasiga oid so'zning matnga tabiiy singishi hisobga olinadi. Dialogda qishloq xo'jaligitermin yoki so'zning tarjimasini lo'ndalikni talab qilsa bayonchilikda imkoniyatlar cheksizdir.

Tarjima matniga qishloq xo'jaligi sohasiga oid so'zni kiritishdan avval inobatga olinadigan yana bip omillardan biri shuki, perefraza usuliga murojaat qilish natijasida tarjima matni oshiqcha qishloq xo'jaligi so'zlar bilan to'lib ketmasligi kerak.

Tahlil natijalarida perefraza usuliga ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qiluvchilar, shuningdek, ikki tillilik muhitida ijod qiluvchi tarjimonlar ko'proq moyil ekanligi, aniqlandi. Ona tili o'zbek tili bo'lgan tarjimonning ishida perefraza asosan kontekst ichida tushuntirish, funktsional ekvivalent, tushirib qoldirish singari usullarga murojaat qilgani kuzatilgan. Bilvosita tarjima (rus tilidan amalga oshirilgan) ingliz tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid so'zlarning tushunarsiz assotsiatsiyasini keltirib chiqargan. Shu sababli bevosita tarjimaning ustunliklariga yana bir bor urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid termin va so'zlarning ko'chma manoda ishlatilishi tarjimada perefrazalash yoki semantizatsiyadan voz kechishni taqozo etadi. Bunda umumlashtiruvchi tarjima yoki tarjima tilidagi uslubiy rangbarangligi teng bo'lgan funktsional ekvivalentdan foydalangan maqbul, shunda tarjimaning pragmatik maqsadi amalga oshgan hisoblanadi.

Lingvokulturologik adabiyotlarni kompleks tahlil etishda biz shuni aniqladikki, hozirgi lingvistikada konseptlar tahliliga nisbatan turlicha yondashuvlar, ularni bayon qilishning har xil usullari amal qiladi. Konseptlarni o'rganish uchun konsept nomi semantikasining komponentli tahlili; konseptni verballashtiradigan leksik paradigmalarni tahlili; paremiyalar, hikmatli so'zlar til frazeologizmlari tadqiqi; konseptni ob'ektivlashtiradigan badiiy matnlar tahlili; psixolingvistik eksperiment; tadqiq etiladigan konseptning nominativ maydonini ko'rish; assotsiativ eksperiment kabi aniq tadqiqotchilik rusumlari qo'llanildi.

Asosiy so'zning semali aktivini aniqlash. Konseptning turli izohli lug'atlardagi leksik reprezentatsiyasining talqinlari tahlil etiladi, uning hamma ma'nolari aniqlanadi, shuningdek har xil matnlardan lug'atlardagi talqinlarni kengaytirishga imkon beradigan misollar keltiriladi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda biz so'zning semantik va konseptual tahlili o'rtasida aniq chegara o'tkazishni zarur, deb hisobladik.

Ularning o'zaro chambarchas bog'liqligiga qaramasdan pirovard maqsadlar aynan bir xil bo'lmaydi. "Leksik semantika va konseptual tahlilining mazmuniy vazifalari va maqsadlari bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa-da, lekin muayyan ma'noda qarama-qarshi bo'lib, bir-birini aks ettiradi, chunki vazifalar til shakli birligi (leksema)dan semantik mazmunga, maqsadlar esa ma'no - tushuncha, obraz, konsept birligidan ifodalashning tildagi shakllariga tomon boradi. Har ikkala yo'nalish ham so'zning barcha mavjud odatlarini va bir ma'noni ifodalashning hamma usullarini hisobga olishga harakat qiladi".

Shunday qilib, konseptual tahlil ma'nosi lingvistik nuqtai nazardan olganda asosiy so'z konsept – ortasidagi til ma'lumotlari, ya'ni tildagi ifodalarning ishlatilishi bo'yicha tushunchalarning qurilishini anglatadi. Bunda natija tevarak-atrofdagi olamning "sodda", tabiiy tushunchasini aks ettirishi lozim. Masalan: yassi uchburchak qalin tekis, past, baland, foydali, zararli, vaqt makon, ish harakat, holat, yo'l, iz, nuqta kabi semantik va konseptual-primitivlardan foydalanish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmanova O.S. Linguistic terminology. Linguistic encyclopedic dictionary. / M., 1990. - S. 509. 2.

2. Suyarova S. T., Ashirmatova M. J. The process of teaching students to foreign languages at agrarian university //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 683-685. 2.
3. U.M.Bazarova, M.J.Ashirmatova, R.K.Alibekova (2022) The content and pedagogical conditions of moral and aesthetic education of the younger generation. // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN: 13085581 Vol 14, Issue 03. 3.
4. Ashirmatova M. J. Terminology at agrarian university in Russian language //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – С. 350-352.
5. Yakhoeva G. Retrospective analysis of the development of student's creative activity in education and cognitive activity //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 92-94.
6. Y.G.Bakhtiyorovna Relationship of student activity with creative development in German language lessons - Thematics Journal of Social Sciences, 2021

UO'K 811

O'ZBEK VA XITOIY TILIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O'RNI

O.Tilovov, o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand
G.Isoqulova, talaba, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologizmning nutqdagi semantik tahlili hamda, o'zbek va xitoy tillaridagi frazeologik birliklar aniqlandi va ularning grammatik, semantik - struktur jihatdan tahlili ko'rib chiqildi. Tillarda frazeologik iboralarning o'rni bo'yicha munozara yuritildi. Birliklarning frazeologik va grammatik ma'nolari o'rganildi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, 成语 - ibora, 谚语 - maqol, 俗语 - matal 熟语 - termin, frazeologik birlik, tayyor so'z, aforizm.

Аннотация. В данной статье выявлен семантический анализ фразеологии в речи и фразеологических единиц в узбекском и китайском языках и рассмотрен их грамматический, семантико-структурный анализ. Обсуждалась роль фразеологических выражений в языках. Были изучены фразеологические и грамматические значения единиц.

Ключевые слова: фразеология, 成语 - фразеология, 谚语-поговорка, 俗语 - пословица, поговорка, народное изречение, 熟语 -термин, фразеологизм, готовое слово, афоризм.

Abstract. In this article, the semantic analysis of phraseologism in speech and phraseological units in the Uzbek and Chinese languages were identified and their grammatical, semantic-structural analysis was considered. The role of phraseological expressions in languages was discussed. Phraseological and grammatical meanings of units were studied.

Key words: phraseology, 成语 - phrase, 谚语- proverb, 俗语- common saying, proverb, 熟语 - term, phraseological unit, ready word, aphorism.

Kirish. Har bir tilning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, so'z-tilning asosiy manbalaridan biri. Ammo, nutqning qay darajada boy ekanligini undagi muhim qatlam turg'un birikmalar-frazeologizmlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Tilning lug'at boyligidagi so'zlar bilan frazeologik birliklarni solishtirganda esa, nutq jarayonida ifodaviylik xususiyati sezilarli darajada o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Kundalik hayotimizda frazeologik iboralardan foydalanish tinglovchiga aniq, ravon, eng asosiysi ta'sirli darajada yetkazib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so'zdan, ya'ni "phraseos"- ifoda va "logos"-so'zlardan tashkil topgan.

Frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo'lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtai nazarlardan o'rganadi.

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir biriga tobe bo'lgan (ya'ni erkin bo'lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so'zlarni bir-biriga qo'shish yo'li bilan tuzilmaydigan til leksikonida tayyor holda kirib kelgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror ma'noga ega bo'lgan ma'lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushiniladi. [3: 124] Ayni chog'da, frazeologik birliklar semantikasiga ko'ra o'ta murakkab bo'lib, lingvistikada har tomonlama o'rganish talab etiladi. Ular bir tomondan, til birligi sifatida muayyan bir tushunchani ifodalab bir nechta leksemalarga teng kelsa, ikkinchi tomondan, ularning ifoda va mazmun munosabatida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Darhaqiqat tilning leksik sathi dunyo bilimlari haqidagi barcha tarmoqlarni qamrasa, frazeologizmlar esa kishilar o'rtasidagi munosabatlar, insoniyat ruhiyati, ijtimoiy-etnik baholar hamda ma'lum bir davrning so'zlashuv madaniyati darajasini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar: Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bolish, kishilarning xilma-xil xarakter-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalidir.[2]

Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir. Frazeologik ibora tushunchasini ilmiy asoslaydigan bo'lsak, ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga iboralar deyiladi. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik birlik bo'lib, so'z kabi lug'aviy ma'no anglatadi. Iboralar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgani bois qo'shma so'z va so'z birikmalariga o'xshaydi lekin ular ko'chma manoga ega ekani, tasirchanligi bilan qo'shma so'zlardan farq qiladi. Barqarorligi nutqda tayyor holda olib kirilishi bilan so'z birikmasi va qo'shma so'zdan farq qiladi.

Masalan:

Ibora: Tega sochi tikka bo'lmoq - achchiqlanmoq Og'zini tanobi qochmoq-sevinmoq. So'z birikmalari: uzun sochli, uyga ketmoq. Qo'shma so'z: To'ytepa, laylakqor.

Yuqoridagi misollarga nazar soladigan bo'lsak, frazeologik ibora, qo'shma so'z va so'z birikmalarning farqini anglashimiz mumkin. Frazeologizmlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi. Frazeologik omonimlar ya'ni turli ma'no ifodalovchi shakldosh iboralar kiradi. Og'ziga olmadi- yemadi, og'ziga olmadi - gapirmadi.

Frazeologik sinonimlarga ma'nodosh lekin shakli boshqa iboralar kiradi. Boyi bir qarich o'smoq - boyi ko'kka yetmoq, qovog'idan qor yog'moq - fig'oni falak bo'ldi.

Frazeologik antonimlar - o'zaro qarama - qarshi ma'no ifodalovchi iboralar kiradi. jag'i ochilmoq- mum tishlamoq.

Paronim iboralar ham mavjud bo'lib, yuragi tars yorilib ketayozdi - "sabr chidami tugadi" ma'nosida. Yuragi qoq yorilayozdi - "sevinganidan qattiq hayajonlanmoq".

O'zbek tilida mavjud bo'lganidek xitoy tilida ham barqaror birikmalar mavjud bo'lib ular asosan uch guruhga bo'linadi: 谚语 maqol, 俗语 matal va 成语 iboralar.

Xitoy tili ana shu birliklarga boy til bo'lib uning butun bir go'zalligini ifoda etishga yordam beradi. E'tirof etish kerakki, xitoy tilshunosligida frazeologiya hali-hanuz alohida soha sifatida o'rganilmay kelmoqda. Chunonchi, Guo Xin Yining yozishiga ko'ra, xitoy tilshunosligida frazeologiya hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratilmagan hamda leksikologiyaning bu bo'limi hali maxsus nomga ham ega emas.

P. P. Vetrovning e'tiroficha, xitoy tilshunoslarining frazeologiyaga bag'ishlangan ishlarida (XX asrning 50-60 yillaridagi tadqiqotlar ko'zda tutilmoqda) turli ma'nolarda tushunish mumkin bo'lgan chengyu 成语 (ibora) termini qo'llanila boshlandi. Bu termin, asosan, quyidagi ma'nolarda ishlatilgan:

1) keng ma'noda-to'rtta komponentdan iborat bo'lgan turg'un birikmalar, maqollar, aforizmlar;

2) tor ma'noda-faqat frazeologik birliklarni bildiradi. Ammo boshqa xitoy tilshunoslari keng ma'nodagi "frazeologiya" yoki "frazeologik birlik" tushunchasi uchun shuyu 熟语 terminini qo'llaydilar. Bunda "shu"熟- komponenti "tayyor" yoki "tanish" ma'nosini ifoda etsa, "yu"语- esa "jumla, so'z" ma'nosiga ega. Natijada "shuyu" 熟语 terminini fanda "tayyor jumla", "tayyor so'z" ma'nosida ibora mavqeiga erishadi. Quyida bir nechta iboraning o'zbek tilidagi mos tarjimasini va ma'nolarini ko'rib ko'rib chiqamiz:

• 半途而废 – bàn tú ér fèi- yarim yo'lda tashlab ketish, taslim bo'lish;

Misol: 普京: 做事不喜欢半途而废因此打算竞选总统。

pǔjīng: zuò shì bù xǐhuān bàn tú ér fèi yīncǐ dǎsuàn jìngxǔǎn zǒngtǒng.

Putin: Men ishni yarmida qilishni yoqtirmayman, shuning uchun men prezidentlikka nomzod bo'lishini rejalashtiryapman.

• 半真半假 - bàn zhēn bàn jiǎ- yarim rost, yarmi yolg'on

Misol: 我跟他半真半假地说, 以后我给你写一本书。

Wǒ gēn tā bàn zhēn bàn jiǎ de shuō, yǐ hòu wǒ gěi nǐ xiě yī běn shū.

Men u bilan yarim yolg'on yarim chin gapirib, keyinchalik senga bir kitob yozib beraman deb aytdim.

• 见多识广 - jiànduōshíguǎng- Ko'p ko'rgan ko'p narsani biladi, bir so'z bilan aytganda tajribali.

Misol: 如今的学员见多识广, 传统的兴趣小组已经满足不了他们的需求。

Rújīn de xuéyuán jiànduōshíguǎng, chuántǒng de xìngqù xiǎozǔ yǐjīng mǎnzú bù liǎo tāmen de xūqiú.

Bugungi talabalar ma'lumotlarga ega lekin an'anaviy qiziqishlari kam. Ularning talablariga javob berishmayпти.

• 九牛一毛-jiǔniúyīmáo- bir tomchi, asosan dengizdan bir tomchi, tabiatdan bir tomchi kabi holatda ishlatiladi.

Misol: 对拥有 20 多辆私藏跑车的郭富城来说, 自然是九牛一毛。[4]

Duì yōngyǒu 20 duō liàng sīcáng pǎochē de guōfùchéng
láishuō, zìrán shì jiǔniúyīmáo.

20 dan ortiq xususiy sport avtomobillariga ega bo'lgan Aaron Kvok uchun bu, tabiiyki, dengizdan bir tomchi.

• 落叶归根-luòyèguīgēn-Tushgan barglar ildizlariga qaytadi, o'z Vataniga qaytadi ma'nosida qo'llanadi. Hamda, boshqa joylarda yashovchi, oxir-oqibat o'z shaharlariga qaytib keladigan odamlarga ishora qiladi.

Misol: 你哥哥的身体一天不如一天, 最后知道快要不行了, 让他落叶归根。[4]

Nǐ gēge de shēntǐ yìtiān bùrú yìtiān, zuìhòu zhīdào kuàiyào bùxíng le,
ràng tā luòyèguīgēn.

Akangizning sog'lig'i kundan-kunga yomonlashib boryapti, u o'lish arafasida, ildizlariga qaytsin. (O'z ona vataniga ma'nosida kelyapti.)

Xulosa. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birikmalari tashkil qiladi. Fe'l frazeologik birikmalarning leksik tarkibida fe'l so'z komponentlaridan tashqari boshqa turkum so'zi ham qatnashishi mumkin. Xitoy ilm-fanida xitoy tili frazeologik fondi hajmini anglab yetish va frazeologik birliklar guruhlaridagi taksonomik bo'limlarning asoslarini tushunish ancha mushkul ekanligi namoyon bo'ldi. Iboralar va ularning mohiyati hamda xususiyatida xitoy tilidagi frazeologiyalarning o'zbek tiliga tarjima qilishdagi masala va muammolar bor. Bu muammolarni yechishda ilk XX asr 50-60 yillardagi harakatlar o'z natijasini bermoqda va hozirgi kundagi izlanishlar orqali frazeologik birliklarning nutqda qo'llanilishining yashirin qirralari ochilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «现代汉语词典», 上海: 汉语大词典出版社 1997 年. Hozirgi xitoy tili lug'ati. – Shanhay: Xitoy tili katta lug'atlar nashriyoti, 1997. B. -1767.

2. 王堃, 马国凡 «汉语的成语词典», - 济南, 1995 年. Wang Jin, Ma Guo fan. Xitoy tili "chengyu" – iboralari tematik lug'ati. – Jinan, 1995.

3. Tilshunoslik M.T.Irisqulov, Toshkent "Yangi asr avlodi"2009
263bet

4.50-Essential-Chengyu-Chinese-Idioms-Made-Simple publication: Fluent U p:107

5. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Toshkent-1978

6. www.ziyonet.uz

7. www.baidu.com

UO'K 811.81.33

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZELOGIYASIDA "SEVGI" KONSEPTINING KONTRASTIV TADQIQI

Sh.A.To'xtasinova, magistrant, Andijon Davlat Chet tillari Instituti, Andijon

Annotasiya. Ushbu tadqiqot qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida "Sevgi" konseptining frazeologik birliklarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillar o'rtasida "Sevgi" komponenti bilan o'xshash va farqli tomonlari misollar kesimida bayon etilgan, izohlangan, xulosa qismida puxta takliflar berilgan. Mavzuning mohiyatini yanada chuqur o'rganish, uning ustida keng masshtabda izlanish olib borilishi kerakligiga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: konsept, frazeologiya, komponent, antropotsentrik, leksema, sevgi, semantik, nominatsiya, psixosomatik, his-tuyg'u.

Аннотация. Данное исследование посвящено сравнительному анализу фразеологизмов концепта «Любовь» в неродственных английском и узбекском языках. Также сходства и различия между сравниваемыми языками с компонентом «Любовь» описаны и объяснены в разделе примеров, а подробные предложения даны в разделе заключения. Выражено, что более глубокое изучение сути темы должно быть проведено в больших масштабах.

Ключевые слова: концепт, фразеологизм, компонент, антропоцентризм, лексема, любовь, семантика, номинация, психосоматика, эмоция.

Abstract. This study is devoted to the comparative analysis of the phraseological units of the concept of "Love" in the unrelated English and Uzbek languages. Also, the similarities and differences between the compared languages with the "Love" component are described and explained in the examples section, and detailed suggestions are given in the conclusion section. It was felt that a deeper study of the essence of the topic should be carried out on a large scale.

Keywords: concept, phraseological, component, anthropocentric, lexeme, love, semantic, nomination, psychosomatic, emotion.

Zamonaviy tilshunoslikda ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasini qiyosiy o'rganish ushbu tillar frazeologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish, tillararo frazeologik birliklarning mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Frazeologiya tilshunoslikning keyingi rivojlanishida jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Keyingi yillarda ikki til yoki tillar guruhini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab monografiyalar yaratildi. Ular frazeologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga, turli tizimlardagi tillarning frazeologiyasini tahlil qilishga, tuzilishi va vazifasi bir xil bo'lgan frazeologik birliklar, turg'un tuzilishga ega frazeologik birliklar va turli modeldagi frazeologik birliklarga bag'ishlangan.

Tadqiqotimiz dunyoning ingliz va o'zbek tillaridagi "Sevgi" konseptining frazeologik birliklarini taqqoslashga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kognitiv tilshunoslikning zamonaviy bosqichi insonning ichki dunyosiga e'tibor qaratadigan antropotsentriklik bilan ajralib turadi. Binobarin, muhabbat tuyg'usi inson ichki dunyosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tilshunoslarni, shubhasiz, qiziqtiradi.

"Konsept" termini birinchi marta rus lingvistikasida 1928 yilda S.N.Askol'dovning "Konsept i slovo" maqolasida qayd etiladi. Tadqiqotchining fikricha "tafakkur jarayonida bir xil turdagi ob'ektlar, harakatlar, aqliy funksiyalarning noaniq to'plamini almashtiradigan ruhiy shakllanish" konseptni ifodalaydi [2, 268]. Ushbu ta'bir konseptga yangi yondashuvlar paydo bo'lguniga qadar tilshunoslikda birmuncha uzoq surgan g'oyalardan bo'ldi. Shundang so'ng rus izlanuvchilari tomonidan "konsept" ga turli xil qarashlar hukm sura boshladi. Bu taxmiman XX asr oxiriga to'g'ri keladi. "Konsept" so'zining o'zi tilshunoslikda olimlarning unga lingvokulturologik yoki kognitiv yondashuvlari paydo bo'lishidan oldin mavjud bo'lib, bu so'z o'zbek, rus yoki boshqa tillarga Yevropa tillaridan, jumladan nemis tilida "konzept", ingliz va fransuz tillaridan "concept", hamda lotin tilidagi "conceptus"- "tushuncha" ma'nosi ostida o'zlashtirilgan. Agar ushbu so'zning ma'nolarini turli xil lug'atlarda ifodalangan mazmuniga e'tiborimizni qaratsak, tilning leksik tizimida uni qo'llab quvvatlovchi bir qator hosilalarini ham ko'rishimiz mumkin: ingliz tilida-concept, conceptual, conceptualise, conception va h.z.; rus tilida-konsepsiya, konseptualizasiya, konseptologizasiya, konseptualizm, konseptualist [3,16] va h.z; o'zbek tilida-konsept, konsepsiya, konseptual va h.z.

"Konsept" atamasi tilshunoslikda eski va shu bilan birga yangi tushuncha bo'lib, u S.A.Askoldovning 1928 yilda yozilgan "konsept i slovo" nomli maqolasida ko'proq so'zga bog'langan [2,269]. XX asrning o'rtalariga kelib esa "konsept" tilshunoslikda atama sifatida qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda tilshunoslikda "konsept" atamasiga ikki yo'nalish: – kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatdan yondashiladi.

Jumladan, A.P. Babushkin, N.N. Boldiryov, E.S. Kubryakova, I.A. Sternin va boshqalar kognitiv tilshunoslik bo'yicha olib borgan tadqiqotlarda "konsept"– bu ong birligi bo'lib, qabul qilingan bilim, erishilgan tajriba, inson xayoti faoliyatidagi natijalari, muayyan madaniyatga taalluqli tasavvur va bilimlar majmuasi sifatida qaraladi. O.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, B.R.Mengliev, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova kabi ko'plab o'zbek tilshunoslari tushunchaga ta'rif berganlar [10, 245]. Sh. Safarov kontseptsiyani «hozirda moddiy olamni idrok etish orqali idrok etilayotgan ob'ekt-hodisalar tushunchasining tug'ilishi, so'ngra bu tushuncha aqliy model - tushuncha sifatida shakllanadi va moddiy nom oladi» [9, 91]. D.U.Ashurovaning fikricha, kontsepsiya butun til madaniyati hamjamiyati yoki alohida til shaxsi uchun konseptual ahamiyatga ega bo'lgan murakkab psixik birlik, dunyo konseptual manzarasining tarkibiy qismidir [1, 55]. Lingvomadaniy tahlil "Sevgi" tushunchasining etnik xususiyatlariga qiziqishni belgilaydi. "Har bir etnik guruh dunyoni o'ziga xos tarzda, o'z madaniyati, dunyoni idrok etish prizmasi orqali ko'radi, shuning uchun har bir etnik guruhning dunyosi tasviri uning o'ziga xos dunyoqarash qarashlari, dunyoning yaxlit modelidir" [1, 56].

Ko'rinadiki, hozirgi vaqtda "konsept" atamasini ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan har xil izohlaganligi kuzatiladi. Biz mazkur ishimizda ularning aytgan fikrlarini birma-bir talqin etganda bu fikrimiz to'liq tasdiqlandi. Ulardan ba'zilarida konseptni "mantiqiy kategoriya" sifatida ta'riflansa [5,76], ayrimlarida esa "amaliy falsafa tushunchasi" tarzida qaraladi [5,87]. Yana boshqa birida "mental leksikonning birligi" shaklida talqin etiladi. Xususan, taniqli olim Y.S. Kubryakovaning "Kratkiy slovar' kognitivnix terminov" nomli lug'atida konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Konsept insonning bilim tajribasi, xotiraning amaliy mazmunli birligi, mental leksikon, konseptual tizim va til, inson psixikasi (ruhiyati)da aks etgan olamning barcha tasvirini bizning ongimizga

singgan va informasion tuzilishlardagi mental birliklar yoki psixik resurslarni tushuntirish uchun xizmat qiladi” [4,8]. Ye.S. Kubryakovaning boshqa bir maqolasida esa, “Konsept – mental tuzilma bo‘lib, u turli tarkibi va ko‘rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir”, deb ta’riflanadi [4,9].

V.A.Lukinning ta’rifi bo‘yicha konsept lotincha “conceptus”ning mazmuni yig‘ib oluvchi yoki o‘ziga ko‘plab shakllarni qamrab oluvchi va ularning boshlanishini “kurtak” deb talqin etilgan. “Urug‘doshlik” (negiz) etimologik paradigmasi konseptning ana shu belgisini yaxshiroq namoyon qiladi, agar biz uning lotincha antonimi bilan o‘zaro munosabatini aniqlasak, quyidagicha: konseptiv (kurtak yoki negiz hosil bo‘lishiga olib keluvchi) – kontraseptiv (kurtak hosil bo‘lishidan saqlovchi) kabi shakl yuzaga keladi [5, 10].


S.Neretinaning yozishicha, konseptda ajralib chiqadigan *kurtak* belgisi P.Abelyar dialektikasida XI asrdayoq shakllangan edi [7, 247]. P.Abelyarning fikricha, konsept–bu fikrni anglab olish *conseptio* formasidir, u *tushunchani anglab olishdan* ustunlik qiladi. Unda tushuncha (*intellectus*) idrok formalari bilan uzviy bog‘langan. Konsept oliy ruhning hosilasidir (*tinglovchining ko‘ngli ko‘tarilgan yoki ruhi baland* kabi), aqlning idroki yoki fikr-mulohazalarning bir qismidir, u fikr- mulohazalarni ijodiy aks ettirishga qodir. Bu termin(atama)ni u tinglovchi ko‘ngli yoki tinglovchi ruhi bilan juftlikda qo‘llaydi, bunda fikrning to‘liqligi unga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, P.Abelyar quyidagi ta’rifni beradi: konsept bu - tushunchalar yig‘indisidir, ular nutqda o‘zlashtiriladi, bu aqlning hal qiluvchi bosqichida u yoki bu predmetning uni anglatadigan fikr-mulohazalar bilan bog‘liqligidir.

Masalan, Vorkachev S.G.ning fikriga ko‘ra, kontsept "lingvistik ifodaga ega bo‘lgan va etnik-madaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoaviy bilim / ong birligi (yuqori ma’naviy qadriyatlariga)" [3, 51]. Konseptlarning mohiyati ularni “milliy mentalitet tashuvchisi bo‘lgan lingvistik shaxs bilan o‘zaro bog‘lashda”dir. Ya’ni, "konsept" nafaqat til bilan, balki u paydo bo‘lgan xalqning madaniyati bilan ham chambarchas bog‘liq.

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganidek, "konsept" yagona, umumiy qabul qilingan talqinga ega emas, har bir tadqiqotchi ushbu hodisaning yangi qirralarini kashf etadi.

"Sevgi" konsepti insonning asosiy hissiy tizimidan biridir. Hissiy sistema insonning eng murakkab nuqtalaridan biridir, chunki hissiyotlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va namoyon bo‘lishida deyarli barcha inson tizimlari - idrok, fiziologik reaksiyalar, intellekt, hissiyotlar va boshqalar ishtirok etadi. Shunday qilib, sevgi eng kuchli va murakkab tuyg‘ulardan biri deb aytishimiz mumkin. Olimlar ishq-muhabbat tushunchasiga turlicha talqin berishadi, biroq izohli lug‘atlarda "Love" va “Muhabbat” leksemalarining leksikografik talqini qiyosiy jihatdan bu tushuncha talqinining o‘ziga xos va umuminsoniy milliy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Lug‘at ta’riflariga ko‘ra (Oxford, Webster, Macmillan tomonidan berilgan) Sevgi konsepti quyidagi xususiyatlarga ega:

LOVE, [/lav/] – 1) deep affection or fondness; 2) sexual passion or sexual relations; 3) a beloved one; sweetheart (often as a form of address), b colloq. form of address regardless of affection [5, 541.]; 4) affectionate greetings (give him my love); 5) (often Love) a representation of Cupid. 6) (in some games) no score; nil [5, 470.]. The OED tried to draw a distinction, listing without stigma the sense "to have a strong liking for; to be fond of; to be devoted or addicted to" but stigmatizing the use that is simply synonymous with like as a frequent vulgarism in the U.S. [10, 613].

MUHABBAT, [arabcha -sevgi — 1) biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g‘oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan intim va kuchli tuyg‘u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi; Kimsaning kimsaga qalbdan berilish hissi; sevgi, ishq [6, 66]. 2) Tasavvufda Allohga yetishish («haqiqatga erishish»)ning asosiy vositasi [6, 907]; 3) Birovga, biron narsa yoki ishga berilish, moyillik tuyg‘usi, mehr [8, 66].

Anglashiladiki, “Love”ning lug‘at ma’nolariga ko‘ra, sevgi eng kuchli va qiyin tuyg‘ulardan biri deyishimiz mumkin. "Sevgi" konsepti sifatida turli lingvistik vositalar yordamida o‘rganish mumkin. Sevgi - bu qarama-qarshi tuyg‘u va bu ikki qarama-qarshi his-tuyg‘u mavjudligida namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillarida "sevgi" baxt bilan bog‘liq, uning farqlari faqat grammatik tuzilishda bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida baxtli «happy», hayot «life», millat «nation» va filmning oxiri «end» bo‘lishi mumkin, lekin sevgi leksemasi unday bo‘lmaydi. Shunga o‘xshash ma’noni etkazish uchun ingliz tilida so‘zlashuvchilar «happy in love» (sevgida baxtli) yoki «feel love and happiness» (sevgi va baxtni his qilish) iboralarini afzal ko‘radilar. Sevgi ishqibozlikdan tug‘iladi. Ushbu bosqichning muhim qismi uchrashuvdir hamda uning eng yuqori nuqtasi sevgi munosabatlaridir.

Fate had driven him seventeen years ago to set his heart upon this woman so utterly, that even now he had no heart to set on any other. (J.Galsworthy, In Chancery, part III, Ch I) – *Taqdir uni o‘n*

yetti yil oldin bu ayolga shunchalik ko'nglini qo'yishga majburlagan ediki, hozir ham boshqasiga yuragi yo'q edi.

Ehtiros asta-sekin sevish tuyg'usiga, keyin esa muhabbatga aylanadi.

She fell in love with that new neighbor of theirs and she decided to break off the engagement with John. – U o'sha yangi qo'shnisini sevib qoldi va Jon bilan munosabatlarni to'xtatishga qaror qildi.

Vaqt o'tishi bilan tuyg'u asta-sekin zaiflashadi va sevgi mehr bilan almashtiriladi. Bu ro'yxatga ehtiros tuyg'usini kiritmaslik mumkin emas. Ehtiros - bu odamning barcha his-tuyg'ulari, fikrlari va intilishlarini bo'ysundiradigan kuchli va doimiy ishtiyoq.

But the love that had taken such despotic possession of Bertha's heart could not be overthrown by any sudden means. (W. S. Maugham, Mrs. Craddock, ch. XX). – Ammo Bertaning yuragini shunday zolimona egallab olgan sevgini hech qanday to'satdan yo'q qilib bo'lmaydi.

"Sevgi" ma'nosiga ega frazeologik birliklarni ko'rib chiqishda bevosita va bilvosita nominatsiyalarni ajratib ko'rsatish zarur. "Sevgi" tushunchasining to'g'ridan-to'g'ri nominatsiyalari nominal, og'zaki birliklar bo'lib, ularning semantikasi quyidagi xususiyatlardan birini o'z ichiga oladi: "sevgi yo'naltirilgan nutq harakati, tuyg'u sifatida", "sevimli" va "sevish". Kontseptning bilvosita nominatsiyalari frazeologik birliklarda psixosomatik holatlar va sevgi tuyg'ularini boshdan kechirish bilan birga keladigan xatti-harakatlarning tasvirlarida taqdim etiladi. Masalan: "everlasting love" (abadiy sevgi) to'g'ridan-to'g'ri nominatsiya, "sheep's eyes" (qo'yning ko'zlari) bilvosita nominatsiya.

'I don't mind your knowing' he said. I'm fathoms deep in love with Kler'. – "Boxabar bo'lishingizga qarshi emasman", dedi u. "Men Klerni juda yaxshi ko'raman".

Lingvistik material tahlili sevgi modeli ona tilida so'zlashuvchilar ongida madaniy o'ziga xosliklardan kelib chiqib qurilganligini tasdiqlaydi. "She was filled with love" (u sevgiga to'la edi), "her feelings overflowed" (uni his-tuyg'ulari to'lib-toshgan) frazemalari "sevgi ozuqadir", "sevgi - oziq-ovqat", "u muhabbatga intiladi" yoki "u muhabbatga chanqoq" kabi boshqa madaniy o'ziga xos narsalar bilan bog'lanadi.

Taqqoslanayotgan tillarda sevgi olov tasviri, his-tuyg'ularning o'zgaruvchanligi bilan taqqoslanadi: to flare up with passion - (English) "to be on fire, catch the fire, take the fire"; (Uzbek) sevgi o'ti, muhabbat uchquni, sevgi alangasi. O'zbek xalqining o'ziga xosligi shundaki, ishqning namoyon bo'lishi yoki ko'rinishi inson qalbida, ichki kechinmalarida o'z aksini topib, o'ziga xos ruhiy holat – "ko'ngil" (soul) orqali uzatiladi: **ko'ngli bor, ko'ngil bermoq, ko'ngil bog'lamoq, muhabbat qo'ymoq, ko'ngil qo'ymoq, ko'ngli tortmoq, ko'ngliga qo'l solmoq, yuragiga qo'l solmoq, qo'yniga qo'l solmoq, ko'nglini ovlamoq, ko'nglini topmoq**, ammo ingliz tilida qalb va muhabbat tuyg'usini bog'laydigan barqaror ifodani topish amri mahol [10, 245].

"Sevgi" konseptining ingliz va o'zbekcha talqini uchun umumiy bo'lgan narsa bu tushunchani sinonimlar orqali semantik ifodalash tendentsiyasidir. O'zbek tilidagi "sevgi" tushunchasini izohlashda qo'llaniladigan sinonimik qator "muhabbat, mehr, hissiyot, ishq, ehtiros, mayl" leksemalari bilan, ingliz tilida esa "love" affection, adoration, fondness, devotion, passion, like kabi leksemalari bilan ifodalanadi. Har ikki tilda ham "love-sevgi" tushunchasini izohlashda eng keng tarqalgan birlik "his", "mehr-muhabbat" – "affection" leksemasi hisoblanadi.

Shunday qilib, tadqiqotning ushbu yo'nalishlarining umumiy g'oyasi shundan iboratki, sevgi tafakkur va madaniyatning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Sevgi tushunchasi "madaniyat asosini" o'rnatadigan dunyoqarashning umuminsoniy hamda hayot mazmuni bilan bog'liq asosiy ma'naviy qadriyatidir. Xulosa qilinganda, "sevgi" tushunchasining ingliz va o'zbek frazeologik birliklari ushbu tillarda so'zlashuvchilarning madaniy xususiyatlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarning katta guruhini ifodalaydi.

Ingliz tilida so'zlashuvchilar oshiq insonning xatti-harakatini mast, ruhiy kasal odam bilan solishtirish mumkin, deb hisoblashadi. Sevgi - bu manfaatsiz va beg'araz tuyg'u, ya'ni azob-uqubat yoki og'riqli holatga qaramay, g'amxo'rlik, e'tibor, sevgi ob'ektini qadrlash va hurmat qilishdan iborat. Ingliz tilidagi "Sevgi" leksemasi ma'nosi bilan solishtirganda " o'zbek tilidagi sevgi" hisob-kitob ulushiga ega bo'lgan tuyg'udir, lekin u xudbinlik motivlarini o'z ichiga olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане //Хорийй filologiya: Til, ta'lim, adabiyot.- №3, 2016.-S.54-60.
2. Асколдов С.А. Концепт и слово//Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. -М.: Языки славянской культуры, 1997.- С.267-280.
3. Воркачев С.Г. Лингвокультурная концептология и её терминосистема // Дискуссии. Политическая

лингвистика - Краснодар. - Россия. №3. (49), 2014. - С.16.

4. Кубрякова Е.С. Языковое сознание и языковая картина мира // филология и культура. Материалы 2-й междунар. конф. Ч.3. – Тамбов: Изд- во. Тамб. ун-та, 1999. – С. 6-13.

5. Лукин В.А. Концепт истины и слова истина в русском языке. // В. Я. 1993. № 4. – С. 63-85.

6. Muhiddinova Sabohat Akhmadjanovna 2021. Etymology of phraseological units in English and Uzbek languages. European Scholar Journal. 2, 3 (Mar. 2021), - P. 51- 53.

7. Neretina S.S. Slovo i tekst v srednevekovoy kul'ture. Konseptualizm Abelyara: – M.: 1995. – 328 s.

8. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.

9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. - 91 b.

10. Tadjieva M.F. Comparative analysis of phraseological units of the concept "love" in the English and Uzbek languages // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.6 Philological sciences. - P. 244-249. <http://berlinstudies.de/>

UO'K 808.5

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TURLI SOHALARDA NEOLOGIZMLARNING KIRIB KELISHI TAHLILI

M.M.Tursunov, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

B.X.Jalilov, Buxoro davlat universiteti magistranti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy o'zbek va ingliz tillari ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat. Ushbu tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan "Neologizmlar" deb nomlanuvchi universal atama bilan bog'liq. Globallashuvning ta'siri va bu jarayonda tilning tutgan o'rni tufayli zamonaviy tilshunoslikda bu mavzu ko'proq muhokama qilinmoqda.*

Kalit so'zlar: *neologizmlar, ijtimoiy soha neologizmlari, siyosiy soha neologizmlari, iqtisodiy soha neologizmlari, fan-texnikaga oid neologizmlar, sport sohasi neologizmlari*

Аннотация. *Целью данного исследования является выявление сходств и различий между неологизмами в современных средствах массовой информации узбекского и английского языка. Это исследование связано с одной из наиболее актуальных проблем современной лингвистики - универсальным термином, известным как "неологизмы". Из-за влияния глобализации и роли языка в этом процессе, эта тема все чаще обсуждается в современной лингвистике.*

Ключевые слова: *неологизмы, неологизмы социальной сферы, неологизмы политической сферы, неологизмы экономической сферы, неологизмы научно-технической сферы, неологизмы спортивной сферы*

Abstract. *The purpose of this study is to identify similarities and differences between neologisms in modern mass media of the Uzbek and English languages. This research is related to one of the most actual problems of modern linguistics, the universal term known as "Neologisms". Due to the impact of globalization and the role of language in this process, this topic is popularly discussed issue in modern linguistics.*

Key words: *neologisms, neologisms of the social sphere, neologisms of the political sphere, neologisms of the economic sphere, neologisms of the scientific and technical sphere, neologisms of the sports sphere*

